



Akrom MALIK

HALQA

Qissa

Toshkent – 2020

BIRINCHI BOB

... Hind ummonidan suzib borayotgan kemandi nomi «Urvatul vusqo» bo'lib, yo'lovchilar bu kemaga Indoneziya bandargohidan chiqishib, Saudiya sohillarida tuproqqa tushadilar. Musulmon shirkatiga tegishli kema ming nafar yo'lovchini sig'diradi. Ular ichida har toifa insonlarni uchratish mumkin. Biroq kemandi qat'iy qoidasi bor: unda Islomiy axloq hukm suradi. Kemaga chiqishda bu qoida har bir insonga tushuntiriladi. Ochiq kiyinish, ajnabiy musiqalar tinglash, behayo odatlar ta'qiqlangan. Sarxush qiluvchi ichimliklar ichilmaydi, tamaki chekilmaydi. Kemada ixchamroq masjid bor. Kemandi bo'lmalari har bir oila uchun alohida.

G'ayridin ayol yo o'zi, yo eri bilan chiqa oladi. Muslimalardan hamisha mahramlari bo'lishi talab etiladi. Istisno holatlar ham bor, buni kema rahbariyati hal qiladi.

Erning bo'yi baland ammo ozg'in, inglizlarga xos yuzi oq –sariq, sochlari qizg'ishtop –jingalak, burni uzun, yonoqlari turtib chiqqan, sepkilli, ko'zlari ko'kish rangda. Ayolning ham haqiqiy ingliz qiyofasi bor: sochlari jigarrang, ko'zlari moviy, peshonasi keng, qirraburun, iyagi biroz oldinga cho'zilgan, istarali ayol. Ko'zlari tagidagi sepkil uni mehribon ko'rsatadi. Erning ismi Jozef, ayolning ismi Anna. Jozef soqol qo'ygan. Qulog'idagi sirg'asini kemada yechdi. Anna esa ko'kragini yopib, uzun libos kiydi, musulmalar ichida ajralib qolmaslik uchun, aniqrog'i, ularning hurmatini saqlash niyatida oq, zarlangan, sariq gulli ro'molni boshiga yengil tashlab yuribdi.

Jozef va Anna ikkisi ham jurnalist. Ular ishlaydigan axborot agentligi o'z nashrlari, tele va radiokanalari hamda internet saytlariga ega.

Axborot agentligi xalqaro maqomga egaligi bois nomi «Blue sky's sight» (tarjimasi «Moviy samo nigohi» bo'lib, qisqartmasi BSS) dir. Jozef va

Anna BSS telekanalining «Maxsus loyihalar» bo'limi xodimlari. Jozefning taklifi bilan «Islomiy ruhiyat» degan loyiha tasdiqdan o'tdi. Ikkisi ayni paytda kemada musulmonlar bilan yaqindan tanishishlari kerak. Musulmonlar nima uchun dinni, aynan Islomni tanlaganlarini bilishni istardilar. Ular kamera, ovoz yozish uskunalarini tayyorlashdi. Kattaroq xonani ijara oldilar. Kema rahbari Mas'ud Hasandan tasvir ishlari uchun ruxsat so'radilar.

– Islomiy ruhiyatni anglay olsangiz, bu dinni qabul qilasiz, – dedi Mas'ud Hasan ularning loyihasi haqida bilgach. – Chunki o'zini bilgan odam uchun boshqa yo'l qolmaydi.

– Biz dindor bo'lish uchun kelmadik, – dedi Jozef. – Biz musulmonlardagi radikallik sabablariga qiziqamiz. Men Islom tarixini o'qidim. Qur'onning tarjimai bilan tanishdim. Diningiz shartlari, talablari haqida o'rgandim. U bir din, xolos. Musulmonlar nima uchun terrorni odat qilishlari tushunarsiz. Payg'ambarlaringiz davrida, undan keyin ham Islom siyosiy qudrat edi. Muhammadning faoliyati urushni, qon to'kishni taqozo qilgan. Biroq hozir musulmonlar yana nimani istashlari noaniq. O'shani aniqlaymiz.

– Biz teran fikrli insonlarmiz, – dedi Anna. U Jozefning qaysidir gaplari Mas'ud Hasanga yoqmaganini sezgandi. – Masalaga xolis qaraymiz, janob Mas'ud. Biz na Islomni, na nasroniylikni ulug'lamaymiz. Biz o'rtada ikki tomonni kelishtiramiz. Dunyoga Islomiy ruhiyatni bildiramiz. U juda yomon emas, menimcha. Qo'rqishga ham hojat yo'q. Yaqindan tanishsang, ajdar ham vahshiy emasligini tushunasan.

Mas'ud Hasanning yoshi qirqdan oshgan. Jussador. Salobatli. Yuzi tabassumdan yorug'. Oq oralagan soqoli, sochi qalin. Millati malay. Ko'zi qiyiq. U musulmon oilaning farzandi. Otasi katta tijoratchi edi. Tinch va Hind ummonidan Amerikaga, Afrikaga, Saudiya, Yaman va Amirliklarga ulgurji mahsulot yuborardi. Kenja o'g'li Mas'udga hamma bolalari qatori ilm berdi, dinni tanitdi, ulg'aygach, oliygohda o'qitdi, Mas'ud Misrdagi Azhar

oliygohining Kuala Lumpur bo'limini bitirdi. Oliy ta'limdan keyin otasi bilan maslahatlashdi. Shu kemani sotib oldi. U hozir jurnalistlarning so'zlarini diqqat qilib tinglagach, jilmaygancha dedi:

– Marhamat. Musulmonlar ila suhbatlashing. Sizlarga biror narsani uqtirmayman. Ishingizni yakunlagach, fikrlaringiz, xulosalaringiz bilan bo'lisharsizlar, inshaAlloh.

Mas'ud Hasan Anna uchun yana bir bo'lmani berdi. Anna musulmalar bilan alohida suhbatlashadigan bo'ldi. Bu joyga bir necha stullar qo'yildi. Tasvirga olish va ovoz yozish uchun to'la sharoit hozirlandi.

– Saudiya sohillariga yetib olgunimizcha yigirma kun suzamiz , – dedi Anna o'ziga o'zi gapirgandek. – Bu vaqtda ko'p ishga ulgurish mumkin.

– Sizlar musulmon o'lkalarida yashab ko'rishingiz kerak, – dedi Mas'ud Hasan. – Bu suhbatlardan ham haqiqatlarni bilib olasiz, inshaAlloh, biroq islomiy turmush chiroyini uning ichidan ham his qilish lozim.

– Loyihamizning ikkinchi qismida bu nazarda tutilgan, janob Mas'ud, – dedi Jozef. –Kemangizdagi musulmonlarning suhbatlari hozircha biz uchun kifoya.

... Tushdan keyin Jozefning studiyasiga ellikdan oshiq ko'ngillilar yig'ilishdi. Ularning har biri o'z hikoyasiga ega edi.

– Hurmatli musulmon do'stlarim! – dedi Jozef. – Taklifimizni yerda qoldirmaganingiz uchun rahmat. Sizlarga tarqatgan e'lonnomamizda aytganimizdek, biz Islom jozibasini o'rganamiz. Odamlar nima uchun Islom yo'lida jonlarini ham berishdan qaytmaydilar? Islomning jozibasi nimada va nima uchun dunyoning eng zamonaviy odamlari Islomga qiziqadilar? Yana bir savolimiz bor. Bu oshkora aytilmaydi. Lekin men aytaman. Islom yangi – yangi odamlarni o'ziga jalb etsa -da, musulmonlarni ham yo'qotadi va Islomga ashaddiy qarshi kishilar bor. Men ularni qudratli hukumat vakillari orasida ham ko'rdim. Ular Islomdan hayiqadilar yo nafratlanadilar. Nima uchun? Buning javobini ularning o'zlari ham bilmaydilar. Aytayotgan

javoblari javob o'rnida emas. Qandaydir shaxsiy va tor xulosalar. Bu ongli yechim sanalmaydi. Sizlarning haqiqatga asoslangan hikoyalaringiz bizga to'g'ri xulosa qilishda yordam beradi, deb ishonдик.

Jozef nutqining shu nuqtasida bir nafas to'xtadiyu, tinglovchilariga bir qur nazar soldi. Hammalari oq libosli kishilar bo'lib, ko'ylaklari tizzasiga tushadi. Aksari musulmonlar soqol o'stirishgan ammo irqi ham, millatlari ham turlicha. Ularni birlashtirgan xususiyat chehralaridagi yorug'lik edi. Bu yorug'lik Jozefga ham muloyimlik, ham kishini qo'rqitadigan haybat o'laroq tuyuldi. Ko'zlarida rahmdillik porlaydi. Bu Jozefni ilhomlantirdi.

– Sizlar men haqimda shuni bilishingizni istardimki, men Islom yoki musulmonlar himoyasi uchun kelganim yo'q. Men Insonlar himoyasi uchun keldim. Chunki Islom ham odamzodning hamma g'oyalari qatori nuqsonli, deb bilaman. Chunki uning ichida ham o'zaro qarama – qarshi guruhlari bor. Xususan, sunniy va shiiylar markaziy raqiblar hisoblanadi. Bu ikki yirik guruh ham bir necha o'nlab tarmoqlarga ega. Haqiqatan, murakkab. Shu qadar murakkablikka qaramasdan men bu loyihani ilgari surdim.

Jozef bir lahza nimanidir esladi, fikrlarini tartiblab olib, davom etdi:

– Tarqatilayotgan axborotlarning umumiy manzarasida musulmonlarning huquqlari ko'p bora poymol etilyapti, eng ko'p qo'poruvchilik ham Islom nomidan bo'layotir. Nima uchun? Shu savollarga qoniqarli javob izlamoqdaman. Darvoqe, – Jozef nimanidir unutib, endi eslagandek jilmaydi. – Yoshim o'ttizda. Xotinim Anna o'ttiz ikkida. U bilan qiziqishlarimiz bir xil chiqqani uchun yaqinda turmush qurdik. Sizlarda ayollarning erkaklar bilan suhbatlashishi ta'qiqlangan ekan. Bu qonunlaringizni hurmat qilaman. Xotinim bir ayol sifatida musulmalarning ichki ma'naviy olamiga qiziqyapti. Suhbat uchun ijozat berganingiz uchun Sizlardan behad minnatdormiz. Marhamat, ushbu stulga orangizdan bir kishi kelib o'tirsin. Biz uning hikoyasi bilan loyihamizni ochamiz.

Tinglovchilar biroz shivirlashib, maslahatlashishgach, ularning ichidan o'rta yoshli kishi o'rnidan turdi...

... Anna musulmalar qarshisida biroz hayajonlandi. Xonani to'ldirgan musulmalarning ko'pi boshdan oyog'iga qadar o'rangan, faqat ko'zlari ko'rinadi; boshqalarining yuzlari ochiq bo'lsa -da, bo'yinlari, quloqlari, peshonalarini ham ro'mol bilan yashirib olishgan, liboslari keng, deyarli qomatni bildiradigan kiyim kiygan biror ayol ko'zga tashlanmadi.

«Ular moda balosidan uzoqda», – deb o'yladi Anna beixtiyor. U Yevropa, Amerikaning restoranlarida, ofislarida, bayramu anjumanlarida qatnashgan, o'z yo'nalishi bo'yicha Stenford universiteti bakalavri, nazarida, o'rangan bu ayollarning qandaydir qudrati bor edi. Bu qudrat unda tortinish hissini uyg'otdi. Anna bu tuyg'uni oxirgi marta qachon tuyganini eslolmadi. Hech qachon birovning oldida majburiyat sezgan emas. U hamisha o'zi xohlaganidek kiyindi, o'z xohishicha yashadi.

Biror istagiga to'siq qo'ymadi. Musulmalar bilan ko'rishganda ularning jahli chiqmasin yoki ularning qadriyatlariga behurmatlik bo'lmasin uchun Anna, badaniga yopishib tursa -da, uzun libos kiydi, sochining yarmini ko'rsatsa -da, boshiga ro'mol o'radi, lekin bu holati ham unga muslima ayollarning qarshisida erkin turib, so'zlashiga yetarli emasligini u hozir tushunib qoldi. Iffat pardasi bilan ihotalangan musulmalar qoshida Annani xijolat qilgan hissiyotning nomi, yoddan chiqarilgan Hayo edi. Shunday bo'lsa -da, u o'zini tutib, so'z boshladi:

– Assalamu alaykum, aziz musulmalar! Sizlarning qarshingizda nutq irod etish mendan iroda talab etyapti, – qizarinqirab kuldi Anna. – Men G'arb yuragida ulg'aygan ayolman. G'arb ayollarining dunyosi menga ravshan. O'zim shu dunyodanman. Sizlarni, aynan, muslima ayollarni zulmat ichida, deb ta'riflaydigan dunyodan men noroziman. Bilasizmi, nima uchun?

Musulmalar Annani qiziqish bilan tinglayotgan edilar.

– Bilasizlarmi, nega? – savolini takrorladi Anna. – Ayol zoti zulmatda qolishi uchun bu dunyoga kelmagan, ayol dunyoni zulmatdan qutqarish uchun yaralgan. Ayol qaerga bormasin, u o'sha makonni nurga chulg'asin. U shu qadar kuchli bo'lsin! Muslimalar Ayol! Ularni zulmat qo'ynida qoldilar, deyish Ayol sha'niga tuhmatdir. Men shunday hisoblayman. Bilasizmi, men feminizmga moyil ayolman. O'zimni tom ma'noda feminist, deya olmasam - da, Ayol sha'ni, huquqini yuqori qo'yaman. Ayolga mensimay boqishlariga toqatim yo'q. Sizlar mana shunday chodralar ichida, er va farzand xizmatida qolib ketgan bo'lsangiz -da, Ayollik hurriyatingiz uchun biror imkon topishingizga aminman. Ayollik hurriyati, deganda men Ayolning hayotdan rozi bo'lib yashash erkini tushunaman. O'zingiz istagan kasbni egallash, bo'sh vaqtni maroqli o'tkazish, Yer sharining go'zal maskanlarida dam olish kabi nuqtalarda bu erkni his etish mumkin.

Muslimalardan ba'zilar bu nutqdan ta'sirlana boshladi. Annaning so'zlarida joziba bordek tuyuldi ularga.

– Sizlar ergashadigan Muhammad payg'ambarni ham ayoli Hadicha qo'llagan ekan. Erini payg'ambar, deb ishongan. Muhammad o'z yo'liga ishonib qadam bosishi uchun hamma sharoitni tayyorlagan. Makka aristokratiyasi, oligarxiyasi ichida Hadichaning mavqei baland bo'lgan. Muhammadga Hadichaning mavqei ijobiy ta'sir bergan, albatta. Bu bilan nima demoqchiman? Ayol Islom dinida bo'lsa ham, u hamisha yorug'likni topa oladi, zulmatda qolib ketmaydi, demoqchiman. Shu fikrimni isbotlash maqsadida «Islomiy ruhiyat» loyihasiga qo'shildim. Erim Jozef bu loyiha muallifi, – Anna proektor orqali devorga tasvir tushirib, Jozefning rasmini ko'rsatdi.

– Sizlar bilan suhbatlashaman. Istasangiz, yuzingizni ekranda ko'rsatmaymiz. Siz menga ayolning Islomda bo'lishi unga qanday qulaylik yoki noqulaylik tug'dirishini aytib berishingizni istardim. Marhamat, kim birinchi bo'ladi?

Muslimalar bir necha on sukut saqlashdi, o'zaro shivirlashib nimanidir maslahat qilishdi. Keksaroq ayol o'rnidan turdi.

– Men boshlab beraman, – dedi Annaga.

– Marhamat, bu yerga keling! – Anna o'rtaga qo'yilgan stol va stulga chorladi. Stolda orxideya guli, shisha idishda ichimlik suvi va finjon bor edi.

– O'zingizni tanishtiring, iltimos, tasvir olinyapti, ovoz yozilyapti, – dedi Anna u muslimaga.

– Olamlar Robbisi Allohga hamd aytaman. Uning Rasuli, Elchisi, suyukli nabiymiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamga, oilalariga, ashoblariga salom va salovotlar yo'llayman. Allohning ismi bilan so'zimni boshlayman. Sizlarga Allohning salomi, rahmati va barokatini tilayman, ey muslima opa-singillarim! Qadrli Anna! Go'zal nutqingiz uchun tashakkur. Go'zal tarbiyangiz uchun sizga rahmat. Shijoatingiz sizga xayr keltirsin. Bu shijoat sizni Haq yo'lga boshlasin! Mening ismim Hojar. O'zim Malayziyada yashayman, – deb so'z boshladi Hojar xonim.

Xonimning ovozi sehrli edi, go'yo. Mayin, ayni paytda qat'iy. Qadam bosishlari, o'tirishlari, har bir harakatlari viqorli edi. Anna unga qarab, bunday joziba davlat tepasida o'tirgan prezident va bosh vazir xonimlarda ham uchramasligini ichida tan oldi. To'g'ri, Britaniya qirolichasi Yelizaveta xonim bilan bundan besh yil oldin ko'rishgandi. Qirolicha yetimlarga xayriya tadbiriga o'g'li Charlz bilan kelgan edi. Anna qirolichani yetimlarni erkalab turganida yoniga yaqinlashdi. So'ng zoti oliyalariga xayrli kun tiladi.

Qirolicha unga qarab mayin jilmayib, «Xayrli kun!» – dedi. «Siz bilan suhbatlashsam, maylimi?» – so'radi Anna shoshib. «Mayli, qizalog'im. Qanday savollaring bor?» – iltifot qildi Qirolicha. Shu payt Qirolicha xodimlaridan biri paydo bo'ldi. «Kechirasiz, yosh xonim. Zoti oliyalarining dasturida siz bilan suhbat yo'q», – dedi u. «Jonatan, qizga ruxsat ber. Zerikib turgandim. Savolini beraqolsin», – dedi Yelizaveta xonim.

«Ismim Anna, zoti oliyalari. Yoshim yigirma yettida. Men hamisha Yer yuzidagi eng donishmand Qirolicha bilan, ya'ni Siz bilan suhbatlashishni orzu qilganman», – dedi Anna hayajoni toshib.

«Muhim savolingni beraqol, Anna, – dedi Qirolicha. – Yoshim to'qsonda. Men ham ba'zida charchayman».

«Afv eting, zoti oliyalari, – o'zining ezmaligidan uyalib ketdi Anna. – Sizningcha haqiqiy Ayol qanday bo'lishi kerak?»

Qirolicha Annaga tabassum bilan: «Qizalog'im, haqiqiy Ayol qirolichalardek e'zozga loyiq bo'lishi kerak. Hamma qirolicha bo'lolmaydi, tabiiy. Biroq qirolichalarning axloqini o'rganishi mumkin. Yevropada qirolichalar, malikalar juda ko'p. Ularni nasabidan ko'ra, sulolasining qat'iy qonunga aylangan Axloqi chinakam qirolichaga aylantiradi. Siz yoshlar esa axloqni mensimaysizlar».

Britaniyaning e'zozli Onasi bilan bo'lgan suhbat shu. Anna bu qisqa suhbatdan benihoya ta'sirlangan edi. Shundan keyin u hayotini tartibga solishga ko'p intildi.

O'zini pok tutishga harakat qildi. Dugonalaridan farqli o'laroq erta turmush qurdi. Jozefdagi jiddiyat uni o'ziga jalb etdi. Yonib sevmasa -da, eriga qalbdan bog'landi. Oralaridagi iliq mehrni o'zlari yaxshi his etardilar.

Anna Hojar xonimga boqib, uning so'zini tinglab, beixtiyor Qirolichani esladi, xayolini shu xotiralar yashindek yoritib o'tdi.

– Anna, o'zing bo'lmagan joy haqida gapirish qiyin, – davom etdi Hojar xonim. – Boshingdan o'tmasa, iztirobni ham, baxtni ham tanimaysan. Muslimalarga ayol, deb qarayotganingiz juda yaxshi. Lekin bu ayollarni Islom sharaflagan, ular o'zlarini emas, ularni Islom zulmatdan nurga chiqargan, deb fikrlasangiz, eng to'g'risi shu bo'ladi, inshaAlloh. Zotan, Islom muhit joriy etgan majburiyat emas, G'arbda shunday fikr bor, Islom – sof insoniy fitratning sog'lom ehtiyojidir.

Anna so'zlayotgan bu ayol oddiy ayol emasligini tushunib yetdi.

IKKINCHI BOB

... – O‘z nafsini yaxshi bilgan musulmon Islom haqida gapirishdan hayo qiladi, – dedi Allohga hamd, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga salovat aytib, salom berganidan keyin Jozefning birinchi suhbatdoshi. – Kimdan uyaladi, deysizmi? Allohdan uyaladi! Zotan, Islom olamlar Robbisi Allohning insoniyatga tushirgan Dasturidir. Bu Dasturni musulmonlar amalga joriy etamiz, shu asosda yashaymiz, deb qabul qildilar. Biroq bu va‘da ustida tura olmagach, inson Islom haqida so‘zlashga ham hayo qiladi. Shunday: o‘zini tanigan mo‘min Islom haqida, Allohning dini haqida iztirobsiz, azobsiz gapira olmaydi. Bu Alloh oldidagi javobgarlik, mas‘uliyat hissidir. Jozef bu jo‘shqin muqaddima qarshisida ta’sirlanganini sezdi. Kishiga g‘amgin boqadigan, yuzlari dumaloqqa moyil, qizg‘ishtob soqoli qalin, ko‘zlari katta –katta bo‘lsa -da qiyiq, yoshi elliklarga yaqin, o‘rtabo‘ydan balandroq bu odam hammani bir nafasda jalb etdi. Ilmi ekanligidan uning qiyofasining o‘zi ham xabar berar edi.

– Ismim Abdulloh Yorqin, uyg‘urman, kasbim kompyuter dasturchisi. Kiberjinoyatga qarshi kurashaman. Mening hikoyam juda olisdan boshlanadi. Uyg‘uristonning qadim shahrida tug‘ildim. Bu shaharni Xo‘tan, deb ataydilar. Muazzam turkiylarning ming yillik ertak, afsona va dostonlari bor. Baxshilar ularni kuylab tugata olmaslar. Do‘mbiralarimiz sayrasa butun olam sukut ila tinglaydi. Ular ertak emas, afsona emas, doston emas, yuragi qon, yuzlari o‘z qonidan alvon xalqimning faryodi, ohu dodi, orzu – armoni, niyatu shonidir. Bu qadim ohanglarda yangraydigan Koshg‘ar, Bolosog‘un, Yorkent kabilar afsunli qal‘alar qatori Xo‘tan ham madh etilgan. Bizdan g‘arbda yashaydigan qondoshlarimiz quyosh Xo‘tandan porlaydi, deb yozishgan. Ona tuprog‘imni qaysi so‘z bilan ta‘riflashni bilmayman. Garchi men bu o‘lkani to‘rt yoshimda tark etsam -da, Xo‘tan bog‘larining tong nasimlari keltirgan iforlari yodimda. Xo‘tanning osmoni yorug‘.

Tuproqlari qora, qizg'ish, oltinrang, kumushrang! Hidlasang, xush bo'y taraladi. Bu tuproqqa tayoq qadasang, kurtaklaydi. Bog'larimizdagi mevalar jannat mevalaridek bo'lsa, ne ajab. Qur'onda Alloh aytadi: «lymon keltirib, solih amal qilganlarga jannat xushxabarini bering! U jannatning tagida anhorlar oqib turadi. U yerda biz jannat ahliga mevalarni rizq qilib beramiz. Jannatiylar bu mevalardan yeb ko'rib, «Bu mevalardan ilgari ham yeganmiz», – deyishadi. Ha, ularga ana shunday o'xshash rizqlar beriladi». Bu Baqara surasidan bir iqtibos edi. Men o'ylaymanki, Xo'tan ahli jannatga kirgan mo'minlar jannat mevasini tatib ko'rib, Yer yuzidagi makonlarini, bog'larini yod etsalar, ne ajab! Suruvlarimiz, uyurlarimiz ko'p. Podalarimiz barakali. Xalqimiz mehnatkash, kamsuqum. O'z hamshaharlarimni ko'rib qolsam, yugurib borib peshonasidan o'pgim keladi. Peshonalari ajinli, qo'llari qadoqli, egnida beqasam to'n, belida qiyiq va pichoq, ko'ngli buloq suvidek musaffo xalqim bor. Har yaxshi so'zga oshufta, aldashni bilmaydigan, bir muhtojni ko'rsa, vujudi ila yordamga shay, qo'nog'ini uch kun emas, o'ttiz kunlab siylaydigan xalqimiz. Bir so'kish so'zni bilmaydi, biror –bir nomahramga tik boqmaydi, jufti halolini go'shangada taniydi, o'g'illarini vorisim, qizlarini nomusim, deydi. Azon ovozini eshitsa, har ne ishini tashlaydi.

Masjidlarini, madrasalarini qanday vashf etay! Masjidlarining devorlari oltinrangda tovlanadi. Gumbazlarida kabutar, musicha, qaldirg'ochlar yashaydi. Minoralari esa bulutlarga sir aytayotgandek. Minoralari muazzin sasini xalq qulog'iga, qulog'i emas, qalbiga yetkazayotganidan baxtiyor! Masjid hovlilarida rayhon isi taraladi. Atirgul hidi ko'ngilni shodlantiradi. Tasbih gullari ochilib, go'yo «Subhanalloh!» deb har ne nuqsondan pok Allohni yod etadi. Masjid yo'laklariga g'isht terilgan. Ayvonlaridan fayz gurkiraydi. Naqshinkor ustunlarida qiroatlarning sasi jilva etadi. Mehroblarida esa nur charaqlaydi. Xonaqohlarida ixlos va sidq ufuradi. Imomlari taqvodan aziz, muazzini ibodatdan sharafli. Qavmi boshini

sajdaga qo'yganda qalblarda Robbisiga taslimiyat va muhabbat to'liqinlanadi. Bu mening ona tuprog'im, Xo'tandir. Ming nadomatlar bo'lsinki, to'rt yoshimda bu jannatni tark etdim. Zotan, oilamiz bilan o'z yurtimizdan qochishga majbur edik. Otam fizika muallimi edi.

U fanni yaxshi bilardi. Davlat idoralarida, chet davlatlarda tanishlari ko'p edi. Xitoy zulmi oshib borgani sayin u o'z oilasini, jonini, iymonini, molini qutqarish uchun avvaldan hijrat xayolida yurgan. Xitoy askarlari Xo'tanga bostirib kulgach, vaziyat qo'ldan ketgani ma'lum bo'ldi. Esimda, otam yarim tunda safar hozirligini ko'rarkan, onamga bunday dedi: «Azizam, Xitoy yurtimizni bosib oldi. Biz vatanni bosqinchiga berib qo'ydik. Endi quvg'indi bo'lamiz yo chuvrindi! Bu yerda qolsak, chuvrindimiz. Qochsak, quvg'indimiz. Farzandlarimiz kelajagi uchun ham, iymon va Islomimizni saqlash uchun ham qochamiz. Tanishlarim bilan gaplashib qo'rganman. Bugun Qirg'izga o'tamiz. U yerdan Kobulga yo'l olamiz. Kobuldan Turkman orqali Mashhadga, Mashhaddan Turkiyaga yetib olamiz. Bundan keyin yo Turkiyada, yo Ovropoda muhojir bo'lamiz. Chunki Qirg'iz, Turkman Sovetning qo'lida, Afg'on urush ichida, Eron bizga bir qadar begona, u yerda ham vaziyat og'ir. Azizam, yo'limiz mashaqqatli, sabrli bo'lamiz! Onam otamga behad itoatli edi. Umrim davomida Onamni hamisha Otam qarshisida itoatda ko'rdim. Biror marta noligani esimda yo'q. Ochman, non ber, demadi Onam. Tilidan chiqqan kalomi: «Siz nima desangiz, shu» bo'ldi. Shuning uchunmi, biz farzandlar shuncha ko'ch – ko'ch, shuncha qoch –qoch ichida na qo'rquvni, na bezovtalikni sezmadik. Hijrat paytida oilada ikki farzand bor edi. Akam Solih va men. Ota –onam tongda tayyorgarlikni tugatishdi. Ikkisi namoz o'qishdi. Uzoq duo qildilar. Keyin ot aravaga chiqib, tong qorong'usida Qirg'iz chegarasiga yo'l oldik. Otam baquvvat inson edi. Miltig'i bor edi. Barcha yuklarimiz ikki ot aravani to'ldirdi. Onam va ikki o'g'il uchinchi aravada edik. Otam birinchi aravani boshqarib borardi. Uch kun tinmay yurdik. Alhamdulillah, bexatar holda

chegaraga yetib oldik. Chegaraning narigi tomoni Qirg'iz yurti. Yuklarimizni yengil tekshirishdi. Otam chegara noziriga ko'p pul berdi. Yurtdan qochayotgan bir biz emasdik. U paytlarda chegaralarga hozirgidek qattiq qaralmasdi. Yo'lini topsang, xorijga o'tish oson edi. Shu tariqa, eson –omon Qirg'izga o'tdik. Bizni otamning qirg'iz do'sti Baxtmurod kutib turgan ekan. Otam u bilan quchoqlashib, ko'rishdi.

– Qudayg'a shukur, o'tip alding'iz, usta, sizin ko'ren kung'a xam jetdiq, Qudayg'a ming shukur, – dedi u quvonib.

Ular o'zaro suhbatga kirishdilar, otam aravada, Baxtmurod u kishiga baqamti xachirida yurib, gaplashgan ko'yi ketaverdik. Bu joylar tog'li ekan. Tepaliklar, daraxtlar ko'p. Qishloqlar qirlar, xarsang toshlar ichiga sochilib ketgandek. Qirg'izlarning ko'zi qisiq, xitoylarga ham o'xshab ketardi. Lekin kulib turishi, bag'ir ochishi xitoydan farqli edi, albatta. Xitoy mening bola tasavvurimda vahshiy maxluq edi. Otam xitoy bosqinchilari, deb gapirardi. Ovozida bir nafratni payqardim. Go'dak ongimga ana shu nafrat chuqur singgan edi. Otam yomon ko'rayotgan bu odamlarning hammasi yomon, deb ishonganman. Xo'tanda, uyimizga otamning do'stlari yig'ilganlarida Xitoyning zulmi, haqsizligi haqida, o'z uyg'urlarimiz ularga xizmat qilayotganlarini gapirishardi. Men esa mehmonxonamizda bu suhbatlarni eshitib, oxiri uxlab qolardim. O'sha paytda bu gaplardan aytarli jiddiy ma'no anglamasam -da, so'zlar xotiramga mixlanib qolavergan.

Aqlimni tanib, yaxshi –yomonni farqiga borayotganimda bu so'zlarini xotiram omboridan birma –bir olib, ma'nosini chaqdim, o'rgandim. Ko'p narsalarni tushundim. Biz yurib ketayotgan Qirg'iz yurtining To'qmoq, degan shahri ekan. Bu joyning odamlari ham o'zimizning yurtdoshlarga juda –juda o'xshar edi. Men kichikroqligim uchunmi, hech kimdan begonasiramadim. Akam esa hammaga yotsirab qaraydi. Cho'chiydi. Otam kuladi. «Nega cho'chiyapsan, Solih!» deydi beozorgina. Qirg'izga yetib kelguncha yo'lda ko'rganlarim hamon xotiramda. O'rilgan bug'doyzorlardan,

serhosil dalalardan, ozoda, ixcham qishloqlar oralab yurganmiz. Otam atrofga qarab, rosa uh tortgani ham yodimda. Qirg'izga o'tishimiz bilan bu g'amginlik yo'qoldi, go'yo. Aslida, esa yo'qolmagan ekan, bu g'amginlik hammamizning ichimizga, ko'nglimizning tub –tubiga cho'kib olgan ekan. Kelajakda ruhiyatimiz chayqalib, vujudimiz larzaga kelgan onlarda bu cho'kindi qalqib yuzaga chiqishini hali yetarli idrok qilmaganmiz o'shanda. Men va akam bu holni aql bilan anglamaganimiz aniq, biroq ruhimizda bir ezginlik borday edi, nazarimda.

Unday bo'lmagandir, balki, keyinchalik o'zim bu tuyg'uni mavjud bo'lganiga ishonib qolgandirman. Lekin otam va onam o'z yurtlaridan chiqib ketish iztirobini chuqur his etishgan, shubhasiz. To'qmoq shahrida nafar rostladik, bir kecha bir xonadonda mehmon bo'ldik. Otlarimizni aravadan bo'shatishdi, yem berishdi. Men esa keng hovlida to'ygunimcha o'ynadim. Biz tushgan hovli katta edi. O'rtasidan ikkiga bo'lingan. Kichikroq qismini tashqi hovli, kattaroq tomonini ichki hovli, deyisharkan. Nomahram erkaklar ichki hovliga kirmaydi, ayollar bu tomonga chiqmas edilar. Biz bolalar uchun bunday chegara yo'q. Qo'noq emasmizmi, hamma ko'nglimizga qaraydi. Akam mendan odobli va yuvoshroq edi. Shu yerda o'tir, deyishsa, o'sha joyda o'tiraveradi. Bir ish buyurilsa, albatta, e'tirozsiz bajaradi. Men o'yinqaroq, erkaman. Ichki hovlining orqa tarafi otxona ekan. Otxonaning tepasiga bedapoya bosilgan. O'ng tomonida ko'p tovuq boqisharkan. Hech kimning tanbeh bermasligidan foydalanib, otxonaga kiraman, otlar bilan «gaplashaman», otboqar buni ko'rib kulib qo'yadi, tovuqxonaga o'taman. Tuxum qo'yayotgan tovuqni cho'chitaman, bundan jahllanib menga tashlangan xo'rozga ham hujum qilaman, keyin bedaxonaga ko'tarilaman. Tepadan atrofga qarab, katta odamlariday qo'limni orqaga qo'yaman. Katta odamlarda qorin bo'lishini hisobga olib, yo'q qornimni oldinga chiqarmoqchi bo'laman. Keyin yana ichki hovliga kirdim. Ayvonga bordim. Ko'p ayollar

o'tirishibdi, bir nimalarni gaplashyaptilar, ko'proq onamga e'tibor qaratilgan. Bundan xursand bo'lib, onamga nimadir deb erkalangim keldi.

– Ona, holva bering! – deb qichqirdim. Hamma ayollar menga qarashdi. Onam qizarib ketdi:

– Voy, Abdulloh, beodoblik bo'ladiya, bolajonim! – dedi. Onamni yoniga olib o'tirgan Kayvoni momo kuldi.

– Qizim, uyalma. Bala bo'g'ani sho'x bo'sin -da! Qani, kel beri! – dedi menga. Kayvoni momo keng guldor kiyimli, boshida uzun cho'girma, cho'girmasi rangli matolar bilan bezalgan, ustidan esa ro'mol tashlab, tomog'igacha berkitib olgandi. Oldiga sekin yurib bordim. Momo meni erkalab quchoqladi. Peshonamdan o'pdi. Momoning qo'lida bilaguzugi, barmoqlarida ham uzuklari bor ekan.

– Umring uzaq bo'sin, aynam. Aynalib ketay, ma, ol holva jeysanmi? Je, – dedi.

– Rahmat, Katta Momo! – deb holvani oldimda shataloq otib tashqi hovli tomon yugurdim.

– Voy, katta momo deydiya! – deb ortimdan ayollarning gurillab kulgani eshitildi.

Katta hovli o'rtasida hovuz bor ekan. Hovuz labida juda bahaybat tut o'sgan. Shu tutning soyasidagi supada bir qancha erkaklar suhbatlashib o'tirishibdi. Akam ham shu yerda ekan. Otamning yonida tizzalab, odob bilan xuddi suhbatni tushunayotgandek tinglayapti. Buni ko'rib, mening suhbat tinglagim keldi.

– Ota! – dedim -da, supaga yugurdim. Supada o'tirganlardan yoshroq yigit tezda meni ko'tarib, supaga chiqardi. Men otamning yoniga borib, o'tirib oldim. O'rtada xontaxta. Dasturxonda meva –cheva. Non. Go'sht. Supa tepasiga bo'z tortilgan. Qolgan –qutgan tut yoki qushlardan u –bu tushmasin, deyishgan bo'lsa kerak. Otam gapirayotgan ekan, qolganlar tinglardi.

– Alixonto‘ra Sog‘uniy janoblari bir suhbatlarida juda achingan ekanlar. Yoqubbek tuzgan Yettishaharning tanazzuli Uyg‘urlar hurriyatining tugashi bo‘ldi, deb. Xitoyda yaqin –yaqingacha ahvol og‘ir edi. Mao Sze taxtga chiqmasidan avval Uyg‘ur davlati tuzishning qulay fursati bo‘lgan. Afsus, qo‘mondonimiz Alixonto‘ra janoblarining buyuk niyatlari amalga oshmadi. Eshitishimcha, hozir Toshkentda emishlar? – deb so‘radi otam.

– Ha, Toshkentda. Ko‘kcha mahallasida istiqomat qilayotgan ekanlar, – deb javob berdi iyagida uch –to‘rt soqoli bor bir odam.

– Sihhatlari qanday ekan? – so‘radi yana otam.

– Biroz betob ekanlar. Shunga qaramay ilm berishdan, ijodan to‘xtamayotgan ekanlar. «Tarixi Muhammadiy» nomli siyrat asarini yozibdilar. Temur Ko‘ragonning «Tuzuklar» kitobini forsiydan turkiyga o‘giribdilar. Shu kunlarda «Turkiston qayg‘usi» degan bir asar yozyaptilar, deb eshitaman, – javob berdi boyagi odam.

– Alloh xayrli etsin! – duo qildi otam. – U kishi Sharqiy Turkiston Islom jumhuriyatini e‘lon qilganlarida qo‘llarida ellik ming mujohid bor edi. U kishini o‘g‘irlab ketishgach, ko‘p dilxiraliklar bo‘ldi. Janobga itoatda yurganlar o‘zaro ixtilof etishdi. Xitoy tortib kelgan armiya qarshisida tumtaraqay bo‘ldilar.

Holbuki, Alixonto‘ra bu qo‘shinni boshlab chiqqanida har bir askar bir sher edi. Xitoy armiyasi chumchuqday qochgan edi... U ulug‘ voqealar bugun bir o‘tmish. Bir o‘tmish, kelajak undan ibrat olmog‘i lozim.

– Biz nima uchun bu imkonni boy berdik deb ko‘p o‘ylanaman, – dedi tinglovchilar orasidan yana bir kishi.

– Bu ne‘matga loyiq bo‘lmadik, – dedi otam. – Hurriyatga, bir Davlatga, bir Yo‘lboshchiga munosib emas edik, Alloh bizni mahrum etdi.

– Qanday qilib munosib bo‘lish mumkin? – yana savol berdi boyagi odam.

– Allohning dinini o‘rganamiz, amal qilamiz, dushmandan qo‘rqmaslikni, urushni, xato qilmaslikni, ittifoqni, ahillikni, itoatni, sadoqatni, mardona o‘lishni o‘rganamiz, shunday yashashni boshlaymiz va o‘sha buyuk darajaga chiqamiz, inshaAlloh. Yo‘qsa, xorlikda qolaveramiz. Sog‘uniy janoblari shuni ta‘lim berdilar. Biroq bu ta‘limni olmadik.

... Suhbat cho‘zildi. Shom vaqti kirdi. Hamma namoz o‘qidi. Men ham, akam ham o‘qidik. Kechki taomdan keyin ham gap uzilmadi.

– Alixonto‘ra janoblari aytar ekanlarki, xatar bo‘lsa, ziyoratimga kelmang, deb. Mahallalarida doimo Sovet josuslari o‘ralashib yuradi, – dedi soqoli kam odam.

– Kelganni ham, ketganni ham tekshirar emish. Temur Ko‘ragonning kitobini tarjima qilib bo‘lganlarida o‘g‘irlab ham ketishibdi, nobakorlar. Ustoz xos suhbatlarda: «Er yuzida Xudoni inkor qilgan birinchi tuzum shu Sovet tuzumi bo‘ldi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning barcha so‘zlari haq: xulafoi roshidiynlar o‘tdilar, sultonu amirlar o‘tdilar, zolim podshohlar o‘tdilar, oxirizamon Islom nusratiga yaqinlashyapmiz», – deb aytar ekanlar.

– InshaAlloh, bu biz mazlumlarga bir hurriyatdir, – dedi otam.

... Ular qancha gaplashib o‘tirishdi, bilmayman, chunki toshday qotib uxlab qolibman. Ertalab musichaning «ku-ku»lashi uyg‘otdi. Hovlilar supurilgan, rayhon hidlari taralgan, chumchuq, qaldirg‘ochlar vijirdaydi, otam esa Qur‘on o‘qir edi. Nonushta qildik, qaymoqqa issiq nonni botirib, yeb oldim, saryog‘ qo‘shilgan qaynoq sutni ichdim, akam o‘z odaticha kam yeb, kam ichdi. Quyosh qizdirmasdan yo‘lga otlandik. Otamning rejasiga ko‘ra Turkman chegarasiga ketayotgan edik. Bizni kutayotgan qanday sinovlar bor, bilmasdik, albatta. Bugun qo‘rqmasdan shu safarga otlangan otamning jasoratiga qoyil qolaman. Ot arava minib minglab chaqirim safarga chiqish uchun inson naqadar botir bo‘lmog‘i kerak?! Niyat xolis bo‘lgan ekan, sanoqsiz sinovlar faqat bizning foydamizga xizmat qildi.

UChINChI BOB

...Hojar xonim musulmalarning har biriga birma –bir qarab chiqdi.

So'ng Annaga qarab:

– Anna, bu yerga o'z hayotimni hikoya qilgani chiqmadim, – dedi u. – Bu yerdagi opa –singillarimda siz kutgan hikoyalar ham bor, shubhasiz. Men Islom haqidagi ba'zi xato tasavvurlaringizni Robbim qodir etgan darajada to'g'irlashni istayman. Islom nuqsondan xoli dindir. Chunki uni nuqsondan xoli bo'lgan Alloh insoniyatga ne'mat, rahmat o'laroq tushirib berdi. Tasavvur qiling, tug'ilganingizdan so'ng, ota –onangiz sizni parvarish etmasalar, yashash imkoningiz qay darajada bo'lar edi? Ular sizga yurishni, kiyim kiyishni, ovqat yeyishni, yuvinishni o'rgatishdi. Maktabda o'qish, yozishni va boshqa ilmlarni ta'lim berdilar. Go'dak holingizda tashlab qo'yganlarida qanday bo'lardi? Buni o'ylashning o'zi qo'rqinchli. Men insonlar jamiyatining qoidalarini aytmoqdaman. Qaysi din, qaysi irq, qaysi xalqqa mansub bo'lmang, ota –onalarning farzandlariga g'amxo'rlik qilishlari orasida tafovut yo'q. Keling, hayvonot yoki qushlar olamiga boqing. O'z nasli uchun qayg'urmaydigan biror jonzodni ko'rmaysiz. Hatto ilon va qumursqalar ham o'z bolalariga ko'p tarbiyatlar beradilar. Tug'ilgan bolasini yalaydi, erkalaydi, boqadi, ovga o'rgatadi va hokazo. Men nima uchun bu misollarni keltirmoqdaman? Odamzodni ham yo'qdan bor qilib, aql, nafs va qalb ila ne'matlantirgan Alloh unga qanday yashashni o'rgatmasmidi? O'rgatardi, albatta, o'rgatdi ham. Payg'ambar odamzodga to'g'ri yashash ilmini Allohdan olib keldilar. Alloh Odam ato alayhissalomdan to nabiyyimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamgacha insoniyatga buyuk Tarbiyalar berdi, Ta'limlar berdi. Uni qabul qilganlar izzat topishdi, rad etganlar xorlandi. Oxiri zamon payg'ambari Muhammad Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bilan Alloh dinini kamolga yetkazdi. Uni Islom, deb atadi. Va Payg'ambarimiz sollallohu

alayhi va sallam, u zot alayhissalomning izdoshlari Islomda yashadilar, yashash asnosida Islomda bo'lmoqning go'zalliklarini Yer yuziga namoyish qildilar. Agar Islom bilan ulug'likka erishmasa, bilsinki, u Islomni to'la qabul etmabdi, Islomga to'kis itoat qilmabdi. Kim Islom bilan sharaflansa, bilingki, u bu dinni ruhining chirog'iga, jismining yarog'iga, hayotining bayrog'iga aylantiribdi, ya'ni Islomning ichida yashabdi. Hojar xonim so'zining shu nuqtasida finjonga suv quyib ichdi. Anna notiq xonim nutqini yakunlaganini sezib, so'radi:

– Xonim, juda go'zal gapirdingiz. Men falsafani yaxshi o'qiganman. Bilsangiz kerak, Yevropada, Amerikada har bir fan falsafa ustiga quriladi. Ilmda falsafa tasdiqlagan nazariyalargina qabul qilinadi. Qadimgi yunon falsafasi juda jozibali. Suqrotni falsafaning otasi deb ta'riflaydilar. Uning shogirdi Aflotun, Aflotunning shogirdi Arastu... Umuman, bu masala juda chuqur. Keyin nasroniylik joriy bo'ldi. Nasroniylik falsafani qatag'on qildi. O'rta asr Yevropa Uyg'onish davri namoyandalarining har biri faylasuf edi, ular nasroniylikdan oshib o'tib, yunon falsafasiga tayandilar. Keyin Injildagi poklanish, tavba, yaxshilik qilish, yomonlikning jazosi haqidagi oyatlar falsafiy metafizika bilan qorishib ketdi. Ya'ni falsafa g'aybni rad etmaydi. Aqldan tashqari hodisalarni ham e'tirof qiladi va buni metafizika deb nomlaydi. Injildagi g'ayb ta'limoti metafizikani boyitdi desak ham, bo'ladi. Men bularni ko'p o'qiganman. Xitoy, Hindistondagi buddaviylik ta'limotlaridan xabarim bor. U yerlarda bo'lganman. Dunyodan voz kechgan, ruh tarbiyasini oliy ish deb biladigan ruhoniylar bilan tanishganman. Injil, Qur'on va bu ta'limotlar orasida umumiyliklar bor. Go'yo ular o'zaro biri birini to'ldiradi. Ayniqsa, Islomdagi sufiylik poklanishga kuchli e'tibor beriladi. Bu ham qaysidir jihatlari bilan menga Tibet rohiblarining e'tiqodini eslatadi. Siz aytyapsizki, Islomni Alloh Yer yuziga insonlar uchun to'g'ri yashash ta'limoti o'laroq tushirdi. Bu bilan siz insoniyat tafakkur va ruhiy dunyosining boshqa barcha xazinasini inkor

qilmoqdasiz: metafizika, Sharqdagi buddaviylik g'oyalari, hatto, ezgulik va yovuzlik orasidagi kurashlar haqida so'zlovchi zardushtiylik, dao, tay szi, kungfu ta'limotlari, badiiy adabiyotlardagi yuksak qarashlarni, san'atni, hamma –hammasini rad etyapsiz. Agar Islomni tanlasak, hayotimiz rangini yo'qotib, bir xillikka muhtalo bo'lmaymizmi? Arablardan chiqqan dinning temir qoidalari odamzod erkini cheklab tashlamaydimi? Muhammad insoniyat payg'ambariman deb aytgani bilan Islom arab xalqlari manfaati ustiga qurilgandek tuyuladi menga.

Anna gapini tugatib, Hojar xonimdan javob kuta boshladi. Tinglovchilarning ayrimlari bu nutqni tushundi, ayrimlari esa biroz anglamadi, ayrimlari esa fahm ham etmagandi. Hojar xonim Annaga jilmayib qaradi. Anna nutqi davomida biroz hissiylashdi, natijada, yuzi biroz qizarinqiradi.

– Yevropa universitetlarida, Amerikada ham, o'qitiladigan asosiy kitoblarda Zigmund Freyd, Erix Fromm, Edmund Xusserl, Gadamer, Diltey kabi faylasuflarning qarashlari qonun deb qabul qilingan, to'g'rimi, Anna? – so'radi Hojar xonim. Anna tasdiqladi. – Ular falsafada juda chuqur yondashganlar. G'arb faylasuflari Musulmon Sharqida yetishib chiqqan ibn Rushd, ibn Arabiy, al –Forobiy, al –G'azoliy, ibn Sino, al –Jiliy kabi o'nlab olimlarni ham unutib qo'ymagan. Shu bilan birga G'arb falsafasining o'zgaras qoidalari ichida o'zlari uchun bahsli bo'lgan bir xulosa ham bor. Faylasuflar odamzod tabiati, ruhiyati, aqlini tadqiq eta –eta koinotdagi Oliy Aql haqida bir gapni o'ylab topdilar. Freyd, Fromm kabi faylasuflar mif degan atamani ko'p tushuntirishdi. Odam ongidagi har qanday xayol mifdir deyishdi. Mif insoniyat genida saqlangan uxloq axborotlardir deyishdi. Inson biologik mayllarini tiysa, hech qachon baxtli bo'la olmaydi deyishdi. Oliy Aql o'z –o'zidan bor, u hamma narsaning asosi, u turli shakllarda o'zini namoyish etadi deyishdi. Mif Oliy Aqlning mevasi deyishdi. Odamzodning ruhoniyl –ma'naviy ehtiyojlari Oliy Aqlning bir belgisi deyishdi. Barcha

ta'limotlar Oliy Aqlda birlashadi, odamzod Oliy Aql bilan abadiylikka erishadi, hayotdan keyin boshqa hayot yo'q deb, o'lim hayotini inkor qilishdi. To'g'rimi, Anna? Ehtimol, siz bu haqdagi kitoblarni ham o'qigandirsiz?

Anna shu yerda dong qotib qoldi. U Hojar xonimning har bir jumlasini aql elagidan o'tkazib, bu ayol favqulodda xislatli ekanligiga ishonch hosil qildi. Uning nazarida, ro'mol va hijob o'rab yurgan ayol bu qadar katta ilmga ega bo'lishi imkonsiz edi go'yo. Holbuki, qarshisidagi muslima unga uning xayolidagi axborotlarni ochib berayotgandi. Anna shu choqqacha o'zi ishonib kelayotgan bu ta'limotlarni shunday oddiy so'zlar bilan ifodalash mumkinligidan bexabarligini his qildi. Chunki u falsafaning murakkab g'oyalarini oson uslubda yetkazib bo'lmaydi deb o'ylardi. Kitoblardagi juda ko'p qoidalar, bijirlab ketgan misollar uning xotirasiga sig'may ham qolardi, go'yo. Hozir esa uning tasavvuridagi Islom «zulmati»dagi bir ayol hammasini bir nafasda aytib berdi. Shuncha ilmni bilish uchun, albatta, G'arbda o'qish kerak emasmi? Balki, Hojar xonim yangi muslimalardandir?!

– Xonim, – dedi Anna shularni o'ylab. – To'g'ri so'zladingiz. Garchi fikrlaringiz xulosasini aniq bilmasam -da, so'ramoqchi edim: Siz Islomni qachon qabul qildingiz?

Hojar xonim Anna nima uchun bu savolni berganini tushundi.

– Anna, men hali Odamzod yaralmasidan avval Islomni qabul qilganman.

– Ha... – Anna bu javobdan so'ng bir lahza esankirab qoldi.

– Alloh Yer yuzida Odam atodan to qiyomatgacha bo'lgan oraliqda yaraladigan hammaning ruhini yig'ib, «Men kimman!» – dedi. Ruhlar: «Sen bizning Robbimizsan!» – deyishdi. «Sizlar Menga taslimmisizlar?» – dedi buyuk Alloh. «Senga maqtovlar bo'lsin, biz Senga taslimmiz!» – dedi ruhlar. Bu taslimiyat Islom edi. Islomda bo'lish edi. O'sha Ahd kunida mening

ruhim ham Allohga ahd bergan, o'shanda men musulmon bo'lganman, – dedi Hojar xonim.

– Hayratlanarli bir e'tiqod! – deb yubordi Anna. – Musulmonlar ana shunday deb ishonishlarini bilardim. Ammo birinchi marta buni bir tirik muslimadan tingladim. Xonim, siz islomiy oilada tug'ilganmisiz?

– Maqsadingiz shuni aniqlash edi, Anna, – dedi Hojar xonim. – Islom muhitidagi ayol men aytayotgan ilmlarni, sizning nazdingizda, bilishi qiyin. Anna, mening ajdodlarim Islomda o'tdilar. Men ham Islom tarbiyasini olib ulg'aydim. Bu ilmlarni ham dinim taqozosi o'laroq o'rgandim. Ba'zilar o'ylaganidek, ayolning Islomda bo'lishi, hijobda yashashi uni aqlsiz, bandi, mazlumga aylantirmaydi, bil'aks, uning iffatini, sha'nini begonalardan himoya etadi. Annaga bu javob bir tanbihday ta'sir etdi. U qizarib ketdi. Ochig'i, u e'tiroz bildirishni istayotgan esa -da, e'tirozlarini tartiblab ulgurmeyotgani sababli inday olmadi.

– Endi Islom siz aytgandek, insoniyat tafakkuri xazinalarini rad etadimi? Islomning temir qoidalar odamzodni fikr erkidan mahrum qiladi degan mulohazalaringiz xususida so'zlaymiz, – Hojar xonim davom etdi. – Azizam Anna! Falsafada chuqur ketish yaxshi va yomon orasidagi farqni yo'qqa chiqaradi. Muqaddas deb qabul etilgan hamma qadriyatlarni yanchib tashlaydi. Masalan, insonning biologik mayllarini tiymaslikni erk deb bilsak, inson nimalarni xohlamaydi? To'g'ri va noto'g'rining orasida chegara bo'lishi lozim. Bu chegarani inson topishga qodir emas. Xudoni Oliy Aql deb nomlab, shubha –gumonlar ichida yurish faqat tushkunlik zulmatiga yetaklaydi. Islomni yagona Haqiqat deb e'tiqod qilsangiz, undan tashqaridagi hamma narsa yolg'onligini tushunasiz.

– Bajonidil, – dedi Hojir xonim. – Mening gaplarim shu, hozircha. Siz tinglashni istaydigan hikoyani boshqa muslimalardan eshitamiz, inshaAlloh, – Hojar xonim shunday deb o'rnidan turdi.

... Xonimdan so'ng, bu joyga yoshi qirqlarga yaqinlagan bir musulima keldi. U ham Allohga hamd, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga salovat aytib, gapini boshladi.

– Ismim Shafiqa. Pokistondanman. Lahorda tug'ilganman. Muallimimiz Hojar xonim haq gapni aytdilar: mening uzun bir qissam bor. Bu o'z hayotim hikoyasidir. Men buni to'qimaganman, birovdan eshitib olmaganman. O'zim yashab o'tgan bir hayot bu. Uni sizlarga oshkor etaman. Tinglab, albatta, xulosa qiling, – dedi so'zga chiqqan musulima yuzidagi pardaning o'zinigina ochib. Anna bu suhbatdoshining favqulodda go'zalligidan ilhomlanib ketdi.

– Shafiqa xonim, shu qadar latofatlisizki, G'arbda bu go'zallik naqadar qadrlanishini bilasizmi? Siz san'at davralarining ilohasi bo'la olardingiz! – dedi Anna.

Shafiqa xonim Annaga ma'yus jilmaydi.

– Shunday deng? – dedi mahzun ovozda. – Keling, hikoyamni boshlay qolay.

– Albatta, albatta, – dedi Anna.

– Otam Lahor madrasalaridan birida mudarris, ya'ni o'qituvchi edi. U kishi tabiatan qattiqqo'l bo'lib, hech qachon ko'ngilbo'shlik qilmasdi. Otamning to'rt xotini bor edi. To'rttovi ham bir hovlida yashardi. Aniqrog'i, otam katta hovlini teng to'rt qismga bo'lgandi. Rahmatli bobomdan qolgan daromadli tijorat otamni shunday boy va imkonli bo'lishiga sharoit bergandi. Otam to'rt xotinini birdek nazorat qiladi. Hamma xotinlaridan umumiy hisobda o'ttiz farzandi bor. O'n yetti o'g'il, o'n uch nafar qiz. Otam har bir ayoliga bir nafardan xizmatchi xodima olib bergan. Bunday katta oilani boshqarish, yeb –ichirish oson emas, albatta. O'ttiz farzandning har birini tarbiyalash, ta'lim berish, band qilish ham mashaqqat. Otam shuning uchun bo'lsa kerak, doim vajohatli edi. Hamma farzandlar otamdan qo'rqardik. Otamning ayollarini aytmasa ham bo'ladi. Ular otamdan Azroildan

qo'rqqandek qo'rqishardi. Shu qadar ulkan hovli biror marta to'zib yotganini eslay olmayman. Otamning ayollarining hammasini ona deb tanidik. O'z onamizni ona deb chaqirsak, xonadonning katta xonimini katta ona, keyingilarini kichkina ona der edik. Onalarimizga behurmatlik qilmadik. Itoatlaridan chiqmadik. Otamning talabi shu edi. Onalarimiz ham bizga ovoz ko'targanlarini bilmayman. Qarg'ish, nolish, yig'i –sig'i bu xonadonda yo'q. Onalarimiz ham, xizmatchi ayollar ham uy tozalash, ovqat pishirish, kiyim tikish bilan band bo'lishar edi. Har kuni kunduzi soat o'ndan o'n birgacha mutolaa va qiroat vaqti edi. Otam shunday atardi. Har bir onamiz o'z bolalarini yig'ib, kitob o'qitardi. Bu kitoblar har xil bo'lsa -da, tartibi bor edi. Asosan, aqiyda, tarix, ibodat haqida o'qirdik. Maktabga bordik. Madrasaga qatnadik. Otamning talabi bilan onalarimiz o'qishimizga o'ta e'tiborli edilar. Xonadonimizda bir vaqt namoz qazo bo'lmagan, xuftondan so'ng deyarli hamma uxlaydi, bomdoddan so'ng uyqu mumkin emas. Peshin namozini o'qib ham, biror soat uxlar edik. Otamni har kuni ko'ra olmasak -da, kun ora ko'rardik. To'rt kunda bir bizning dasturxonda o'tirib, kechkilik qilardilar. Lahordan tashqarida yerimiz bor edi. Bu yerning bir qismi meva va uzumli bog', bir qismiga har yili mosh, loviya, no'xot va turli sabzavotlar ekardik. Biz qizlar yerda mehnat qilmasak -da, akalarim, ukalarim ishlashardi. Chorvamiz ham bor edi. Otam hech bir farzandini bekor va e'tiborsiz qo'ymasdi, to'g'ri, biz bilan suhbatlashgani vaqti deyarli yo'q edi. Lekin tarbiyamizni aslo unutmagan. Men otamning kenja ayolidan tug'ilgan kenja qizi edim. Aytishlaricha, bobom otamning shogirdi bo'lgan. Eng go'zal qizini ustoziga nikohlab bergan. Onam chindan behad chiroyli ayol edi. Katta onalarimiz onamni biroz suymasliklarini ko'p sezganman. Onam esa buni ko'rmaganga olardi. Hamisha otamni hurmat bilan kutardi. Ongimizda ota deganda Yer yuzidagi eng ulug' inson gavdalangan doim. O'n yoshga to'lganimda ko'zguda o'zimni ko'p tomosha qilardim. Kundan kun go'zallashayotganimni yaxshi idrok etganman. O'sha paytlar Pokistonga

Amerika madaniyati ko'proq ta'sir etayotgan edi. Ingliz tilini o'rganarkanman, turli jurnallar, gazetalardagi suratlar mening xayolimni o'g'irlyadigan bo'ldi. Ko'chalarimiz Amerika ko'chalari oldida g'arib edi. Odamlarimiz amerikaliklarga qiyoslaganda ko'rimsiz, qoloq edi. Hayotimiz Amerika hayoti oldida o'ta jo'n, o'ta zerikarli edi. O'n to'rt yoshimda shunday ishonch ongimga mustahkam o'rnashib bo'ldi. Biroq onam bilan kam gaplashardim. Menimcha, onam o'ta sodda ayol edi. Opalarim ham ko'zimga o'ta mute' ko'ringan. O'zimni bu hayot odami deb hisoblamay qo'ydim. Burqamni ochib yurishdan qo'rqsam -da, xayolimda sochlarimni g'arbona turmaklab, hammani lol qoldirib yurishni orzu qila boshladim. Uyimizda musiqa tinglanmasdi. Televizorda ham faqat dindorlarning va'zlari qo'yib berilardi. Men esa musiqa oshuftasi bo'lib qoldim. Shunday o'zgarishlar ichida yurar ekanman, menga sovchi keldi...

TO'RTINCHI BOB

Abdulloh Yorqin hikoyasini davom ettirdi:

– Turkman chegarasidan o'tdik. Biroz yurdik. Onam, akam va men yo'l chetidagi daraxt tagida qoldik. Otam otga minib, qaergadir ketdi. Akam bilan onam o'ziga ermak topdi. Ariqdan suv olib seydi. Yuklarni tartiblay boshladi. Biz qo'ngan joydan uch yuz metr narida o'tov ko'rinadi. O'tov atrofida bolalar o'ynab yuribdi. O'tovdan bir juvon chiqib, nimalargadir unnaydi. Keyin yana kirib ketadi. Bir –ikki marta bizga qaradi. Ariq deganim anhordan kichikroq o'zan. Yoqasida tol, majnuntol, na'matak, baqaterak, tut o'sgan. Yo'l shag'alli. Bu yerdan o'ziyurar ulovlar o'tib qolarkan. Bunday ulovlarni Xo'tanda kam ko'rganmiz. Darillagan ovoz chiqadi. Katta, yumshoq g'ildiraklari bor. Orqasida tutun chiqaradigan quvur. Atrof biyday dasht. Suv qaerdan kelib, qaerga ketadi – bilib bo'lmaydi. Yaqin –orada biror qishloq ko'rinmaydi. Akam bilan men chumolilarni ancha tomosha qildik. Men chumolilarning suvda suzishini ko'rgim kelib qoldi. Barg olib,

chumolilarning karvonini to'sdim. Bir necha chumoli bargga chiqdi. Bargni suvga qo'yib yubordim. Nazarimda, chumolilar uchun barg kema edi. Bu «kema»ning ariqda «suzishi»ni tomosha qilib, oqim bo'ylab yugurdim. Ortimdan onamning xavotirli sasi keldi:

– Abdulloh, uzoqlashma, bolam!

«Kema» suv o'rtasiga ketib qoldi, men chumolilarni taqdir izmiga qoldirib, onamga qarab yugurdim.

– Ona, non! – dedim.

Onam tugundan qora bug'doy noni olib berdi. Men ariqqa keldim. Nonning yarmini akamga berdim. O'zimning ulushimni suvga botirib, qotgan nonni yumshatib, og'zimga solib chaynay boshladim.

O'tovdan bir kampir chiqdi. Ortidan boyagi ayol ko'rindi. Kampir ayoldan nimanidir so'radi. Ayol ham bizni ko'rsatib javob berdi. Kampir biz tomon kela boshladi. Onam unga tomon peshvoz yurdi:

– Assalomu alaykum, ona, – dedi.

Kampir ham o'z qizini ko'rgandek onamni bag'riga bosdi:

– Va alaykum assalom, chirog'im, – dedi. – Qo'noqmisizlar?

– Ha, ona, qo'noqmiz. Uyg'urmiz. O'g'lingiz o'zyurar ulov axtarib ketdi, – dedi onam. – Yukimiz ko'p. Yo'limiz mo'l.

– Voyyy, chirog'im, – astoydil achindi Turkman ona. Men turkmanlar yurtida ekanligimizni bilganim uchun kampirni xayolimda «Turkman ona» deb atadim. – Musofirlik qursin, chirog'im. Biz turkmanlar cho'lma –cho'l yuramiz. Umrimiz sahroda o'tadi. Bizga buning hech bir og'iri sezilmaydi. Lekin Vatanidan chiqqan odamga qiyin. Yur, chirog'im, o'tovga yur.

Onam taraddudlandi:

– Ona, yuklarimiz bor. O'g'lingiz ham kelib qolsa...

– Yuklaring joyidan qimirlamaydi. O'g'lim kelsa, ana, nevaralarim. Xabar berishadi, yuraqol, – qistadi Turkman ona. Unga ergashib, o'tovga kirdik. O'tov ichi keng va salqin ekan. Yerda guldor, yumshoq gilam

yastangan. To'shak o'rnida terilar. Turkman onaning taklifi bilan mayin teriga o'tirdik. Turkman ona duo qildi:

– Xudoyim siz musofirlarni esdan chiqarmasin, cho'llarimiz sero't, qo'ylarimiz sersut, sergo'sht, etli bo'lsin! Omin!

O'rtada dasturxon. Ko'zacha. Non. Qoqi mevalar.

– Chirog'im, uyg'urlar ham ye, demasa, ovqat yemaydimi? Turkmanlar ye, demaydi. O'zing olib ye. Uyat bo'lmaydi. Yemasang, uyat bo'ladi.

Onam non ushatdi. Ko'zachadan sopol kosaga ayron quydi. Akamga, menga berdi. O'zi ham ichdi. Turkman ona ham tamaddi qildi. Taom payti hech kim gapirmadi. Taomdan so'ng onam ham Turkman ona bilan gaplashib ketdi. Biz bolalar tashqariga yugurdik. Bolalar bilan tezda tillashib, o'yinga berilib ketdik. Kechga yaqin otam keldi. U otda emas, o'ziyurar ulovda keldi. Yuklarimizni shu ulovga ortdik. Turkman onaning o'g'illari ham kelishdi. Ular bizga ko'maklashdilar. Turkman ona bizga bir narsalar berdi. Onamni quchoqlab, o'pdi. Bizni ham quchoqladi, o'pdi.

– Yo'llaring olis ekan, yaqin bo'lsin! – deb duo qildi.

O'ziyurar ulovning orqasi atrofi o'ralgan supa ekan. Shu supaga yuklarimizni ko'yib, o'zimiz o'tirib ketishga ham joy hozirladik. Hammamiz o'tirdik. Ulov bir silkinib, yurib ketdi. Men otamning pinjiga tiqildim. Akam onamning yonida.

– Otlarni sotdim, – dedi otam. – Bu ulov bilan uch kunda Eronga yetib olamiz.

... Biror shahar yo qishloqda to'xtamadik. Ulov deyarli tinmay yurdi. Bilsak, uni ikki kishi galma –gal yurgizar ekan. Uchinchi kun tunda ulovning silkinishdan uyg'onib ketdim. Qarasam, otam ham, onam ham uyg'onib, nimagadir quloq tutishyapti. Pastdan ovoz keldi:

– Mashinada nima bor? Boringni ber!

– Yo boshingni uzaylikmi? O'liging cho'lda qoladi, bo'rilar yeb ketadi.

– Mashinang ham bizga qoladi.

– Og‘am, mashinada hech narsam yo‘q. Bir musofirni oilasi bilan manziliga eltyapman.

– Aldama, och, yukxonani! Och!

O‘tirgan supamizning orqa tomoni eshigi ochildi. Fonus tutgan otiqlar ko‘rindi. Ularning qo‘lida miltiq ham bor edi. Onam qo‘rqib ketdi. Otam bizga:

– Qo‘rqmanglar! – dedi. O‘zi supadan pastga tushish uchun yurdi.

Osmon tiniq edi. Osmonda to‘lin oy. Yulduzlar charaqlaydi. Cho‘lning izg‘irinli shabadasi esadi. Ona bolalar bo‘yraga o‘randik. Onam ikkimizni mahkam quchoqlab oldi.

– Yo Qodir Egam! Bizni panohingda asra! Yo Mehribon Egam, bizni tashlab qo‘yma! Yo Qodir Egam! Yo Rahmli Xudoyim! Bizni himoya qil! – onam tinimsiz pichirlab shunday derdi. Onam bizni shunday qattiq quchoqlab olgandiki, yurak urishini sezib turdim. Ich –ichimdan qo‘rqmasam -da, xatarda ekanligimizni idrok etib, nafas ham chiqarmasdim. Pastda esa otamning yo‘lto‘sarlar bilan suhbatini quloqqa chalinadi:

– Og‘alarim, – derdi otam. – Xotinim, ikki bolam bilan ketyapman. Uyg‘urman. Xitoy zulmidan qochdim. Borimni yo‘lda sarflab kelyapman. Shu ulovni ham bazo‘r topdim. Hali manzilim olis.

– Shunday de? Qaerga ketyapsan?

– Og‘alar, Eronga o‘tishim kerak. Keyin Turkiyaga.

– Turkmanda yuraver! Turkiyada nima qilasan! Kiming bor u yerda?

– Og‘alar...

– Ayt, ayt! It egasini tanimaydigan zamonda Turkiyada senga ko‘zi uchgan kim ekan?

Otam jim qoldi.

– Ey musofir, isming nima? – bu mutlaqo jiddiy bir ovoz edi.

– Ibrohimman, – dedi otam. – Ibrohim Yorqin.

– Yaxshi, Ibrohim Yorqin. Meni eshit! Sen chiqqan ulovni o'rislar ko'proq minadi. Ular bu ulovda nasha, ko'knori tashib yuradilar. Afg'ondan olib, Eronga, Qirg'izga, Termizga, Toshhovuzga, Xorazmga sotadilar. Biz insofsiz qaroqchi emasmiz. Bu kofirlarning shunday qilib, dodini beramiz. Keyingi paytda ahvol og'irlashdi. O'ris Afg'onga qo'shin kiritadi deyishyapti. Sen xitoy zulmidan qochdim deyapsan. Men mazlumni talamayman. Rostini ayt, Turkiyada kimni qora qilib ketyapsan? Gaping rost bo'lsa, seni Turkiyagacha eson –omon borishingni ta'minlashga harakat qilaman.

– Og'a, men qora qilib borayotgan odam hayotmi, yo'qmi, bilmayman. U juda taniqli odam. Bobom uning mujohidlaridan bo'lgan, – dedi otam.

– Bobom mujohid bo'lganmi? Yo Qodir Alloh! – yo'lto'sar og'a hayqirib yubordi.

– Bobomning ismi Qilichbek Mujohid bo'lgan. U amirulmuslimin Yoqubbek qo'shinida bo'lgan. Yettishaharni barbod etganlaridan keyin bobom Xo'tanga, ona yurtiga qaytadi. U payt yosh, navqiron yigit bo'lgan. Yoshi yetmishga yetganida Farg'ona kofirga qarshi Ergash qo'rboshi jihad qilyapti deb eshitadi. Farg'onaga kelib, Ergashning G'orbuvadagi qarorgohiga boradi. O'sha yerda Shermuhammadbek qo'rboshiga yordamchi bo'ladi. Bobom askarlar ichida nisbatan yoshi ulug' edi. Yoqubbek Badavlat lashkaridan ham olgan tajribasini ishga soladi. Oppoq soqoli bilan o'risga qarshi ko'p urushib, shahid bo'lgan. Shermuhammadbek shunda ko'p mahzun bo'lgan. Bobomning yakkayu yagona o'g'li otasining shahodat topganini eshitib G'orbuva kelgan. U mening otam Xolid Mujohid edi. Uni ham Shermuhammadbek o'z lashkariga olgan. Ko'p urushlardan so'ng, har xil sabablar bilan qo'rboshilar lashkari tarqalib ketdi. Kobulga chekinishga majbur bo'lgan Shermuhammadbek qo'rboshi otamga «Yurtingga qayt!» deydi. Otam Xo'tanga keldi. Men o'shanda ancha esimni tanib qolgandim. Keyin otam

yana urushga kirdi. Endi u kishi Alixonto'ra Sog'uniyning lashkarida edi. Alixonto'rani yolg'on kelishuv bilan Moskovga olib ketdilar. Lashkar boshsiz qoldi. Xitoy hujumiga dosh bermadi. Otam ana shu janglarda shahid bo'ldi. Og'a, ajdodlarimizning hammasi kofir bosqinchiga qarshi kurashib keldi. Bizni bosqinchi hukumat yaxshi taniydi. Xitoyga Mao Sze rais bo'ldi. U oxirgi inqilobda xarob bo'lgan davlatni tiklab oldi. Endi navbat Uyg'ur o'lkasiga keladi. Birinchi ish eski kurashchilar avlodini qirish bo'ladi. Shuning uchun, yurtimdan bosh olib chiqdim.

Turkiyada men qora qilib ketayotgan odam dongdor qo'rboshi, mujohidlar sardori Shermuhammadbekdir.

Otam gapini tugatdi. Hamma jim bo'lib qoldi. Sukutni Yo'lto'sar og'a buzdi:

– Ibrohim, jigarim! Shuni bilki, men ham g'orbuvalik mujohidning avlodiman. Shermuhammadbek Kobulga o'tganda bizning oila u bilan edi. Qo'rboshi Istanbulga ketdi. Biz Afg'onida qoldik. Bu yerda hayot qildik. Biroq notinchlik to'xtamadi. Har xil bosqinchilarga qarshi urushib yuribmiz. Bir tomondan o'ris, bir tomondan ingliz tahdid qilayotir. Yaqin orada Afg'on yurti ulkan jang maydoniga aylansa kerak. O'ris bizga qo'shin kiritisa, xalq oyoqqa turadi. Afg'on xalqi yuvosh xalq emas. Bosqinchi kelsa, qochadigan bo'lsa, uyini buzib keyin qochadi. Nima uchun tayyor boshpanani yovga berish kerak? Shuning uchun, katta urush ostonasidamiz. Men bu yerda sheryurak yigitlardan jamoa tuzdim. Turkman cho'llarida kofir o'risning molini talayapman. O'ris bu yurti bosib olib, halovat topaman desa, xom o'ylabdi. Buxoroni, Xivani, Qo'qonni kofirga berib qo'ydik. Ammo bu yog'iga qadam bostirmaymiz. Qadam bossa, bu joyni jahannamga aylantirib beramiz.

– Omin! – dedi otam.

– Ibrohim, modomiki, qasding Turkiya hijrati ekan, yo‘ldan qolma. Senga pul beraman. Koringga ishlat. Afg‘onga o‘ris kelsa, Qilichbek va Xolid Mujohidlar izini bosishni istasang, kel!

Men o‘rnimda turdim -da, taxta to‘siq osha pastga qaradim: bir necha o‘n otliqlar, o‘rtada otam va juda barvasta odam gaplashib turishgan ekan.

– Omon bo‘l, jigarim! – Yo‘lto‘sar og‘a otamni bag‘riga bosdi.

... Sharq osmoni, avval, kulrang tus oldi. Keyin ko‘kardi, gezardi, oqardi va quyosh chiqdi. Biz, allaqachon yo‘lda edik.

... Yo‘lto‘sar og‘a va‘dasiga vafo qildi: Eronga o‘tdik. U yerda ham bizni boshqa o‘ziyurar ulov olib ketdi. Eronda juda ko‘p shaharlardan o‘tdik. Otam aytgandek, ba‘zi shaharlarda notinchlikni ko‘rdik. Odamlar ko‘chada to‘planib, baqirishardi. Ba‘zi shaharlarda o‘q ovozlari!

Eron ichida o‘n kun yo‘l bosdik...

Istanbulga horg‘in kirib keldik. Keyinchalik onam eslaydiki, yeguligimiz, naqd pulimiz deyarli qolmagan. Hatto, yuklarimizni yo‘lda otam sotib yuborishga majbur bo‘lgan. Erondan Iroqqa o‘tishga to‘g‘ri kelibdi. Iroqda mol –mulkimizni pullashni boshlaganmiz. Onam aytadiki, Istanbulga kirishda hushimdan ketibman. Yoz emasmi, havo qaynoq. Dengiz yaqinligi uchun bu issiq harorat odamni lohas etarkan. Otam har tarafga javdirab yordam izlabdi. Ko‘chadagi har bir odamdan shifoxona so‘rabdi, tabib izlabdi. Odamlar Ehson hakim degan insonning manziliga yo‘llashibdi. U paytlarda Istanbulda ham o‘ziyurar ulov kam ekan, shunday bo‘lsa -da, musulmonlar tezda oilamizni Ehson hakimning uyiga yetkazishibdi. Otam meni ko‘tarib, tabibning hovlisiga yugurib kiribdi. Ehson hakim shu topda bemor ko‘rayotgan ekan.

– Hakim afandim, bolam xasta, bolamga qarang! – debdi otam. Onam esa ro‘molining bir uchini tishlab, bir uchi bilan ko‘zini berkitib, sassiz yig‘larmish. Ehson hakim barvasta, soch –soqoli oppoq, yuzi nurli odam

ekan. O'zi qarayotgan bemorni shogirdiga topshiribdi -da, tezda kelib meni qo'liga olibdi va debdi:

– Robbim yordamchi bo'lsin! Qo'rqma, o'g'il, bolang Allohning izni ila shifo topgay!

Keyin meni supaga yotqizibdi, kiyimlarimni yechib, badanimni nam mato bilan artibdi. Ko'zimning ichiga, og'zimga qarab, yuragimga quloq tutibdi. Har xil muolajalar qilib, ishi davomida tinimsiz duo o'qibdi. Burnimga qandaydir paxtani tutibdi, hushimga kelib, g'ingshibman. Keyin qandaydir damlamadan bir qoshiq ichiribdi. So'ng ota –onamga qarab, debdi:

– O'g'il, kelinni olib musofirxonamizga joylashtir, – so'ng shogirdlaridan biriga tayinlabdi. – Mehmonni musofirxonaga elt. Xizmatlarida bo'l. Barcha hojatlarini ravo et!

... Onam aytadiki, musofirxona katta dargoh ekan. Qashshoqlik oilalar, yetimlar, bevalar – hamma uchun alohida –alohida ajratilgan xonalari bor ekan.

Musofirxonada ota –onam yuvinib, issiq taom yeyishibdi. Kiyimlar olishibdi. Biroq onamga hech narsa tatimabdi. U faqat meni o'ylabdi. Biroq Ehson afandi meni bir xonaga olib, hech kimni kiritmabdi. O'zi davolabdi. Uch kundan keyin onamga ruxsat beribdi. Onam oldimga kirsam, oyday bo'lib, pokiza to'shaklarda yotgan ekanman. Onam quvonganidan rosa yig'labdi...

BESHINCHI BOB

...Shafiqqa xonim o'z qismati hikoyasini so'zlaydi:

– Sovchilar mening dunyoyimni zulmatga uloqtirdi, go'yo. Nahotki, shu qora olamda abadul abad qolib ketaman? Yer yuzida, uzoq o'lkalarda, masalan, Ovrupoda, Amerikada hamma saodatmand yashamoqda. U yerda barcha insonlar shodu xurram, mening mamlakatimda, mening oilamda esa quldorlik hukm surayotir! Meni majburlab erga berishmoqchi!

Qani, mening huquqim! Mening ham orzularim bor, ovozim juda jarangdor, o'zim go'zalman, men mashhur xonanda bo'lishim mumkin! Eronlik Gugushni ko'rmaysizmi? Axir, u ham zulm changalidan g'olib chiqdi, Yer yuzi bugun uni taniydi. Men undan kam emasman! Bizning omi xalqimiz san'atni tushunmaydi. Vahshiylar musiqani ta'qiqlashgan. Inson qalbini azoblashadi. Tuyg'ular uchun sizni jinoyatda ayblaydilar. Bu qanday manfurlik! O'sha payt mana shunday fikrlar miyamni qamrab oldi. Onam sovchi haqida aytganida baqirib yubordim:

– Tegmayman! Erga tegmayman!

Onam avzoyimni ko'rib, qo'rqib ketdi:

– Shafiqa, qizim, mayli, mayli, – dedi u shoshib. – Nega buncha yig'lading? Erga tegishni istamasang, majburlamaymiz.

Onamning oxirgi gapi meni tinchlantirdi.

– Endi o'n to'rtga kirding. Yoshсан, hayotni bilmaysan, Shafiqa, – onam boshimni silab davom etdi. – Sen yo'q desang, hech kim xo'p deyolmaydi. O'zingni bu qadar qiynama, iztirobga solma, xo'pmi, ko'zimning nuri?

– Xo'p, ona, – dedim.

Ancha xotirjam esam -da, ko'nglim ozurda edi. Xonadonimizda to'y to'yga ulanib qoldi. Otam hamma farzandlarini uyli –joyli qilishga kirishdi: bir o'g'lini uylantirsa, bir qizini uzatardi. Bu taqdir meni ham kutayotganini bilardim. Uzoq –uzoqlarga qochib ketgim kelardi. Qanday qochaman? Menga kim ham yordam beradi? Shunda menga bir zot yordam bera oladi deb o'yladim. Bu Alloh edi. Astoydil so'rasang, Alloh so'raganingni beradi. Bizga singdirilgan aqiydalardan biri shunday edi. Ibodatga berildim. Tahajjud o'qidim, nafl ro'zalar tutdim, onam bergan pullarni muhtojlarga sadaqa qildim, evaziga Allohdan bir narsani so'radim: «Allohim, meni bu zulmatdan qutqar! O'zim orzu qilgan erkin hayotni tuhfa et!» Sovchilarning kimligini so'ramay rad etaverdim. Shu tariqa ikki yil o'tib, o'n oltiga to'ldim.

Otam Shafiqani o'n yettiga to'lmay uzataman, qiz bolani bunday uzoq ushlab bo'lmaydi debdi. Onam mening ibodatgo'yiligimni eslatibdi. Ibodati yaxshi debdi otam, ammo uy ishlarini ham o'rgating, xonim, erining uyida ibodatiga qarab rahmat deyishmaydi, mehnatiga qarashadi. Bu gaplardan juda dilim ozorlandi. Otam meni, o'z qizini begona hisoblayapti deb o'yladim. Bunga o'zimni mutlaqo inontirib qo'ydim. Navbatdagi sovchi xabarini eshitib, odatdagidek yo'q dedim.

– Qizim, endi yo'q deyishing befoyda, – dedi onam. – Otang rozilik berib yuboradi, bu aniq. Kuyov bo'lmish yosh yigit. Yigirmaga kirgan. Birinchi uylanishi.

– Menga bu qiziq emas, – dedim yig'lab. – Men turmushga chiqmayman.

– Har bir qizga erga tegishi shart! – onamning ovozi birdan keskinlashdi. – Senga yomonlikni ravo ko'ramizmi? Kuyov Malayziyada yashaydi. Otangdan o'n besh yoshidan buyon ilm oladi. Otang Shafiqaning qalbi nozik deb aytadi. Shuning uchun duch kelgan odamga seni uzatmaydi. Ne –ne odamlarni o'zi ham rad etdi. InshaAlloh, baxtli bo'lasan!

... Shafiqa xonim hayotini hikoya qilarkan, u kunlarni hozirgidek esladi: qizning qaysarligi hisobga o'tmadi, nikoh o'qildi.

Shafiqa kuyovning, haqiqatan, juda yosh ekanligini ko'rdi. Ko'zlari dumaloq, soqoli siyrak yigitcha ustoziga juda muxlis edi. U o'z rafiqasini ustozining hurmati bois o'zgacha ehtirom ila qarshi oldi. Kelin-kuyov bir muddat Lahorda yashadilar. Bu orada kuyov bo'lmish Fotih Karim ta'limni yakunladi. Madrasadan bir qancha ijozalarni oldi, hanafiy mazhabi bo'yicha din mutaxassisi sifatida hujjatga ega bo'ldi va o'z yurtiga – Kuala Lumpurga yosh ayoli bilan qaytdi.

Shafiqa samolyotga chiqdi, osmonga ko'tarildi, o'zini bir qadar shod sezdi. Fotih Karim doim ayolining ko'ngliga qaradi. Shafiqa eriga ko'ngli

talpinmasa -da, uning poklik ila boqib turgan nigohlaridan uyalardi, biror injiqlik qila olmadi. Bu holni Fotih itoatdan deb bilib, juda mamnun bo'ldi.

Ustozi eng go'zal qizini go'zal tarbiyalab unga taqdim etganidan Allohga hamd aytdi. Biroq u Shafiqaning qalbidagi tug'yonlardan bexabar edi.

... Kuala Lumpurdan ellik kilometr uzoqlikda bir mavze bor. Bu daryolari mo'l bir hudud. Havosi toza. Tabiati go'zal. O'rmonlari ko'p. Bog'lari sermeva. Hayvonotga boy. Qushlari xilma –xil. Baliqchilik bobida aholisi juda mohir. Dengiz nafasi kezadi. Ikki –uch soatlik yo'lni bosib, sharqda Tinch, g'arbda Hind okeaniga olib chiqadigan istalgan dengizga yetib olsa bo'ladi. Xalqi bag'rikeng. Doim kulib yuradi. Bu yerdagi hayot Shafiqaga ancha ma'qul keldi. Musiqa tinglash mumkin ekan. Televideniyada istalgan dasturni topib tomosha qilishing mumkin. Avstraliya, Sidney, Tasmaniya, Yangi Zelandiya kanallari ham bor. Hayot Shafiqaga orzu qilganidek rangli edi.

Fotih Karim mahalliy masjidga xatib bo'lib ishga kirdi. Mahalliy tele va radio dasturlarda hanafiy mazhabidan dars bera boshladi. Shafiqaga bu yerning ayollarining quvnoqligidan mamnun edi. Qizlar er talashib urushib qolishadi. Ba'zan qizlar onasiga o'zi tanlagan erni aytar edi. Bu hol hech kimni ajablantirmaydi. Yosh yigitlar kemada haj borib kelishadi. Fotih Shafiqaga ham hajga birga boraylik dedi. Shafiqaga yukli edi.

Oradan besh yil o'tdi. Shafiqaga ikki o'g'ilning onasiga aylandi. Lahorga bir necha marta borib keldi. Onasi qizining go'zal uy bekasi bo'lganidan ko'ngli to'q edi. Qaynata –qaynonasi Shafiqani o'z qizlariday ko'rishardi. Biroq Shafiqaning qalbida hamon eski havas olovi o'chmagan edi. U hamon bu hayotidan to'la rozi emas edi.

– Bilmayman, qalbinga bu shayton qachon kirib o'rnashib olgan edi!
– deb buni aytib beradi Shafiqaga xonim. – Bolalarimni qoldirib, erimdan ajralishni istab qoldim.

... Fotih quloqlariga inonmay qoldi.

– Xonim, sihhatingiz joyidami? Ko‘zingizga nimadir ko‘rinyaptimi? – dedi qayg‘urib.

– Yo‘q! – Shafiqa sapchib turib ketdi. – Men soppa –sog‘man! Jin tekkani yo‘q. Keling, meni siz tinglang, Fotih. Ongli, madaniyatli inson o‘laroq qalbimni tushuning.

Fotih qarshisida umr yo‘ldoshim deb faxr etib yurgani qo‘qqisidan begonaga evrilganini sezdi. Iliq qalbi muzlayotganini idrok qildi. Mutaassir bo‘lishni bas qilib, sokin ovozda dedi:

– So‘ylang, Shafiqa xonim, sizning dardi olamingizni biz ham bilaylik. Zimistonda qolib ketgan ko‘rinasiz!

Erining tovushidagi vajohatdan Shafiqa qo‘rkib ketdi. Uni tinglashga shay bo‘lib o‘tirgan Fotih Karim kutilmagan Shafiqaning nazarida ulkan haybat kasb etdi. Shu choqqacha tilidan shirin so‘z, yuzidan tabassum arimagan musulmonning ichidagi g‘azabmi, qahrmi, xullas, shunga o‘xshash bir quvvat ajdaho kabi qo‘zg‘algan edi. Bu ajdahoning dami Shafiqani hayiqishga majbur etdi. Biroq so‘z aytilgan edi, ayol bu ajdaho qarshisida tik turib, yonishga mahkum bo‘ldi. Aslida, u o‘zini o‘zi bu baloga duchor etdi.

– Men bu orzu bilan bolaligimdan buyon yashab kelyapman. Fotih, o‘zimni zanjir ichida qurbon etolmayman. Bizning islomiy deb maqtanadigan turmushimiz zanjirdan iborat, xolos.

Fotih o‘z xotinini ilk marta ko‘rayotgandek qotib qoldi. Eridagi bu o‘zgarishdan kuch olib, Shafiqa to‘xtamasdan bidirlay boshladi:

– Sizlarning islomingiz inson qalbini parchalaydi. Inson qalbini o‘ldiradi. Erk va hurriyatni bo‘g‘adi.

Fotih chiday olmadi:

– Sen musulmonmisan? – deb yubordi.

– Alhamdulillah, musulmonman. Siz mening iymonimga shubha qilyapsizmi? Iymonimni biladigan Zot tepada! – dedi Shafiqa. – Islomiy hayot san’atni, madaniyatni rad etmaydi. Alloh bandalariga zulm qilmaydi. Sizlar yettinchi asr Islomini bugungi zamonga tiqishtirasiz. Yo’q! Islom siz, otam aytgandek emas! Sizlar qoloqsizlar! Islomiy qoidalarni yangilash fursati yetdi! Ayol kishi ham jamiyatda, Yer yuzida o’z salohiyatini namoyish etishi lozim. Men xonanda bo’lishni istayman. Butun dunyo mening ovozimni tinglasin! Meni tanisin! Siz esa bunga yo’l bermaysiz. Shuning uchun ajrashaman!

Xotini gapirarkan, Fotih o’zini qo’lga oldi. Tishini tishiga bosdi. Shafiqa gapirib bo’lgach, so’radi:

– Bori shu

– Sizga shu yetadi. Men madaniyatli, ongli muslimaman. Dinim meni bo’g’maydi, balki menga yo’l ochadi. Biroq sizlar buni tushunmaysiz.

– Bu vasvasa seni qachon egallab oldi?

– Siz uchun bu vasvasa. Men uchun haqiqat.

– Sening bunday vasvasang uchun taloq ham shart emas, shekilli, – Fotih shunday deb o’rnidan turdi. – Taloqsan. Uyimdan yo’qol. Bolalarimdan umidingni uz.

Shafiqa g’alati bo’ldi. Eridan bu qadar tez javobni kutmagan edi.

– Siz meni sevmagansiz! – dedi chiranib.

– Hali shu yerdamisan? – Fotih shunday dedi -da, ichkari xonaga kirib ketdi.

Shafiqa ichi bo’shab qolganini sezdi. Xuddi bir bo’shliqda muallaq qolgan edi u. Suyanadigan bir tayanchi yo’q edi atrofida.

– O’zingni qo’lga ol, Shafiqa! – dedi o’ziga o’zi ovoz chiqarib. – Endi erkin qushsan! O’z hayoting o’z qo’lingda! Bo’shashma!

... Shafiqa ketish uchun bir qancha pul, liboslarini hozirlab qo'ygani edi. Rejasiga muvofiq Kuala Lumpur markazidagi shohona mehmonxonaga jo'nadi.

... Ertalab qizil libosini kiydi, yuzini ochib ro'mol o'radi va Amerika Qo'shma shtatlarining Kuala Lumpurdagi elchixonasiga yo'l oldi.

– Elchixona meni amaliy qo'llab –quvvatlashini so'rayman, – dedi u. Elchixonadagilar ularni yo'qlab kelgan bu dilbar ayolning dindor oiladan kelganligini eshitib ruhlanib ketishdi. O'zgacha ehtimol va iltifot ila alohida suhbat xonasiga taklif etishdi. – Qahva, choy yoki suv? – deb so'radi xizmatchi.

– Suv, – dedi Shafiqa. U behad hayajonlanayotgan edi. Bir necha daqiqada uning qarshisiga bir ayol va ikki erkak kelib o'tirishdi. Ayol qora tanli edi. Ularning uchovi ham juda quvnoq, juda do'stona, juda muloyim edilar.

– Xayrli kun, xonim, ismi sharifim Jeyn Bronti, siz Jeyn deb chaqiring, shu menga yoqadi, – dedi xayrixohlik ila qora tanli ayol.

– Tanishganimdan xursandman, Jeyn, – dedi Shafiqa. – Men Shafiqaman.

– Shafiqa, ismingiz juda ham go'zal jaranglar ekan! Xuddi o'zingiz kabi dilbar ism! – dedi Jeyn. – Tanishing, hamkasblarim Joy va Nikolas. Biz elchixonada gender himoyasi, madaniyat va san'atni qo'llab –quvvatlash masalalarida ishlaymiz.

– Xonim, elchixonamizga tashrif buyurib eng to'g'ri ishni qilgansiz, – dedi Joy deb tanitilgan erkak. – Sizning hikoyangizni tinglashni istaymiz. Siz o'z qobig'ingizdan chiqishga qanday jasorat topdingiz?

– Agar bu haqda biz bilan suhbatlashsangiz, mamnun bo'lardik, – dedi kulib Jeyn ham.

Shafiqa ularga oilasi, kelib chiqishini aytib berish oson kechmasligini shu onda anglab yetdi. Aytajak hikoyasi go'yo o'zi mansub bo'lgan oila haqida shikoyat qilish edi.

– Kechirasiz, men tegishli bo'lgan oila o'z hayotidan rozi, men uchun u torlik qildi, xolos, – dedi Shafiqa.

– Tortinmang, azizam! – dedi Jeyn. – Sizga atroflicha yordam berishimiz uchun sizni yaxshiroq tanishimiz kerak.

Shafiqa boshqa chorasi yo'qligini tushundi. Chuqur nafas olib, sekin so'z boshladi:

– Men islomiy oilada tug'ildim...

Shafiqaning hikoyasi elchixonadagilarga juda yoqdi. Ular ayolni qo'llashga tayyor ekanliklarini bildirishdi.

– Albatta, Islom dini insonlarga taskin beradi, o'zidan qoniqish, Xudoning panohida xavfsiz ekanligiga odamni ishontiradi, – dedi Nikolas. – Bu kishiga psixologik xotirjamlik ato etadi. Biroq dinni, u Islommi, nasroniylikmi, erkimiz zanjiriga aylantirish to'g'ri ish emas. Biz odamzodning hamma huquqlarini himoya qilamiz, xususan, taqvodorlikni ham. Biroq insonlar taqvodorlik bilan o'zlarini cheklab yurishlari juda achinarli. Shafiqa xonim, jasoratingiz tahsinga loyiq. Bu jasorat minglab ayollarni ruhlantiradi, olamga ochiq ko'zlar ila boqishga chorlaydi, shubhasiz.

Shafiqa qaytib bo'lmas yo'lga chiqqandek his etdi o'zini. «Etar! Hadiksirashni bas qil, Shafiqa! – ichida o'ziga o'zi dalda berdi. – Seni otang tushundimi? Seni onang tushundimi? Seni ering tushundimi? Yo'q, ular seni tushunmadi. Endi ortga qaytsang, seni cheksiz xorlik kutyapti. Endi olg'a yur! Sen oilangdan yuz o'g'irmading, sen o'z yo'lingga chiqding. Sen qoliplarni buzding. Sen kishanlarni parchalading. Shafiqa! Chekinma! Kelib chiqishingni yashirma! Yashirib nima qilasan? Butun olam shunday jasur ayolni bilsin! Jasorat va istak bo'lsa, qanday buyuk marralarga erishmoq

mumkinligini isbotla! Otingni, zotingni yashirma, Shafiqa! Din bu eski bir qolip. Eski zanjir. Undan qo'rqma! Alloh marhamatli, u bandalarini bunday azoblamaydi. Axir, san'atning nimasi gunoh? Musiqaning nimasi harom? Inson qalbiga halovat beruvchi ne'matning nimasi yomon? Alloh seni tushunadi, Shafiqa. Alloh seni kechiradi. Asosiysi, qalbingni toza saqla! Ibodatingni qil! Allohni unutib qo'yma! Shafiqa, cho'chima!»

... Oradan bir oy o'tib, Shafiqa haqida xalqaro axborot xizmatlari bir necha dastur tayyorladilar. Ularda Shafiqa erk farishtasi, jasoratli qalb soxibasi kabi sifatlar bilan maqtaldi. Shafiqa o'zining «hayot yo'li» haqida hikoya qildi. Ta'qiqlangan orzular, soqov qilingan bolalik, gung ayollar qismati bu dasturlar mavzusi edi. Shafiqaga BMT, YuNESKO e'tibor qaratdi. Ovozini tinglashdi. Qo'shiqchilikni o'rganish uchun ta'lim oldi. Shafiqa o'z «muvaffaqiyati»dan mast bo'ldi. Dastlab, sahnalarga chiqishda hayajonlanar edi, asta –sekin bu hayajon yo'qoldi. Olti oy davomida Yer yuzining bir necha nuqtalariga bordi. Afrika, Arab Amirliklari, Singapur, Hindistonda ayollar hurriyati haqida ma'ruzalar o'qidi. BMT Shafiqaga Jeyn Brontini hamroh qilib berdi. U Shafiqa uchun hamma narsani hal qilar edi. Shafiqaning ichida bir tuyg'u uni sezilar –sezilmas azoblardi. Har tomonga boqib, u shahvatparastlik havosini his etardi. Bu istaklarga G'arb odamlarida hech qanday to'siq qo'yilmasligi unga olgan tarbiyasini ko'p bora yodiga soldi. Sha'n va iffatiga millionlab nigohlarning tajovuzi unga og'irlik soldi. Ayniqsa, erkaklarning aksari unga eng yaqin darajada do'stlashishni doimo taklif etishlari uni yerga uraverdi. U baxtiyorlikda deb hisoblayotgan G'arb ayollari, aslida, o'z erkaklari qoshida bir qadr kasb etmasligini tushundi. Sevgi degan tuyg'u shahvatparastlikni ifoda etardi, xolos. Hech bir ayolda na iffat himoyasi, na sharaf poyasi yo'q edi. Ayollar hamisha o'z qomatlarini ko'z –ko'z qilishga majbur edilar.

Bu yerga urilishlar Shafiqaga shu qadar og'ir botdiki, o'zini aldangan his etdi. Kayfiyati zulmatga cho'kdi: tabassumlar yolg'on; moda sahnasidagi

latofatu malohat ro'yo; tuyg'ularda biror poklik yo'q; ayol qalbi bu makonlarda o'zini zinhor ayol deb his etmagay! Ayol erkinlik bahonasida bo'shliqqa tashlab yuborilgan! Unda na suyanch bor, na tayanch!

Shafiqaning nutqlaridan jo'shqinlik g'oyib bo'ldi. Ovozi so'ndi. Ko'zlari ma'yuslandi.

– Shafiqa! Senga nima bo'lyapti! – dedi qayta –qayta Jeyn. Shafiqa javob bermadi.

– Boshqa so'zlay olmayman, – dedi Shafiqa nihoyat.

– Nima uchun? – hayron so'radi Jeyn.

– Tushuntirib bera olmayman... Meni tinch qo'yinglar! – xazin ohangda gapirdi Shafiqa.

– Kechirasan, qizaloq! – dedi Jeyn jahl bilan. – Biz seni izlab topdikmi? Yalinib kelgan o'zingsan. Senga sharoitlar hozirladik, yo'lingni ochdik, pul berdik. Dunyoni kezding. Yulduz bo'lding. Sen bu ishlarni o'yin deb o'ylaysanmi? Sening ko'nglingga qaraydigan hech kim yo'q. Buyruqni bajar.

Shafiqa quloqlariga ishonolmay qoldi.

OLTINCHI BOB

Abdulloh Yorqin hikoyasida davom etarkan, ellik yil avvalgi tarix uning xotirasi kitobi qatlaridan tirilayotgan kabi o'sha onlarning har bir so'zi, har bir sasi, har bir harakat va sukunati uning uchun behad qiymatli edi.

... Ibrohim Yorqin oilasi Ehson afandining musofirxonasida bir necha kun qoldi. Kelgan kuniyoq Ibrohim bu zot naqshbandiya tariqatining murshidi ekanligini bildi. Xalq bu insonni e'zozlab, «shayx Ehson hakim hazratlari» deb atar ekan. Ehson afandi tib va hikmat ilmi sohibi bo'lib, odamlar u haqda «Shayx Ehson tariqati ko'ngil shifosi, tabobati vujud davosi» deb yurisharkan. Shayx Ehson afandining yuzlab shogirdlari bor edi. Har bir shogirdiga turli ilmlarni o'rgatgan. O'zi yashaydigan hovli juda

kamtarona edi. Biroq shu mahallaga musofirxona, maktabxona, shifoxona qurdirgan. Undan tashqari xonaqoh ham bor edi. Xonaqohda har kun shayx Ehsonning ilm darslari bo'ldi. Tushdan so'ng hordiq chiqargan Ibrohim shayx Ehson ilm suhbatini tinglash uchun xonaqohga keldi. Xonaqoh keng. Devorlari oppoq. Na naqsh, na yozuv, na ziynat yo'q. Xonaqohning qiblasida mehrob. Mehrobning o'ng tomonida minbar. Na mehrobda, na minbarda, biroz bo'lsa -da, ziynat asari ko'rinmaydi. Shogirdlar, muxlis va muridlar xonaqohni to'ldirdi. Mehrobning o'ng yonidagi devorning burchida ixcham eshikdan shayx Ehson biroz egilib, kirib keldi. Xonaqoh sukutga cho'mdi. Shayx bir –bir qadam bosib, minbarga chiqib o'tirdi. Liboslari bo'z, keng, sallasi ixcham va qora. Shayxning qo'lida tasbih ham ko'rinmaydi. Shayx Ehson minbarga chiqqach, bir nuqtaga boqib, biroz sukut saqladi. Ikki –uch daqiqa o'tdi. Shayxning o'ktam sasi xonaqoh bo'ylab tarqaldi:

– Bizni mo'min, muslim qilib yaratgan, islom uxuvvat orasiga kiritib qo'ygan, «Bo'li!» desa, istagan ishi bo'ladigan, har bir ishi hikmati ila go'zal, qudrati ila mukammal bo'lgan, dunyoda jamiki mavjudotga, oxiratda mo'minlargagina rahm etuvchi, ar –Rahmon va ar –Rahim Allohga cheksiz maqtovlarimiz, hamdlarimiz bo'lsin! Bandaning Allohga itoatdan bo'lak, Unga hamd aytishdan bo'lak bir ishi yo'qdir! Yo Robbimiz, bizni O'zingga hamd, tasbih aytib, amrlaring adosida ayla! Amiyn! Butun dunyoga Islom ne'matini keltirgan, olamlarga rahmat bo'lgan, Islomda yashamoqning namunasi o'z hayoti ila ko'rsatib bergan payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamga, oilayu ashoblariga salovatu salomlarimiz bo'lsin! Yo Alloh, nabiyimiz, habibing Muhammad mustafo Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga munosib ummat bo'lib, dinningda yashab o'tishimizga, diningga xizmat qilishimizda yordam ber! Amiyn!

Ibrohimning butun vujudi quloqqa aylandi. Yaqin –orada, yo'q, yaqin – orada emas, deyarli bunday sof islomiy suhbatda bo'lmagan edi. Shayx

Ehson afandining har bir kalimasi tashna ruhiga obi hayot, xasta qalbiga murodu qanot bo'layotgan edi.

– Bugun Allohning izni ila abnoul vaqt, ya'ni vaqt o'g'illari haqida suhbat quramiz, – shayx fasohat ila so'zlardi.

– Bilingki, vaqt o'g'illari bir tamsildir. Bir o'xshatishdir. Vaqt Alloh tomonidan yaratildi. Oylarning harakati vaqt uchun o'lchov qilindi. Insoniyatning hayoti vaqt ichida o'tib boradi. Vaqt butun olamni o'z ichiga oldi yoxud vaqt ro'y berayotgan hodisotlarning bir suvrati kabidir. Vaqtning o'g'illari – Allohning tavidini idrok etib, o'zini butkul Allohga baxshida etgan mo'minlardir. Vaqt har neni zavol aylaydi, ammo mo'minlar vaqt o'tgan sayin kamol topajaklar. Vaqt har neni yemirib, ado qiladi, ammo vaqt iymon egasining xizmatkori yanglig', zotan, vaqt o'tgani sayin mo'minning lymoni pishib, nurlanib, ziyoda bo'lib, quvvatlanib boradi. Vaqtning qarshisida odamzod qo'rqadi, iymonlilar vaqt qoshida mamnundirlar, zotan, vaqt ularni Robbilar tomon eltgay. Odamzod Alloh tomon ketayotgan sayyohdir. Kimdir buni idrok etadi, inonadi, kimdir buni anglamaydi, kufr keltiradi. Kufr keltirganlar ham naqadar qaysarlik etmasinlar tong –la olamlar Robbisi qoshida tik turib hisob berishga majburdir. Kibri, kattataroshligi ularni hech narsadan qutqarib qolmaydi. Nabiiyimiz, habibimiz, Allohning rasuli Muhammad sollallohu alayhi va sallam afandimiz: «Mo'minning ikkinchi kuni birinchi kuniga o'xshamas», – deb marhamat etmishlar!

Naqadar go'zal so'z! Na -da, go'zal, Buyuk So'z! Iymon egalarining yo'lini quyosh yanglig' porlatib, yoritib, charog'on aylayajak So'z! Zotan, mo'min har bir kun bir xayr faoliyatdadir. Har bir kun o'zi uchun, dini uchun, ummat uchun, oxirati uchun bir xizmat o'tayajak. Bir yangi ilmu hikmat o'rganajak. Bir on zikr xoli bo'lmagan qalbning naqadar yuksalishini idrok eta bilurmisiz? Qur'on tadabburi ila mo'min naqadar balandlarga parvoz etajagini bilurmisiz? Mo'min hargiz dangasa bo'lmas. Mo'min hargiz tanbal bo'lmas! U hamisha shijoat ustida, hamisha g'ayrat va jasorat ustidadir. Uni

yenga olguvchi kuch Yer yuzida bo'lmas, zotan, Allohga taslim bandani kim yengmog'i mumkin?! Hech kim! Bugun olamni zulm qoplamish. O'z haqqini so'raganlarning yuzini qora, talonchilar yuzini oq ko'rsaturlar. Dining uchun, erking uchun, yurtning uchun kurashsang, seni adashgan deb ayturlar. Zolimlarni esa e'zoz ko'rsatib, boshga ko'tarurlar. Bilingki, bu shaytonning makri, xolos. Bu makr Allohning qudrati oldida hech narsadir. Mo'minlar esa bu makr qurboni bo'lmasinlar! O'z yurtidan quvilganlar bir emas, mingdir. Dushmandan najot tilab yig'laganlar, bir emas mingdir. Haqni bila turib tark etib, botilni bila turib tutganlar bir emas, mingdir. Biling, ey ahli mo'min, o'z yurtningni vaqtida himoya etsang, surgun bo'larmiding? Dushmaningdan avvalroq Robbingga yig'laganingda g'anim qo'lida zalil bo'larmiding? Haqni hamisha himoyat etganingda botil changalida qolarmiding? Zinhor! Zinhor unday bo'lmas edi! Zotan, vaqtni o'z foydasiga qo'llangan mo'min mudom muzaffar bo'lgay! Biz esa unday qilmadik, zikrdan g'ofil bo'ldik, katta gunohlarni kichik, kichik gunohlarni muboh sanadik, nafsimiz istaklariga hiylalar ila yo'llar ochib berdik. G'aflat uyqusida yotdik. Najot qaerda? Najot Islomdadir. Najot lymondadir. Boshimizdagi halokat bulutlarini, qo'limizdagi qullik kishanlarini, qalbimizdagi zulmat sovug'ini idrok etmasak, biz Vaqtning o'g'li emas, zolimning quli bo'lib qolaveramiz. Hayotimizni Allohning qonuni qolib, uning qoidasi ila quramiz. Allohning so'zini tark etib, uning so'zini gapiramiz. Yurtimiz boyliklarini bosqinchiga tutqazib, o'zimiz uning xizmatkoriga aylanamiz! Hayhot! Robbimiz bizga najot bersin, ey ahli mo'min! Ibodatingiz ilm –la, zuhdingiz ibodat –la, sa'yingiz jasorat –la quvvatlansin! Olamga ochiq ko'z ila boqing. Shaytonning o'rgimchak to'ri bilan qo'ygan tuzoqlarida pashsha kabi to'lg'anishni bas qiling! Qalbingizni Allohga bog'lang, yuzingizni Allohga qarating, oyog'ingizni Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning izlariga bosing! Vassalamu alaykum va rohmatullohi va barokatuh!

Shayx Ehson afandi va'zni yakunladi. Ibrohim Yorqinning ko'zlaridan shashqator yosh oqdi. Tilib tashlangan qalbiga bir marham qo'yildi, go'yo. U manzilda yanglishtirmagan Allohga hamd aytdi. Ertalab tongda uni Ehson afandi o'z uyiga chorladi. O'rtacha xona. Na ziynati, na bezagi bor. Shayx bolishga suyanib o'tirgan ekan. O'rtaga dasturxon yozilgan. Dasturxonda mayiz, meva qoqilari va non bor.

– Vaalaykum assalom, o'g'il, kel, o'tir, – deb o'z qarshisidan joy ko'rsatdi shayx.

– Xush kelding, safo keltirding, Ibrohim. Birga nonushta etaylik, so'ngra o'zing haqingda menga so'ylab berajaksan. Senga yordam bera olsam, bir baxtiyorlikni topardim.

Nonushtadan keyin Ibrohim Yorqin o'zini batafsil tanishtirdi, kasbini aytdi, og'ir yo'l hikoyasini bayon qildi.

– Sen Shermuhammadbek mujohidni izlayapsanmi? – deb so'radi uni diqqat ila tinglagan shayx.

– Xuddi shunday, – dedi Ibrohim. – Ziyorat qilsam, suhbatlashsam...

– Yaxshi niyat, inshaAlloh, – dedi Ehson afandi. – Mening bobolarim Ho'qand shahridan bu yerlarga kelib yerlashmishlar. Men ham asli turkistonliman, o'g'il. Shermuhammadbek kabi mujohidlar millatning yo'lbarslaridir. Turkiyadan Turkiston mujohidlariga ko'mak bergani Anvar poshsho bormishdi. Robbim uni shahodat sharbati ila siyladi. Islom o'lkalari bu asrda butkul kufr qo'luga o'tdi. Movarounnahrni o'ris bosdi. Boburiylar saltanatini inglizlar egallab oldi. Usmonlilarni -da, iqtidordan ketkazdilar. Shimoliy Afrika yerlarini istibdodga tortdilar. Libya yerlariga Musollini qo'shini kirmishdi. Umar Muxtordek zotlar italiyon bosqinchilariga qarshi turib, ularni titratib yubordi.

Turkistonda esa xudosiz sovetlarga oyoqda turgan zotlar ushbu Shermuhammadbek kabi sherlar edilar. Ming yilda tiklangan saltanatlarni dushmanga topshirdik, endi uni qaytarib olishga birgina

Shermuhammadbek yoxud birgina Umar Muxtor kifoya etgaymi, o'g'il? Axir, bu saltanatlar Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning risolatlari qudrati ila barpo bo'lmishdi. To o'sha qudratni topmasak, qullikdan xalos bo'la olmasmiz! Men Shermuhammadbekni taniyman. U bilan ko'p musohib bo'ldim. Ahvalidan xabaring bormi?

– Yo'q, xabarsizman, – dedi Ibrohim.

– Alloh Shermuhammadbekning ko'zidan nurini olib, sinadi. Hozir uning sog' qolgan bitta ko'zi ham hech narsani ko'rmay qoldi. Sihhatiga ham keksalik ta'sir etmoqda. Biroq hamon qalbi bedor, hamon fikrati teran, hamon shijoati jo'shqin. Shermuhammadbek yashaydigan mahallada, asosan, turkistonlilar yashar ekan. Mujohidning hovlisi boshqalarnikidan qaysidir jihatlari bilan farqlanardi. Chunki Shermuhammadbek o'z uyini Farg'ona xalqining hovlilar bilan bir xil qurdirgan edi. Albatta, Ibrohim Yorqin buni keyinroq bilib oldi.

... Xonaga kirganlarida mujohid past ovozda yoddan Qur'on tilovat etayotgan edi. Odam kirganini payqab, qiroatni yakunladi.

– Assalomu alaykum va rohmatallohi va barokatuh, mujohid bey! – tezda borib Ehson afandi Shermuhammadbekning ikki qo'lini ushladi. Shermuhammadbekning yelkalari keng, ko'ziga qora ko'zoynak taqqan, soch –soqoli butkul oqargan edi. Boshida yengil do'ppi. Egnida bo'z ko'ylak. Keksa mujohid ozgan, biroq zabardast jussasi uning o'tmshidagi haybatidan darak berardi.

– Va alaykum assalom va rohmatallohi va barokatuhu va mag'firatuh, afandim! Xush keldingiz, safolar keltirdingiz, – dedi Shermuhammadbek chehrasiga tabassum yoyilib. U Ehson afandining tashrifidan quvongani yaqqol namoyon edi. Keksa jangchining ovozi guldirab jarangladi.

– Ota yurtimizdan bir muhojirimiz ziyoratingizga kelmish, ismi shariflari Ibrohim Xolid Yorqin o'g'li, – tanishtirdi Ehson afandi.

– Xolid Yorqin! – Shermuhammadbekning ovozi titrab ketdi. Ibrohim qo'l uzatgan edi uning qo'lini mahkam ushlab oldi. – Ey Ibrohim, sen Qilichbek Mujohidning nevarasimisan? Xolid Mujohidning o'g'limisan?

– Xuddi shunday, beyim, – dedi Ibrohim.

– Subhanalloh! Xush kelding, o'g'lim, safolar keltirding! O'tir, bu yerga o'tir! – Mujohid yonidan Ibrohimga joy ko'rsatdi.

Ehson afandi Shermuhammadbekning go'dak singari shodlanib ketganidan qalbida bir mamnuniyat uyg'onganini sezdi.

– Ehson afandim, siz -da, bu yerga o'tiring! – to'rga taklif qildi Shermuhammadbek. – Alloh Sizdan rozi bo'lsin, afandim! G'arib ko'nglimizga farah keltirdingiz, Ehson hakim hazratlari!

Ibrohim keksa jangchini uning kelishi bu qadar quvontirganidan xijolat tortdi, o'zini noqulay sezdi. Mujohid unga yana qaradi:

– Ko'zlarim ko'rmasa -da, sendan ota yurtim nafasini tuymoqdaman, Ibrohim, – dedi u. –Sening bobong Qilichbek katta xizmatlar etdi. Yetmish yoshida shijoati vujudiga sig'mas edi. Uning ilmi, tajribasi bizning miltiq tutmagan jangchilarni tarbiyalashda asqotdi. Robbim uni jannati ila mukofotlagan bo'lsin! Amiyn!

– Amiyn, – dedi Ehson afandi.

– Amiyn, – dedi Ibrohim ham sidqidildan.

– So'yla, Ibrohim, ota yurtimda ne gaplar? Ko'p xabarlar eshitaman. Ko'zlarim ko'rsa edi, bu oyoqlar yursa edi, Allohim shohid, o'ris kofirni Vatanimdan quvib chiqarmoq uchun qo'limdan kelganini qilardim! – dedi Shermuhammadbek chuqur qayg'uda.

– Ota yurtimizning ahvolini qanday bayon qilay, beyim? – dedi Ibrohim iztirob ila. – Qadim Buxoro, Samarqand, Xo'qand, Xiva dinsizlar qo'lida qoldi. Gitlarga qarshi urushda yuz minglab yigitlar o'ris tomondan jangga chiqib, halok bo'ldilar. Hozir davlatni kommunistlar boshqarmoqdalar. Oddiy xalq daladan chiqmaydi. Sovetning cho'ntagi

uchun ishlaydi, biroq o'zi buni bilmaydi. Din ta'qiqda. Musulmonlar ham qora mehnatdan bosh ko'tarmaydilar. Na ilm, na irfonni bilmaslar! Oriflarning bag'ri qon. Zaiflik ila Allohga duo etishdan bo'lak ilojimiz qolmadi. Koshki, duo qilsaydik! Meni eng qo'rqitgani shuki, xalq hurriyat, erk neligini mutlaqo unutdimi ekan!

Butun Turkiston o'z nomini qo'yib, o'z Robbisini esdan chiqarib, bosqinchi o'risga hamd aytadi, Lenin atalmish tog'utni zikr etadi. Butun millat ruhi o'ldirilgan, fikratsiz qoldirilgan qullar to'dasiga evrilmish, go'yo! Alloh o'z hikmati va marhamati ila bu diyorga Islom ne'matini qaytarmasa, hurriyat nafasini yetkazmasa, chiqib bo'lmas botqoqqa cho'kdik.

Shermuhammadbek boshini egib, chehrasi to'la mung, Ibrohim Yorqinni tinglardi.

– Sharqiy Turkiston esa Xitoy changalida qoldi, beyim, – deb davom etdi Ibrohim. – Uyg'ur xalqi -da, boshidan oyog'iga qadar kishanband etilmish. O'lik singari yotgan millatni uyg'otishdan ojiz bo'ldik. Bir inson yo'qki, bu Dardni anglasa, idrok etsa! Yo'q, barcha odamlar o'z jonlari qayg'usidan bo'yinlariga bo'yinturuq kiyishga rozi bo'lgan jonivorlarni eslatadi. Ba'zilar burunlaridan halqa o'tkazib, dushmanga jilovlarini tutqazdilar. Yer yuzini titratgan millat bugun darbadar bir olomon bo'ldi. O'z oyog'i ostidan narini ko'rmaydi. Dushmanlar esa och shoqolday bu muborak o'lkani tishlab ikki tomonga tortib, parchalab tashladilar. Biz esa hamon o'zimiz bilan xusumatlashamiz. Ibrohim gapirarkan, ko'zidan yosh chiqib ketdi. Ehson hakim, Shermuhammadbek ham sukut saqlar edilar.

– Yo'lda afg'onistonlik o'zbeklarni ko'rdim, – Ibrohim yo'ldagi hodisani esladi. – Ular sahroda kofirlarni talab yurishibdi. Ularning aytishicha, Afg'onga o'ris qo'shin kiritish arafasida ekan. Afg'on katta jang maydoni bo'ladi, yurtni kofirga bermaymiz deyishdi.

– InshaAlloh, – dedilar ikki mo'ysafid bir vaqtda.

YeTTINChI BOB

Shafiqa ko'chada behol turib qoldi. Gender «himoyachilari» undan osongina yuz o'girdilar.

– Kechirasiz, Shafiqa, – dedi Nikolas muloyimlik bilan. – Bizda har bir ish xohishga suyanadi. Sizda xohish bo'lmasa, biz majburlay olmaymiz. Jeyn qizishibdi, uni kechiring. Psixologlarimizning aytishicha, sizda beqarorlik kuchli ekan. Beqaror odamlar bilan ishlay olmaymiz. Taklif sizdan chiqqan edi, qabul qildik, sizni mudhish qismatdan xalos etdik. Dunyo ayollari himoyasiz emasligini isbotladik. Biroq siz o'zingiz biz bilan boshqa hamkorlik qilishni istamadingiz. Qolaversa, olti oy davomida bizning madaniyatga singib keta olmadingiz. Hamon erkaklar bilan tortinib gaplashasiz. Suhbatni qisqa qilasiz. Nutqda ham ko'zingizni odamlardan chetda tutasiz. Ichingizda qandaydir kuch sizni qo'yib yubormadi. Mayli, bu bizning xulosamiz. Biroq endi mustaqilsiz. Hayotingizni erkin davom ettiring. Birga ishlaganingiz uchun, rahmat. Sizni soqchilar kuzatib qo'yishadi.

– Yo'q, o'zim... – Shafiqa shunday deb, binoni tark etdi.

«Shafiqa, bu nimasi bo'ldi?» U o'ziga savol bersa -da, nima bo'lganini bilardi. Olti oy juda ham tadbirlarga boy o'tdi, lekin Shafiqadagi «yovvoyilik» yo'qolmadi. U itoat bilan matnlarni o'qib berdi, aytilgan joylarga bordi, ko'rsatilgan mehmonxonalarda yashadi, holbuki, na bir ayol, na bir erkak ila do'stlashmadi. Bu gender «himoyachilari»ni taajjubga soldi. Shafiqa navbatdagi tadbirni rad etgach, u bilan orani ochiq qilish qarori chiqarildi. Bunday tabiatli insonlar bilan ishlash gender «himoyachilari» uchun imkonsiz. Ularga quvnoq, kirishimli, sevgiga boy, haroratli, qaynoq yurakli odamlar zarur.

Shafiqa ko'chada qoldi. Hamyonida yegulikka bir sent ham yo'q. Telefon hisobi bo'sh. Shafiqa bu xatar haqida mutlaqo o'ylab ko'rmagan edi. Yuklari bilan ko'cha bo'ylab yurarkan, yig'lashini ham, kulishini ham

bilmadi. Yuragi kuydi. U bolaligidan orzu qilgani Amerikada edi. Amerika esa uni ko'chada qoldirdi. Kimga murojaat etishini bilmasdi Shafiqa. Olti oy u biror marta mustaqil holda ko'chaga chiqmagan edi. Uni Jeynning maxsus dasturlari boshqardi.

«Musulmonlarni topishim kerak... Qanday qilib?! Men musulmonlardan yuz burgan edim-ku! Kecha televidenie va radioda an'anaviy Islomning qoloqligini butun dunyoga e'lon qildim-ku! Buni ko'rgan millionlab musulmonlar nima degan ekan? Nahotki ko'chada qolib o'lib ketsam?!» Shafiqa tuyqus qo'rqdi. «Allohim!» deya qalbidan nido qildi, bu nidoga «Labbayka!» javobini his etmadi.

«Xudbinlashib ketibman! Boshimga mushkul tushganda musulmonlarni esladim. Allohni esladim... Naqadar xudbin, naqadar munofiqman!» Bu o'ylar jonsiz edi, zotan, bu o'ylar qalbni kuydirishi kerak edi, Shafiqaning qalbi «miq» etmadi. Qalb na qo'rquvni, na xavfni sezmadi. Shafiqa o'zini o'lib qolgandek his etdi.

Erini, farzandlarini esladi. Ajabo! Ularni unutib yuboribdi! Nahotki, o'z bag'rida olib yurgan jigargo'shasini yodidan faromush etdi?!

«Ahvolim naqadar og'ir! Men qanday ahvolga tushdim! Shafiqa, xarob bo'libsan, Shafiqa!» Ayolning boshi aylandi. U ortiq o'ylashni istamadi. U bu hayotni tezroq tark etishni xohladi. Afsuski, vujudi holsizlandi, ko'z o'ngi qorong'ulashdi, quvvati qaergadir, bir qora, mavhum bo'shliqqa so'rilib borardi, go'yo. Shafiqa gandarakladi. Qandaydir o'rindiqqa yetib oldi, o'tirdi, suyandi, nafasi siqildi, hushini yo'qotayotganini sezdi. Shu on bir ayolning ovozi eshitildi:

– Qizim, senga nima bo'ldi hoy, qizim?

Shafiqa bu mehrlil sas sohibasining chehrasini ko'rmadi, u butkul hushdan ayrilgandi.

... Deraza ochiq. Quyosh nuri harir pardadan o'tib, alvon gilamda jilvalanadi.

Yengil shabada. Gullar ifori. Javon to'la arab va turk tilida chop etilgan kitoblar.

Mushaf! Qur'oni karim! Shafiqa shuursiz holda Kalomullohga talpindi. Hamon kuchsiz edi. Boshi zilday og'ir. Xonaning bir qismigina namoyon.

– Qizim, o'zingga keldingmi?

Shafiqa tepasida ko'zlari katta va moviy, chehrasida nur jilvalangan, ro'moli o'ziga behad yarashgan Ayolni ko'rdi.

– Assalomu alaykum... – bazo'r shivirladi.

– Va alaykum assalom. Zinhor urinma!

– Ayolning sasi iliq edi.

– Ismim Roziya. Sharifim Muhsin. Roziya Muhsin. Senga tovuqli sho'rva qaynatdim. Ichib ol. Allohning izni ila quvvat bo'ladi.

Shafiqa javob berolmadi. Ixchamgina chinni kosani ko'tarib, Roziya xonim uning yoniga cho'kdi. Kosani yonidagi g'ildirakli stolga qo'ydi. Ikkita yostiq bilan Shafiqaning boshini biroz balandlatdi. Yog'och qoshiqda Shafiqaning labiga sho'rvani tutdi. Sho'rva iliq, xushbo'y edi. Ikki xo'plamdan so'ng, Shafiqaning tanasiga yengil harorat yoyildi. Boshidagi og'riq tarqagandek bo'ldi.

– Sho'rvaga shifobaxsh giyohlar soldim, inshaAlloh, ichingdagi dardlarni aritadi.

– Koshki, ariydigan dard bo'lsa edi ular... – Shafiqaning ko'zidan yosh oqa boshladi.

– Hech bir dard davosiz yaralmagan, qizim, – dedi Roziya xonim. – Bu qadar umidsizlanma. Tinglay olasanmi?

– Albatta, xonim... – dedi Shafiqa.

– Qancha vaqt yotdim?

– Yigirma to'rt soat, – javob berdi Roziya xonim. – Tibbun nabaviyyadan biroz xabarim bor. Darding xafaqonlikning ibtidosi. Yengib

yuborasan, inshaAlloh. Shuning uchun, doktorga yugurmadim. O'zim muolaja qildim. Ikki oyki, Amerikadaman. Bu ukamning uyi. O'zim Turkiyada yashayman. Bir haftadan so'ngra safarim qariydi. Robbim bu safarni sen ila xayrli etdi. Ya'ni senga yaxshilik qilishdek imkon qo'limga kirdi. Alhamdulillah.

– Meni qanday topdingiz?..

– so'radi Shafiqa.

– Xarid uchun chiqqan edim. Seni ko'rdim. Hushing boshingda emasligini payqadim.

Sen tomon kelaverdim. Hijobli bir musulmaning qo'lida yuk aravachasi ila parishon turishidan ko'z yumib bo'lurmi? Haqiqatan, o'rindiqa cho'kding. Yetib keldim. Ne ko'z ila ko'rayki, ranging oppoq, ko'zlaring yumuq! Tezda taksida uyga keltirdim. Bori shu.

– Men ham muslima bo'ldimmi?.. – iztirobda gapirdi Shafiqa. – Kimligimni bilganingizda o'lib, qumursqalarga yem bo'l deb ketib qolar edingiz...

Roziya xonim Shafiqaga qarab qoldi. Nigohidagi achinish emas, shunchaki, ixlos edi.

– Ismingni aytasanmi? Seni qanday chaqirishni bilib olay, qizim, – dedi xonim xuddi Shafiqaning shikoyatini eshitmaganday.

Shafiqa ismini aytdi.

– Shafiqa, sen oyoqqa tur. Yoshing nechada?

– Yigirma uchda...

– Juda ham yoshsan, jon qizim, – dedi Roziya xonim. – Hayotda nimani ko'ribsanki, bunchalik noliysan? Robbimning yordamidan, marhamatidan umidingni uzma. Uying qaerda?

– Uyim yo'q... Boradigan joyim yo'q...

– Unday dema. Mo‘minning borar joyi Allohning huzuridir. O‘kinma. Iltasang, seni Turkiyaga olib ketaman. Hujjatlarinig to‘kismi? – so‘radi Roziya xonim.

– Yo‘q, yo‘q! Hech qaerga ketmayman. O‘zimni dengizga tashlayman, – dedi Shafiqa.

Roziya xonim hayron bo‘ldi:

– Nega?

– Chunki o‘ligim ham odamlarga yuk bo‘lmasin. Yer yuzida meni izlaydigan inson yo‘q. O‘ligim begonalar qo‘lida xorlanmasin. Nahanglar havzasiga o‘zimni cho‘ktiraman, – Shafiqaning qarori qat‘iy edi.

Roziya xonim tik holda Shafiqani tinglayotgan edi. Bu da‘vodan keyin yana o‘tirishga majbur bo‘ldi.

– O‘ligingni begonalarga qoldirmasliging yaxshi ish, – dedi ma‘qullab.

– Lekin o‘lishga nega shoshilyapsan? Kimdir quvyaptimi?

Shafiqa o‘ylanib qoldi. Nima uchun shoshyapti, axir?

– Men o‘lishim kerak... – dedi javob topa olmagach.

– Yer yuzida menga joy yo‘q.

– Shafiqa, insonlarning barchasi bir kuni, albatta, o‘ladilar desam, ishonasanmi? – so‘radi Roziya xonim.

– Albatta, – dedi Shafiqa.

– Sen -chi? Sen ham o‘lasanmi? Yoki hamma o‘lib, birgina sen tirik qolib ketayapsanmi, Shafiqa? Yo o‘zingni dengizga otmasang, o‘lmas ekansanmi?

– Yo‘q, nega... – Shafiqa taraddudlanib qoldi.

– Yer yuzida qancha inson yashayapti, bilasanmi?

– Sakkiz milliardga yaqin...

– O‘shalarning ichida eng baxtsiz senmisan?

Shafiqa bir necha soniya jim bo‘lib, so‘ng sekin shivirladi:

– Bilmayman...

- O‘zingni o‘ldirish eng muhim ish bo‘lsa, nima ham qilardim, Shafiqa!
- dedi Roziya xonim.

Shafiqa jim. Yugurib xonadan qochib chiqar edi, biroq madori yo‘q.

Roziya xonim esa Shafiqaning ko‘ziga qaradi:

– Kenja qizim sen bilan teng. Agar qizimning o‘rnida bo‘lganingda seni, albatta, jazolardim. Qanday jazolayman, bilasanmi? Suv to‘ldirilgani idishga yuzingni bosish kerak! Jon berish oson deb o‘ylayapsanmi? O‘n soniya nafas ololmasang, qanday azob chekishingni bilasanmi? Bilmaysan! Jon berish eng buyuk azobdir. O‘limdan keyin hammasi tugaydimi? Iymoning qaerda? Oxiratga bo‘lgan iymoning qani? Qabr azobiga iymoning qani? Shunchalar zaif bo‘lurmi musulima?! Dunyo hayoti oxirat qoshida bir nafasdir! Bir nafasdan ham qisqadir! Bir nafasni joningni qatl etib, abadiy azobga ayirboshlaysanmi?

Roziya xonimning ovozi ko‘tarilib ketdi, yuzi qizardi. Shafiqa xonimning g‘azabidan qo‘rqdi. Bu shunday qo‘rquv ediki, uning mohiyatini ayol bilmasdi, shunchaki, Roziya xonim uning qalbiga hayiqish olib kirdi.

– Basharti, yana o‘zimni o‘ldirajakman desang, senga o‘lim azobini o‘zim tottiraman! – Roziya xonim bu tahdidni Shafiqaning yuziga yuzini eng yaqin masofaga keltirib e‘lon etdi. Shafiqaning qo‘rquvi ko‘paydi. Qo‘rquvi ko‘paygani sayin yashash ishtiyoqi tirildi.

– Shafiqa, seni uyimga, Turkiyaga eltaman. Sen tarbiyatga muhtojsan!

... Shafiqa Roziya xonimning ortidan yosh boladay ergashdi. Xonimning Istanbul tashqarisida, Qora dengiz bo‘yidagi hovlisi so‘lim ekan. Chor –atrofi ko‘m –ko‘k. Bu Shafiqaga Kuala Lumpurni eslatdi. Biroq u Kuala Lumpurni, eri Fotih Karimni eslashni istamasdi, zotan, bu eslash unga uning noshukurligini namoyish etadi. Boy berilgan ne‘matlarning azobi achchiq. Ayniqsa, bu azobning ortida o‘z xatoying tog‘dek qad rostlab turgan bo‘lsa! Roziya xonim xonasi yonidan Shafiqaga bir xonani berdi.

Xonaning yuzi kunchiqarga qaragan. Derazaning tagida sopol yo'lak. Yo'lakdan so'ng gulzor. Gulning adadsiz turlari o'sadi, go'yo. Roziya xonim bir necha kun Shafiqani o'z holiga qo'ydi. Lekin uch kundun so'ng Shafiqaga xonimga aytdiki, u uy ishlarida ko'maklashmoqni istaydi. Xonim qabul etdi. Keliniga buyurdiki, u Shafiqaga qilajak ishlarini ko'rsatadi.

Oradan bir oy o'tdi. Shafiqaga Roziya xonimni muttasil mutolaa, tilovat, ibodat ustida ko'rdi. Xonim na ovoznigor tinglaydi, na oynayi jahon ko'radi. Bog' o'rtasidagi ayvonda tong va oqshmoda Qur'on, tafsir, hadis o'qiydi. Xonim shu qadar sokin, shu qadar ma'noli ediki, Shafiqaga u bilan ko'proq suhbatlashmoq xohladi. Oqshomlarning birida ayvonga bordi, xonim o'tirgan so'riga chiqib, tiz cho'kdi. Roziya xonim kitobdan ko'zini olib, Shafiqaga boqdi, ko'zoynagini ko'zidan tushirdi.

– Men pokistonlikman. Lahordanman, – deb so'z boshladi Shafiqaga. U o'z hayotining sahifalarini varaqladi. Har bir varaqda u o'qishni istamaydigan iztirobli satrlar bor, biroq u o'qidi. Hammasini Roziya xonim qarshisida o'qidi.

Shafiqaning dardli qissasi yarim tunga cho'zildi. Roziya xonim uni katta e'tibor ila tingladi, so'zlarini bo'lmadi, so'ngra dediki:

– Xato qilish Odam atodan meros, Shafiqaga. Tavba qilish ham uning sunnati. Robbisining qoshiga siniq qalb ila borish beayblik davosi ila borishdan ko'ra yaxshiroqdir, inshaAlloh. Nadomat xanjari qalbingga naqadar chuqur botganini Alloh bilguvchi. Bu jarohat qalbingni Allohga butkul taslim etsin! Bilurmisan, hidoyat yo'lini topish unda yurishdan og'irroq, zotan, shayton hamisha u yo'ldan ozdirmoq qasdida. Bugun biz dajjol madaniyati davrini boshdan kechirmoqdamiz. Dajjolning bir ko'zi bor. Dajjol madaniyati insoniyatni bir zalolat botqog'iga botirdi. Bundan qirq yil oldin har bir xalqning o'z urfi bor edi. O'z qoidasi, o'z libosi, o'z niyati, o'z taqvosi bor edi. Bugun dunyoning hamma xalqi bu boylikni boy berdi. Hech bir millatning asliyatini qolmadi. Odamzod o'z asliyatidan yuz o'girdi. O'z

ildizidan uzildi. Asliyatda qolaman deganlarni qoloq deyish urf bo'ldi. Asliyatga talpinganlarni dushman deb bilish qoidaga aylandi. Bugun Yer yuzining qaysi nuqtasiga qadam bosma, bir xil narsani ko'rasan: insoniyat yechinishga, semirishga, yeb –ichishga, kayfu safoga mukkasidan ketganlar Yer yuzini egalladilar. Hech birida muqaddas e'tiqod yo'q. Erning ayoldan, ayolning erdan farqi qolmadi. Katta va kichik orasidagi hadlar barbod bo'ldi. Bu shayton o'yini, bu dajjol madaniyatidir. Odamzodning asliyati – Allohga bo'lgan komil iymondir. Shafiqa, sen komil iymonga erishmog'ing lozim.

– Qanday? Men din olimining farzandiman. Din nafasi ichida ulg'ayib siz aytayotgan ne'matni topmadim. Yod olganim aqiyda matnlari, Qur'on oyatlari, hadislar mening dardimga davo bo'lmadi,

– dedi Shafiqa qayg'uda.

– Siz yana qanday iymonni aytmoqdasiz?

– InshaAlloh, buni o'zing kashf etajaksan, qizim, – dedi Roziya xonim.

Subhi sodiq qirgan edi. Bomdod namozini ado etdilar. Shafiqa tobora o'zi istagan Bir Hidoyatga yaqinlashayotganini sezdi.

Keyingi suhbatda Roziya xonim Shafiqani yana savolga tutdi:

– Musulmonmisan?

– Alhamdulillah, musulmonman, – dedi Shafiqa.

– Musulmon ekanligingni qay tariqa bildirasan? – so'radi Roziya xonim.

– Shahodat kalimasi ila, – dedi Shafiqa. – Ashhadu an la ilaha illallohu va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rosuluh.

– Subhanalloh, – dedi Roziya xonim. – Shahodat kalimasining ma'nosi nedir?

– Allohdan bo'lak Iloh yo'q deb guvohlik beraman, – dedi Shafiqa. – Va Muhammad Uning bandasi va elchisidir deb guvohlik beraman.

– Subhanalloh, – dedi yana Roziya xonim. – Guvohlik bermoq nedir? Tushunurmisan?

Shafiqa o‘yga toldi.

– Guvohlik aniq bilganing xususda o‘rtaga chiqajak bir Haqiqatdir, – dedi Roziya xonim. – Allohning yagona iloh ekanligi xususda guvohlik berish zimmangga qanday vazifalar yuklashini anglaysanmi? Har bir so‘z yurakdan chiqmog‘i shart. Har bir kalima qalb tubidan yangrashi lozim. Qalb qa‘ridan porlab chiqqan So‘z hayotimizni yoritadi. O‘ylab ko‘r, shahodat kalimasini aytar ekansan, uning qudrati, sening qalbing, ruhing, hayotingga naqadar ta‘sir etajagi haqida tafakkur qilganmisan? Shahodat kalimasi seni dunyo zindonidan oxirat saodatiga olib chiqajak Nur ekanligini tasavvuringdan o‘tkazmishmisan?

Shafiqa sukutda edi. U bolaligidan o‘ziga berilgan ta‘limni eslashga tirishdi. Bunday so‘zlar nahot unga zinhor aytilmagan bo‘lsa?!

– Shafiqa, Robbimizni tanish so‘zlarni yod olish bilan amalga oshsa, koshkiydi! Qur‘onni, Eng Buyuk Kalomni hizf etamiz, tinglaymiz, holbuki, nechun bu qadar halovatsizmiz? Iymon kalimasi ortidagi kashfga qadar uzun bir yo‘l bor, zotan.

SAKKIZINChI BOB

Ibrohim Yorqin Shermuhammadbekdan so‘radi:

– Beyim, Turkiston mujohidlari o‘risga, o‘risning kofiriga nima uchun taslim bo‘ldilar? Hamisha shu azobli tariximiz haqida o‘ylayman va bu o‘ylar menga tinchlik bermaydi...

Shermuhammadbek xo‘rsindi. Ehson afandiga qarab dedi:

– Kelajak avlod, albatta, shu savolni berishini bilardim. Bu so‘rovga javob berish oson emas. Inson qoshida oson emaski, Robbimiz tergovida qanday javob berajakmiz? Axir, biz millat va din himoyasini yelkamizga olib edik. Holbuki, kurashni boy berdik. Qaniydi, avlodlarimizga Allohning bizga

bergan nusrati haqida xotiralar qoldirsak! Yo‘q, biz yurakning qop –qora qoni tomchilab turadigan bir alamli hikoyalarni, qablarni o‘rtaydigan mag‘lubiyat tajribalarni bayon etishga majburmiz. Bayon etaylikki, bolalarimiz biz tushgan chohlarga qayta yiqilmasinlar, balki u chohlardan qutulsinlar. Biz borgan tikanlarni bosib, zulm daraxtlarini qonlari ila sug‘ormasinlar, zolimlarning changalida shoqolning tishi orasiga tushgandek ingranmasinlar! Ibrohim, aytajagim so‘zlarni naqsh kabi qalbingga jo et. Bu so‘zlarni farzandlar bilmoqlari lozim, shubhasiz. Ko‘p xato qildik. Birinchi xatoyimiz g‘aflatimiz edi. O‘ris yurtimizga kelganida dunyoda ne bo‘layotganidan bexabar edik. Qudratli davlatlar Yer yuzini o‘zlari uchun tomorqa kabi bo‘lishib olayotganlarini hech birimiz bilmasdik. Vatanimizdagi boyliklar hisobini biz bilmasdik, dushman bilar edi. Biz bilsak -da, uni qandoq istifoda etish ilmidan bebahra edik. Hayotimiz o‘zaro jiqqamusht o‘tdi. Sen sart, sen tojik; sen qiyot, sen qo‘ng‘irot; sen nayman, sen uyg‘ur deb bahslashdik. Koshki, ilm ila bahslashsak! Koshki, taqvoda musobaqalashsak! Yo‘q, biz to‘y qilishda tengsizmiz. Biz g‘iybatda kuchlimiz. Mansabparastlikda g‘ayratlimiz. Holbuki, inglizlar, frantsuzlar, nemis va ruslar Islom saltanatlarini yemirib kelar edilar. Jannatmakon Osiyoni jahannamga evirdilar. Unday emas, aslida, o‘zimiz o‘zimizga go‘r qazidik. Ovrupoda miltiq, zambarak, snaryad bilan jang qilganlarida, biz kamon va qilichni changalladik. Ovupo, Amirqo o‘z hayotini tartiblash qayg‘usida qonunlar yozar ekanlar, biz ming yillik qonunlarimizga tupurdik. G‘ayridinlar qonunni u asosda yashamak uchun tuzsalar, biz o‘z mukammal koidalarimizni amal etmaslik qasdida buzdik. G‘ayridinlar, kofirlar Islom dunyosini yer bilan yakson etishni rejalashtirdilar. Podshohlarimiz o‘risning podshohiga qullik va qulluq qilib, sovg‘a –salom bilan yugurdilar. Ulug‘ deb bilganlarimiz yurt deb, millat deb, din deb g‘am chekmaganlaridan so‘ng biz eryigitlar, bo‘zyigitlar qo‘lga qurol oldik. O‘risga bilganimizcha qarshi chiqdik. Biroq bizda na harbiy ilm, na e‘tiqodiy bir ta‘lim yo‘q edi. Ustoz deb

borganlarimiz qo'rqdilar, do'st deb o'ylaganlarimiz sotdilar. Bizning yagona maqsadimiz yurtidan kofirni haydab chiqarmoq edi. Shu qadar sodda bo'ldikki, kofir o'zimiz chiqib ketamiz, bizni o'ldirmanglar desa, oson aldandik. Mujohid birodarlarimiz bilan oramizga fitna solsa, aldandik. Bir – birimizga ishonish o'rniga kofirga ishondik. Bizga bir zot bo'lmadiki, urushimizning mohiyatini anglatsa! Dastavval, yurtni kofirdan tozalaymiz deya maydonda edik. Qurollarimiz eski, o'q topolmaymiz. Xoinlar pada – pada bo'lib, kofirga taslimiyat keltirdi. Jon saqlash qiyinlashdi. Oqibat, jon saqlash uchun o'q otdik, keyin jon saqlash uchun o'q otish shart emas deb o'yladik. Ming afsus, ming afsus, ming afsus! U kunlarni eslasam, yuragim qonga to'ladi. Qanday, chora qo'llashni bilmasdik. Qochishdan, ba'zilarimiz qurolini topshirishdan bo'lak chora topmadik. O'z do'stlarimiz bizni bosmachi deb, qonimizni to'kdi. Birodar, nega men bosmachi bo'lay? Axir, men o'z yurtimdaman. Otam, bobom yashagan tuproqdaman. Bu tuproqda bosmachi o'ris emasmi? Kofir emasmi? Shunday, bosmachi kim, himoyachi kim – farqlay olmas holga tushdik. Biz ko'p narsani anglamaganmiz. Qarshimizdagi g'animni tanimasdik. G'animni tanimasak -da, mayli, biz o'zimizni tanimasdik, jigarim. Bundan dahshatli ne bor jahonda? O'zing boq: o'risni haydab solsak, keyin nima qilishni bilmasdik! Yurti idora qilish ilmidan bexabar edik. O'zini millatparvar deb bilganlarning esa o'zaro nizolashmoqdan bo'lak ishlari yo'q. Senga bir voqeani aytib beray.

Kofirga jihad boshlaganimizning ilk vaqtlarida olovdek yondik. Kuchimiz, g'ayratimiz tanaga sig'maydi. Kommunistlarni vodiya haydab chiqara boshladik. Ergash qo'rboshi rahbarimiz. Madaminbek va meni o'ziga eng yaqin yordamchi bilib, kofirdan ozod etganimiz yerlarni qo'riqlashni, hujumni davom ettirmoqni amr etdi. Robbim nusrat berib, ikki kunda o'n qishloqdan bolshovoylarni quvdim, qolganini o'ldirdim. Qo'limda besh yuz yigitim bor. O'zim kofirlardan qutqargan qishloqlardan birida tunab qoldim. Ertalab qarorgohim oldida olomon. Bir yigitning qo'lini bog'lab yerga

tashlab qo'yishibdi. Bu yigit shu tunda o'g'irlik ustida ushlanibdi. Ilk mahkama. Xalq ilk da'fa dardini aytib qoshimda turibdi. El orasida qo'rboshilar, mujohidlar haqida ko'p gap tarqalgan. Endi adolat lozim. Qishloq odamlari juda sodda, yoshi ulug'laridan biri menga vaziyatni tushuntira ketdi:

– Bek, qishloqlarimizda o'g'irlik bo'lmas edi. Kofir keldi – o'g'irlik keldi. Ko'z oldimizda muloyim odamlar bolshovoyman deb, quturib ketdi. Olti oy ularning qo'lida qoldik. Hammaning molini tortib oldi. Birovning dodini birov tinglamay qo'ydi. O'g'irlik ham boshlandi, beadablik boshlandi. Yoshlarimizni bazo'r ushlab o'tiribmiz. Siz bu qo'li egrilarni shariat bilan jazolang, hammaga ibrat bo'lsin.

Cholni tinglay turib, hukmni men bera olmasligimni esladim. Menda ilm bo'lmasa! To'g'ri, Qur'ondan bir necha porani yod olganman. So'fi Olloyorni o'qiganman, lekin qozi emasman-ku!

– Qozi bormi? – so'radim qariyadan.

– Kofir hujumi boshlangan qozimiz hammadan avval hijrat qilishdi. Chunki bolshovoylar qozilarni avval o'ldirishayotgan ekan. Qozimiz shu muzofotning chorak qismiga mas'ul edi, – javob berdi chol.

– Imom bormi? – so'radim yana.

– Qishloqda bir imom bor.

U kishi masjiddan chiqmaydi. Kofirlar imom bilan rosa gaplashishibdi. – Chaqiringlar imomni, – buyurdim.

Imom yoshi qirqlardagi chuvakkina kishi ekan. Bo'yi pakana, ko'sa, qandaydir qo'rqinchi borday tuyuldi.

– Keling, mulla, – deb uni ichkariga taklif qildim. Imom egilib salom berdi, ikki qo'llab so'rashib, ichkariga yugurib kirdi. Men undan so'radim.

– Qaerda o'qigansiz, mulla buva?

– Buxoroi sharifda tahsil ko'rganmiz, – dedi imom.

– Yaxshi, mulla buva, – dedim. Vaqtim ziq, tezroq hukm zarur. – Bir o‘g‘rini keltirishibdi. Shariat bilan hukm chiqarib bering.

Imomning ko‘zi o‘ynab ketdi:

– Unday qilolmayman!

Unday qilolmayman!

Men juda hayron qoldim.

– Nimaga, mulla buva?

– so‘radim.

– Bolshovoylar ertaga qaytsa, dodimni kim eshitadi? – ko‘zi chaqchaydi imomning.

G‘azabim qaynab ketdi. Belimdagi to‘pponchaga beixtiyor qo‘lim yugurdi. Biroq olmadim.

– Hoy, munofiq! – deb qaltiragancha uning yoqasidan tutib siltadim. – Menga qara, pakana! Xudodan qo‘rqmasdan kofirdan qo‘rqasanmi? Kofir qaytib kelmaydi! Bidingmi? Kelmaydi!

Imom adoyi tamom bo‘ldi. Rangi o‘chib, labi pirpiradi, peshonasi terladi.

– Bildim, bildim, – dedi yalingansimon yig‘lamsirab. – Istasangiz, hukm chiqarib beraman, bek. Qanday hukm chiqaray?

Bu gapidan qonim qaynab ketdi. Men bu itdan shariat hukmini so‘rasam, mening ra‘yimga qarayapti? Urrib, basharasini qonga belashdan o‘zimni bazo‘r tiydim. Siltab, itarib yubordim. Pakana imom gandraklab turib qoldi. Sallasi boshidan chuvalashib yerga tushdi. Shahd bilan tashqari chiqdim. Olomon tinchidi. O‘g‘rining tepasiga keldim.

– Isming nima? – so‘radim undan.

– O‘roz, begim, – dedi o‘g‘ri. Turqidan nashavandligini sezdim.

– Nima o‘g‘irlading? – vajohatim yomon edi, shekilli, o‘g‘ri tipirchilab dedi:

– Men... Men... Haligi...

– Nima o'g'irlading, it! Kazzob! – hayqirib yubordim. Shunday hayqirdimki, ovozimda qahrimning hamma alangasi bor edi. Odamlar cho'chib ketganini yaqqol sezdim.

– Qo'y... Qo'y oldim, begim...

– Chap qo'lini yechinglar, – dedim. O'g'ri yalina boshladi:

– Rahm qiling, begim, rahm qiling! Shayton yo'ldan urdi. Bir zumda chap qo'lini yechib, o'ngini tanasi bilan qo'shib mahkamroq bog'lashdi. O'g'ri chiyilladi:

– Rahm qiling... Rahm qiling...

Men odamlardan so'radim:

– Kimning uyiga tushdi bu it?

Qotmadan kelgan, qora bir odam chiqdi:

– Mening uyimga tushgan, bek.

– Kasbi koringiz nima?

– Dehqonman.

– Nechta qo'yingiz bor?

– Bitta oriq qo'yim bor, xolos. Kofirlar mollarim bilan qo'shib tortib oldi.

Qizil askarlarni boqarmish.

O'g'riga qaradim:

– Sen it bir kambag'alning sho'rini quritmoqchi bo'libsan-ku! Qo'lingni cho'z!

O'g'ri tiz cho'kdi, chap qo'lini qaerga yashirishni bilmay menga yalinib uzatgan edi, qilichimni ko'z yumib ochguncha bir fursatda qindan sug'urdim, bilagidan chopdim. O'g'ri chinqirib qoniga belanib yiqildi.

– Kigiz kuydirib bosinglar, – dedim. Bir zumda aytganimni bajarishdi, qon to'xtadi. O'g'rining oyoq – qo'lini yechishdi, u hamon hushsiz edi, zambilga solib olib ketishdi. Odamlar mendan qandaydir gap kutayotganini bildim.

– Kofir bilan urushdamiz,

– dedim. Ochig‘i, chiroyli gapira olmasdim. – Kim yana shunday ish qilsa, shariatga ko‘ra qo‘lini kesaman, kerak bo‘lsa, boshini uzaman. Biz Xudo yo‘lida xalq himoyasiga chiqdik. Bu kofirga qarshi g‘azovot deyiladi. Qo‘rqmanglar, kofirni yurtdan quvamiz! Musulmonlar! Unutib qo‘ymang, Xudo Bir, Rasul Barhaq!

Odamlar tarqaldi. Mening kayfiyatim yo‘q edi. Qizillar bu yerdan yigirma chaqirim nariga joylashayotganini eshitib, yigitlarim bilan ketarkanman, imomning so‘zlarini hamon hazm etolmasdim. Jigarim, bu biz ichida bo‘lgan muammolarning eng maydasi edi. Lashkarni boshqarish, lashkar ichidagi nizoni hal etish, ta‘minot, kofirdan qaytarib olingan hududlarni saqlab qolish, asosiysi, lashkarning ruhiyatini ko‘tarib turish kabi ishlarning cheki yo‘q edi. Yigitlarim ko‘paydi. Ikki mingdan oshganimizdan so‘ng, Ergash qo‘rboshi maslahat soldi, lashkarimizni Islom lashkari deb e‘lon qildik. Harbiy tayyorgarligimiz baribir sust edi. Yigitlarning qoni qaynoq, biroq ko‘pi hayot ko‘rmagan, shijoati bor, tajribasi yo‘q. Kalta o‘ylaydi. Ba‘zilari bilib –bilmay xatolar qildi. Kofirni vodiyaning uloqtirganimizda ularning sarkardalari sulh taklifi bilan chiqdi. Bu hol obro‘mizni oshirib yubordi. Safimizga odam oqib keldi, afsuski, kelayotganlarni tekshirishga, ular bilan batafsil suhbatlashishga vaqt ham, imkon ham, olimlarimiz ham yo‘q edi. Haftiyak o‘qigan, So‘fi Olloyorni yodlaganlarni lashkar ichidan toptirdim. Yigitlar ibodatga mustahkam turishlari shartligini tushuntirdim. Har xil gunohlardan qaytish kerakligini uqtirdim. Sonimiz ko‘paydi, sifatimiz oshmadi. Ergash, Madaminbek va menda umumiy hisobda o‘n besh minggacha qo‘shin yig‘ilgani aniq yodimda. Uchovimiz ham biroz havolandik. Ergashni amirulmuslimin deb tan olsak -da, ichimizdan unga bo‘ysumaganimizni bilaman. Ergash ham buni sezib yurardi. Lashkar ham bundan ogoh edi. Hozirgi aqlim o‘shanda bo‘lganida edi hammani Ergashga majburlab itoat qildirgan bo‘lardim. Itoatsizlarni o‘ldirib, butun vodiyaning temir intizom joriy etardim. Biroz ilmimiz,

aqlimiz bo'lganida o'zaro adovatlashmasdan kofirni tag –tugi bilan quritardik, albatta. Kofirning Frunze degan sarkardasi katta fitna qildi. Biz aldandik. Ergash bir jangda yaralandi, esini yo'qotdi, Madaminbekka meni xoin o'laroq ko'rsatdilar, menga esa Madaminbekni yomonladilar. Bu alamli va uzun hikoya. Harakatimiz bilan Farg'onani emas, butun Turkistonni larzaga soldik. Keyin eshitdimki, o'ris kofir bu yerlardan umid ham uzgan. Holbuki, biz g'ofil edik. Na o'ris ichida josusimiz, na bir ruhoniy yo'lboshchimiz yo'q edi. Qizillarga qarshi Oq podshoning eski harbiylaridan lashkarimizga ta'lim ham o'rgatdik. Oramizga xoinlar kirdi. Dinidan, iymondan yuz o'girganlar bizni sotdi. Minglab yigitlarimiz shahid bo'ldi. Kofir yurtimizni bo'g'ma ilon kabi bo'g'ib, bosib oldi. Biz borimizni boy berib, qon yig'lab chiqib ketdik. Alloh bizga o'z Vatanimizni qayta ravo ko'rmadi. Biz Amudaryoning narigi tomonida, afg'on shamolida qum yutib, kufr xalqimizni qay tariqa xorlaganini jim tomosha qildik.

– Ey Shermuhammad, – degan edi amir Olimxon menga. – Alloh bergan Islom saltanatini men qo'ldan chiqardim. Necha asrlik musulmon yurtini kofirga topshirdim. Buning uchun Mahsharda Allohga qanday javob berajakman?!

TO'QQIZINCHI BOB

Roziya xonim Shafiqa bilan ko'p suhbatlashdi. Dengiz bo'yiga olib chiqdi. Bomdod namozini o'qiydilar, tilovat va zikr ila o'tiradilar, so'ng ufq qirmizi tus olish arafasida sohilga yo'l oladilar.

– Inson o'zini tanib, o'zini yenga olishidan kattaroq ish yo'q, Shafiqa, – dedi Roziya xonim. – Bu nafs bilan kurashmoqdir. Allohga ibodat va itoatda bo'larkanmiz, nafsimizni sindirishimiz, uni taslim etishimiz eng mashaqqatli kurashga aylanadi. Dunyo va uning ichidagi narsalarga muhabbat bilan qaraganing sayin Allohdan yiroqlashasan. Allohdan yiroqlashgan banda hech bir haqiqatni idrok etmas, uning tafakkuri haqni

anglashdan ojiz qolajak. Iymon kalimasini aytsang -da, besh mahal namozni ado etsang -da, zakotingni musriflariga tutqazsang -da, Ramazonda ro'zali yurib, haj niyati ila Ka'baning ziyoratida bo'lsang -da, nafsingdan g'olib kelmaguningcha bu amallar seni yaxshi tomonga o'zgartirmagay.

Hatto, jehod maydoniga chiqqan mujohidning nafi unga iymonidan ko'ra kuchliroq ta'sir o'tkazsa, kofirning qonini to'kib, jonini olishdan kimga qanday naf bo'lgay?! Zotan, jehodning asli nafsqa qarshi jehod qilmoqdir. Nafs ko'zni ko'r etadi, haqiqiy ishqdan ayiradi, ro'yolarga asir etadi. Mushriklar «La ilaha illalloh» demadilar, chunki Allohga sig'inmoq ila nafslarining xohishlaridan yuz o'girishga majbur bo'lishlarini ular bizdan teranroq tushungan edilar. Bugunning musulmonlar iymonga olib kirajak kalimalar mohiyatiga Makkaning o'sha mushriklari qadar ham nazar sola bilmaymiz. Islomga bir shakl o'laroq boqdik. Uning ichiga qiziqmaymiz. Qalbingni tarbiyalab, ruhingni kirlardan poklaydigan Islomni emas, qonun – qoidalardangina Islomni ushladik. Holbuki, Islomning mohiyati insonni Robbisiga yetaklashdan iborat, bizning islomimiz esa, aksincha, Xudodan teskariga olib ketmoqda.

Chunki biz Islom ila yashamayapmiz. Islom ila yashash o'g'rining qo'lini kesib, fohishani toshbo'ron qilishgina bo'lsaydi, bundan oson ish topilmas edi, shubhasiz. Islom ila har bir mo'minning ichki olami, hammadan berkitadigan yashirin hayoti, qalbidagi o'ylari, hissiyoti, aqlining xulosalari – hamma –hammasi Islomiy bo'lmog'i lozim. Robbimning qoshida bu niyatim uchun qanday javob berajakman? Bu amalim sababli Allohning muhabbatidan mahrum bo'lmasmanmi? Qaysi ishlarim Robbimga xush keladi? Axir, men Allohga taslimman, uning amrlarini so'zsiz bajarishga qasam ichdim, menda zarracha shubha bo'lmasin, ikki dunyo bo'lurmi, bo'lmasmi, Robbimning amrlarida sobit turishim kerak, lekin bu mening qo'limdan kelsa, koshki! Na niyatlarimni o'nglay olaman, na

amallarimni isloh etaman! Har biri Robbimning iznida. U xohlasa, men hidoyatdaman, u xohlasa, men yaxshi ishga qodirman, yo Robbim, menga yordam ber, bizni o'z holimizga tashlab qo'yma!

Bizning borlig'imizda shu qoidalar ishlashi kerak. Har bir ishni Alloh amrlari asosida bajarish kerak, Allohning buyruqlari, ta'qiq va ijozatlaridan kattaroq kenglik yo'q, erkinlik, hurriyat yo'q. Buni iymon egalari kashf etadilar, xolos. Alloh iymon keltirgan va hidoyatlangan har bir odamga o'z amrlarini juda osonlashtirib beradi. Lekin shayton boshqalarning ko'ziga Allohning shariatini og'ir va qiyin ko'rsatadi. Shafiqa, shunday – iymon kalimasin tilingda aytar ekansan, qalbingda tasdiq, yaqiyin, muhabbat, ixlos va sidqni top. Aks holda, xuddi ilgarigi holatingdan xalos bo'lmaysan. Yoki dunyo hayotiga boshi bilan cho'kkan odamlar kabi Alloh uchun bir daqiqangni ajrata olmay o'tib ketasan. Xuddi bo'shliqda qolib ketgan bir ma'nosizlik singari. Shayton ma'nosizlik ichidadir. U boshidan oyog'iga qadar umidsizlik va isyon ila o'ralgan. Islom esa umid va muhabbat, inonch va ixlos yo'lidir.

Shafiqa dengiz sohilida uzoq sayr qildi. Bir necha kun tonglarini, oqshomlarini dengizga termilib o'tkazdi. Azim to'lqinlarning so'zlarini tingladi. Quyoshning sokin suv ichiga atrof –javnibni oltinlantirib botishini ko'rdi. Qum ichida yalangoyoq yurdi.

Bir kuni Roziya xonim o'limdan so'z ochdi:

– O'lim oxirat uchun eshik kabidir. Har qanday nafs bu eshikdan o'tishga majbur. Istaganlar ham, istamaganlar ham Allohning qadariga muvofiq holda, shubhasiz, o'lim sharbatini ichadi. O'lim biz uchun uzoqdagi bir manzil singari tuyuladi, afsuski, bu eng katta nuqsonimizdir. O'lim qosh va qovoq qanchalik bo'lsa, bizga ana shu qadar yaqindir.

Roziya xonimning ko'p takrorlaydigani: «Biz go'zal o'limga tayyorgarlik ko'rish uchun yashamoqdamiz», – edi. Xonim deyarli hamisha ro'zador edi.

– Shuni bilki, Shafiqa, Allohning dini insoniyat uchun osonlik va halovat dinidir, – der edi Roziya xonim. – Musulmonning hayotida qiyinchilik bo‘lishi mumkin emas. Chunki Alloh mening amrlarimni bajarish hidoyatlanganlar uchun katta ish emas deb aytgan. Modomiki, din arkonlarini bajarishda biz qiyinchilik topayotgan bo‘lsak, bizning aybimiz. Zotan, Alloh va‘dasiga hargiz xilof etmas, banda o‘z vazifasini mukammal bajara olmaydi. Qo‘limizda Qur‘on, dilimizda Iymon, yo‘limizda Islom bo‘la turib, bizning, mo‘min va musulmonlarning xorlikda yashashi mumkinmi?! Mumkin emas, biroq nochor ahvoldamiz, nechun? Chunki dinimizga amal qilmayapmiz. Allohdan yiroqlashganmiz. Ixlosdan mosuvo bo‘lganmiz. Qalbimiz kuyib, Allohga qachon yuzlandigu, Alloh bizni noumid qoldirdimi?

Yo‘q, biz Allohga yuzlanmadik. Qiblaga yuzlanib, o‘zimizni Allohga yuzlangandek tutmoqdamiz, xolos. Qalbimizda na ishq, na shavq bor! Ustiga ustak, xorlanishimizga dinimizni aybdor qiladigan darajada mardudmiz, astag‘firulloh!

Shafiqa zikrlarni qayta yod oldi. Qur‘onni yangidan o‘qishga kirishdi. Farzlar adosidan ortib, nafl ibodatlarini lozim tutdi. U go‘yo Islomni endi kashf etdi. U go‘yo Islomda emas ediyu, endi musulmon bo‘ldi.

Har bir qadamida tasbih, tahmid, takbir, istig‘for aytar ekan, tiliga begona so‘z, diliga begona o‘y kelishidan uyala boshladi.

– Islom kamolot dinidir, – dedi Roziya xonim. – Dinimizda qalbdan, ixlos ila mahkam tutish va ma‘rifatini anglash ila biz har kuni kamol topamiz. Musulmonning hayotida xorlik, tanazzul bo‘lishi mumkin emas. Musulmon yuksalsa, yuksaladiki, tubanlikka tushmaydi. Chunki bu yuksaltiradigan yo‘l. Chunki Alloh yig‘lab sig‘inayotgan muxlis va muslim bandasini yordamisiz tashlab qo‘ymagay.

Yonida bir do‘sti, ishida bir unumi, boshida bir himoyasi, sa‘ylarida parvozi bo‘lmagan musulmon, avvalo, o‘z qalbiga nazar solsin, so‘ng amallariga boqsin. Albatta, nuqsonini topadi. Yo qalbida Allohga to‘la taslim

emas, yo amallarida ixlossizlik borligini anglab yetadi. Seni uyingdan chiqargan, eringdan ajratgan, bolalaringdan yuz o'girtirgan sabab shu. Aks holda, ona o'z jigargo'shasidan voz kechadimi?

Shafiqa naqadar zikrga, ibodatga chulg'ansa, shu qadar nadomatga, afsusga cho'kdi. O'tmish xatolari qarshisidan chiqaverdi. Eri Fotih Karim, ikki farzandi, otasi, onasi, aka – ukalari ko'z o'ngidan ketmay qoldi. Chunki Shafiqa o'zini ularga nohaqlik qilgan odamdek his etdi. Ulardan afv tilab, ko'ngillaridagi norizolik tugunlarini yechib yubormagunicha zinhor xotirjam bo'la olmasligiga iqrar edi u.

– Men Malayziyaga qaytishim kerak, – dedi bir kuni Roziya xonimga.
– Istixoralar qildim, Robbim qalbinga erimning huzuriga qaytish niyatini soldi.

Roziya xonim tabassum qildi:

– Alhamdulillah, – dedi mamnun. – Seni o'zim olib boraman.

...Kuala Lumpurga borgunlaricha, undan keyin ham Shafiqa bir og'iz gapirmadi. U ajib bir qo'rquv, shuningdek, to'g'ri ish qilayotganiga aniq ishonch ichida edi.

Shafiqa boshidan oyog'iga qadar qora chodraga o'raldi, erining hovlisiga kelib, mashinadan tushganlarida Roziya xonimning ortidan ergashdi. Eshikni uy xizmatchisi ochdi:

– Assalomu alaykum, keling, xonim, marhabo, – dedi u ochiq yuz ila.

– Va alaykum assalom va rohmatulloh, – alik oldi xonim. – Xatib Fotih Karim janoblari uydami?

– Uyda, ilm ila mashg'ul, – dedi xizmatchi.

– Agar ijozat bersalar, suhbatlariga kirishni istaymiz, biz Istanbuldan keldik, ismim Roziya Muhsin, bu esa mening singlim, – deb o'zini tanishtirdi xonim.

– Marhabo, bu yerda biroz hordiq oling, men janobimizga xabar beraman, – deb xizmatchi ularni ichkariga taklif etdi.

Mehmonlar uchun mo'ljallangan xona keng, shinam edi. Xizmatchi Fotih Karimning xonasiga ketarkan, istarali bir ayol kirdi.

– Bekam, Istanbuldan mehmonlar kelishibdi, xatibimizni so'ramoqdalar, men u kishidan ijozat olay, – dedi xizmatchi yo'l –yo'lakay.

Uning «Bekam» degan so'zi Shafiqaga chaqmoq urgandek ta'sir etdi. Beixtiyor ayolga qaradi. Ayol kelib, ularga salom berdi.

– Kelib, ko'zimizni nurga to'ldirdingiz, – dedi mezbon xonim ochiq yuz ila. – Ismi sharifim Amina Karim, Fotih Karim janoblarining zavjalariman.

Shafiqa muzdek suv ichiga cho'kkandek seskanib ketdi, xayriyatki, u paranji ichida edi, yuzlarini parda yopib turibdi, aks holda, Amina bu ayolning nima uchun bu qadar oqarib ketganidan taajjubga tushar edi, albatta.

– Juda ham mamnunmiz, – dedi Roziya xonim. – Fotih Karimdek olim insonga sizdek mutohhara zavja behad yarashadi. Allohim turmushingizni xayrli, barokatli qilsin, amiyn!

– Amiyn, – dedi Amina.

– Amiyn, – dedi eshitilar –eshitilmas ohangda Shafiqa. Ko'zlarini to'sib turgan qora to'rli parda uning ko'zyoshini ham yashirdi.

– Mening ismim Roziya Muhsin, – deb o'zini tanishtirdi xonim. – Bu mening singlim. Fotih janoblariga bir masalada murojaat etmoqchi edik.

Shu payt tashqaridan biri besh, biri uch yoshli ikki bolakay chug'urlashib kirib keldi. Shafiqa o'rnidan turib ketdi. Ortiq o'zini ushlay olmadi. Yugurib borib bolalarni quchoqladi. Buni ko'rib, Amina ham, Roziya xonim ham tezda turdilar. Shu onda xizmatchining ovozi keldi:

– Ustoz Fotih Karim aziz mehmonlarimizni kutmoqdalar.

Roziya xonim Shafiqaning qo'lidan ushladi. Shafiqa sassiz –sadosiz holda ikki bolani yana bir marta mahkam bag'riga bosib, keyin Roziya xonimning izidan yurdi.

– Amina xonim, – dedi Roziya xijolatomuz. – Bizni afv etasiz...

– Nega unday deysiz? – dedi shoshib Amina taskin va tasalli ila. – Xijolat bo'lmang..

– Oyi, akam bilan uy qurdik, – deb kenjatoyning maqtanayotgani eshitildi ortdan.

– Voy, ko'zimning qorasi, u uyda kimlar yashaydi? – degani quloqqa chalindi Aminaning...

Fotih Karimning ijodxonasi keng. Yorug'. U mehmonlarni o'rnidan turib kutib oldi, xonimlarga yumshoq o'rindiqlardan joy ko'rsatib, o'zi to'rdagi yozuv stoliga cho'kdi. Xonaning devorlariga suyangan javonlar turfa kitoblar ila to'la.

Duodan so'ng, Fotih Karim mehmonlarga savolomuz boqdi.

– Fotih janoblari, – deb so'z boshladi Roziya xonim. – Bir gunohkor o'z xatosini tushunib, tavba etsa, Allohuni o'z marhamati, fazli ila afv etadi.

– InshaAlloh, – dedi Fotih Karim. U mehmonning muddaosini hamon anglamayotgan edi.

– Biz dinimizni, nabiyimiz Rasululloh sollallohu alayhi va sallam keltirgan dinni to'g'ri tushuna olmayapmiz, tushunmaganimiz uchun uni to'g'ri tatbiq eta bilmayapmiz, – so'zida davom etdi Roziya xonim. – Alloh al –Kariym, Alloh al –Hakiym, Alloh al –Muiz, Alloh al –Hodiydir. U biz bandalarga so'ramasak-da ko'pdan ko'p, sanoqsiz ne'matlar beradi. U O'z ishini buyuk hikmati ila qilguvchidir. U xorlikdan izzatga ko'tarib, bandasini hidoyatga yo'llovchi yagona Zotdir. Alloh Robbimizdir, u bizning Tarbiyachimizdir. O'ziga iymon keltirgan har bir bandani tarbiyalaydi, kamolga yetkazadi.

– Haq so'zlarni aytmoqdasiz, – dedi Fotih Karim.

– Sizning birinchi zavjangiz Shafiqa Karim yodingizdami? – savol berdi Roziya xonim.

– Shafiqa?! – cho‘chib ketgandek bo‘ldi Fotih. – Shafiqa mening sobiq xotinim, unga taloq berganman.

– Taloq berdingizu, uning keyinchalik qanday ahvolga tushganidan xabaringiz bormi? – so‘radi Roziya xonim.

Fotih Karim bu savoldan noqulay bo‘ldi, qizaringirab dedi:

– Begona ayol bilan mening qanday ishim bo‘lsin, xonim?

«Begona ayol» ta‘rifi Shafiqaning yuragiga o‘qday qadaldi.

– Taloq bilan u begonaga aylanadi, biroq bir musulma sifatida musulmonlarning himoyasiga u muhtoj emasmi?

Sizlar biz musulmonmiz, deb aytasiz, biroq adashsa ham, adashmasa ham dindoshingiz bo‘lgan bir zaifani himoyasiz, chorasiz tashlab qo‘yishlaringizdan ozurdaman, – dedi biroz qizishib Roziya xonim.

– Bu kechirilmas xatoyimiz, – dedi Fotih Karim. – Shafiqadan ranjigandim. Shu bois, uni qalbidan yulib otdim. Uni qanday taniysiz? U qaerda? Yaxshimi?

– Qalbdan yulib otish ojizlarning ishi, mo‘minning ishi emas, – dedi Roziya xonim keskin. – Mo‘min dunyo muhabbatini qalbdan yulib otsin, kofirdan qo‘rqishni qalbdan yulib otsin! Xato ustidagi muslimani isloh etish o‘rniga uni qalbdan yulib otish naqadar to‘g‘ri ish deb o‘ylaysiz? Qalbini Allohga topshirish o‘rniga bir ayolga berib qo‘yish ham musulmon erga yarashadimi?

Fotih Karim mum tishladi.

– Sizdek sohibi ilmga tanbih berish uchun kelmadim, – dedi Roziya xonim. – Shafiqa bilan orangizdagi aqdni qayta tiklashingizni istab keldim.

– Shafiqa qaerda? U keldimi? – deb so‘rarkan Fotih Karim chodra ichida o‘tirgan ayolga ko‘z qiri bilan qarab qo‘ydi.

– Amina xonimdek dilbar muslimani nikohingizga olibsiz, – dedi Roziya xonim.

– Albatta, – tasdiqladi Fotih Karim. – Bolalarimni qarovsiz qoldira olmas edim.

– Shafiqaning ota –onasiga nima dedingiz?

– Ustozimga buni aytishga jur'at etmadim, – dedi Fotih. – U kishining oriyati bu hodisani qabul etmaydi. Biror kun Allohning tavfiqi yetib, Shafiqa tavba qilib qaytishi mumkin, deb hamisha ishonchda edim. O'shanda men uni afv etsam -da, otasi kechirmaydi, deb xavotir olganim uchun bu to'g'rida u insondan sir tutdim.

– Siz nima uchun Shafiqa tavba bilan qaytib keladi, deb ishondingiz?
– so'radi yana Roziya xonim.

– Chunki... – biroz jim qoldi Fotih. – Chunki u ketganidan buyon Robbimdan unga tavfiq so'rab duo qilmoqdaman.

– U holda, Shafiqani qalbidan yulib otdim, deganingizni qanday tushunay? – dedi Roziya xonim.

– Shafiqa ketgach, – dedi Fotih Karim bir iztirob ila. – Uni haddan ortiq yaxshi ko'rishimni angladim. Shu qadar yaxshi ko'ribmanki, unga bo'lgan muhabbatim qalnimni butkul egallagan ekan. Mo'mindan u nimani ko'p sevsa, olib qo'yilgan. Men Shafiqaning ketishini ana shu hikmatdan deb bilib, istig'for va duoda edim.

Roziya xonim Fotih Karimning javobidan mutaassir bo'ldi.

– Fotih janoblari, – dedi u. – Sizni o'g'lim, deb chaqirsam ham haqqim bor, chunki kenja o'g'lim siz ila tengdosh. Men boray, Shafiqa bilan gaplashay, unga asl holatdan xabar beraman. Agar u rozi bo'lsa, siz rozi bo'lsangiz, nikohingizni o'qisinlar.

– InshaAlloh, – dedi Fotih Karim. – Agar Shafiqa kelsa, uni nikohimga olaman. Bolalarimning yonida o'z onalari bo'lishini istayman.

Roziya xonim taklif etilgan qahvani ham, choyni ham nazokat ila rad etdi. Er –xotin Fotih va Amina Karim ularni kuzatib, ostonaga chiqdilar.

Mashinada ketarkanlar, Shafiqa bir og'iz ham gapirmadi. Mehmonxonaga borib, o'z xonalariga kirganlarida Roziya xonim Shafiqaning yuziga qarab qo'rqib ketdi:

– Yo Allohim! Shafiqa, nega o'zingni bunchalik qiynayapsan, qizim? Shafiqaning ikki ko'zi yig'idan qizarib, hatto, shishib ketgan edi.

O'NINCHI BOB

Shermuhammadbek Amir Olimxon bilan bo'lgan suhbatni eslash asnosida bir on o'ygacha cho'mdi. Ehson Hakim afandi va Ibrohim Yorqin uni diqqat ila tinglar edilar.

– Amirni men shunday qayg'uda ko'rdimki, umrim bino bo'lib, u kabi anduhli boshqani uchratmadim, – deb o'tmish xotiralariga yana sho'ng'idi Shermuhammadbek. – Men o'z yelkamdagi vazifani bajara olmaganimdan ozurda edim. Kofirga yurtni berib qo'ydim. Bu sharmandalik edi. Shundan keyin ham tirik yurish iztirobli. Biroq mening g'amim amir Olimxonning hasrati oldida dengiz tubidagi mushtumdek bir toshga aylanib qoldi. Amirning vujudidan bir alam harorati taraqqar edi. Bildimki, u deyarli hech bir kishi bilan so'zlashmay qo'ygan. Sodiq xizmatchisi unga taom keltiradi, yuvinishi uchun yordamlashadi. Amir ertadan kechgacha, oqshomdan tonggacha Qur'on o'qiydi. Mening kelganimni aytishganida: «Kim u?» – deb so'rabdi. «Shermuhammadbek, mujohid», – deb meni ta'riflaganlaridan keyin, huzuriga kirishim uchun izn beribdi. «Shermuhammad, – dedi menga amir Olimxon, – Bizning xalqimiz o'zi ham anglab yeta olmaydigan bir buyulikdan anglab yetganida nadomati yurakni parchalaydigan tubanlikka cho'kmoqda. Bu shunday tubanlikki, unda odamzod yashashning maqsadini unutadi. Hayvon maqomiga, hayvondan ham pastroqqa tushadi. Qudsiyatdan aql bovar etmas darajada yiroqlashib, nahsiyatga shu qadar yaqinlashadi, natijada inson va nahsiyatni ajratishga qiynalib qolasan. Shermuhammad, hamma narsani boy berdik: dinni, iymonni, islomni kofirga

berdik, yurtni, vatanni bosqinchiga tekidan tekin taqdim etdik, xalqni zolimlarga qullikka topshirdik, undan ham mudhishrog'ini aytaymi? Mudhishi shuki, kelajak nasllarni dushman qo'lida qoldirmoqdamiz. Tug'iladigan bolalarimiz Alloh, deb, Muhammad Rasululloh sollallohu alayhi va sallam, deb, millatim, davlatim, xalqim, deb til chiqarmaydi. Ularning tili tog'utnining ismi takrorlash ila chiqadi, oyog'i shaytonni qadami bilan bosiladi. O'zligidan yiroqlashib, Allohga munkar bo'ladigan, biri ikkinchisini vahshiylarcha qiradigan, eng dahshatli qiynoqlarga soladigan bir avlod dunyoga keladi. Bu avlod o'tmishga tupuradi, kelajakni ko'rmaydi, o'zini maqtab, xudo, deb ataydi. Olimlari jaholatni, qozilari razolatni tutadi. Voliylari xiyonat –la, mirshablari jinoyat –la tirikchilik o'tkazadi. Shoirlari munofiq, adiblari kazzobdir. Voizlarining yagona ishi xalqni aldashdan iborat. Bu avlod haqgo'ylarni o'ldiradi, mo'minlarni azobga soladi, taqvo ahlini yolg'onchiga chiqaradi. Katta izzatni, kichigi hurmatni bilmaydi. Ayoli erlikni, erlari ayollikni xohlaydi. Bu avlod o'z halokatini ko'radi, biroq his etmaydi. O'z saodatini angelaydi, lekin intilmaydi.

Hamma chiroyli ishlarni ziynat uchun bajaradilar, biror kas qalbini isloh etishga ishtiyoq topmaydi. Bu avlodning biri ikkinchisini sotadi, boshqasi boshqasiga firib beradi, hargiz boshi birikmagay, hargiz ahillik neligini bilmagay!»

Amir Olimxon shunday gapirdiki, ranglari oqarib, soqollariga qadar qaltirab ketdi, ojiz ko'zlaridan, hatto, yosh sizib chiqdi, nafas olishi -da qiyinlashdi. Men esa shu qadar mutaassir bo'ldimki, ixtiyorimni yo'qotib:

«Astag'firulloha aliyil aziym! Va atubu ilayh!» – deb»Astag'firulloh, de, mujohid! Astag'firullohni ayt! Sha'nimga ko'p nojoiz so'zlar yog'iladi, behad ko'p ayblar ila ayblandim. Xayriyatki, u ayblarim o'zimda bor gunohlarning oldida hech narsa! Men taxtda o'n yil o'tirdim. O'n yilni men Buxoroi sharifning sharafini tiklashga sarf etdim. O'n yil tin olmadim, o'n yilim behalovat o'tdi, nurab bo'lgan azim davlat imorati poydevorini qayta

tiklashga Allohim qodir qilgan darajada azm etdim, mujohid. Raiyatni bilmasmidim? Bilar edim. Dindorligimiz holini bilmasmidim? Bilar edim. Tashqaridan kelayotgan balo naqadar ulkan bo'lsa, ichimizdagi ofat undan ikki barobar ulkan edi. O'ris bizdan qaviy edi, biz esi zaif edik. O'ylama, Shermuhammad, jismda zaif edilar, qurolsiz zaif edilar, deb o'ylama. Jismga quvvat beradigan, qurolga qudrat ato etadigan narsadan ayrilgan edik. Bu Dinimiz edi. Ulamolar, sadrlar, beklar, qozilar, lashkar, tolibi ilmlar, yo Robbim, hammamiz ko'rlar podasi edik, go'yo. Olovdek yonasan, so'zingni his etmaydilar, shijoatdan ayro o'likka o'xshaydilar. Hammamiz oxiratni unutib, dunyo zindonining eng tubiga, zulmatning zulmatiga o'zimizni o'zimiz zanjirband etgan edik...»

Men lol edim. Amirning nuqtasiga ko'tarilmoqqa tirishdim. U muammoga qay nuqtadan qarayotganini bilgim kelar edi.

«Shermuhammad, – deb davom etdi amir. – Muhojirotda yillarki, ro'zadorman. Islom kishvarini kofirga boy bergan bir amirning bu dunyoda to'yib ovqat yemoqqa haqqi yo'q, zotan. Ochlik ruhingni tozalaydi. O'zgalarga ko'rinmagan sarhadlar senga ko'rinadi. Men bu sarhadlarda ana shu aytganlarimni idrok etmoqdaman».

«Amir hazratlari, – dedim men iztirob ila. – Siz shunday narsalarni bayon etdingizki, go'yo jahannamga ro'baro' keldim. Nahot, bizning yurtga, xalqqa bir imdod bo'lmasa?! Bir najot yo'li topilmasmi?!»

«Imdod – Allohning Kalomi, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning sunnatidir. Najot shu ikkisiga ergashmoq bilan paydo bo'lajak, – deb javob berdi amir. – Biroq bu haqiqatni anglab yetgunimizcha bizga necha o'n yil, yo'q, necha yuz yil kerak? Buni bilmayman. Millat o'zini xorlikda ekanligini anglamaguncha, u najot haqida zinhor o'ylamagay. Shermuhammad, qadim sharafimiz, qadim buyukligimiz o'z –o'zidan qaytadi, deb xayol qilma. Bu xayol bir xom tama', xolos. Qadim qudratimiz ortida bobolarimizning ming chaqirimlik yo'llari bor. Otlarning kishnashlari, qilichlarning jarangi,

qonlar to'lib oqqan daryolar bor. Biz bu qudratni g'aflatimiz sababli yo'qotdik. Uni bir kunda yo'qotmadik, juda sekin yo'qotdik. Buyuk davlatimiz o'zimizga sezdirmasdan nurab, yer bilan yakson bo'lib yiqildi. Uni yana asliday tiklamoq uchun ajdodlar bosib o'tgan yo'lni xuddi ular kabi bosib o'tmoq lozim. Bobolarimiz azim qudratga erishib, oliy davlatni qurish uchun naqadar mashaqqat chekkan bo'lsalar, xuddi o'sha mashaqqatlar kutib turibdi.

Biroq bu sharafni his etadigan, bu azamatni, bu qudratni taniydigan nasllar qachon tug'ilib, bu yo'lga jonlarini tikib o'tlanishlari yolg'iz Robbimizga ayon!

«Amir Olimxon ana shularni so'yladi. Men amirga u ko'rsatgan ulug' yo'ldan yurishimni aytdim. U Alloh yordamchi bo'lsin, dedi. Men afg'on tog'larida, turkman sahrolarida lashkar yig'ib, kofir o'risga qarshi jihad qilib, yurtimni uning harom oyog'idan poklamoqchi edim. Shu maqsadda Istanbulga keldim. Bu yerda esa, qazoi qadarda bor ekan, ikkinchi ko'zimdan ham ayrildim. Shu yerda qolib ketdim.

Shermuhammadbekning qayg'uli qissasi Ehson afandiga ham Ibrohim Yorqinga ham kuchli ta'sir etdi. Qarshilarida o'tirgan keksa pahlavon qanoti kesilgan, ko'zlaridan mahrum qilingan burgutga o'xshaydi. Uning yuragi yonyapti, shijoati vujudiga sig'maydi, biroq yurishni istamay qolgan oyoqlar, ko'rishni xohlamayotgan ko'zlar u shijoatning namoyon bo'lishiga izn etmaydi.

– Ibrohim, basharti, ko'zlarim ko'r bo'lib, oyoqlarim yurib turganda edi, otinga minib ota Turkistonimga ketar edim, – dedi u yana bir xiyol jimlikdan keyin.

– Subhanalloh, – dedi Ibrohim Yorqin.

– Ot ustida jangchilarga xos sharaf ila shahid bo'lmoq orzuyimdir, Robbim bu orzuyimni ijobat etgaymi, yo'qmi, bilmayman, – deb qo'ydi Shermuhammadbek. Ular kechgacha keksa mujohidning ziyoratida qoldilar.

Kenja o'g'il Abdulloh tuzaldi, u yangi mahallani ham tezda «o'zlashtirdi»: tengdoshlarining tilini topdi, o'zidan katta bolalarga qo'shilib maktablarga ham borib yurdi. Ibrohim Yorqinga Shermuhammadbekning mahallasi yaqinidan hovli topib berishdi. Ixcham, uchta xonasi, oshxona, hammomlari bor, asosiysi, hovlining etagidan ariqda suv oqadi. Ibrohimning ayoli Robiyaning qalbi shodlikka to'ldi. U salkam bir oyga cho'zilgan safarning mashaqqatlari tugab, Alloh ularga gulday maskan ato etgani uchun shukronalar keltirdi. Qisqa fursatda Ibrohim Yorqin xonadoni eng fayzli, eng barakali xonadonlardan biriga aylandi. Robiya ertadan kechgacha hovlini obod qilish, ro'zg'orini tartiblash uchun kuymanadi, Ibrohim esa shu yerlik yordamchilar ko'magida kichik do'kon ochdi.

Oradan yillar o'tdi. Avval Shermuhammadbek, keyin Ehson hakim afandi vafot etdilar. Zamon o'zgardi, odamlar o'zgardi. Yer shari bo'ylab bir shamol esardi, go'yo. U shamol qaysi insonning tanasini silab o'tsa, o'sha inson faqatgina rohat va farog'at muxlisiga aylandi. Rohat va farog'at oliy qadriyat maqomiga ko'tarildi. Insoniyat qiziq tomoshalarni, yoqimli ohanglarni, maqtovu faxrni, lazzat va huzurni, nafis qomat va go'zal chehralarni, ehtirosli nafas va tunganmas shodlik talabgori bo'lib qoldi. Hayot shu talab ustiga qurila boshlandi, maqsadlar, niyatlar faqat shu manzillarga qanot qoqdi. O'tmishning ruhoniyyat olamidagi soflik irsiyatini saqlagan ildizlar qirildi, zamin hayoti tomiri qurib, shamol o'ynab yurgan qoqshol daraxt qiyofasiga kirdi. Hamma yangi rang izlaydi, yangi shakl qidiradi, eski ranglar zerikarli, qadim shakllar keraksiz, go'yo. Rang va shakllar ahamiyatga aylandi, uning ichi unutildi. Harakatlar ma'nodan, so'zlar haqiqatdan ayrildi. Zamon ana shunday o'zgardi. Ajdodlar orzusi avlodlar nazdida qadrsizlandi. Ajdodlar yo'lidan yurilmay qo'ydi. Yurilmagan yo'lni tikan bosdi. Nasllar to'da –to'da bo'lib har tomonga sochdilar -da, yurayotgan joylarini Yo'l, deb atadilar. Biroq bu holni idrok etuvchilar kam

edi, zotan, hamma shu iqlim asiri, undan tashqarida nafas olmagach, toza havoni tanimoq mumkinmi?!

Ibrohim Yorqin xonadoni kengaydi. U turmushga kirib kelayotgan har bir yangilikka teran razm solar edi. Odamlarning shoshib qaygadir chopishlariga qarab, oynayi jahon tasvirlarini ko'rib, ovoznigor sasini tinglab, insoniyatga ulkan to'fon yaqin qolganini sezar edi. Bu, albatta, rosmana to'fon emas, ramziy bir to'fon edi. Qalblarni mahv etadigan, mehru oqibatni o'ldirib, barchani xudbinlik zindoniga yakka –yakka qamaydigan To'fon edi bu.

Ibrohim Yorqin ruhoniy o'tmishning eng so'nggi vakili edi. U farzandlariga o'zi ko'rayotgan haqiqatlarni anglatishga tirishdi, ko'p tirishdi, shunda tuyqus angladiki, jigargo'shalari go'dak ekanidayoq ularning ongi va qalbiga begona urug'lar kelib tushibdi. Ibrohim Yorqinning to'ng'ichi savdoni tutdi, keyingisi, ya'ni Abdulloh Yorqin yangi sohaga – kompyuter ilmiga qiziqdi, to'rt nafar qiz ko'rgan edi, ularning biri shifokor, biri muallima, qolgani uy bekasi bo'ldi. O'tmishdagi Toza Dard yuki, Sha'n Qayg'usi Abdullohning yelkasiga ortilgan edi. Biroq u buni bilmasdi. Uning qalbi tubida o'zlik ehtiyoji, deb atalgan vulqon yashirin edi. Bu vulqon otilsa, o'z sohibini hammadan avval kuydirishi muqarrar. Ana shu muqarrar hodisa Abdulloh Yorqin Urumchiga borganida sodir bo'ldi. Bu paytga kelib, Ibrohim Yorqinning yoshi oltmishga yetgan, Abdulloh uylanib, bir o'g'il ko'rib, uni katta bobosining ismi bilan Qilichbek, deb chaqirgan edi. Xitoyda, ayniqsa, Shinjondagi voqealar daragi Yer yuzi bo'ylab tarqalayotgan pallada Abdulloh Yorqin Urumchiga borishini otasiga aytdi.

– Nima qilasan u yerda, bolam? – deb so'radi ota.

– Uyg'urlar uchun ta'lim dasturi ishlab chiqdik, u yerdan bu dasturga munosiblar tanlandi. So'nggi sinovga meni taklif qilishdi, hakamlik uchun, – sababni izohladi o'g'il. Ibrohim Yorqin chuqur o'yga botdi va dedi:

– Xalqimiz hozir qullikda yashamoqda, o‘g‘lim. Qul bo‘lgan xalqning ichidagi munosiblar rag‘bat va imkoniyatdan mudom mahrumdirlar, senga u joylarda ziyon yetishidan qo‘rqaman, – deb xavotirini bayon etdi ota.

– Ruxsat bersangiz, ota yurtga borsam, Xo‘tan, Yorkent, Koshg‘arni ziyorat etsam. Yurak-yuragimda nimadir o‘sha tuproqlarga tortayotir, – dedi Abdulloh.

– Bolam, o‘sha tanlov sensiz ham bitar, – dedi Ibrohim Yorqin o‘g‘lini yuborgisi kelmay. – Zulm makoniga kirishga bu sabab arzimaydi.

Abdulloh indamadi. Uyg‘ur yurtiga borish istagi uni qamrab olganini otasi sezdi. Sezdi -da, noiloj dedi:

– Mayli. Juda ham borging kelibdi. Borib kelaqol, Allohning panohida bo‘l.

Abdullohning yuzi yashnadi. Astoydil hozirlik ko‘rdi. Bir haftadan so‘ng, otasidan duo so‘radi, xotini Rohila bilan xayrlashdi, o‘g‘li Qilichbekni ko‘tarib, peshonasidan o‘pdi. U o‘n kunda qaytishi kerak edi. Shuning uchun safarini hammaga bildirmadi. Bu safar uzoq yillarga cho‘zilmog‘idan, ota-onasini, oilasini, bu kunlarini chuqur mung ichida eslashidan u bexabar edi, zotan.

O‘N BIRINCHI BOB

Tong nasimi dengiz havosini olib keldi. Bu havo namchil, hatto, sho‘rtak edi, go‘yo. Sharqqa qaragan ochiq deraza oldida Roziya xonim Qur‘on o‘qiydi. Derazadan dengiz juda yaqin ko‘rinadi. Jimirlayotgan bahr, dastavval, ol tusga kirdi, keyin olovlandi, so‘ng oftob oltin qosh kabi ko‘tarila boshladi.

Roziya xonim Shafiqaning muammosini hal etib, bugun Istanbulga uchish niyatida edi.

Kecha Shafiqani yig‘idan to‘solmadi. U na gapirdi, na so‘zladi, faqat siqtadi. U o‘z ichidagini bayon etishga bir so‘z topmasdi.

Yo‘q, so‘z emas, so‘z topsa -da, holi yo‘q edi, zotan. Nadomat, tavba, istig‘for, qayta diydor, taqdir qoshidagi taslimiyat Shafiqani ajib kayfiyatga tutib berdi. Roziya xonim buni yaxshi tushundi. Uni o‘z holiga qo‘ydi.

Fotih Karimnikiga borganlarida xonadon sohibi qaygadir ketibdi, tezda qaytaman, debdi. Ularni Amina ochiq yuz ila kutib oldi.

Bir finjon choy ichisharkan, Roziya xonim vaziyatdan Aminaning xabari bor-yo‘qligini bilishni istadi.

– Amina xonim, – dedi u. – Biz kecha ham keldik. Bugun yana uyingizdamiz. Bu sizni ajablantirmayaptimi? Sohibingiz bu xususda gapirdimi?

Amina chiroyli ko‘zlarini dasturxondan uzmay dedi:

– Erim gapirmadi, men ham so‘ramadim. Sohibim munosib bilgan gapini aytadi, munosib bilmasa, aytmaydi. Men esa talab qilmayman, – Amina shunday deb, biroz sukut saqladi, so‘ng davom etdi. – Biroq erimning ilk zavjasi Shafiqa xonim tashrif buyurganini juda yaxshi bilaman.

Roziya xonim ham ajablandi, ham xotirjam tortdi. Ajablanishi ehtiromdan, xotirjamligi shukrdan iborat edi. Shafiqaning esa ichi kuydi. Negadir qizarib ketdi. Yuzidagi parda buni oshkor etmadi, berkitdi.

– Erim uylansa, monelik qilolmayman, bu uning haqqi, – dedi Amina. Garchi u mardona so‘zlasa -da, sasida bir alam jizilladiki, sezmaslik mumkin emasdi.

Shafiqa yuzidagi pardani ko‘tardi, chehrasining go‘zalligi uyni yoritdi, go‘yo, u ikki qo‘li bilan Aminaning qo‘llarini tutdi:

– Amina, men Shafiqaman, – dedi dona-dona qilib. – Robbim erimga sizdek solihani nasib etganidan behad shodman, men ham o‘zimni Alloh yo‘lida Fotih Karim va bolalarim xizmatiga bag‘ishlamoq uchun keldim. Biz ayollar rashk va makrdan zinhor xoli emasmiz. Allohdan ko‘rqishgina bizni rashk va makr azobidan ozod etadi. Fotih Karim nikohiga o‘tar ekanman,

Amina, sizni singlim kabi ko'rishga ahd beraman. Sizga hargiz yomonlik tilamasman. Balki, haqqingizga duo qilgayman.

– Shafiqa xonim, bizning yurtda erlarning ikki ayolga uylanishi g'ayritabiiy hol emas-ku, – deb kuldi Amina. – Kundoshlar o'rtasidagi janjallar naqadar tabiiy bo'lsa, ularning o'zaro sabrli bo'lishlari shu qadar majburiy. Allohim bergan ruxsat bo'lmasa edi, erini baham ko'radigan musulima Yer yuzida topilmasdi, vallohu a'lam. Sizning farzandlaringiz mening farzandlarimdir. Ular sizning yo'qligingizni sezmasliklariga intildim. Robbimiz rizoligi yo'lida ularga mehr ko'rsatishimdan norizo bo'lmaysiz, deb inonaman.

– Bolalarimga rahm etganingiz kabi Allohim hamisha sizga rahmat va mag'firat ravo ko'rsin! – duo qildi Shafiqa ko'zida yosh yiltirab. – O'g'illarimni ko'rsam bo'ladimi?

... Shafiqa hikoyasini deyarli yakunladi.

– Erimga ikkinchi xotin o'laroq nikohlandim, – dedi u tinglovchilariga boqib. – Bu voqealarga ham o'n yildan oshdi. O'g'illarim o'n besh, o'n oltiga to'ldi. Robbim menga ham, Aminaga yana farzandlar ato etdi. Xulosa qilib aytmoqchimanki, goho din muhiti insonga yetarli emas, inson tabiatini Allohim sirli yaratgan, odam bolasi xatolari ortidan aniq haqiqatlarni kashf etmasa, qalban taskin topmas ekan.

– Hayratlanarli! – o'rnidan turib ketdi Anna. – Men zinhor aqlimga sig'dira olmaydigan bir voqea! Hikoyangiz ertak singari jozibador. Agar o'z og'zingizdan buni tinglamasam edi, hech ishona olmasdim. Fikrimcha, ayol tabiati Yer yuzining hech bir iqlimida o'zgarmaydi. Islomda bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'iy nazar, ayol, avvalo, Ona. Uning fitratidagi onalik tuyg'usi buyuk in'om. So'ng u sadoqatli va muhabbatga tashna hilqat. Qizig'i shundaki, ayolga muhabbatning ziyodasi malol keladi, ozi esa yetmaydi. Ayol o'zini tushunishdan zaif bo'lgan yaratiq. Shafiqa xonim, siz

bolalaringizni -da faromush etdingiz, qalbingizda uygʻongan gʻayritabiiy qudrat esa sizni tarbiyaladi, deb oʻylayman.

Anna taassurotlarini izhor etib tugata olmasdi, biroq uning rejasi boʻyicha yana boshqa musulmalarni tinglash kerak edi.

– Men bolalikda din tarbiyasini olmaganman, – deb soʻz boshladi navbatdagi suhbatdosh. U oʻrta yoshli musulima edi, ovozidan choʻrtkesarligi birdan sezildi. Harakatlari ham dadil edi. – Ota –onam qoʻygan ism Anjelina, Islomni qabul etganimda oʻzimni Mubina, deb atadim. Anna, siz juda yoshsiz. Mening yoshligimni yodimga soldingiz. Men Avstriyada, nemis muhojiri oilasida tugʻildim. Otam vino sotardi. Onam unga koʻmakdosh edi. Akalarim, ukalarim ham mehnatkash, urushqoq edilar. Oilada yagona qiz edim. Ikkinchi jahon urushida yetim qolgan ota –onam turmush qurib, tirikchilik ilinjida Avstriyaga kelib qolishgan.

Ota-onam muhojirlar mavzesidagi xaroba kulbaga bir amallab joylashishgan. Ochlik, kambagʻallik kuchli edi. Yevropa oʻsha paytlar ham aksar qitʼalarda jannatdek koʻringan. Biroq asl hayotning kinofilʼm va telekoʻrsatuvlardan farqli jihatlari juda koʻp. Haqiqatan, Yevropada odamlarning erkin va farovon hayoti uchun kurashgan qahramonlar koʻp. Bu qahramonlar, avvalo, gʻoya egalaridir. Ularning gʻoyalari xalqlarni oyoqqa turgʻizgan. Hurriyati, naslining kelajagi, daxlsiz hayoti uchun kurashga otlantirgan. Biz yevropaliklar uchun oʻtgan asrning oʻrtalarida inson qadr-qimmatini birlamchi masala boʻlgan.

Inson qadri oldida biz kurashdan ham, oʻlimdan ham qoʻrqmaganmiz. Har birimiz, avvalo, oʻz erkimiz yoʻlida qatʼiy edik. Jinoyatchilar ham koʻp edi. Poraxoʻrlik ham. Qiynoqlar ham. Biz jinoyatdan xabar topsak, koʻchaga chiqardik -da, politsiyadan ishlashini talab etardik. Hukumat bizni aldasa, yana koʻchaga chiqib, boshqa rahbar kelishini talab qildik. Hayot shunday edi. Ong, tafakkur shunday edi. Qoʻshnimga boʻlayotgan zulm ertaga mening boshimga kelishi aniq boʻlgani uchun uni himoya qilganman.

Menga bo'layotgan zulm avlodimga bo'lishini tushunganim uchun kurashdan hayiqmaganman.

Bizning yoshligimizda ongimizga singdirilgan g'oya shu edi. Biz kabi muhojirlar yashaydigan mavzelar aslo xavfsiz bo'lmagan. Ko'cha bezorilari izg'ib yurishardi. Biroq ular ham insofsiz emasdilar. Qashshoq va begunohlarga tegmasdilar.

Gazeta-jurnallar, kino va teatrlar, kitoblar bizga ana shu g'oyani singdirdi. Bu g'oya, shunchaki, nazariya emas, hayot edi. Bizning turmush tarzimiz edi. Haqqimizni birovga bermaslik uchun o'lib –tirilganmiz. Har qanday so'zimizni ochiq aytishdan cho'chimadik.

Xullas, otam keksa frantsuz vinochiga shogird tushgan.

– Frantsiyani Gitler boshliq nemislar bosib oldi, lekin ayb nemislarda emas, Gitlerda, – der ekan u frantsuz. – Biz birinchi jahon urushida bu yerga kelganmiz. Lekin men qalban frantsiyalikman. Sharlʼ de Gollʼ fashistlarga qarshi partizan urushi qilganida, bormoqchi edim, o'zlari ishni mensiz ham amallashdi, azamatlar!

Vinochi deganim vino ishlab chiqarmaydi, vino savdosi bu. Yevropada frantsuz vinolari mashhur. Bandargohga kemalar Frantsiyadan vino keltirishadi, otam ustozini bilan birga olib kelgan, savdosiga hamisha yordam bergan. Keksani vinochi uni hech qachon quruq qo'ymagan. Yaxshi to'lagan. Shuning uchun ham ota –onam qisqa yillarda kulbalarini shinam uyga aylantirishgan. Akalarim, men, ukalarim – hammamiz ketma-ket tug'ildik. U paytlarda ayollar oilani, farzandni, erni muqaddas bilgan, hayot mazmuni sanagan.

Tug'ishdan qochmagan. Hozir esa vaziyat juda boshqacha. Men bugun hayotimizga qarab, begona dunyoga tushganday his etaman o'zimni.

Biz tugʻilib, ulgʻaygan muhit oʻzgacha edi. Toʻgʻri, mehnatdan boshimiz chiqmasdi, biroq dam ham olardik, dalalarga borardik, sohillarni aylanardik. Gʻamgin va mamnun kunlarni oʻtkazdik.

Bizning oilada din qoidalari zaif edi. Otam deyarli choʻqinmasdi. Demak, cherkovga borishini tasavvur etish qiyin. Onam esa buvisidan qolgan Injilini baʼzida oʻqirdi, ikonalarga qarab choʻqinardi, bizga ham Iso haqida, Maryam haqida, avliyolar haqida rivoyatlar aytib berardi.

Biz ham qiziqib tinglardik. Shunday boʻlsa-da, bizdan ibodat talab qilganini eslay olmayman. Muammolarimizni Xudoning ishtirokisiz hal qilishga oʻrgangandik. Boʻynimizdagi xochning qalbimizdagi bu eʼtiqod bilan bogʻliq emasdi. Aqlimizni tanib, oiladagi har bir farzandning hayot haqida aniq tasavvuri shakllandi. Bu tasavvurda Xudo koʻrinmasdi. Xudo biz uchun qaygʻuli kunlarimizda tasalli beruvchi Zot edi, xolos. Uning zimmasiga boshqa vazifa yuklamagandik. Oʻrta asrlar katolik cherkovi istibdodi, inkvizitsiya kirdikorlari hamda indulgentsiya tijorati haqidagi tarix bizning ongimizda gʻalati bir tushuncha uygʻotgan edi. Unga koʻra, Xudoning qonunlari insonlar hayotida unchalik qatʼiy emas, agar u qatʼiy tus olsa, demak, unga odam bolasidan kimningdir manfaati aralashgani aniq.

Shunday ekan, Xudoning qonunlariga yopishib olish shart emas, biz oʻz xohishlarimizga nazar solaylik. Basharti, kimningdir tabiatida xudojoʻylik oshib-toshib ketayotgan boʻlsa, marhamat, cherkovga borsin, monastirda yashasin, Injil yodlasin, rohiblikni tanlab, avliyo ota kasbini oʻzlashtirsin. Harqalay, avliyo otalarga ham jamiyatning baʼzi qatlamlarida ehtiyoj katta boʻladi. Men adabiyotga, sanʼatga qiziqib qoldim. Roman oʻqishga mukkasidan ketdim. Bizning davrimizda maksimalist yoshlar orasida Kafka, Kamyu, Xeminguey, Folkner, Markes kabilar urf edi.

Ruslardan Dostoevskiyni men suyib oʻqiganman. Yevropada yozuvchilar oʻsha paytda ham koʻp edi. Amerikada ham minglab qalamkashlar topilardi. Voqea bayonidan iborat romanlarning adadi

ko'rinmasdi. Ommaning katta qismi voqeiy romanlarni, detektivni sevadi. Sentimental, syurrealist va modern asarlarni esa olifta yoshlar yaxshi ko'rishadi.

Men ham o'shalar safida edim. Zal'tsburg universitetida o'qishni istashimni aytgandim, ota-onam bajonidil qo'llab-quvvatlashdi. Falsafa yo'nalishida o'qiy boshladim.

Bakalavr darajasini oldim, keyin magistr diplomiga ega chiqish istagi paydo bo'ldi. Tahsilni davom ettirdim.

Yoshim o'ttizga kirganida onam: «Yigiting bormi?» – deb so'radi. Men hayron bo'lib, «Yo'q», – dedim.

O'shanda onam turmush qurishimni istayotganini ilk da'fa sezdim.

Magistrlik ishim yunon miflari va falsafa mavzusida bo'ldi. Mif, din va falsafa orasidagi bog'lanishni tadqiq etdim. Inson ongidagi erk, ruhning anglamsizligi, bunda mifning yagona yechimligini tushuntirishga intildim.

Endi olim sifatida talabalarga ma'ruza o'qishim uchun doktor darajasi zarur edi. Negadir, buni istamadim. To'satdan universitet hayotidan chiqishni istab qoldim. Qiziqarli, Yer yuzining hamma burchaklariga eltadigan, turfa el va elatlar hayotini tanishtiradigan kasb izlay boshladim.

Bu istagim o'zimga ma'lum edi, xolos. Zerikishimni bartaraf etish uchun yigitlar bilan tanishdim, ko'pincha sigaret chekdim, vino, viski ichdim, klublarda ko'ngil yozdim.

Biroq turmush qurish rejamda yo'q edi.

Bu vaqt orasida bir tanishim ilmiy filmlar suratga oladigan kompaniyada bo'sh ish o'rne borligini aytdi. Stsenariynavis kerak ekan. Rezyume topshirdim. Suhbatga chaqirishdi. Ishga kirdim. Ishxonam uyimdan uzoqda – Germaniyada edi. Ota –onam bilan xayrlashib, Berlinga yo'l oldim.

Bu yoshimda ham men qayg'usiz edim. Hayotda meni Xudo haqida o'ylashga majburlaydigan bir voqeaga duch kelmagan edim.

Birinchi ishim Bolqonda boshlanadigan bo'ldi. Bolqon tarixda uzoq yillar turk fothlari ko'l ostida bo'lgan. Bu yurtlarga turklar majburan Islom dinini singdirganlar. Biz suratga oladigan film serblarning turklarga qarshi ayovsiz kurashlariga bag'ishlanishi lozim edi. Men yo'l –yo'lakay tarixchi olimlar, arxeologlar bilan ko'p suhbatlashdim, ilmiy –hujjatli filmning stsenariy g'oyasini miyamda pishitib, sinopsis qoralashga kirishdim.

Saraevoga joylashdik. Aytishlaricha, shu shahardagi arxeologik yodgorliklar bizning bosh ob'ektimiz, tasvirlar, dalillar shu yerdan yig'iladi, mahalliy xalq bilan, mutaxassislar bilan suhbat qilinadi, men ishga sho'ng'idim. Saraevo juda go'zal shahar ekan. Havosi yoqdi. Odamlari kamsuqum, Yevropaning boshqa shaharlari aholisidan keskin farqli edi. Masalan, g'arbiy va janubiy Yevropada erkinlik qonunga aylangan. Shahar ko'chalari naqadar go'zal va sokin bo'lmasin, sassiz shovqinni tinglaysan, ko'rinmas isyonni ko'rasan. Bolqon esa mutlaqo boshqa dunyo edi. Musulmonlar ko'p. Hammasi serb. Hayotlaridan mamnun. Menga berilgan faktlarga ko'ra, serblarni turklarga qarshi kurashini yoritishim kerak edi, biroq serblarning turmushida buni sezmadim.

– Yo'nalishni o'zgartirish kerak, – dedim ijodiy guruh majlisida. – Taxminan Bolqonga Islomni kirib kelishi, serb va turk munosabatlari masalalarini asosiy o'ringa chiqarishimiz kerak.

– Nima uchun? – dedi loyiha rahbari. Men dalillarimni taqdim etdim. Tarix haqiqatini xolis yetkazmoq uchun serb va turk xalqi orasida, musulmonlar va g'ayrimusulmonlar o'rtasida ziddiyat uyg'otadigan jummalarni qo'llash shart emas, balki bu kabi so'zlardan qochish zarur, dedim.

Bahs boshlandi. Kimdir meni rad etdi, kimdir ma'qulladi. Vaqt esa ziq.

– Bizning maqsadimiz turklarni bosqinchi, Islomni esa zulmkor din sifatida ko'rsatish emas-ku! – dedim men. – Balki, tarixiy haqiqatni xolis yoritish, ya'ni turklar Bolqonga nima uchun, qanday kirib keldi, oqibati

qanday kechdi, degan savolga zamon nigohi bilan boqib, atroflicha javob berish bosh maqsadimiz-ku!

Fikrlarim qiyinchilik bilan bo'lsa -da, qabul etildi, men taklif etgan yo'nalish bo'yicha tasvirga olish ishlari boshlandi.

O'shanda ilk bor Islom dini bilan uchrashdim. Bolqon musulmonlari hayoti menga jozibali, yorug' ko'rindi. Muslimalarning soddaligi ajoyib edi. Ular men kabi miflar haqida bosh qotirishmasdi, falsafaning ming bir qoidasi haqida o'ylamasdilar, besh mahal ibodatlarini ado etib, er va farzandlarga g'amxo'rlik mashg'ul edilar. Birgina erga itoat etishadi, er ham ayolini himoyalaydi, menga bu juda ajib tuyuldi. O'zimning almashib turadigan yigitlarim, ichkilik hamda tamaki ila o'tayotgan hayotim ko'z oldimda g'ariblashdi, go'yo.

Keyin esimni yig'ib olib, bu holatimni o'ta emotsionallik deb baholadim. Ezoterikaga berilish yaxshi emas, dedim. Keyin o'zingni baxtiyor sezish uchun ezoterikaning nimasi yomon, dedim.

Suratga olish davomida bir serb oilasi bilan yaqindan tanishdim. Ular chinakam musulmon edilar. Oila butkul islomiy urf –odatlar asosida yashar edi.

Bu oila meni mehmonga chaqirdi.

Hovli baland devor bilan o'ralgan. Baland va naqshinkor eshigi sharqona san'atdan darak beradi. Ichkari kirdim. Meni xonadon bekasi kutib oldi. Boshida pushti ro'mol, yuzi kulib turgan bu ayolning sehriga bir lahzada maftun bo'ldim. Uning nemischa lahjasi ham yoqimli edi. Kelganimdan juda xursand edi.

– Keling, keling, – deb hovliga yo'l boshladi. Baland devor ichida jannatni ko'rdim! O'rtada favvora, otilgan suv yetti qirrali ixcham hovuzni to'ldiradi. Har qirraning uchidan suv oqib chikib, gullar, turli ekin va o'simliklarning jo'yaklari bo'ylab yuguradi.

Hovliga kirishda o'ng tomonda ayvon, ayvonning chegarasiga nafis ziynatlangan to'siq o'rnatilgan, ayvondan qandaydir xonaga kiriladi. Hovli ichi gulxona! Sariq, qizil, alvon, pushti, zarg'aldoq, siyohrang, oq, moviy gullar saf tortib, yengil shabada qo'lida titraydi.

Favvoraga olib boradigan marmar yo'lak tushgan, uy bekasi meni shu yo'lakdan boshladi.

Gullar mavji ustida rango –rang kapalaklar qanot qoqadi, asalarilar uchadi, gulzor ichiga uzoq –uzoq masofada olcha ekilgan, chetlariga esa bir xil bo'lib anorlar qad rostlagan. Bu manzarani ko'rib, qadim Qurtuba xalifaligi haqida esladim. Bu Andalusiyadir.

Andalusiya musulmonlari ziroat, bog'dorchilikda o'z davrida butun Yevropani lol qoldirgan. Qur'onni o'qigan rohiblar Andalusiya bosqinidan so'ng, borib u yerdagi bog'larni ko'rishgan, tillarini tishlashgan. «Musulmonlar Qur'ondagi jannat loyihasi asosida uy qurib yashashgan ekan, biz qachon ularga yetib olamiz?!» – deyishgan ichlari kuyib. Men kirganim xonadonda o'zimni aynan qadim Andalusiya o'lkasiga tushgandek his etdim, u paytlarda Qur'onni o'qib chiqmagandim, agar o'qigan bo'lganimda xuddi o'sha rohiblar kabi bu xonadonni jannatning loyihasi bilan Yer yuzida bunyod etilgan uy, deb atagan bo'lardim, shubhasiz.

Favvoraning ortida to'rtta naqshinkor ustun ko'tarib turgan ayvonni ko'rdim. Ayvon yerdan bel bo'yi ko'tarilgan. O'rtada oyoqlari kalta Osiyo stoli, uni ba'zi xalqlar xontaxta, deb atasharkan, ayvonning girdi guldor naqshli to'siq, shu to'siqlarga alvon rangli bolishlar suyalgan.

Ayvon to'rida esa yoshi ulug', nuroniy, keng libosli, boshidagi ro'moli uzorlariga qadar o'ralgan ayol tasbeh o'girib o'tirardi. Sezdimki, xonadonning ulug'i shu ayol.

– Onajon, mehmonimiz keldi, – dedi uy bekasi.

Yoshi ulug' ayol boshini ko'tarib, qaradi -da, jilmaydi:

– Qandoq yaxshi! Olib kel yonimga, – dedi mehribonlik bilan. Ulardagi ehtirom, mulozamat va lutf qarshisida o‘zimni hayotimda ilk marta ancha beo‘xshov, ochig‘i, qo‘pol va dag‘al his etdim.

«Bu bir shakl, – dedim o‘zimga o‘zim. – Mohiyatga boqish lozim. Bunday go‘zal muomala go‘zal bir ichki dunyoning mevasimi, yo‘qmi?»
Ochig‘i, o‘sha gumonlarim uchun bugun uyalaman.

O‘N IKKINCHI BOB

Abdulloh Yorqin Uyg‘ur diyoriga uchib borarkan, ota yurt diydoridan biroz bo‘lsa -da, hayajonga tushdi. Har xil ma‘lumotlar uning tasavvur dunyosida Vatan qiyofasini mujmal holga keltirgan edi.

Uchoqdagi yo‘lovchilarning xotirjam chehralari Xitoy tomonga yaqinlashganlari sayin xavotirga chulg‘anayotganini Abdulloh yaqqol sezdi. Kulib turgan ko‘zlar ma‘yuslashdi, o‘z –o‘zidan boshlar egildi, odamlar o‘ychanlashdi, yuzlardagi ajinlar ham quyushib, ko‘payib ham ketdi, go‘yo.

O‘ttiz yilki, bu makonlardan yiroqda suv ichgan, go‘dakligidayoq qardoshlar o‘lkasiga taqdiri olib ketgan bir farzand o‘laroq Abdulloh bu holdan ajablendi. Zotan, u hali haqsizlik ta‘mini totgani yo‘q, zotan, u zulm changalida hargiz ingranib ko‘zyosh to‘kkan emas. Muztarib va mazlumning olamini iztirob chekmagan, zulm ko‘rmagan zot qaerdan bilsin?!

Uchoq bir silkinib pastlay boshladi. Tuyqus Abdulloh o‘z kayfiyatida og‘ir havoni sezdi. Uchoqning g‘ildiraklari yerga tekkan ondan e‘tiboran u vujudini g‘alati huzun butkul egallaganiga iqror bo‘ldi, holbuki, ko‘ngilni xira qilgulik biror voqea hali ro‘y bermadi. Holatini tahlil qilishga ulgurmay, Abdulloh o‘zini uchoq eshiklari yonida ko‘rdi, dimog‘iga Urumchi nafasi urildi. Yo‘lovchilar shoshilib, nimadandir qo‘rqqandek zinadan pala –partish tushar edi.

Abdulloh ham ularning bu holatini ko'rib g'ayriixtiyoriy tezlashdi. Tezlashdiyu, «Bizni hech kim quvmayapti-ku!» – degan o'y ongida «yilt» etdi.

Uchoqmaydon ari uyasini eslatdi: hech kimning hech kim bilan ishi yo'q, turfa odamlar yukaravachalarini sudrab yuguradi, xitoycha baqir – chaqirlar quloqqa chalinadi.

Abdullohning xayolini band etgani insonlarning yuzlari edi. Barchaning qiyofasi bir xil! E'tibor bersangiz, unday emas: kimdir baland, kimdir pakana; kimdir qorako'z, kimdir qo'yko'z, kimdir qirg'izqovoq; kimdir yapaloqburun, kimdir qirraburun; birov cho'zinchoqyuz, birov yumaloqbashara; ayrimlar soqoldor, ayrimlar ko'sa. Ularni bir xil ko'rsatgan umumiy sifat qon –qonga, zehnu zehniyatga, jonu ruhga, aqlu qalbga singib, o'rnashib ketgan qo'rquv hamda tobelik mungi edi.

Bu mung ularning o'zlaridan yashirin, biroq Abdulloh kabi hurriyatli o'lkadan kelgan har kimga peshvoz chiqadi. Bu mung achchiq tutun kabi dimoqni achishtiradi. Hammadan ana shu tutun taralib, atrofni qoplagan.

Tiqilinchda yukaravachasini bazo'r olishi bilan Abdullohning qarshisida po'rim kiyingan, yoshi o'ttiz besh va qirq o'rtasidagi bir kishi paydo bo'ldi. Ko'zi qiyiq, jigarrang, yuzi yumaloqtob, soqoli qirtishlangan, kastim –shim kiygan bu odamning uyg'ur ekanligi aniq edi.

– Salom alaykum, xush keldingiz, mehmon! – dedi Abdullohga mamnun qo'l cho'zib. – Ismi sharifim Moyimxon Sotim. Uyg'ur yoshlar tashkilotining yetakchi faoliman, kommunistik partiya a'zosiman. Kommunistman, ya'ni. Partiyamiz rahbari ko'rsatgan yo'ldan yurib bormoqdaman. Sizni kutib olish menga buyurilgan. Siz – turkiyalik Abdulloh Yorqinsiz! Qadim Uyg'ur diyoriga xush keldingiz!

Abdulloh unga peshvoz chiqajak mezbon haqida ogohlantirilgan edi.

Demak, shu silliq nazarda tutilgan ekan. Garchi, Abdulloh Moyimxonning xushchaqchaqligidan ensasi qotsa -da, sezdimadi, chunki unga bu lutf juda soxta ko'rindi.

Moyimxon tinimsiz gapirib, Abdullohning diqqatini boshqa narsalardan asramoqchiday edi, go'yo: uchoqmaydondan katta, keng, ammo isqirt ko'chaga chiqishdi. Ko'chani isqirtligi bo'shagan yelim suvidishlar, xaltalarning sochilib yotishi, ariqlarning axlatga to'laligi, ovozini «vang» qo'yib tinmayotgan katta –kichik, eski –yangi, rangli –rangsiz o'ziyurar ulovlardan chiqayotgan burqsiq tutunlar bilangina emas, bulutli osmon, nafasni ham, ko'krakni ham qisadigan «dim» havo hamda qora – qura, sariq –suruq, pakana –novcha, semiz –ozg'in odamlarning har qayoqqa olazarak shoshishi bilan ham namoyon edi.

Yo'l yoqalarida tund binolari qalashib turibdi, binolarning manglayiga xitoycha harflar yozilgan harxil peshlavhalar osib tashlangan, quyisida do'konlar qaynaydi. Ayolu erkak, yoshu qari, bolayu baqra do'konlarga kiradi, chiqadi, soqoli o'sgan tilanchilar qo'l cho'zib bir nima tilanadi, yo'l o'rtasidan qandaydir temir izlar o'tgan, yo'lchiroqlar yonadi, o'chadi.

Moyimxon Abdullohni xitoycha rusumli ulovga taklif etdi, ulov qo'zg'aldi, bir necha daqiqadan so'ng, diqqinafas va xo'mraygan ko'cha ortda qoldi, uylar siyraklashib yo'l yanada kengaygandek bo'ldi, o'ydim – chuqurlar kamayib, ulov ham qoqilmay qo'ydi.

– Uchoqmaydonimz shaharning chetrog'ida joylashgan, sizni markazga olib ketyapman, markaz madaniyatli, osoyishta. Buyuk Xitoy va kommunistik siyosatning asl qudratini ko'rasiz, bunyodkorligiga guvoh bo'lasiz, – derdi Moyimxon Sotim. – Vatanparvar yoshlarimizning xorijda o'qishi – yutug'imiz. Biz katta rivojlanish yo'lidamiz. Xitoy Yer yuzini lol qoldiryapti. Xitoyga kamarbasta uyg'ur xalqi, Shinjon o'lkasi ham buyuk yo'ldan buyuk kelajakka bormoqda. Siz yoshlarimiz ichidan asl iqtidorlarni saralab olishingizga ishonchim komil!

Abdulloh Moyimxonni bosh silkib, ma'qullagandek o'tirsa -da, zerikib ketdi. Universitetda o'zini bozorga soladigan jipiriq yoshlar bo'lardi.

Hammaga yaxshi ko'rinishni istaydigan bu toifadan Abdullohning doim ko'ngli aynigan, Moyimxon esa o'sha yoshlardan ham o'tib tushdi. Kommunistlar yig'inida minbarga yopishib olgan vaysaqi notiqlarning hammasiga xos holat edi bu, ular, odatda, miyasiga payvandlangan yasama g'oyaviy jumalari bilan boshni og'ritib yuboradilar. Moyimxon kommunistik jamiyat qurayotgan siyosatning eng ko'p uchraydigan vakillaridan biri edi. Ular joriy etilgan hamma qonunlarga rioya etadilar, qayishuvchanligi uchun hamma teshikka sig'adilar, qoidalarda axlat yeyish yozilsa, albatta, ishtaha bilan faqat axlat yeyishadi.

Ularda shaxsiy did mavjud emas: katta rahbarlarga taqlidan kiyinishadi, masalan, poyabzal va kastim –shimning rangi, galstukning ko'rinishi, sochni qay tarafga yotqizib tarash kabilarda ham ergashiladi.

Abdullohga bunday madaniyat yot edi, chunki u kelayotgan o'lkada kommunizmning «hayotbaxsh» nafasi yo'q, dindan erkin bo'lishdek «taraqqiyparvar» g'oyalar Turkiyada ham ustuvor esa -da, dinning fayzi odamlardagi samimiyatni hamon ta'minlayotgan edi, harqalay.

Moyimxonning vaysashlariga bosh silkisa -da, xayoli boshqa joylarda yurgan Abdulloh yo'lning qaysidir qismida o'rgimchak to'ridek qavatlashgan ko'priklardan o'tisharkan, «Qoyil!» deb yubordi.

Bundan Moyimxon ilhomlanib ketdi:

– Bu kabi ko'priklar Buyuk Xitoy qudratidan bir darak, yo'l boshchisi kommunistik partiya millatning ijodi! Bunday inshootlarning sanog'i yo'q!

Kommunistlarning bunyodkorligi haqidagi hayajonli qissalardan Abdullohning qulog'i batang bo'lishi arafasida ulov Urumchi markaziga kirdi. Mehmon uni tinglash ishtiyoqidan yiroqligini, nihoyat, anglab yetgach, Moyimxon ham sekin jim bo'la qoldi. Markaziy ko'cha orasta edi, albatta, har xil ulovlar, mutaharrik yozuvli peshlavhalar, shakl berilgan daraxtlar

chiroy ko'chaga bag'ishlaydi, xitoycha va inglizcha bitiklar ko'p, odamlar ham yurish –turishda, rasm –rusumda ovrupocha bo'lishga talpinishida Abdulloh yaxshi idrok etdi.

– Kechirasiz, Moyimxon, – dedi Abdulloh. – Bir savolim bor edi.

Gapirolmay ma'yus o'tirgan Moyimxon mehmonning murojaatidan shodlanib ketdi:

– Bemalol, mehmon! Bajonudil!

– Men namoz o'qiyman, boradigan joylarimizda ibodatga sharoit bo'ladimi?

Moyimxon «namoz», «ibodat» so'zlaridan g'ayriixtiyoriy bezovtalandi, lekin tezda javob berdi:

– Kommunistik partiya dindan voz kechgan, xudo haqidagi safsatarga men ham ishonmayman, biroq mehnomimiz dinga moyil bo'lsa, bemalol namoz o'qishi, cho'qinib, yukinishi mumkin.

Moyimxon bu gaplarini kulimsirab gapirdi, bu hol Abdullohga og'ir botdi.

– Dinga bunday behurmatlik qilmang! – dedi keskin. Hatto, ovozi titrab ketdi.

Moyimxon musohibini tinchlantirishga shoshildi:

– Aziz mehmon, bu haqorat emas, qizishmang! Kommunistik partiya insoniyat ongining eng yuksak kashfiyoti, bemisl yutug'idir. Din ham odamzod aqli topgan topilmalardan biri. Kommunizm insonlarni ongli bo'lishga chorlaydi, din ongsizlikka da'vat etadi. Ong bilan yondashsak, din haqidagi tanqidiy fikrimdan siz nima uchun asabiylashyapsiz, mehmon? Hamma dinlarda radikalizm bor, bu, ayniqsa, Islomda kuchli. Musulmonlarning hammasida radikallik unsurlari mavjud. Mehmon, men din haqida tanqid qilyapman, sizning shaxsiyatingizni emas. Demak, ranjishingizga hojat yo'q. Keling, hamma narsani mana shunday ongli hal qilamiz.

Abdulloh Moyimxon o'zi o'ylaganchalik go'l emasligini tushundi. Moyimxon kommunistlik va dahriylik g'oyalarini o'ziga chuqur singdirgan noyob mutaxassis edi, aslida. Uning oldida asabiylashish zaiflikdan bo'lishini Abdulloh angladi, ichida: «Astag'firulloh», – deb takrorlay – takrorlay

o'zini bosishga urindi.

– Ajoyib mantiq, – deb jilmaydi u. – To'g'ri aytasiz. Har bir masalaga ong ila yondashsak. Siz dinni, aynan, Islomni ilohiyot dasturi ekanligini rad etyapsiz, bu fikringiz sababli jahli chiqayotgan musulmonni radikal, deb ta'riflayapsiz, shundaymi?

– Shunday, – javob berdi Moyimxon mamnuniyatdan yal –yal yonib.
– Dindorlik va tajovuzkorlik hamisha yonma –yon yuradi. Dindan qutulish hamma yovuzlikdan qutulish demakdir.

– Buni qarang, shunga sira ham aqlim yetmayotgan ekan, – zaharxanda qildi Abdulloh. – Kommunizmni eng ahmoqona g'oya, odamzod uchun zararli, deb o'ylasam va aytsam, bundan g'azablanmang! Aks holda, siz ham, o'z mantig'ingizga ko'ra, radikalizmni yuzaga chiqarasiz. Kommunistlar radikal emas, to'g'rimi, axir?!

Birdan Moyimxonning tusi o'zgardi.

– Siz... Siz buyuk kommunizm haqida bunday deya olmaysiz! – dedi kucharib.

– Kechirasiz, qizishmang, radikal bo'lmang! – dedi Abdulloh. – Kommunizmni siz Islomni rad etganingiz kabi rad etib, tahqirlaganingizdek, tahqir layman. Biroq siz musulmonlar g'azablangani kabi g'azablanmang, bu radikalizmga aylanib qoladi.

Moyimxon «mum» tishladi, lekin o'zini tezda qo'lga oldi:

– Tilingizga erk bermang, mehmon, siz kommunistik davlatdasiz! – dedi tish orasidan.

– Tahdid qilyapsizmi? – so‘radi Abdulloh. – Hamma mehmonlarni tahdid bilan kutib olasizlarmi?

– Siz turkiyaliksiz, mehmon, – dedi Moyimxon. – Biroq uyg‘ursiz! Turkiya vatandoshi bo‘lsangiz -da, uyg‘ursiz! Bu sizni buyuk kommunistik Xitoy davlatiga bog‘lab tashlaydi!

– Kechirasiz! – rosmana qizishdi Abdulloh. – Men hoziroq Istanbulga qaytaman. Menga qilingan bu tahdid sababli barcha dasturlarni bekor qilaman. Meni uchoqmaydonga qaytaring!

Bu keskin qarorni eshitib, Moyimxon o‘zini yo‘qotgandek bo‘ldi.

– O‘zingizni bosing, mehmon, ming bora uzr, – dedi muloyimlashib. – Dasturni amalga oshirish kerak. Axir, bahs o‘ta tabiiy jarayon-ku! Men hazillashdim! Nega, jahlingiz chiqadi, axir?

Moyimxon shunday deb, qah –qah otib kuldi, shunday kuldiki, ko‘zidan yosh chiqib ketdi, Abdulloh uning, haqiqatan ham, hazillashganiga ishonib qoldi.

– Obbo, mehmon! – derdi tizzasiga qo‘lini urib kularkan Moyimxon. – Arzimagan gaplarga xafa bo‘lmang! Siz bu yerda, avvalo, buyuk kommunizm himoyasidasiz! Bir tola sochingiz to‘kilmaydi!

Zinhor xavotirlanmang! Mana, manzilga yetib keldik! «Abadiy do‘stlik» mehmonxonasi xizmatingizda!

Ular ulovdan tushishdi. To‘qqiz qavatli bino. Manglayiga xitoychalab yozilgan. Barzangi qo‘riqchilar. Kirdi -chiqdi ko‘p. Xorijliklar. Oynavand eshikdan xizmatchi yugurib kelib, Moyimxonga ta‘zim qildi. Xitoychalab bir nimalar dedi. Moyimxon ulov yukxonasiga ishora qilib, yukni ol, deb buyurdi, chog‘i, xizmatchi shunday qildi.

Mehmonxonaning qabulgohi keng, yorug‘, serhasham, qizil ziynatlar haddan tashqari ko‘p; salqin, qahva isi; yumshoq kursilar, xushmuomala xodimlar.

Kelganlarga navbatchi ma'murlar jilmayadi, kalit uzatishadi, maslahat berishadi.

– Beshinchi qavatdagi yigirma birinchi maxsus xona oldindan buyurilgan, – dedi Moyimxon ma'murlardan biriga.

– Xush kelibsiz! – dedi jilmaygan cha ma'mur ham uyg'urchalab va kompyuter oynasiga qarab, buyurtmani topdi. – Ha, mana, 521 –xona, Turkiya vatandoshi Abdulloh Yorqin uchun band etilgan. Marhamat, kalitni oling!

Kalitni olib, ko'tarmada beshinchi qavatga ko'tarildilar.

Xona shinam, derazalari shimolga qaragan, hamma sharoit muhayyo.

– Yoqimli hordiq! – dedi Moyimxon iltifot ila. – Mana bu telefon raqamim, zarurat tug'ilsa, tezda qo'ng'iroq qiling! Ertalab soat to'qqizda sizni birinchi qavatda kutaman. Soat o'nda tadbirga boramiz. Safaringiz dasturini ham o'shanda beraman. Oqshomingiz xayrli o'tsin!

Moyimxon ketdi. Abdulloh juda toliqqanini bildi. Boshi ichiga ari kirib olganday, g'uvillaydi.

Pardani ochdi: shaharning qovog'i soliq qiyofasi namoyon bo'ldi. Quyosh kunbotarga oqqan.

Abdulloh telefon raqamlarini terdi va go'shakka dedi:

– Meni Istanbulga ulang, – so'ng uyining raqamlarini aytdi. Ikki marta chaqiruv sasidan keyin kimdir go'shakni oldi. – Assalom alaykum!

Nariga tomondan otasining tovushi keldi:

– Va alaykum assalom. Abdulloh, senmisan, o'g'lim?

– Ha, ota, Abdullohman, Urumchidaman. Yaxshi mehmonxonaga joylashtirishdi. Hammasi yaxshi, alhamdulillah.

Ota –bola biroz gaplashishgach, xayrlashdilar.

... Ertalab Abdulloh bomdodga uxlab qoldi. Uyg'onganida kun yoyilib ketgan edi. Shoshih, tahorat oldi, fajrni ado etdi. Biroq ko'ngli g'ashlik changalida edi.

Nonushtadan so'ng, ko'tarmada pastga tushdi.

Odam siyrak. Ko'pchilik uxlayapti, shekilli. Abdulloh yumshoq o'rindiqlardan biriga o'tirdi, stolga tashlab qo'yilgan gazetalardan birini oldi: ham uyg'urcha, ham xitoycha. Birinchi sahifasida qirmizi sahnda Xitoy raisi savlat to'kib turibdi, yonida daftarcha changallab, boshi egilgan bir necha kishi, xuddi eng muhim ishlari raisning nutqini yozib olishdan iboratdek turishibdi. Abdullohga bu erish tuyulishi kerak edi, biroq Urumchi havosi uning o'pkasiga kirib, qoniga singib ulgurgani uchunmi, negadir ajablanmadi. Go'yo shunday bo'lishi kerak, degan axborot uning miyasiga avvaldan quyib qo'yilgan edi.

Tuyqus bir chinqiriqdan Abdullohning hushi boshidan uchib, sakrab ketdi: ma'muriyat oldida bir xitoylik yosh xizmatchini tepib, baqirar edi. Abdulloh hayron qoldi, xizmatchiga biror tepki qattiq tegdi, shekilli, bukchayib hiqillab qoldi. Abdulloh ularning oldiga yugurdi. Xitoyi odam yerda yotganning yuzini majaqlamoqchidek oyog'ini ko'targan edi, Abdulloh uni itarib yubordi.

Sahnda odam siyrak edi, biroq ko'pchilik bu holga indamayotgandilar. Abdullohning himoyaga otilgani bir necha soniyada ro'y berib, hamma qotib qoldi.

Kutilmagan turtkidan yiqilgan xitoyi o'rnidan turib, hezlanib keldi -da, Abdullohning jag'iga musht soldi.

Abdullohning ko'zidan o't chaqnadi, g'azabi miyasini qaynatdi, endi u ham o'zini ushlay olmadi, bor kuchi bilan xitoyining iyagiga musht urdi. Xitoyi «g'iyq» deb ovoz chiqardiyu, yerga yiqildi, yiqilarkan, boshi devor qirrasiga tushib, yorildi, bir zumda qon oqdi.

Mehmonxonada qiyomat qo'pgandek shovqin ko'tarildi, politsiya yetib keldi, kirish -chiqish eshiklari qat'iyon yopildi.

Kaltak yegan xizmatchining murdadek oppoq edi, xitoyini «Tez yordam» olib ketdi, Abdullohning qo'lga kishan solishdi.

O'N UChINChI BOB

Anjelina, Alloh hidoyat bergach, ismini Mubina, deb o'zgartirgan musulima o'z hayotini hikoya etmoqda.

Ha, kechagidek yodida: ilmiy filmlar stsenaristi o'laroq boshlagan ilk loyihasi «Bolqon: bitmaydigan jarohat; uxlamaydigan vulqon», – deb atalgandi. Bu nomni Anjelinaning o'zi topdi. U Bolqon tarixini o'rganib, bu o'lka Ovruponing Buyuk Og'rig'i, Achchiq Iztirobi ekanligini bilib oldi.

Bolqon baland tog'lar, yashil o'rmonlar, musaffo daryolar diyori. Bo'ysunmas odamlarining ko'zida chaqmoq chaqadi, ovozida momaguldirak gumbirlaydi. Seryomg'ir ko'klam, xushhavo yoz, oltinrang kuz, kumushday oppoq qish yarimorol jozibasiga joziba qo'shadi.

Chapdast, malla, baquvvat, mushakdor, yelkador, daroz xalqi mehnatdan qochmaydi, biroq or masalasi o'rtaga chiqsa, ularning yo'lida turib bo'lmaydi. Bu insonlardagi zarda, vajohat oldida markaziy va g'arbiy Ovrupodagilar muloyimdan muloyim ko'rinadilar.

Bir qancha fazilatga boy bu jasur elning zaifligi – sodda va ishonuvchanligida edi. Biri xorvat, biri serb, biri bosnian bo'lsa -da, yana qanchadir urug'larga ajralsa -da, gohida bir shoxtomirning daraxtlari ekanligini unutib, bir –birlariga qurol o'qtalishlarining yagona sababi shu edi.

Anjelinani Saraevoda obro'li insonlardan biri o'z uyiga mehmonga chaqirgan edi. Bu odam asli serb bo'lib, ismi Umar, ajdodlari turk fotihlarining ilk kelishidayoq Islomni qabul etishgan. Mahalliy insonlar bilan suhbatlashish asnosida Anjelina Umarga duch keldi. Umar Anjelina o'z ishiga ixlos bilan qarayotganini sezdi, masalaga tarafkashlarcha emas, xolis yondashayotganiga ishonchi hosil bo'lgach, «Xonim, xonadonimizga keling, yoshi ulug' validam bor, suhbatlashsangiz, ishingizga yordam bo'ladi», – dedi.

Bu taklif Anjelinaga jo'yali tuyuldi. U mehmonga borib, avvalgi boblarda aytganimizdek, fusunkor bir maskanga tushib qoldi, go'yo. Qadim musulmon madaniyati, urf –odati, e'tiqodiga muvofiq qurilgan hovli Anjelinani maftun etdi –qo'ydi.

– Boshimizdan o'tgan ishlarni eslash ham og'ir, – dedi Umarbeyning validasi salomlashuvdan so'ng bir finjon qahva ustida. – Bizning bobolarimiz Usmonlilar saltanatiga xizmat qilganlar. O'g'lim Umarning ajdodlari sulton Sulaymonxon, sulton Ahmadxon, sulton Salimxon davrlarida poshsho maqomida edilar. Keyin dini Islomning ravnaqi, shariati Muhammadning himoyasi uchun ota yurtga – Vatanga yuborildilar. Bolqon qadimda Rim imperiyasiga tobe edi. Nasroniylik dini xalq ichida yoyildi. Keyin turklar Islomni keltirdilar. Shuni yaxshi bilingki, Bolqonda hech kim Islomga majburan kiritilmadi. Musulmonlarining ulug' olimlari da'vati, fotihlarning yerlashib, go'zal hayot namunasini ko'rsatishlari natijasida odamlar Islomni qabul etdilar.

Diqqatingizni bir haqiqatga qaratay: Bolqon Usmonlilar qo'l ostida bo'lgan paytlarda xalq juda osoyishta yashadi. Zotan, Islom zamonamizning ayrim «madaniyatli» va «ilg'or» insonlari kabi terining rangi, tilga, nasl –nasabingga qaramaydi, o'z nafsiga yoqmagan birovni yerga urib, o'ziga mahbub birovni ko'kka ko'tarmaydi. Islom qandaydir zo'ravonlarning ra'yi, kayfiyati, tuyg'usi, istaklariga boqib yashash emas, balki har ishni ilohiy qonunga muvofiq bajaradigan dindir.

Anjelina xonim, mening erimni, o'g'limning Umarning otasini Muso poshsho, deyishardi. U o'lkamizdagi musulmonlarning rahnamosi edi. U barcha ichki diniy masalalarni hal etardi, hukumat ham u kishi bilan hisoblashib ish tutardi. Muso poshshoning biror gapi yerda qolmagan. Borgan joyida boshga ko'tarib kutib olardilar.

Nasroniylar ham, zo'ravonlar ham, Muso poshsho bor ekan, o'zboshimchalik qilishga jur'at etmadilar.

U paytlari biz juda muhtasham uyda yashardik. Umarning yetti akasi, ikki opasi bor edi. Nevaralarim quchog'imda, kelinlar xizmatimda edi. U paytlar oftob boshqacha porlab, oqshomlar o'zgacha tarovat kasb etardi. Kunlardan bir kuni Muso poshsho uyga har kungidan erta qaytdi. Biz endi peshin namozini o'qib bo'lgandik...

Go'yo bir shamol yeldiyu, Zaynab xonimning xotira kitobini varaqladi. Balki, bu varaqlarni ko'tarib, har yoqqa sochdi. Xonim erining o'sha qayg'uli kundagi holatini hozirgidek yaqqol eslaydi.

Muso poshshoning rangi oqargan, peshonasidan reza –reza ter oqardi. Bazo'r o'z o'rniga yotdi -da, tepasida unga xavotir –la qarab turgan ayoliga dedi:

– Xonim, menga suiqasd qildilar, Sen aqlli, esli xotinsan. Dod –voy solib, faryod urganing befoyda. Xorvatiyada emas, Bosniyada emas, Belgradda emas, butun Bolqonda ulkan fitna olovini yoqmoqdalar, xonim!

– Poshshom, – qo'rqib ketdi Zaynab. – Qanday fitna? Bu nima deganingiz? Sizga kim qasd qiladi?

– O'g'illarimizga odam yubordim. Tabib ham chorlatdim. Biroq ular yetib kelishganida tirik bo'lamanmi, yo'qmi, bilmayman. Xonim, men qon isini sezmoqdaman. Minglab begunohlar qiriladi, bir millatni qiradilar.

– Yo Alloh! – deb yubordi Zaynab xonim. – Millatni qiradilar! Kimni o'ldirishadi? Nima uchun?

– Xonim, safar tadorigini ko'r. Bolalarga e'tiborli bo'linglar, ayniqsa, o'g'il bolalarga! Men o'lishim bilan janozamni o'qinglar va hovliga ko'minglar! Hammangiz keting! Odamlarga aytinglar, ketishsin! Jonlarini saqlasinlar!

Zaynab xonim karaxt edi. Eri alahlayotgandek gapirmoqda.

– Alahlamayapman! – dedi Muso poshsho xuddi xotinining fikrini o'qigandek. – Va eng muhimini yodda tutinglar! Hamisha Allohning zikrida bo'ling. Har qanday holda ham ibodatni unutmang! Boshingizga kelajak har

ishni Allohdan deb biling va taqdir ishiga isyon etmang! Zolimga bosh egmanglar, bu najotga yetaklaydi. Zolimga yolvorsangiz, xorlikka yuz tutasizlar. Guvohlik beramanki, Allohdan boshqa iloh yo'q! Va yana guvohlik beramanki, Muhammad sollallohu alayhi va sallam Allohning bandasi va elchisidir!

Tamom. Zabardast Muso poshshoning joni uzildi. Joni uzilishi asnosida xonaga sakkiz o'g'il birin –ketin shoshib kirib keldilar. Ular otalarining boshida ko'zda yosh ila turib qoldilar.

– O'g'illarim, – dedi ko'zidagi yoshini artib Zaynab xonim. U, nihoyat, gapirishga kuch topdi. – Shunday qayg'udamanki, tilimga na bir so'z, dilimga na bir o'y sig'maydi! Biroq otangizning vasiyatini aytish bo'ynimdagi qarz. Otangiz esini yo'qotmadi, qo'rqmadi, talvasaga tushmadi, mardona turib o'limni qarshi oldi, iymon kalimasini aytib, Robbisiga qovushdi. Biroq u shunday gaplarni vasiyat etdiki, u meni juda hayron qoldirdi...

Zaynab xonim Muso poshshoning har bir so'zini o'g'illariga yetkazdi. O'g'illar esa hayratga tushdilar.

– Qanday qilib, otamizni hovliga dafn etamiz? – dedi to'ng'ichi. – Nima uchun qochishimiz kerak? Odamlarga nima uchun qochinglar, deb aytamiz? Axir, bunga asos yo'q! Undan ko'ra, otamizning janozalarini e'lon qilaylik!

Umardan boshqa hamma shu fikrda edi. Umar hali o'smir, undan hech kim: «Sen nima deysan?» – deb so'ramadi. Zaynab xonim esa ikkilanayotgan edi:

– Otangiz vasiyatiga muvofiq ish tutaylik, bolalarim, – dedi. – Shuncha gapni bekor aytmagandir, axir.

Xonim shunday desa -da, ovozida qat'iyat yo'q edi. Shu payt tabib keldi. U jasadni tekshirib ko'rishini aytdi.

– Kerak emas, – dedi yana katta o'g'il. – Otamning tanasini qiynamaymiz!

– Yengil ko‘rik o‘tkazaman, xolos, – dedi tabib hurmat bilan. – Muso poshsho hammamizga qadrli edilar. O‘limlari sababini aniqlab qo‘ysak, buning yomon tomoni yo‘q, deb o‘ylayman.

Kenja o‘g‘illarga ham tabibning talabi ma‘qul keldi. Ular otalarini ko‘rikdan o‘tkazishga rozi bo‘lishdi.

Tabib jasadning tanasi rangiga, qovog‘ini ko‘tarib, ko‘z ichiga, milklariga qaradi va dedi:

– Muso poshshoni zaharlashgan, ammo buni hech kim isbotlay olmaydi, poshshomizga eng qimmat zahar ichirishgan. U zahar alomatlari o‘limdan so‘ng darhol yuzaga chiqadi, o‘n besh daqiqada yana g‘oyib bo‘ladi. Men zahar belgilari yo‘qolishining so‘nggi bosqichida, ya‘ni xozir buni aniqladim.

– Bu yerda katta fitnani sezmoqdaman, – dedi katta o‘g‘il. – Hukumatga yoki politsiyaga xabar berish foydasiz, chunki davlat idoralari uyushgan guruhlarining josuslari bilan to‘ldirilgan. Otam aynan kimlar bilan ziddiyatga borganini bilmaymiz. Agar zaharlanish haqida xabar bersak, bu qotillikni yopish uchun oilamizga ham, tabibga ham hujum qiladilar. Hozircha o‘zimizni tag‘ofulga solamiz, zimdan otamning qotillarini topishga kirishamiz.

– Tashqarida odam ko‘payib ketdi, – dedi uy xizmatchisi kirib. O‘g‘illar hovliga chiqishdi. Tashqi hovli, darvozaxona va ko‘chada odam ko‘p edi. Hamma Muso poshshoning sihhati haqida gaplashardi. Poshshoning o‘g‘illarini ko‘rib, hamma jim bo‘ldi.

– Insonni yo‘qdan bor qilgan, Yer yuzida yashatib, so‘ng jonini oladigan, oxiratda qayta tiriltiradigan Allohga cheksiz hamdu maqtovlarimiz bo‘lsin! – deb so‘z boshladi to‘ng‘ich o‘g‘il. U otasiga juda ham o‘xshardi. – Islom dinini go‘zal bir tarzda bizga yetkazgan habibimiz Muhammad Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga, oilayu ashoblariga, avlodu atbolariga durdudlar, salovat va salomlar bo‘lsin! Aziz musulmon do‘stlar!

Akalar, ukalar! Hammamiz Allohnikimiz va, albatta, Unga qaytajakmiz! Otamiz Muso poshsho Mahmud poshsho o'g'li bir necha daqiqa oldin jon omonatini Allohga topshirib, imon kalimasini aytib, boqiy olamga rixlat etdi.

Olomon guvilladi.

- Inna lillahi va inna ilayhi rojiun!
- Alloh rahmatiga olsin!
- Alloh gunohlarini kechirsin!
- Qanday buyuk odam edi!
- Axir, soppa –sog' yurgan edi-ku!
- Allohning taqdiri!

Odamlar ichidan yonoqlari va iyagi turtib chiqqan, kulrang ko'zi chuqur botiq, sariq qoshlari siyrak, yakkam –dukkam soqolli, suyagi buzuq bir nusxa baqirib so'radi:

- Poshshomiz bizga nimani vasiyat qildilar?

Tovush sovuq va juda baland yangragani uchun birdan shovqin bosildi. Muso poshshoning katta o'g'li so'rovchini ko'zlari bilan topdi, negadir, bu afti angorni yaxshi eslab qolishga tirishdi, so'ng javob berdi:

– Otamiz Allohdan qo'rqinglar, gunohdan chetda bo'linglar, shariatni mahkam ushlanglar, deb vasiyat qildi.

- Subhanalloh!
- Alloh Muso poshshomizdan rozi bo'lsin!
- Oxiratlari obod bo'lsin!

To'ng'ich o'g'il g'ovur tinishini kutdi, nigohini savol beruvchidan uzmagan holda dona –dona qilib dedi:

– Va yana... Fitna qilmanglar, fitnachining joyi – jahannam, deb vasiyat qildi otam.

Dafn uchun harakat boshlanib ketdi. G'assol keldi, kafanlikni hozirlab, jasadni yuvishga kirishdi, go'rkov go'r kavlagani ketdi, qorilar Qur'on o'qiydi,

ta'ziyachilar, hamdardlarning qadami uzilmaydi, butun shahar Muso poshshoning janozasiga yig'ilib kelayotgan edi.

Bomdoddan so'ng, tobutni ko'chaga chiqarib, qibla tarafga qaratib qo'yishdi.

Odam ko'pligidan igna otsang, yerga tushmaydi. Hukumat odamlari, politsiya har yer, har yerda ko'rinadi. Quyosh mashriqdan qon kabi qizarib, ko'tarilayotganda imom janoza o'qish uchun saflarni tekislashni buyurdi.

Qisqa ma'ruza ila marhum yaxshi sifatlar ila yodga olindi, so'ng janozaning birinchi takbiri uchun qo'llar ko'tarildi, ayni shu lahza kunchiqar va kunbotardan ikkita parrakli uchoq paydo bo'ldi va olomon ustiga tobora yaqinlab kelaverdi. Janozaning uchinchi takbirida odamlar namozni unutib, osmonga qaradilar, parrakli uchoqdan ular ustiga o'q yog'ildi. Bu hech kim kutmaganda sodir bo'ldi, chalg'i o'rgan g'alladek hamma yerga yiqila boshladi, odamlar tutdek to'kildi, qochish imkonsiz edi: o'liklar ayqash – uyqash yerda yotar, o'q esa to'xtay demaydi, olomon birini bir bosib dovdaraydi, nihoyat qiy –chuv ko'tarildi. Parrakli uchoqlar o'n daqiqada ko'chani qonga to'ldirib, yerga qo'ndi, ichidan niqoblangan barzangilar otilib tushib, insonlarni beayov o'ldirishda davom etdilar.

Vahshiylar ichidan biri o'z soqchilari bilan Muso poshshoning hovlisiga yurdi, darvoza tagida poshshoning yetti o'g'li qonga belanib, jonsiz yotardi.

Ichki hovlida hamma dahshatga tushgan edi, Zaynab xonim erining vasiyatini endi tushundi. U bosqinchilar uyga kirib kelishlarini bildi, ta'ziyaga kelgan ayollarni va kelinlarini yig'ib dedi:

– Hozir shovqin –surondan bizga naf yo'q, qizlarim, mardona bo'ling! O'g'illaringizni berkiting! Muso poshshoning amri shunday edi!

O'q ovozlari yaqinroqdan eshitildi. Zaynab xonim rangi oqarib titrayotgan Umarni va o'g'il nevaralarini uy ostidagi yerto'laga olib tushdi.

– Nima bo'lsa, joyingizdan jilmang!

Umar jiyanlarini quchoqladi. Zaynab xonim devorni paypaslab, qandaydir g'ishtni bor kuchi bilan itardi, yerto'laning pishiq g'ishtli sharqiy devori odam sig'ar darajada qiya ochildi.

– Kiringlar! Umar, jiyanlaringni olib kir! – dedi shoshib. Umar ikki go'dak jiyanini ko'tarib ichkariga qo'ydi. Ular esa qorong'udan qo'rqib, yig'lay boshladi. Qolgan nevaralarini Umarga uzatishga ulgurmay yerto'laning tashqi eshigi qarsillab ochildi. Bosqinchilar qulfni sindirganlari aniq. Zinalardan oyoq tovushi va «Qaerdasanlar, itvachchalar!» degan bo'kirik eshitildi. Zaynab xonim boshqa chorasi qolmaganini bildi: qiya devorni yopdi. Umar: «Ona! Ona!» – dediyu, biroq endi ichkaridan chiqolmasdi.

Keyinroq Zaynab xonim bu sovuqqonlikni qanday topganiga o'zi ko'p ajablandi.

Kenja o'g'li va ikki nevarasini yashirishga ulgurdi, o'n uch nevarasi esa qaltirab –qaqshab turishardi. Sharqiy devor zichlashib yopilishi bilan, yerto'laning eshigi ichkariga quladi: zinadan niqoblangan to'rt barzangi avtomat bilan tushib keldi. Ular yerto'lada nevaralarini quchoqlab turgan yoshi ulug' ayolni ko'rishdi.

– Ey kampir! Tepaga chiq! – dedi ulardan biri. Zaynab xonim o'ziga o'qtalingan avtomat uchiga xotirjam boqdi -da, ikki nevarasini dast ko'tarib, qolganlariga dedi:

– Men bilan yuringlar! Qo'rqmanglar!

Hovlida ayollar tiz cho'kib, yig'lab o'tirishardi, Muso poshshoning jasada tobutdan olinibdi, yetti o'g'lining o'ligi bilan birga terib qo'yilibdi.

Zaynab xonim endi chiday olmadi:

– Allohim, zolimlarga kifoya et! – deb hayqirib yubordi.

– O'chir ovozingni, kampir! – bosqinchilardan bir xonimning bo'yniga avtomatning qo'ndog'i bilan turtdi, ayol munkidi, lekin yiqilmadi, qo'lidagi bolalarni ham tushirib yubormadi. Biroq vahshiylar tortib olishdi, xonimning

qo'lini boylab, ayollar qatoriga o'tqazishdi. O'n uch nafar o'g'il nevarani o'lik bobo va otalari tepasiga saflantirishdi.

– Nima qilyapsanlar! – ayollarning faryodi falakka chiqdi.

Bosqinchilar ichidan biri, u boshliq edi, shekilli, o'lik otalar va go'dak bolalarning tepasiga borib, ayollarga yuzlandi:

– Ayollar! Eshit! – dedi. – Senlarga tahdid yo'q. Biroq erlaring va o'g'illaring o'ladi!

Kenja kelin ko'zida yosh ila baqirdi:

– Meni ham o'ldir, vahshiy!

Vahshiy:

– Xo'p, – dedi -da, juvonning peshonasiga qo'rg'oshin joyladi.

Ayollarning uni o'chdi.

«Bunday dahshatni hech kimga ravo ko'rmayman, – deydi Zaynab xonim ayni shu voqea haqida iztirobdan kuyib. – Biz muzlab qoldik. O'likmizmi, tirikmizmi, bilmas edik. Inson zoti bunday yukni ko'tarishi qiyindir, Alloh esa bizga matonat beribdi, sabr beribdi».

Vahshiy so'zida davom etdi:

– Bizga Muso poshshoning sakkiz o'g'li va o'n besh o'g'il nevarasini o'ldirish buyurilgan, biroq bizda yettita ota jasi va o'n ikki o'g'ilning tirigi bor. Kenja o'g'il va ikki nevara qani?! Qani! Qaerda!

Vahshiy shunday deb bo'kirgan ko'yi avtomatini bolalarga qaratdi va tepkini bosib turdi. Begunoh norasidalar sassiz –sadosiz otalarining ustiga yiqildilar. Onalar o'rinlaridan turib o'zlarini farzandlariga otdilar.

Ularning ohu nolasidan bosqinchilar mast bo'lishdi. Ko'chadan ham to'xtovsiz o'q ovozi eshitilib, dahshatli qatliom avjga chiqmoqda edi.

– O'liklarga to'yib ol! – dedi vahshiy. – Hozir ular uylaring xarobasi ostida qolib ketishi mumkin.

Zaynab xonimda mador qolmadi, tomog'i quridi: bosqinchilar hovli va uyga, yerto'la ichiga benzin separ edilar.

Biri gugurt chaqib yubordi: muhtasham hovli, uy alanga ichida qoldi.

Bosqinchilar qah –qah otib, hovlini tark etdilar. Uy esa gurillab yonar edi.

Zaynab xonim yerto'laga otildi. Yerto'la ichida olov lang'illar, tutun ham burqsib chiqardi. Kelinlar o'lik bolalarini quchoqlab, ingrab, mungrab es –hushlarini yo'qotib bo'ldilar.

«Hozir uy qulab tushadi! Bolalarim yerto'lada!»

Zaynab xonim butun olamni unutib, alanga atrofida charx urib yugurardi.

Bir necha daqiqada tomlar quladi, atrofni quyuk chang, qurum, tutun qopladi, nafas olish, biror narsani ko'rish imkonsiz edi.

Zaynab xonim kelinlarini ko'chaga sudradi. Uyning yonishiga ma'nosiz va o'ta horg'in qarab o'tirishdi. Chunki butun olamda ularga yordam beradigan hech kim qolmadi. Yordam beradigan hamma o'lib yotibdi. Ko'chalar o'likka to'ldi. Ariqlarda qonlar oqdi. Osmonni qora tutun va murda isini sezgan o'laksaxo'rlar egallab oldi. Muso poshsho xonadonining beva ayollari liboslari kir, yuzlari qora kuya, o'zlari ozurdahol o'tirardilar.

«O'shanda qalbmni ezgan azobning ta'rifi yo'q, – deydi Zaynab xonim. – U og'riqni boshdan o'tkazmagan biror zot bila olmasa kerak. Qanday tirik qoldik – bilmayman! Alloh, Alloh deb faryod chekardimu, bo'g'zimdan bir sas chiqmasdi. Miyamda biror fikr, qalbmida biror tuyg'u qolmadi, go'yo. Aqlim hodisotlarni miyamga muhrlashdan to'xtamaganini bilaman... Ehtimol, hamon tirikligim Robbimning bir hikmati va rahmatidir».

Zaynab xonim kuch topib, o'rnidan turdi. Yer bilan yakson bo'lgan hovlisiga qarab talpindi. Yerto'lani topmoqchi edi. Biroq olov hamon haroratli, tafti terini kuydirgulik edi. Biroq ayolni bu to'xtata olmadi. U issiqqa ham, kuyayotgan qo'llariga ham, achimsiq tutunga ham parvo etmay olazarak qarab, yerto'lani izlayotgan edi...

O'N TO'RTINCHI BOB

Bu voqealar o'ngda sodir bo'lmoqdami yoxud tushda?! Abdulloh Yorqin garangsib qoldi: mirshab ulovining chinqirig'i va mehmonxona halokat qo'ng'irog'ining shovqini qorishib ketdi, Abdullohni bir zumda yerga yotqizib, qo'llarini qayirib kishanladilar, oyog'ini yerga tegizmasdan temir bilan o'ralgan ulov ichiga uloqtirdilar. Abdulloh boshini ko'tarib o'zini hibsga etganlarni ko'rmoqchi bo'lgan edi, boshiga kelgan qattiq zarb uni hushdan ayirdi.

U ko'zini ochib, olti tomoni tosh devor, bir tomonida qalin temir eshik, bir tomonida kalladek tuynugi panjaralangan xonada o'zining yotganini ko'rdi. Kishanlarni yechishibdi, biroq bilaklari og'riyapti.

Xona uzunasiga to'rt, eniga bir yarim, balandligi olti qadam chiqsa kerak. Nim qorong'u. Eshik tepasida xira chiroq. Eshikning chap tomonida xojat uchun chuqurcha, undan bir quloch tepada suv oqadigan temir quvur, ammo suvni ochish uchun burama quloq ko'rinmadi. Xonaning chap devoriga yopishtirilgan ikki qavatli ikkita temir o'rin, bosh tomoni tayin bo'lsin uchun bir yog'i sal qiyalatilgan; yuqorisiga chiqish uchun oyoq qo'yiladigan zina vazifasida ikkitadan uch burchak temir payvandlangan. Bu o'rinlarda to'rt kishi yotishi mumkin.

Biroq o'rinlarda na to'shak, na boshqa narsa yo'q. Temir.

Abdulloh o'rnidan turdi, tomog'i qaqrabdi, boshi ham sezilar – sezilmas aylandi, eshikka yaqinlashdi.

Xojatxona teshigidan chiqayotgan sassiqdan o'qchidi, eshikni taqillatdi, hech kim javob bermadi. Abdulloh hayron bo'ldi. Eshikka suyandi. Eshikning o'rtasida to'rt burchak darcha bor edi. Ehtimol, shu darcha ochilsa kerak.

Abdulloh benihoya tashna bo'lganini yana his etdi. Ayni shu payt zahar tang qildi. Xojatxonaga qaradi -da, boshqa iloji yo'qligini bildi...

Endi o'tirgan lahzada tashqarida xitoycha baqir –chaqir eshitildi, cho'chib ketib, shimini yuqori ko'tarib, tezda o'rnidan turdiyu, «Oh!» deb yubordi, ikki kuragining o'rtasini xojat teshigi tepasidagi quvurga urgan edi, suyak –suyagiga og'riq tarqalib, ixrab, temir o'ringa o'tirib qoldi. Jarohatlangan joyini qo'li bilan paypasladi, barmog'i namlandi, yumshoq go'shtga tegdi, shoshib qo'lga qaradi: umurtqa suyagining yoni qonabdi.

Azob zo'ridan chanqoq ham, zahar tang ham g'oyib bo'ldi, xitoycha ovozlari eshikka yaqinlab keldi, sharaqa –shuruq ovozlari eshitildi, qulfga kalit urildi, shekilli, temir tamba surildi, og'ir g'irchillagan sasi barobarida eshik qiya ochildi, xitoybashara mirshabning qalpoqli boshi ko'rindi, u uyg'urchalab buyurdi:

– Chiq! Tez bo'!

Tishini tishiga qo'yib, og'riqni yenggandek bo'ldi -da, Abdulloh eshikka qarab yurdi. Chiqishi bilan yana buyruq bo'ldi:

– Engashib yugur! Boshingni ko'tarma!

Abdulloh yo amrni anglamadi, yo dovdirdi boshini beixtiyor ko'tarib: «A?» – dediyu, yelkasiga tushgan mirshab tayog'i darrasidan yerga cho'kkalab qoldi. Ikkinchi zarba bo'yniga tushib, uni cho'ziltirdi. Boyagi xitoybashara Abdullohning yoqasidan dast ko'tarib, devorga tirab vishillaadi:

– Menga qara, it! Engash, boshini ko'tarma! Yugur, maymun!

Mirshabning ichidan o'likning isidek badbo'y xid kelarkan, Abdulloh o'zi istamay yuzini burishtirdi.

– Nega turqingni bujmaytirasan? To'ng'iz! – mirshab tayog'ini ishga soldi. Abdulloh g'ujanak bo'lib oldi.

– O'ringdan tur! Tur, deyaqman! To'nqayib yugur!

Abdulloh o'rnidan turmasa, kaltak to'xtmasligini bildi va bir amallab turdiyu, engashgan ko'yi aytilgan tarafga yugurdi.

– Nega qo'lingni tushirasan! Qo'lingni orqaga qil, ahmoq!

Abdulloh ikki qo'li orqada, chopishda davom etdi. Uning miyasi shang'illar, isitmasi ko'tarilib, ko'zi hech narsani ko'rmay qoldi. Shu yugurishida borib, boshi bilan hibsxonalarini ma'muriyatdan ajratish uchun o'rnatilgan po'lat panjaraga urilib, orqasiga chalqancha yiqildi, yiqilarkan boshini changalladi.

Mirshablarning xoxolagani qamoq bo'ylab aks –sado berdi. Abdulloh shoshib, yana o'rnidan turdi. Xitoybashara sekin yurib kelib, baqirdi:

– Devorga o'gril! Engash!

Abdulloh devorga yuzini burib, engashdi. O'rtadagi panjara eshik ochildi:

– Yur!

Biroz yurishgach, qora temir eshik oldida to'xtashdi. Mirshab eshikni qiya ochib, xitoychalab ruxsat so'radi, chog'i, Abdullohga dedi:

– Ichkari kir!

Abdulloh hadixsirab, yelkasini qisib ichkariga kirdi. Xona keng edi, o'rtada uzun stol, to'rda bir kishi, stolning ikki yonida uch kishi o'tirardi. Abdulloh ularning qarshisida qo'lini orqasiga qo'yib, anglamsiz bir holda mutelarcha turib qoldi.

– Xitoy fuqarosini urdingiz, boshini yordingiz, qani o'sha jasorat?

Savol bergan ovoz juda tanish edi, Abdulloh ko'zlariga ishonmay qoldi. o'tirganlarning biri Moyimxon Sotim edi!

– Moyimxon! – Abdulloh g'ayritabiiy ovozda hayqirib yubordi.

– Mahbus, o'zingizni asrang! – Moyimxonning sasi o'ta jiddiy, hokimona va siyosiy jarangladi. – Siz kecha kommunistik partiyani haqoratladingiz, Islom terrorini esa maqtab, unga da'vat etdingiz. Bu jinoyat jazolanishi shart!

Abdullohning tili tutildi. Kecha aytganlarining badali shu qadar qimmatmi edi? Umri va joni ila narxlanajak so'zlarni izhor etibmi edi?!

O'tirganlardan ikkisining xitoy millatiga mansub ekanligi ko'rinib turibdi. Ikki uyg'urning biri Moyimxon, biri notanish.

– Keling, yaqindan tanishib olamiz, Abdulloh Yorqin janoblari, – dedi aynan o'sha Notanish. – Oldimizda ikki yo'l bor, ochiq va samimiy suhbat. Bu birinchi yo'l.

Abdulloh tomog'i qurib, yutindi. Kaltaklangan oyoqlari – soni, boldiri og'ridi. Notanish o'ziga shishadan finjonga suv quydi, ho'pladi, so'ng erinib, o'ta sokin ohangda davom etdi:

– Birinchi yo'lni tanlasak, unda xotirjamlik, xavfsizlik, amniyat bor! Amniyat arabiy so'zmi? Siz islomchi ekstremistlar arabiy so'zlarni sevasizlar-ku! Amniyat! Xullas, kamgina muddatga qamaymiz, yaxshi qamoqqa jo'natamiz, hamkorligimiz bardavom bo'lsa, balki, jazoni tugatib, qamoqdan chiqish ham nasib etadi, albatta!

Abdulloh tergov mushtlashuv ustida ketmayotganiga mutlaqo amin bo'ldi, biroq tergovchi undan nimani xohlayapti?!

– Endi ikkinchi yo'lni tushuntiraman, – dedi Notanish salmoqlab. – Bu jahannamdan o'tadigan yo'l. Musulmon jahannamga ishonasizlar-ku, to'g'rimi?

Abdulloh savol mohiyatini anglamay hayron qaradi.

– Jahannamga ishonasizmi? Ya'ni, do'zax bormi? – takror so'radi Notanish.

– Albatta, bor, – javob berdi Abdulloh.

– Ammo jahannamga kirib chiqqanlar bormi? – ko'zini lo'q qildi tergovchi. – Yo'q! Demak, do'zax yo'q narsa. To'qima! Ahmoqlar to'dasini vasvasaga solib, yo'q kuch bilan boshqarish, deyiladi bu. Adashdim, nodon galani xayolot vositasida maymunday o'ynatib, eshakday ishlatish uchun jahannamni to'qib chiqargansanlar!

– Unday emas! – dedi darhol Abdulloh. – Jahannam kofirlar, zolimlar va xoinlar uchun tayyorlab qo'yilgan ulkan azobdir!

Moyimxon Sotim ikki kaftini uch –to‘rt urib qarsak chaldi:

– Ofarin! Tasanno! E’tiqodingizga qoyil qoldik! Xuddi kechagidek diningiz himoyasidasiz! Sizdan sobit musulmon chiqadi, shekilli.

Abdulloh hech so‘z demadi, faqat bor kuchini ko‘ziga yig‘ib, o‘qraydi.

– Xoy, bunchalik g‘azablanmang! – uni ko‘rib xiringladi Notanish. – Moyimxonni ko‘zingiz bilan qatl qilib yubormang, iltimos. U bizga kerak. Ha, darvoqe, jahannamga ishonavering. Bizning ikkinchi yo‘limiz o‘sha ishonchingizni mahkamlab, mustahkamlaydi. Bilasizmi, bu qanday ro‘y beradi?

Abdulloh nigohini bir nuqtadan uzmadi, indamadi. Notanish ovozini tahdidomuz ko‘tarib, dedi –

– Bilasizmi, deyapman!

– Bilmayman, – dedi Abdulloh.

– Unda eshiting, – deb tirjaydi Notanish. – Sizga shunday qiynoq taqdim etamizki, haqiqatan, u dunyoda jahannam bor ekan, azobi juda kuchli bo‘lar ekan, deb iymoningiz ziyoda bo‘ladi!

Notanish sovuq iljayib, stol ustiga duradgorlar asboblarini saqlaydigan quti kabi bir qutini qo‘yib, ochdi. Unda bir necha xil bigiz, pichoqlar, qaychilar, omburlar, har xil mix, bir o‘rama arqon, sim bor edi.

– Menimcha, hammasi tushunarli, – dedi Notanish. So‘ng stol qarshisidagi kursiga ishora qildi.

– O‘tiring.

Abdulloh kursiga o‘tirdi. Moyimxon finjonga suv quyib, uzatdi:

– Iching, tashnadirsiz.

Abdullohga suv juda orombaxsh tuyuldi, miriqib sipqordi va: «Alhamdulillah», – dedi. Moyimxon bo‘shagan finjonni yana to‘ldirdi. Abdulloh buni ham oxirigacha ichdi. Uchinchi finjonga kelganda chanqog‘i qondi, fikri ravshanlashdi. Tergovchilar undan ko‘z uzishmas, har bir harakati, yuz ifodalarini ham kuzatayotgan edilar.

– Suvday serob bo‘ling! – dedi Notanish kesatib. Chunki Abdulloh suvni ichdi, ichdiyu, na soqiyga, na boshqaga rahmat, demadi, «Alhamdulillah», – dedi, bo‘ldi. Notanishning kesatig‘ini tushunmaganday Abdulloh ularga qarab talmovsiradi.

– Endi ishga o‘tamiz, – Notanish qovog‘ini solib, Abdullohga tikildi. – Qani, hammasini bir boshdan gapiring. Biz tinglaymiz.

– Nimani gapiray? – hayron so‘radi Abdulloh.

– Nega Turkiyadan Urumchiga keldingiz? Sizni kim yubordi? Qanday maqsad –muddaoingiz bor? Hammasini ayting, – tushuntirdi Notanish. – Har bir so‘zingizni o‘ylab, keyin gapiring. Aldamang. Yolg‘oningiz, albatta, boshingizga balo bo‘ladi. Borini, ro‘y –rost so‘ylang. O‘zingiz uchun mana shu yordam bo‘ladi.

– Uyg‘ur yoshlarini Yevropada o‘qitish dasturi bo‘yicha keldim, – deb so‘z boshladi Abdulloh.

– Bizning ortiqcha vaqtimiz yo‘q, – dedi shart kesib Moyimxon vajohat bilan. – Ertakni nevara ko‘rsangiz, ularga aytasiz. Qaysi terror tashkilotining buyurtmasini bajaryapsiz? Biz hammasini bilamiz. O‘z og‘zingizdan eshitmoqchimiz.

– Terror tashkiloti? – miyasi shang‘illadi Abdullohning. – Men hech qanday terror tashkilotini bilmayman.

– Siz terror, deb o‘ylamaysiz-ku! – dedi Notanish. – Siz uni Ixvanul muslimin, ya‘ni Musulmon birodarlar, deb ataysiz.

– Adashyapsiz! – dedi keskin Abdulloh. – Mening unday tashkilotlarga aloqam yo‘q.

– Shundaymi? – mug‘ambirlarcha iljaydi Notanish. – Otangiz Ibrohim Yorqin Istanbulga borgandayoq yugurib kimning uyiga borganini bilasizmi? Abdulloh o‘ttiz yil avvalgi voqea titkilanayotganidan hayratlandi.

– Bilmayman, – dedi u.

– Bilmayman, deb turavering, hozircha, – dedi Notanish. – Otangiz turkistonlik terrorist, buyuk Sovet davlatining dushmani ko'r Shermuhammadning uyiga borgan, oyog'ini o'pgan, terroristlar sardori o'lgunicha uning xizmatini qilgan. To'g'rimi? Bularni bilasiz-ku!

– Shermuhammadbey terrorist emasdi, – dedi Abdulloh. – U keksa, bemor bir musulmon edi, xolos.

– Ha –ha –ha! – zaharxanda kuldi Notanish. – Balki quyunday beozor musulmondir, a? U qizil askarlarni, sadoqatli kommunistlarni o'ldirgan qotil! Pushtun jangarilarini qo'llab –quvvatlagan. U bilan hamkorlik qilish uchun avval, Germaniya maxsus xizmati, keyin Ixvanul muslimin terrorchilari aloqaga chiqishgan. Shermuhammadbek arab davlatlarini Isroilga qarshi urushini yoqlagan. Umar Muxtor haqida doim to'lqinlanib gapirgan. Siz va otangiz esa uning xizmatida bo'lgansizlar. Endi ochig'ini aytavering, Shermuhammadbekning qaysi terrorini amalga oshirish uchun topshiriq olgansiz? Bu yerda kimlar bilan uchrashmoqchisiz?

Abdulloh quloqlariga ishonmas edi, dong qotdi.

Biroq endi gapirish kerak edi. – Men sizlarga Shermuhammadbey haqida rostini aytaman, – dedi jiddiyat ila. – Gaplarimga ishoning. Zarracha yolg'on aralashtirmayman.

– Juda soz, qani, boshlang! – dedi Notanish.

– Haqiqatan, biz Turkiyada Shermuhammadbey himoyasida edik, biroq u allaqachon siyosiy va harbiy faoliyatini to'xtatib bo'lgan edi. Oyog'i ishlamasdi, ko'zi ko'rmasdi. Gitler Olmoniyasi unga maxsus harakat rejasini taqdim qilgan, lekin u inson bu rejani qabul etmagan. Va siz aytgandek, Ixvanul muslimindan ham vakillar kelgan, Shermuhammadbey istasa, bu harakatda ishtirok qilsa bo'lardi, biroq unga taklifni batafsil o'rganib rad etdi, bu ishlarda fitna bor, deb aytgan. To'g'ri, u inson Turkistonni Sovet davlatidan ajratib olishni istardi, biroq amaliy harakat qiladigan darajada imkoniyati bo'lmagan.

Men tanigan Shermuhammadbey ibodatgo'y qariya edi, xolos. Undan hech kimga, biror davlatga, ayniqsa, Xitoy kabi katta davlatga ziyon yetishi mumkin emasdi.

Abdulloh gapini tugatib, suvdan ho'pladi. Uning gapini diqqat bilan eshitgan ikki xitoyi ham bir –biriga nimadir deyishdi, keyin Notanish savol berishdi.

– Abdulloh Yorqin, – dedi Notanish ularning savolini tushunib olgach.

– Siz o'z ota –bobolaringizni bilasizmi?

– Ha, – dedi Abdulloh. – Otam Ibrohim, bobom Xolid, katta bobom Qilichbek, undan kattasi ham Ibrohim.

– Bizni zeriktiryapsiz, do'stim, – dedi Notanish. – Nega faxrlanib Xolid mujohid, Qilichbek mujohid, demayapsiz? Bobolaringiz so'nggi tomchi qoni qolgunicha buyuk Xitoy davlatiga qarshi urushganini yashiryapsizmi? Amir Yoqubbek, marshal Alixonto'raning askarlari edilar-ku ular! Buni bilmayman, deb bizni ishontirmoqchimisiz?

– Buni bilaman, albatta, – dedi Abdulloh.

– Nega u holda yashirmoqdasiz, Abdulloh bey? – so'radi Notanish. – Qo'rqyapsizmi?

– Qo'rqmayman! – tuyqus Abdullohning ichidagi qo'rquv tag –tugi bilan qo'porilib, g'oyib bo'ldi. – Qo'rqmayman, Alhamdulillah. Bobolarim xitoy mustabidiga, xitoy bosqinchilariga qarshi urushdilar. Xitoy bosqinchilarining boshini uzishdi, yuragini sug'urishdi. Ming afsuski, biz noshud avlod bo'ldik! O'z yurtimizdan qochdik, yovuz dushmanga Vatanni qoldirdik. O'z o'lkamizga qadam qo'ya olmayapmiz. O'z diyorimizda qullarga aylandik. Imkonim bo'lsa edi, sizlar o'lgudek qo'rqadigan terrorchilar ichida bo'lardim! Ming afsus, unday emas!

Abdulloh bu gaplarni aytarkan, qizishib ketdi, yuzi qizarib, bo'yin tomirlari bo'rtdi. Dong qotish navbati tergovchilarga kelgan edi.

Ular bir –birlariga qarab qolishdi. Notanish tergovchi va Moyimxon ikki xitoyiga hadiksirab tikildilar. Ular sapchib o‘rinlaridan turdilar va g‘azab bilan, lekin past tovushda tahdidomuz gapirdilar va tergovxonani tark etdilar. Notanish jirkanish bilan Abdullohga boqdi:

– Juda jasur ekansiz! Har bir aytgan so‘zingiz uchun cheksiz uqubatlar tortasiz! Buni kafolatlayman!

– Imkoniyat eshiklarini umrbod yopdingiz, Abdulloh bey, – dedi Moyimxon achingansimon. – O‘lguningizcha qamoqdan chiqmaysiz, deb xavotirdaman.

– Oldindan aytib qo‘yay, – dedi Notanish. – Siz qamoqqa emas, ulkan tergovxonaga kirmoqdasiz. Bu yerda endi sizni biz kabi insofli mutaxassislar emas, o‘z otasini o‘ldirishdan toymagan manfurlar tergov qilishadi.

... Kameraga Abdullohni qanday ur –sur qilib olib ketgan bo‘lsa, xuddi shunday holda qaytarib keltirishdi.

Ichkari kirib, Abdullohning ko‘zi tindi, qorong‘uga ko‘zi ko‘nikib ulgurmay, kimdir uning jag‘iga musht urdi, kimdir biqiniga, kimdir qo‘lidan tortib yiqitdi. Abdullohning ovoz chiqarishga holi qolmay, g‘ujanak bo‘ldi, boshi, yelkasi, beli, oyoqlari – butun a‘zoyi badaniga ayovsiz tepki yog‘ilaverdi. Bu Abdulloh hushini yo‘qotgunicha davom etdi.

... Yuziga sepilgan suvdan Abdulloh ko‘zini ochdi. Qovurg‘asi, peshonasi, boshi, har bir suyagi, har bir bo‘g‘imi qaqshab og‘riyotgan edi. Abdulloh turishga tirishdi, yo‘q, quvvati yetmadi, tepasida o‘ziga tikilayotgan oytovoqday ikki basharani g‘ira –shira ilg‘adi va «Kamida to‘rtta qovurg‘asi singan, tepaga ko‘tarish kerak», – degan bo‘g‘iq ovozni elas –elas eshitdi.

Ikki kishi Abdullohni dast ko‘tarib, o‘rinning ikkinchi qavatiga itqitdi, Abdulloh temir yuzaga «gurs» etib tushdi, qovurg‘asining singan suyaklari qirrali uchi bilan ichaklariga sanchilgandek bo‘lib, ixrab yubordi. Ixradiyu, og‘zidan oqayotgan so‘lakni ham ushlab qolishga madori yetmadi. Abdulloh

shu yotgancha ko'zlarini yumdi, yo'q, uning joni uzilmadi, balki kun bo'yi to kechgacha davom etgan kaltak uning bor quvvatini so'rib olgani uchun uyqu bosib keldi.

Bu shunday uyqu ediki, keyinchalik Abdulloh Yorqin uni: «Rahmat uyqusi», – deb aytib yurdi.

«Ashobi Kahf hikoyasini o'qib, Alloh taolo mo'minlarni uch yuz to'qqiz yil uxlatib qo'yganidan doim hayratlanardim. Uch asr orom uyqusida bo'lgan yigitlar juda kam uxladik, deb o'ylashgan, uyg'onib shahar tushib, ne ko'z ila ko'rsinlarki, tavhid zamonasi ekan! Xalqning hammasi muvahhid, hammasi yakka Allohga sig'inarkan, g'ordagi birodarlarning yodida qolgan mudhish davr – iymon egalari qatl etiladigan, azobga solinadigan davr intiho topgan ekan. O'shanda yigitlar g'orga qaytib, abadiy uyquga ketadilar, Alloh ularni jannat ila mukofotladi, ularga ergashgan bir it bor edi, u ham jannatga kiradi. Alloh taolo bu qissani biz musulmonlarga ibrat o'laroq Qur'onda bayon qildi. Vallohu a'lam, meni o'shanda qamrab olgan uyqu ashobi kahfga orom bergan o'sha uyqu bo'lsa, ne ajab! Zotan, u uyqu tanimga shifo, qalbimga sakinat, ruhimga halovat bag'ishladi. Shunday uxlabmanki, zolimlar nima uchundir meni uyg'otib qayta do'pposlamadilar, uyg'onishimni kutdilar», – deydi Abdulloh Yorqin.

Bu hikoyani aytib berishi uchun u yana uzoq yo'l bosishi kerak. Suubatli, uqubatli yo'!

Abdulloh bir kechayu bir kunduz to'liq uxlati, qamoq nazoratchilari uning boshiga tushayotgan ko'rgilikdan boxabar edilar, tekshiruvlarda ham uyg'otib o'tirishmadi. Aslida, uyg'otish bir oz mulohazali edi: Abdulloh yarim chalqancha yotib uxlar, kiyimining tugmalari yulib olingani uchun qontalash, ko'kargan va qoraygan qorni, ko'kragi ochilib yotardi. Ko'rgan kishining seskanmasligi qiyin edi.

Mahbusning yuzi ham shishib, ko'kimtir tus olgan, lablari, yonoqlarida qotgan qon parchalari ko'zga tashlanadi.

Abdulloh erta sahar uyg'ondi. Shiftga, kamera devorlariga qaradi, qaerda ekanligini idrok eta olmay, gangidi, bir necha lahzadayoq hamma voqeani esladi. Sekin yonboshlab, pastga qaradi: biri chalqancha, bir to'ntarilib ikki mahbus uxlaydi, biri hurrak otadi. Eshik tepasida chiroq xira miltiraydi. Abdulloh Allohga duo qilishi zarurligini bildi, qo'lini ko'tarib, devorga surdi va tayammum qildi. Namozga niyat qildi, shiftga qarab yotgan ko'yi ikki qulog'ining yumshog'iga bosh barmog'ini tekizdi, so'ng ikki qo'lini qorni ustida bog'lab, pichirlagan ko'yi sanoni o'qidi: «Subhanaka Allohumma va bihamdika va tabarokasmuka va ta'ala jadduka va la ilaha g'oyruk!»

Bismillahga kelgandayoq Abdullohning ashki ko'zidan toshdi, ichida to'fon yanglig' yig'i tashqariga qarab yopirildi, u faryod solib yig'lashni istardi, biroq bu imkonsiz edi.

«Allohim! Allohim! Allohim! Meni o'z holimga tashlab qo'yma!»

Uning butun vujudini titratayotgan iltijo shu edi.

«Ey olamlar Robbisi! O'zingga hamd bo'lsin! Maqtovga faqat Sen loyiqsan! Senga ibodat qilaman! Sendangina yordam so'rayman! Meni ne'mat etilganlarning Yo'liga, lymonga hidoyat et! Adashganlar, g'azab uchraganlar yo'lida qilma, Allohim! Buyuk sinov berding, Robbim! Bu sinovdan yorug' yuz ila meni chiqar! Oxiratda Senga ro'baro' turganimda yuzimni qora qilajak xatolardan meni omon saqla, Allohim! Sen madad bermasang, Sen saqlamasang, na shayton hiylasiga bas kelmayman, na nafsimdan g'olib bo'la olmayajakman!

Robbim, meni zolim zulmidan xalos et, ofiyatu omonlik ber! lymonimni salomat et! Rasuling Muhammad sollallohu alayhi va sallamga munosib ummat et, Robbim!»

... Biror soatlar o'tib, kamera darchasidan qo'yoshning bir tutam nuri kirdi. Mirshablar tashqari yo'lakda kezib, «Uyg'on! Uyg'on!» – deb baqira boshlashdi.

Mahbuslar birma-bir turib, xojatga chiqishdi, yuvinishdi...

Abdulloh ham qiynala –qiynala tepadan pastga tushdi, bo'shandi, yuvindi, keyin o'ziga baqrayib o'tirganlar qarshisiga keldi. Ular uch kishi edi: birinchisi pakana, qoshi qalin, oqargan, tepakal, do'rdoq lab, manglayining chap yoni tirtiqli; ikkinchisi bo'yi baland, ozg'in, yonog'i yong'oqdek turtib chiqqan, aftini cho'tir bosgan, yelkasi tor, boshi va iyagi uch burchakni yodga soladi, umuman, turqi konus shaklida edi; uchinchisi esa yoshroq yigit, yuzi oq, qosh-ko'zi kelishgan, o'zi ham barvasta, biroq nigohida qandaydir beshafqatlik va behayolik ufuradi.

– Menga qara, – deb pakana gap boshladi. – Seni bilamiz, terroristsan, bizni tanib ol: meni Aydar killer, deyishadi. Ellik yetti kishini so'rganman, davlat bor –yo'g'i yigirma uchtasini biladi, qisqasi, men bilan hazillashga, gapimni ikki qilma, shu kameraning egasi menman. Manavi shunchaki, Naynov. Ismi ham shu, laqabi ham shu. Bu Olifta tirriq. Sen meni Aydar og'a, deb, bularni esa Naynov og'a, Olifta og'a, deb chaqirasan. Kameraning qoidalarini bilib ol: Xudo, payg'ambar deyish mumkinmas, duo, namoz ta'qiqlanadi. Pichirlab duo qilsang yo ishora bilan namoz o'qisang, o'zingdan ko'r! Tahorat olib yurma! Yuzingni ham, og'zingni ham, qo'lingni ham bir marta yuvishga ruxsat.

Ko'tingni esa umuman yuvish yo'q. Qog'ozga artasan. Ovqatni chap qo'lda yeysan! Yuziga fotiha tortsang, ikki qo'lingni sindiraman, qanday tushunding?

Abdulloh Aydarning gapini jim eshitdi, ichidan zil ketsa -da, o'zini bosdi, titrog'ini yengib dedi:

– Umuman tushunmadim!

Aydarning ko'zi kosasidan chiqqudek bo'ldi:

– Tushunmadingmi!

Qo'lini musht qilib, Abdullohning yuziga urmoqchi edi, Abdulloh chaqqonlik qilib oyog'ini ko'tarib, uning qorniga tepdi. Aydar o'rinning ichiga

buklanib kirib, devorga urildi. Zarba kutmagan Naynov va Olifta bir on ajabsinib qoldilar va birvarakayiga Abdullohning ustiga shoqoldek chiyillab otilidilar. Ularga qarshi oyoqda turish ham mumkin emasdi, Abdulloh yana yiqildi, tepki va kaltak avvalgidan ikki karra ko'paydi, urayotganlar hansirab qolishdi.

Bu safar Abdulloh hushini yo'qotmadi, tanasi qattiq og'risa -da, devorga suyanib oyoqqa qalqdi. Aydar qornini changallab o'tirardi, u hoziroq Abdullohning jonini olishga shay ediyu, tepki zarbi favqulodda kuchli bo'lib, uni behol qilib qo'ygan edi.

Abdullohning oyoqqa turayotganini ko'rib, biroz kuch to'plab olgan Naynov va Olifta yana hujumga hozirlandilar. Shu payt eshik sharaqlab ochildi va buyruq yangradi:

– Hamma tashqariga! Tekshiruv!

O'N BESHINCHI BOB

Zaynab xonim o'z oilasidagi erlarning qatli haqida gapirarkan, nuroniy chehrasiga qayg'u buluti soya soldi. Bu soya Anjelinaning ham qalbiga ko'chib o'tdi. Nohaq qonlari to'kilgan maqtullar ahliga hamdardu ularni kiprik qoqmay qirgan va xonadonlarni kuydirib, xonumonlar kulini ko'kka sovurganlar qarshisida qasoskor bo'lib qoldi beixtiyor. Keksa xonimning hikoyasi ularni o'tmishning qonli hududlariga yetakladi. Anjelina bu voqea tafsilotini matbuotda o'qigan edi, marhumlarga qalbida rahmu shafqat uyg'ongan edi, sakkiz ming qurolsiz insonning shunchaki o'ldirib yuborilishidan, bugun anglab yetdiki, yetarlicha larzaga tushmagan ekan. Axir, begunohlarning jonini olib, qonini to'kib, ularning ayollariga zulm qilishdan ulkanrok qabohat bormi? Bu qabohat haqida eshitib, bilib, hamdard bo'lmaslik insofdanmi? Hamdard bo'lsa -da, ul bechoralar himoyasi uchun bir so'z aytishga-da qodir bo'lmaslikdan kattaroq noinsoflik

bo'furmi?! Nadomatlar bo'lsinki, insoniyatning aksari o'zgalarning iztirobi, o'limi va fojiasidan zarra qadar g'am chekmay qo'ydi. Nahot, qalblar o'lib, ruhlar so'ndi? Nahotki, odamiylik unutildi?!

Anjelina bu ehtiros uning ichida ilk bor to'lqinlanganini keyinchalik eslaydi. U odamzod chekayotgan mung, e'tiqodi, dini uchun azobga mahkum etilganlar, tili, irqi va fikri uchun qatag'on bo'lganlarning o'nlab, yuzlab misollari bilan yuzlashgach, betoqat holga tushdi. Ayniqsa, zulm qarshisida befarq qaraydigan toifalardan ko'p ajablandi, o'zi ham ularning ichida ekanligidan qo'rqib ketdi. Yangi tuyg'ular uning fitratan toza qalbini Haqiqat sari boshlayotgan edi. Hali chinakam Haqiqatga uchrashmoq uchun uzoq yo'lni bosib o'tmoq lozim. Zaynab xonim hikoyasi Haqiqatning zaif, biroq uyg'otishga qodir sasi edi, aslida. Anjelina duch keladigan, o'zi ham ishtirokchi bo'ladigan yurakni tirnovchi hodisotlarni mavridi bilan o'qiydiz, hozir esa Zaynab xonimning holatiga nazar solaylik.

...Qonli hodisa xabari shamoldek butun dunyo bo'ylab yeldi. Shu kun kech bo'lmay har tarafdin yordam kela boshladi. Televideniya, radio, qirg'in tafsilotlarini e'lon qildi, aybdorlarni topib jazolash talab etila boshlandi. Zaynab xonim esa bulardan xabarsiz, uning bu xabarlarni bilishga ham xohishi yo'q. Vayronaga aylangan xonadoni uzra polaponidan ayrilgan burgutdek charx urdi, ko'makka kelgan harbiylarga yerto'laning joyini ko'rsatdi.

U yerda odam borligi aytilgach, bir necha o'n kishi ishga kirishdi. Yarim soatlarda yerto'la ochildi, behush yotgan o'smir va bolakayni ko'tarib chiqdilar...

Shu tundayoq butun Bolqon yig'i va o'q ovozlari to'ldi. Ko'miladigan murdalarning sanog'i ko'rinmasdi. Qarindoshi, yoru birodari o'ldirilgan har kim qasos o'tida yonardi. Voqeaning asl sabablari haqida tahlilchilar, siyosatchilar tinimsiz gapirishdi. Muso poshsho bolalariga, xotiniga quyidagi voqeani aytib ulgurmagan edi: Oxirgi bir yilda onda –sonda har xil qotilliklar

haqida noxush xabarlar tarqaldi. Matbuotda tashvishli maqolalar e'lon etildi, biroq ko'pchilik holatni butunicha idrok etmayotgandi. Muso poshsho ba'zi nasroniylar va musulmonlarning orasida ro'y berayotgan ziddiyatlardan xavotirga tushdi. Na hukumat, na boshqa biror kuch bu ziddiyatni yechish haqida o'ylamas edi. Muso poshshoning fikricha, millatchilik adovatidan ko'ra diniy adovat xatarliroq. Yerli musulmonlarga provaslav hamda katolik cherkovi peshvolari: «Ota-bobolaringiz bosqinchi turklarga dinini, yurtini sotgan, sizlar xoinlar avlodisiz, aslingizga qayting! Nasroniy bo'ling!» mazmunida oshkora sha'ma qilishga o'tdilar. Masjidlarda esa bu sha'malarga nisbatan og'irroq kinoyalar yangradi. Muso poshsho bu fitnaning ildizi chuqurligini angladi. Cherkov peshvosi yoxud masjid imomi o'z fikridan, tuyg'usidan kelib chiqib, g'ayridinni tahqirlamaydi, musulmonlar qudratli Turk sultonlari davrida g'ayridinlarni besabab chertgan emas. Nasroniy va yahudiylar ham shunga muqobil darajada adabli edilar. Muso poshsho fitna ildizini topishga qat'iy qaror qildi, shogird va yordamchilariga cherkov ruhoniylarini kuzatishni buyurdi. U ishning boshida turganlar kimligini shu yo'l bilan aniqlayman, deb o'yladi. Hukumatdagi tanishlarini yuzaga kelayotgan xavf haqida ogohlantirdi.

– Ortiqcha xavotirga tushyapsiz, – dedi hudud hokimining yordamchisi. – Mavjud bo'lmagan xatar haqida gapiryapsiz.

Muso poshshoning odamlar cherkovning xorijliklar notanishlar bilan bir marta uchrashgani haqida xabar keltirishdi. Xorijliklar deb aytilgan kishilar esa Amerikadagi noma'lum guruhlar bilan shubhali tijorat qilishlarini bilgach, Muso poshshoning shubhasi kuchaydi, u Bolqonda qandaydir larzaga hozirlik ko'rilayotganini tushundi. Aynan qanday reja uchun tayyorgarlik ko'rilayotgani uning uchun hamon mavhum edi. Oxirgi vaqtlarda uch-to'rt marta nasroniy va musulmonlar o'rtasida janjal chiqdi, ba'zi mahalliy urug'lar ham bir-birini ko'p marta haqoratladilar. Masala haqida uzil-kesil xulosaga kelish uchun Muso poshsho cherkovga ta'sir o'tkazishga

urinayotgan guruhning shahar tashqasidagi manziliga yo'l oldi. Daryo yoqasi bo'ylab minglab tanob hududga yoyilgan o'rmonda ajib tarovat va sehr bor. Tog' bag'ridagi daraxtlar o'rmonning cho'qqiga uzangan qo'lini eslatadi. Muazzam daraxtzorning ichiga qadam bosish ko'pchilikka qiziq emas, chunki adashib qolish o'lim bilan barobar. Muso poshsho esa o'rmon ichidagi ko'l yoqasida joylashgan pinhona qarorgohga yetib bordi. Qarorgoh behad muhtasham, o'z sahibining qudratini ko'z-ko'z qiladi. Baland devorlar, har tomonni tasvirga muhrlayotgan «ko'zlar», o'nlab devqomat va xo'mraygan, qurolli soqchilar bu makonni sirli, qo'rqinchli ko'rsatadi. Muso poshsho darvoza qo'riqchisiga shaxd bilan gapirdi:

– Ser Archibaldga Muso poshsho keldi, deb ayt!

Soqchi e'tirozsiz xabar bergani jo'nadi. Zotan, ser Archibaldning ismini biladiganlar Ovruponing o'zida sanoqli edi. Modomiki, soch-soqoli oppoq va uzun, egnida musulmonlar yaktagini kiygan, o'rtabo'y, chehrasida jiddiyat yog'ilayotgan bu chol ser Archibald ismini tilga oldimi, u haqda zudlik ila ma'lumot bermoq zarur.

Javob hayallamadi: ser Archibald Muso poshshoni darhol huzuriga chorladi. Muso poshsho shunday bo'lishini taxmin qilgan edi, Allohga duo qilgan ko'yi soqchilar qurshovida qarorgohning yunon marmarlari yotqizilgan yo'lagidan Archibaldning xos qabulxonasiga yo'l oldi.

Ser Archibaldning qabulxonasi keng, bezaksiz edi: oq stol, bir necha stullar, oq devor, o'rmonga yuzlangan deraza. Devorlarda surat yoki ziynat yo'q. Kirishdan o'ng tomonda ulkan javon, unga mingga yaqin kitob taxlangan: falsafa, miflar, dinlar, janglar va tarix haqidagi ilmiy, nazariy va badiiy asarlar, risolalar.

Xona yorug', Archibald yoqasi bo'ynini siqib turadigan jigarrang, tugmasiz sviter ustidan kulrang kastim kiygan, stolning ustida bir necha oq qog'oz, ruchka va telefon bor. Muso poshsho qabulxonaga kirishi bilan ser

Archibald o'rnidan turdi, tez yurib keldi va ochiq yuz ila Muso poshshoning qo'lini siqdi:

– Kuningiz xayrli bo'lsin, Muso poshsho, – dedi qo'li bilan kursini ko'rsatib. – Marhamat, o'tiring. Men iste'dodli insonlarni yaxshi ko'raman. Iste'dod – Tangrining san'ati. U odamning ichidan vulqonday otiladi, buloqday qaynaydi, boshqalarni maftun etadi. Siz bag'oyat iste'dodli insonsiz, Bolqon musulmonlari sizni norasmiy siyosiy yo'lboshchi, deb biladi, turk diasporasi, Turkiyadagi turli klanlar orasida juda mavqeingiz baland. Mening ismimni Yevropadagi katta-katta amaldorlar ham bila olishmaydi, faqat olamshumul ishlarimdan hayratga tushib o'tiradilar, siz esa mening ismimni bilish ham kamday, makonimni topib, yakka o'zingiz kelishga jasorat topdingiz, ofarin!

Ser Archibald gapirish asnosida Muso poshshoning ro'parasiga o'tirdi va:

– Poshshom, qahva buyuraymi, choymi? – deb so'radi.

– Men suv ichaman, – dedi Muso poshsho.

– Juda soz, – ser Archibald telefon go'shagini olib, buyurdi. – Ikkita finjon va suv. – So'ng yana poshshoga yuzlandi. – Men Bolqonda ulkan loyihani boshladim. O'zim ishni shaxsan boshqarish uchun bu yerga keldim. Hali ishim loyiha ekanligidayoq kimlar qarshi chiqishi mumkin, degan savolni o'zimga berdim. Nasl –nasabingiz, tarixingiz, faoliyatingizni o'rganib, garovga olish mumkin bo'lgan biror yashirin yo oshkor jinoyatingizni topolmadim. Hukumat rahbarlari, amaldorlar, din peshvolari – ularning hammasining ko'targan qoplari yirtiq, ya'ni o'zlaridan qo'rqadigan joylari bor, fosh bo'lishdan cho'chiydigan ishlari ko'p. Tajribam davomida, ishoning, siz singari shaxsiyatga ilk bor uchradim. Mening loyihamning yakkayu yagona to'sig'i shu odam bo'lajak, deganman. O'tkir aqlim yanglishmadi: Muso poshsho bugun ro'paramda turibdi. Ochig'i, Bolqondagi notinchlik sabab kazo-kazolar bilan uchrashdingiz, Yevropa

hukumatlaridagi tanishlaringizga xabarlar yubordingiz, mening hamma odamlarimning ortidan kuzatuvchilar qo'ydingiz, biroq uyimgacha kelishingizni kutmagandim. Ofarin va yana ofarin!

Muso poshsho Archibaldning gapini bo'lmadi, hamsuhbati kulib gapirsa -da, o'zini bir pog'ona baland tutayotgani kunday ravshan edi. Shuning uchun, Muso poshsho Archibaldga tik qaradi, optik linza yiltirayotgan kulrang ko'zlarga o'qrayib dedi:

– Ser Archibald, maqtozni sevadigan yoshdan o'tganman. Har qanday mulozamat ensamni qotiradi. Meni yosh bolani alqagandek alqashingizga umuman hojat yo'q. Ertaklaringizni boshqalarga saqlab qo'ying. Fitnangizga sotilayotgan mutaassiblarni shunday maqtasangiz, chalgan nog'orangizga o'ynaydilar, lekin men emas!

Shu payt xizmatchi patnisda grafinda suv va ikkita finjon keltirdi. Archibald Muso poshshoning gaplariga jiddiy quloq tutarkan, finjonlarga suv quydi, birini o'z oldiga, birini Muso poshshoning oldiga qo'ydi.

– Yaxshisi, mening savolimga javob bering, ser! Bolqonda diniy va milliy nizoni qo'zg'ab, nima uchun fuqarolar urushini uyushtirmoqchisiz?

Suvdan ho'plab, Archibald ajablangannamo qoshini chimirdi:

– Bu qanday safsata? Asosingiz bormi? Balki, mening Bolqondagi amaliyotim xayrlidir!

– Xayrli?! Siz provaslav va katolik cherkovlaridagi yepiskoplarga katta miqdorda pul berdingiz, ularni musulmonlarning bosimidan himoya qilishga, Isoning dinini nafaqat Bolqonda, balki Yer yuzi bo'ylab, tarqatishlarini istashingizni aytdingiz. Sotib olgan muxbirlaringiz yerli musulmonlar va musulmon muhojirlarini g'ayridinlarga e'tiqod sababli tajovuz qilganlari haqida xabarni tarqatdilar. Holbuki, bu xabarlar soxta edi! Serblar va xorvatlarni, bosnianlar va serblarni bir –biriga qayrash uchun hukumat ichidagi xoinlardan foydalandingiz. Bolqonda har bir dindorni, har bir insonni o'zaro adovatlantirish uchun hamma ishni qilib kelyapsiz.

Musulmonlar ichidagi johillarni ham foydasiz to'qnashuvlarga ilhomlantiryapsiz. Keyingi paytda Belgradda, Saraevoda, yana boshqa o'nlab hudud masjidlaridan har xil odamlar: dahriylar, mushriklar, kofirlarning Islomga kirishi urfga aylandi. Ayniqsa, oxirgi olti oyda bu hol ko'paydi. Sodda musulmonlar yangi dindoshini quchoq ochib qabul etmoqda. Biroq ularning bir qismi musulmonlar ichida ixtilof va fitna urug'ini sochyapti, bir qismi dindan qaytib, musulmonlarning ichki hayotiga tuhmatlar yog'diryapti, bir qismi esa, haqiqatan, xolis musulmonlardir. Men munofiqlarni tekshirdim, hammasi sizning homiyligingizda Islomga dushmanlik qiladigan universitetlarda yetishtirilgan. Hammasiga nifoq «ilmi» o'rgatilgan. Ana o'shalar xuddi «islomshunos»dek ming yillik ixtilofni qo'zg'ayapti, Alloh haqida kufroniy savollarni bermoqdalar. Ser Archibald, siz nima qilmoqchisiz? Ortingizda kimlar turibdi?!

Archibald Muso poshshoga qarab xoxolab kuldi.

– Siz ajoyib ekansiz! O'ylaganimdan ko'proq narsani bilib olibsiz-ku! – dedi. Keyin jiddiylashdi, ovozida tahdid paydo bo'ldi. – Sizning esingiz joyidami, poshshom? Shunday xatarli ma'lumotlarni yig'ibsiz, hayot uchun xavfli xulosalarga kelibsiz, qoyil qoldim! Nima deb o'ylaysiz, endi kelajakdagi rejalarim va siz bilmaydigan yana boshqa ishlarim haqida sizga tik oyoqda turib, ma'lumot berishim kerakdir!

Muso poshshoning rangi gezardi, ko'zining oqi qontalash tusga kirdi, asabiyligini yengish uchun finjondagi suvdan ichdi.

– Ser Archibald, kerak bo'lsa, aytasiz! – dedi shaxd bilan. – Men esa sizni ogohlantiraman! Shaytonga xizmatkorlik qilishni bas qiling! Iste'foga chiqib, Bolqonni esa tezda tark eting! Men butun kuchimni sizni tor –mor qilish uchun safarbar etganman.

Muso poshshoning tahdidi Archibaldning achchig'ini keltirdi, kibri qo'zg'aldi.

– Ey Muso poshsho! Ikki qulog‘ingiz bilan eshitib oling, maylimi? Yodingizdan ko‘tarilib ketmasin, yana! – dedi darg‘azab bo‘lib. – Mutlaqo to‘g‘ri fahmlabsiz! Bolqon yaqinda yonadi! Hamma bir-birini otadi, o‘ldiradi. Hech kim omon qolmaydi! Amerika va Rossiyaga qarshi birlashib, ittifoqqa aylanishni istayotgan Yevropa yana Bolqon bilan ovora bo‘lib qoladi. Men esa bu yo‘lda nasroniy va musulmonlardan hamda mahalliychi ahmoqlardan foydalaman. Ular bir-birlarini qonlarini to‘kar ekan, mening qudratim oshadi. Ular bir-birlarining uylarini yoqar ekanlar, bu olovda mening qozonim qaynaydi. Bilasizmi, poshshom, men butun Bolqonni to‘r bilan o‘radim, o‘tin g‘arami ustiga o‘tqazdim, yoqilg‘i sepdim, gugurt chaqsam, kifoya!

Muso poshsho sapchib o‘rnidan turdi, tudiyu, chap ko‘ksi sanchdi, nafas siqdi, stolga suyanib, finjondan suvni oxirigacha simirdi.

– Bunday tipirchilamang, poshshom, – zaharxanda qildi Archibald. – Sizing salobatingizga yarashmaydi. Finjonni menga otib o‘tirmang, bu uyat bo‘ladi.

– Menga uyatni o‘rgatma! Archibald, butun dunyoni senga qarshi oyoqqa qo‘yaman! – dedi Muso poshsho.

– Butun dunyoni? Kulgimni qistatmang, poshshom! – dedi Archibald labini masxaraomuz qiyshaytirib. – Birinchidan, meni hech qaerdan topib bo‘lmaydi, ikkinchidan, meni o‘ldira olmaysiz, chunki sizni oilangiz bilan ertaga qirib tashlashadi. Dunyo esa arzimagan narsa uchun oyoqqa turavermaydi. Dunyoni arziydigan manfaatga ishontirish oson emas. Oxirgi gapim shuki, Bolqonda, albatta, genotsid bo‘ladi, davlatlar maydalanadi, eski hukumatlar ketib, yangilari – bizning o‘yinimizni o‘ynaydiganlari tashkil bo‘ladi, ittifoqqa birlashayotgan Yevropa, qadim oligarx, aristokrat va monarx sulolalarining Yevropa birligi haqidagi xomxayollari, shubhasiz, chippakka chiqajak. Bechora musulmonlar bu qirg‘inda ko‘p aziyat chekishadi, men esa ularga hamdard bo‘lib, qurol beraman, ular qurol bilan

ko'proq qon to'kishadi va tag'in mening oldimda qaram bo'lib qolishadi. Siz esa buni ko'ra olmaysiz, bir soatdan so'ng o'lasiz, chunki suv ichgan finjoningizni zaharlatib qo'ygandim.

Muso poshsho oyoqlaridan madori qochib, isitmasi ko'tarilganini, terlayotganini sezayotgan edi. Bor kuchini to'plab, dedi:

– Ey shaytonning quli! Ehtimol, sen aytgandek bo'lar, sen iblis minglab odamlarni vasvasa etib, qonlar oqizarsan, Alloh nomi ila qasam ichamanki, albatta, bu qon ichida o'zing cho'kib o'lasan. Har bir zulm uchun ham, har bir adolat uchun ham Allohning hisobi bor. Sen dunyoda hadsiz xorlik changalida o'lasan, qiyomatda jahannamda abadiy yonajaksan!

Muso poshsho quvvatini jamlab, tashqariga chiqib, eshikni qarsillatib yopdi va tez-tez qadam bosib darvozadan chiqdi, ulovga yetib borib, o'tirdi, haydovchisiga buyurdi:

– Eng katta tezlik bilan uyimga hayda!

Archibald Muso poshshoning yuzida ajal belgilarini ko'rdi, biroq raqibining oxirgi gaplari uni muvozanatdan chiqardi. Garchi, u har qanday diniy e'tiqodga kufr keltirib yashasa -da, Muso poshshoning dunyodagi xorlik va jahannamdagi abadiy azob haqidagi tahdidi uni qo'rqitib yubordi. «Yo'q, hammasi yolg'on! Din – vasvasa, dindorlar gallitsyunatsiyadagi tentaklar-ku! – dedi ichida. – Ammo aytayotganlari rost bo'lsa-chi! Mumkin emas, yolg'on! Basharti, rost bo'lsa ham, bizni gunohkor, deb do'zaxga qarshi urush e'lon qilaman!» Archibald o'zini shunday deb ovutgan bo'ldi - da, baqirdi:

– Viski keltiringlar menga!

Muso poshsho uyiga kelgani, xotini Zaynab xonimga nimalarni aytishga ulgurgani kitobxonga ma'lum. Zaynab xonim esa qirg'indan keyin behush o'g'li Umar va nevarasini yerto'ladan chiqarib olgach, suv purkab hushiga keltirdi.

Shifoxonalar ham vayron bo'lgan edi, shaharda qon hidi kuyuk isi bilan qorishib, anqib ketdi. Tomoqlar, dimoqlar bu hiddan bo'g'ildi, tirik qolgan ayollar shahar tashqarisidagi dalaga olib chiqildi, tikilgan chodirlarga joylashtirildi. Yevropaning turli burchaklaridan, Turkiyadan ko'ngilli yordamchilar ko'makka yetib keldilar, murdalarning shaxsini aniqlash, ularni ko'mish ishlari boshlandi. Bu ishlar payti hammayoq talato'p bo'ldi, hamma charchagan, hamma asabiy, hamma qayg'uda, hamma qo'rquvda edi. Bolqonni hali u nuqtasida, hali bu nuqtasida namoyishlar, qurolli to'qnashuvlar boshlandi, kimlardir qasos talab qildi, kimdir hukumatlar iste'fosini.

Go'yo hamma aybdor, hamma jinoyatchi edi, qo'li qonga botmagan odam qolmagandek tuyulardi. Zaynabning u kunlar iztirobidan hamma kabi yuragi sanchadi:

– Qur'onda Alloh taolo marhamat qiladi: «Biz sizlarni xavf-xatar, ochlik, mollaringizga, joningizga, mevalaringizga ziyon yetkazish bilan imtihon qilamiz. Sabrlilarga xushxabarlar bo'lsin! Ular boshlariga musibatlar kelganda: «Biz Allohnikimiz va, albatta, Unga qaytajakmiz!» deydiganlardir. Ularga Robbilaridan najot, rahmat bor. Ular hidoyat topganlardir!»

Bu Baqara surasidagi oyati karimadir.

– Imtihon shunday og'ir kechdi biz uchun, biroq toqatimiz uni ko'tardi. Sabr qila oldikmi, yo'qmi, bilmaymiz, – dedi Zaynab xonim Anjelinaga. – Islom yagona yaratgan zot Allohga taslim bo'lish dinidir. Inson, nafaqat, Allohning amru farmonlariga, balki, taqdiriga-da, taslim bo'lmog'i lozim. Ana shunday musibatlardan chin taslimiyat, chin iymon o'rtaga chiqadi, o'zini namoyon etadi. Alloh, shubhasiz, najot beradi, o'z rahmatini yog'diradi, musibatni mo'min uchun yengillashtirib qo'yadi, musibat ustidan musulmonni muzaffar aylaydi. Biroq musibatni sog'inmaslik lozim. Musibat tilamaslik shart. Allohga duo ila yolvorib, hamisha najot va nusrat

so'ramoqlik darkor. Zotan, musibatlar bir tig', u kesgan joyning chandig'i, albatta, saqlanadi.

Anjelina Zaynab xonim suhbatidan so'ng chindan parishon bo'ldi. U o'zi turgan bu yashil maskan, suhbatlashayotgani odamlarning tarixida bu qadar ulkan fojialar borligidan bir hayrat barobarida qo'rquvga tushib yuragi orqaga tortsa, shuncha yo'qotish va iztiroblardan keyin ham qaddini tik tutib, ibodat to'la nurli hayotini Robbisiga shukrona ila kechirayotganlaridan ularga ehtiromi ko'payardi.

– Kelinlaringiz taqdiri qanday kechdi? – deb so'radi Anjelina.

– Kelinlarimni uzatdim, – dedi Zaynab xonim. – Yo'q deyishlariga qo'ymadim. Ayolning dini oldidagi burchi o'lgan eri va bolalariga motam tutib, umrini isrof qilish emas, balki, solih bir musulmonga, xoh birinchi, xoh ikkinchi xotin sifatida turmushga chiqib, farzand dunyoga keltirib, tarbiyalashdir, Islom uchun yetuk musulmonni kamol toptirishdir. Men shunday tushunaman. Shaytoniy tuyg'ularga, tushkunlikka aldanib, o'zini jabrdiyda ko'rsatib yashaydigan ayollarning kuchli bo'lishlarini istardim. Bunday kuchning manbai esa Islomdir, sof lymondir.

Anjelina uchun bu yangi mezon edi. U o'qigan falsafa kitoblari o'zing uchun yasha, deb uqtiradi. Zaynab xonim esa boshqa bir hadafni, umr va jonni baxshida etishga arziydigan Yuksaklikni ko'rsatayotir. Xonim Anjelina uchun mavhum bir ruhoniy mulkning malikasi o'laroq tuyuldi; bu malika o'z mulkida zerikmayapti, shikoyat etmayapti, u halovatda, ta'rifga sig'mas sakinatning taxtida ulug'vor yashamoqda. Anjelina aynan ana shu ruhoniy mulkka mansub bo'lishni istay boshladi.

U ishiga qaytdi, loyihadagi fil'm suratga olindi, namoyish etildi. Anjelina yana jo'shqin hayot bag'riga kirdi. Zaynab xonim suhbatining ta'siri xiralashdi. Biroq Anjelina xiyonatga, qayg'uga duch kelganida Zaynab xonimni, uning gaplarini beixtiyor eslardi. Bir necha fil'mlardan keyin galdagi loyiha Anjelinada o'zgacha ishtiyoq uyg'otdi. Bu O'rta Osiyodan

Hindistonga borib, saltanat qurgan Muhammad Zahiriddin Bobur ismli musulmon podshohi haqidagi yirik loyiha edi. Anjelina ijodiy guruh bilan podshoh Bobur va uning sulolasi haqida bir necha qismli ilmiy film tasvirga olish uchun Hindistonga uchib ketdi. Bu yangi sahifa. Anjelina ko'p ta'sirlantirgan, hatto, uni yig'lashga majburlagan voqealar Hindistonda kutayotganidan u mutlaqo bexabar edi shu onda.

O'N OLTINCHI BOB

...Abdulloh tekshiruvga hammadan keyin oqsoqlanib chiqdi. Aydar, Naynov va Oliftaning qatorida safga turdi. Tekshiruvni olti mirshab o'tkazar ekan. Ular iskovuch it ham yetaklab olishgan edi. Ikki mirshab iskovuch it bilan kameraga kirib ketdi. Mirshablarning kattasi buyurdi:

– Hammang kiyimingni yech!

Abdulloh ko'rdiki, sheriklari bir zumda lungidan bo'lak hamma liboslarini yechishdi.

Mirshablar har bir mahbusning ism-shariflarini o'qib, yo'qlama o'tkazdilar. Abdullohning nazdida hamma mirshablar bir xil edi, go'yo ularning hech birida biror xos farq yo'q. Aslida, qamoq ko'rmagan inson uchun dastlab shunday tuyuladi.

– Qanday muammolar bor? – so'radi bir mirshab. Mahbuslar bir ovozdan:

– Muammo yo'q! – deyishdi va jo'r bo'lib baqirishdi. – Buyuk Xitoy, olg'a bos! Buyuk Xitoy, olg'a bos! Kommunizm, olg'a bos!

Mirshablarning kattasi mahbuslarga ruxsat berishga shoshmayotgan edi. U har bir mahbusning yalang'och tanasiga diqqat bilan razm soldi, Abdullohning ro'parasida to'xtadi.

– Menimcha, yangi mahbusimizda muammo bor, – dedi yelimtayog'i bilan uning tanasini ko'rsatib. – Bu o'rtoqning badanida ko'karmagan joy qolmabdi-ku! Bashara ham shishib ketibdi! Bu nimasi?

Abdulloh kalovlanib qoldi. Chunki mirshabboshi savolni azbaroyi g'amxo'rlikdan emas, mazax qilish maqsadida berayotgani uning affidan, ovoz ohangidan ma'lum. Kameradagi olishuvni aytishdan qanday naf? Ularning o'ziga hammasi ayon-ku!

– Yangi mahbus yiqilib tushgan, – dedi Aydar.

Mirshabboshi Aydarga qaradi:

– Yiqilib tushgan?! – mahbusning gapini xuddi ajabsingandek takrorladi. – Yomon yiqilibdi-da! Qaerda yiqilding, ey mahbus?

Abdulloh dam mirshabboshiga, dam Aydarga qaradi. Bu o'yindan asabi buzilayotganini sezdi.

– Tegirmonning parragiga yiqilibdi, – dedi Aydar yana. – Shuning uchun, tanasida ko'karmagan joy yo'q.

– Shunday demaysanmi, axir, – dedi mirshabboshi xotirjam bo'lgandek. – Qamog'imizda tegirmon yo'q, demak, boshqa joyda yiqilgan.

U shunday deb mahbuslarga kameraga qaytish uchun ruxsat berishga chog'landiyu, to'satdan yana bir nima esiga keldi.

– Menga qara, yangi mahbus, – dedi Abdullohga.

– Qamoq qoidalarini bilib oldingmi? Shiorlarni yodladingmi?

– O'rgatamiz, yaxshi bilib oladi, – dedi Aydar.

– Juda soz, – dedi mirshabboshi tahdidomuz, Abdullohdan ko'z uzmay. – Kameraga kir hammang!

Kameraning temir eshigi zanjirlangach, Aydar o'rnidan turib Abdullohning qarshisiga keldi.

– Ha, botir! – dedi tirjayib. – Daming juda baland-ku!

– Senlar bilan ochiq gaplashaman! – dedi Abdulloh o'zini yo'qotmay. – Erkakka o'xshab gaplashib olishimiz kerak.

– Nima, sen zo'rmisan? – xezlandi Aydar.

– Zo'r emasmanu, meni do'pposlayman, desanglar, kafolat beraman: uchovingdan biringni shu yerda o'ldiraman! – dedi Abdulloh ko'zi qonga

to'lib. Uning shu turishi hujumga shaylangan ilonga o'xshardi. – Senlar shoqoldek to'dalashib urushar ekansanlar. Bir kishiga uch kishi! O'zlaringa shuni ravo ko'ryapsanlarmi?

– Aqllimisan? Shu qadar aqllimisan? – dedi Aydar. Unga Abdullohning gapi nashtardek botgan edi.

– Ha, aqlliman! – dedi Abdulloh past ketmay. – Juda ham aqlliman!

– Ahmoq o'zini aqlli, der ekan, – dedi Naynov.

– Ahmoq ko'chada, – dedi Aydar Naynovga. U bir nimalarni o'ylab ulgurgan edi. Shuning uchun, Abdullohga iljayib o'girildi. – Odatda, ko'pchilik yangi mahbuslar qopdagi mushukday pitirlaydi. Musht urishing shart emas, bir marta so'ksang, xizmatingga shay bo'lishadi. Sen esa qaytmas ekansan! Yuraging bor ekan.

– Bir boshga bir o'lim! – dedi Abdulloh. U hamon himoya hamda hujumga shay edi.

– Gap yo'q! Erkak ekansan, – dedi Aydar. – Senga tan berdim. Endi kameraning teng huquqli a'zosisan.

Naynov va Olifta Aydarning bu himmatidan hayron holda bir-birlariga qarab qo'yishdi.

– Sendan bir iltimosim bor, faqat to'g'ri tushun, maylimi? – dedi Aydar.

– Qanday iltimos? – so'radi Abdulloh.

– Namozni ishora bilan o'qiysan, chunki qamoqda ibodat taqiqlangan. Namoz o'qishing hamon seni ma'muriyat jazolaydi. Bizni ham. Ishora bilan ibodat qilasanu, savol –javob bo'lsa, namoz o'qimayapman, deysan, – tushuntirdi Aydar. – Aks holda, seni namoz o'qish tugul, oyoqda turolmaydigan qilib qo'yishadi. Bizning kameradan boshqa joyga o'tsang, gapingni eshitib ham o'tirishmaydi.

Aydarning ovozi muloyim va samimiy edi, go'yo. Abdulloh bu iltimosni qabul qildi.

– Yaxshi. Endi bir achchiq choy ichaylik, – dedi Aydar va eshikka borib, taqillatdi. Darcha ochilmadi, balki eshik ochildi.

Navbatchi mirshab ko'rindi:

– Aydar, bu yoqqa chiq! – dedi u. Aydar kameradoshlariga hozir qaytaman, degandek qo'lini ko'tarib qo'ydi-da, eshikdan chiqdi. Uni mirshabboshining xonasiga olib borishdi.

– Aydar, yangi mahbusga kuching yetmadimi? – dedi mirshabboshi Aydar kirishi hamonoq.

– O'ldirishga kuchim yetadi, – dedi Aydar darhol. – Ammo itday qaysar ekan. Eshakday oyog'ini tirab turibdi. Bo'ysundira olmadim. O'zingiz o'ldirma, oyoqda yursin, dedingiz. Ruxsat bersangiz, tiz cho'ktiraman. Biroq unda u o'lgan bo'ladi.

– Yo'q, o'ldirma. U o'zini qanday tutyapti, birma-bir ayt-chi, – so'radi mirshabboshi.

– Urib, ichini to'kdim, lekin dadil, – dedi Aydar. – Bir boshga bir o'lim, deydi. Ishora bilan namoz o'qishga ko'ndirdim.

– Mayli. Erta-indin uning tergovni bo'ladi, tezda suddan nasibasini olib, jamloqqa yuboriladi. U yerda xudo deyish tugul xudoning kimligini unutadi. Biroq terroristni o'z holiga tashlab qo'ya olmaymiz.

– Nima qilishim kerak? – so'radi Aydar.

– Ertalabdan kechgacha behayo hikoyalarga zo'r berasanlar, – yo'l-yo'riq berdi mirshabboshi. – Fohishalar haqida tinimsiz gapirasanlar. Ayniqsa, namoz o'qishni boshlasa, ko'proq so'kinglar. Hammang ovqatni chap qo'lda yenglar. Sigaretning ko'tini ko'tiga ulab chekinglar. Kamerani tutunga to'ldirib yuboringlar. Sigaret chekmagan paytlaringda nos chekib tufla. Anavi xudojo'yga ham sevgan qizi yoki o'ynashlari haqida savol beringlar. Meni tushunding-a?

– Albatta, – hiringladi Aydar.

– Bu ishni qoyillatamiz. Lekin sigaret, nos, choy kerak.

– Undan xavotir olma, – dedi mirshabboshi va tortmasidan bir yelimxalta tamaki va nosni olib, Aydarga surdi. – Mana, tamakini qog‘ozga o‘rab chekasanlar, nos ham yetib ortadi. Choyni esa navbatchidan so‘raysan.

– Rahmat, boshliq, – dedi tamaki va nosni olib og‘zi qulog‘iga yetib Aydar va xonadan chiqdi.

Aydar kameraga katta ishni do‘ndirgandek kerilib kirib keldi.

– Tamaki, nos, – deb ikkita yelimxaltani devorga va yerga payvandlab mahkamlangan stolga qo‘ydi. – Mirshabboshidan undirdim. Yigitlarga ber, dedim.

Abdulloh zikrda edi. Aydarga e‘tibor ham bermadi. Eshik ochildi va mirshab chaqirdi:

– Naynov!

...Naynovni ham mirshabboshi huzuriga keltirdilar. Mirshabboshi Naynovga savol berdi:

– Kamerada nima gap?

– Terrorist o‘zinikini qo‘ydi, – dedi Naynov norozi bo‘lib. – Aydarning unga kuchi yetmadi. Hatto, namoz o‘qishiga ruxsat berdi.

– Namozga ruxsat berdi?! – hayron bo‘ldi mirshabboshi. – Yana nima gap?

– Terroristni nima uchun erkalayapmiz? Shunga tushunmayapman! Uning jur‘ati juda baland, – dedi Naynov.

– Hech kim erkalayotgani yo‘q, – dedi mirshabboshi. – Har bir ishning o‘z vaqti bor. Senlarga jiddiy topshiriq: terroristni jig‘iga teg, unga yoqmaydigan hamma ishni qil. Kambag‘alni urma-tepma, yoqasini yirt.

– Agar menga aytsangiz, u dushmanning tezda esini kiritaman.

– Qizishma, – dedi mirshabboshi. – Senga jiddiy bir gapni aytay. Sen bilan qiladigan ishlarimiz ko‘p. Sen davlatga katta xizmatlar qilishga qodirsan. Shuning uchun, shoshma. Bu terrorist oddiy nusxa emas, u chet

el vatandoshi. Shu bois, uni ortiqcha kaltaklay olmaymiz. Faqat ruhiy sindirishimiz kerak. Qonun bilan uni ezamiz. Tushundingmi?

– Tushundim, – dedi Naynov.

– Suding o'tgach, jamloqda ham yaxshi yashashingga sharoit hozirlatib beraman, – va'da qildi mirshabboshi, – seni unutib qo'ymayman.

– Rahmat, boshliq, – minnatdor bo'ldi Naynov chiqib ketarkan.

Mirshabboshi Oliftani chaqirishni lozim topmadi, biroq Abdulloh Yorqin bilan suhbat o'tkazmoqchi edi. Navbatchi mirshab Abdullohni yetaklab keldi. Abdulloh qo'lini orqasiga qo'yib, eshik oldida mirshabboshiga qarab turib qoldi. Mirshabboshi esa xuddi xonada hech kim yo'qdek qandaydir qog'ozlarni titkilab o'qiy boshladi. Bir necha daqiqani o'tkazib, Abdullohga qaradi.

– Mahbus, o'zingizni tanishtiring, – dedi.

Abdulloh ism-sharifini aytdi.

– Shinjon provintsiyasi fuqarosimisiz? – deb so'radi.

– Yo'q, – dedi Abdulloh.

– Qaerning fuqarosisiz?

– Turkiya Respublikasi vatandoshiman.

– Faxrlanasizmi bu bilan?

– Albatta, – dedi ishonch bilan Abdulloh.

– O'z vatanningizga xoinlik qilib, qochib ketgach, faxrlanasiz-da, boshqa nima ham qilardingiz! – dedi nafrat bilan mirshabboshi. Abdullohning miyasida harorati oshdi.

– Turkiya ham, uyg'ur ham qondosh, – dedi asabiylashib. – Biri og'a, biri ini. O'rtada hech qanday xiyonat yo'q!

– Juda ham aqlli ekansizmi! – hirlingladi mirshabboshi. Bu hirlinglash zamirida vahshiylikning hidi anqirdi. – Siz qamoq qoidasini bilmaysizmi?

– Bilmayman. Qanday qoida? – dedi Abdulloh.

– Mirshabning huzurida o‘zingizni to‘liq tanitishingiz shart, – dedi mirshabboshi.

– Buni hech kim aytmadi, – dedi Abdulloh.

– Aytishadi, juda tushuntirib aytishadi, – dedi mirshabboshi. – Qanday jinoyat bilan keldingiz?

Abdullohning ensasi qotdi, mirshabboshi hamma gapdan xabardor ekanligiga uning ishonchi komil edi. Bila turib so‘rash, albatta, masxara va yerga urish ekanligi aniq. Shunday bo‘lsa-da, o‘zini qo‘lga olib javob berdi:

– Mushtlashuv.

– Qanday mushtlashuv? – anqovsiradi mirshabboshi.

– Mazlum uyg‘urni himoyalab, zolim xitoyini urdim. Shunga qamashdi, – dedi Abdulloh.

– Bu jinoyatingiz uchun necha yil qamoqda o‘tirishingizni bilasizmi? – dedi mirshabboshi.

– Men jinoyat qilmaganman, – dedi Abdulloh keskin. – Men himoyachi talab qilaman!

– Himoyachi? – hayron bo‘ldi mirshabboshi.

– Ha, meni sudsiz bir necha kunki, ushlab turibsiz! – dedi Abdulloh. – Men uyimga xabar berishim kerak.

– Sud?! – mirshabboshi bu so‘zni umrida ilk marta eshitayotgandek edi. – Huquqiy, qonuniy ishlardan xavotirlanmang, mahbus. Biz bunday ishlarni juda maromiga yetkazamiz. Tergovchilaringiz kelsa, qolgan talablaringizni aytarsiz.

– Men bu yerda na qonunni, na huquqni ko‘rmayapman! – dedi Abdulloh.

– Kuyinmang, mahbus, – taskin berdi mirshabboshi. – Bu yerda ko‘rganlaringizning ko‘pini ko‘rmaysiz. Ko‘rmaganlaringizning esa juda ko‘pini ko‘rasiz. Endi esa kamerangizga boring-da, tergovchingizni kuting.

– Hibsga olinganim haqida oilamga xabar berishingizni talab qilaman!
– dedi Abdulloh oyoq tirab.

– Siz bu hayotda talab va istaklarsiz yashashni tezda o'rganib ketasiz, mahbus, – faylasuflik qildi mirshabboshi. – Sizga juda foydali maslahatni beraman, oling va foydalaning, maylimi? O'ng qulog'ingiz bilan ham, chap qulog'ingiz bilan eshiting: ikki jag' orasidagi laxtak go'shtni ko'p ishlatmang. Tartibga bo'ysuning. Isyon qilmang. Tortishmang, aks holda, halok bo'lasiz. Bu yerda manaman, degan pahlavonlar yer chizadi, yo'lbarsman, deganlar sichqon bo'lib chiyillaydi. Aytgan har bir gapingiz, qilgan har bir ishingiz boshingizga shunday balolarni keltiradiki, tug'ilganingizga pushaymon bo'lasiz. Osmondagi xudoyingizning bu qamoqda gapi o'tmaydi, duolaringiz shu qamoq devorlari ichida qolib ketadi. Bu jirrakiligingiz bilan hamon tirik ekaningizga hayron qoling. Shundoq ham, siz katta xavf ostidasiz!

Abdulloh mirshabboshining tahdidlaridan kulgisi keldi, qasdlashib kulmoqchi edi, kula olmadi. Lekin gapirdi:

– Meni qo'rqitmang!..

– Biz qo'rqitmaymiz, ishlarimizni ko'rib, o'zingiz qo'rqasiz. Boring kamerangizga, mahbus!

Mirshabboshi juda muloyim, hatto, biroz cho'zibroq so'zlarkan. Abdullohni bir oy ichida hech kim yo'qlamadi. Bir oy uning uchun juda og'ir o'tdi: kameradoshlarining behayo gaplaridan ko'ngli aynidi, ular esa bu masalada sira to'xtamas edilar, mana shunday buzuq gaplar ichidan chiqayotgan bu odamlar Abdullohning ko'ziga shu qadar jirkanch tuyula boshladiki, ularga na amri ma'ruf, na nahyi munkar kor qilmasligini angladi. Bunday shaloq so'z odamlar, bunday fasod fikrli kaslar, bunday axloqsiz kimsalar bilan bir havodan nafas olish jahannam azobi kabi tuyuldi, shubhasiz, bu toifa tubanlarning qo'lidan har qanday yovuzlik, har qanday pastkash ishlar kelishiga ishonmoq mumkin. Abdullohning xavotiri oilasidan

edi: otasi ne ahvolga tushdi ekan? Onasi-chi? Agar uzoq yilga qamalib ketsa, zavjasining holi ne kecharkin?

«Taqdirning yaxshisi ham, yomoni ham Alloh dandir! – der edi xayolan o‘ziga Abdulloh. – Alloh dan keladigan har qanday qadar ishiga rozi bo‘lish bandaning adabidir. Alloh im, menga xayrlar yo‘lla! Meni noshukurlaring safidan aylama, Robbim! Iymonimni salomat qil, agar Sen yordam bermasang, mening holim voy! Alloh im, gunohlarim behad ko‘p! Meni kechir va boshimdan bu mushkulotni ko‘tar!»

Bir oy ichida Abdullohning tanasidagi kaltak izlari batamom yo‘qoldi. Buni mirshabboshi har kuni tekshirdi. Uning o‘zi tish yuvadigan pastani berdi va ko‘kargan joylarga surishni buyurdi. Abdulloh shunday qildi. Kameradoshlarning axloqsiz suhbatlari, axloqsiz savollari bir jihatdan uni ko‘p behuzur etsa, boshqa tomondan asr vaqtdan to yarim tungacha davom etadigan nolayu faryodlar ezib yubordi. Orada Oliftani olib ketib, o‘rniga yoshroq yigitni keltirishdi. U amakisini pichoqlab qo‘yibdi.

– Eshagim amakimning bog‘iga kirib, ekinlarini yeb qo‘ydi. Amakim esa meni haqoratladi. Jahlim chiqib yuragiga oshpichoq tiqib qo‘ydim.

Bolaning yoshi yigirma ikkida edi. Jinnidek o‘tirardi. Aydar va Naynov esa uning ustidan kulishdi:

– Hammasiga eshak aybdor! – deb hukm qildi Naynov.

– Eshak qochgan, – xoxoladi Aydar. – Qidiruvda!

U bolani olib ketishdi. Uning yoshidagi yana bir yigitni shu kameraga qamadilar. U esa sheriklari bilan oltmish yoshli cholning uyiga o‘g‘irlikka kiribdi. Cholni uyida yo‘q, deb o‘ylashibdi, afsus, uyida ekan. Uyg‘onib qolgan ekan, guldon bilan boshiga urib tinchitishibdi.

– Xafa bo‘lma, – deb unga taskin berdi Aydar. – Men o‘n olti yoshimda birinchi marta odam o‘ldirganman. Qorniga o‘roq sanchganman. Qamalish masalasida tajribam oshib ketdi. Qo‘rqadigan joyi yo‘q.

– Qamoq biz uchun uy, – deb maqtandi Naynov. – Ko‘chaga chiqsak, uйдan haydalgan odamday his qilaman o‘zimni.

– Senga ham bu joy yoqib qoladi, – dedi Aydar.

– Yo‘g‘e, – yigitcha bu gaplardan qo‘rqib ketdi. – Advokatlarim bor. Eng kam muddatni olib berishadi. Qamoqdan chiqsam, halol yashayman.

– Xixixi! – hiringladi Naynov.

– Voxaxaxa, – yotib qornini changallab kuldi Aydar. – Hali qamoqqa kirmabsan, dunyoga kelmabsan! Bo‘yningga yana besh-o‘nta jinoyatni qo‘yishadi, hammasi zo‘r bo‘ladi!

– Advokatlari kam muddat olib berarmish! – kulgidan o‘zini to‘xtata olmasdi Naynov. – Advokatlari bor-ku!..

U shunday deb so‘kindi.

Yigitchaning rangi oqarib gapirolmay qoldi. Abdulloh esa biror suhbatga aralashmay jim o‘tirardi. Ikki kundan keyin yigitchani asr vaqti tergovga chaqirishdi.

– Ado bo‘ladi, – fol ochdi Naynov. – Yo kaltak yeydi, yo hamma jinoyatni bo‘yniga oladi.

– Kaltak ham yeydi, tan ham oladi, – dedi Aydar beparvo.

Odatdagidek, faryodlar yerto‘ladan chiqib, qamoq devorlariga urilib, tepaga o‘rlarkan, Abdulloh qaysi chinqiriq anavi yigitchaga tegishli ekanligini bilmoqchi, xayolan unga hamdard bo‘lmoqchi edi. Vaqt xuftondan oshdi. Uxlash buyrug‘i berildi. Shu payt kamera eshigi ochildi va yigitchani ichkariga itarib yuborishdi. U emaklab kirdiyu, beton polga yotib qoldi.

– Hey, tura olasanmi? – dedi Aydar yotgan joyida yonboshlab. Abdulloh tepadan tushdi,

Naynov o‘z o‘rnini yigitchaga berib turishga qaror qildi: birgalashib uni yotqizishdi. Yigitchaning oyog‘i dahshatli darajada qontalash bo‘lib shishib ketgan, o‘zi esa isitmasi ko‘tarilib:

– Urmang! Urmang! Tan olaman, urmang, – deb yig'lamsirab alahlardi. Alahlaganda esa ovozi shivirlab chiqardi.

Abdulloh tepa o'ringa chiqib yotarkan, uyqusi qochdi.

«Allohim, bu azoblar qachon tugaydi?» – dedi ichida. Uning ruhi sinayotgandi, qalbi umidsizlanib, ko'zlari quvonchni unutdi. Ertalab yigitcha oyoqqa turdi. Tekshiruvdan keyin Aydar uni gapga tutdi.

– Nima bo'ldi? – deb so'radi.

– Menga boshqa yashirgan jinoyatlaringni ayt, deyishyapti, – dedi u hazin. Yigitchanning ruhi batamom sinib, na kurashishga, na o'zini himoya qilishga kuchi ham, ishonchi ham qolmagani kunday ravshan edi. – Boshqa jinoyatim yo'q-ku, axir. O'rtoqlaringga ergashib, shu uyga kirgandim-da.

– Mayli, siqilma, – taskin berdi Naynov. – Yashirganing bo'lsa, aytaver o'zingga yaxshi bo'ladi.

– Nimani yashiraman! – dedi yigitcha qo'rquvga to'lib.

– Unda boshqa oson yo'li bor, – dedi Aydar. – Xohlasang, aytaman, kaltak yeb yurmaysan.

– Qanday yo'l? – taniga jon kirganday bo'ldi yigitchanning.

– Tergovchiga: «Og'a, qaysi jinoyatlarni tan olay? Qanday qog'ozlarga qo'l qo'yay? Faqat meni urmang», degin. Maylimi? – tushuntirdi Aydar.

– Nega, axir... Bu yolg'on bo'ladi-ku, – dedi yigitcha ko'zlari pirpirab.

– Nima o'zi rost? Dunyoda hamma narsa yolg'on, ukam, – dedi Aydar. – Shunday qilsang, ko'p foydalar topasan. Kaltak to'xtaydi, bu bir. Ayblaringga iqror bo'lganing uchun kamroq yilga qamalasan, bu ikki.

– Advokatlaringdan shimildiriq ham kutma, – dedi Naynov. – Sen o'zingga faqat o'zing yordam bera olasan.

– Bu uch, – deb qo'shib qo'ydi Aydar.

Yigitcha o'ylanib qoldi. Ertasi kuni uni yana chaqirishdi. U bu safar chehrasi ochilib qaytib kirdi:

– Tergovchi gapimdan xursand bo‘ldi, – dedi u. – Erkak ekansan, deb shirinlik bilan meni siyladi. Men har qanday qog‘ozga qo‘l qo‘yaman, dedim.

Qisqa vaqt ichida yigitcha Aydar va Naynov bilan chiqishib ketdi, o‘zi sigareta chekarkan, ulardan tamakini qog‘ozga o‘rashni va nos otishni o‘rganib oldi. Behayo hikoyalar esa uni juda maftun qildi. Abdulloh bu holning chorasiz guvohiga aylanarkan, iblis hiylasining bu qadar turfaligini ko‘rib, o‘zi uchun tinimsiz istig‘for aytardi. Shu tariqa, bir oy o‘tgach, uni rasmiy tergovga chaqirishdi.

– Keling, – dedi tergovchi. Uning yonida bir kekxa kishi ham bor edi. – Men tergovchingizman. Bu kishi advokatingiz.

– Salom, – dedi advokat ochiq chehra bilan qo‘l uzatib. – Ismim Tublibek. Sizning himoyachingizman. Mening haqimni davlat to‘layapti.

– Shunday, – dedi tergovchi.

– Davlatimiz tergovda ham, sudda ham adolat, qonun bo‘lishini istaydi. Siz chet ellik ekansiz. Advokatga pul berolmaysiz. Shuning uchun, Tublibek og‘a sizni davlat hisobidan himoya qiladi. Endi tergovni boshlasak ham bo‘ladi.

– Ha, ha, albatta, – dedi advokat Tublibek. – Qani, himoyamdagi mahbus Abdulloh Yorqinga qo‘yilayotgan ayblov bilan tanishtiring-chi.

– Siz Abdulloh Yorqin, – deb gap boshladi tergovchi. – Xitoy fuqarosini sababsiz urishda, qasddan tan jarohati yetkazishda ayblanmoqdasiz. Endi ishga oydinlik kiritish uchun siz bilan har bir holat yuzasidan suhbatlashamiz.

Abdulloh o‘ziga qo‘yilayotgan ayblovlar ichida siyosiy ayblov yo‘qligini bilib, beixtiyor xotirjam tortgandek bo‘ldi. U xitoylikni sababsiz urmaganini tushuntirsa, ozod bo‘lib ketadigandek edi, go‘yo.

Kutilmagan qayg‘u insonni bir tola nurga ham quyoshga talpingandek talpintiradi. Ammo bu nur emas, yiltirayotgan muz bo‘lsa-chi!?

O'N YeTTINChI BOB

– Yevropada Yevropa xalqi uchun hurriyat bor, adolat bor, – dedi Mubina xonim, ya'ni sobiq Anjelina. – Hukumat tepasidagi siyosatchilarning xudbinliklarini inkor etmayman. Biroq xalq demokratiyaga ishonadi. Mehnat va iqtidor munosib baholanadi. Sharq odami uchun g'ayritabiiy tuyuladigan o'zsevarlik bu yerda juda ham tabiiy. Kayfiyating, xohishlaring, fikr va so'zlaringga o'zing egalik qilasan. Boshqalarda ham bu egalik huquqi bor. Unga daxl qilmaysan. Ana shu bosh qoida. Men Sharqning musulmonlar ko'p yashaydigan hududlarida bo'lganimda ularning Yevropa haqidagi qarashlari ikki xil ekanligini ko'rdim. Bir toifa odamlar Yevropani nuqul tanqid qiladi. Holbuki, ularning birortasi bizning Vatanda yashamagan, sayohat ham qilmagan. Bu tanqid hukmron hukumatning bir yoqlama mafkurasining mevasi, xolos. Bunday mafkuralar, odatda, millionlab odamlarning manfaati, erkini himoya qilmaydi, balki, davlat tepasidagi guruhlarning shaxsiy farovonligini ta'minlaydi. Odamlar quloqlari bilan shunday katta da'volarni eshitadilar . Ular eshitishga majbur etiladilar. Mafkuraning baland ovozi chor –atrofni shu qadar qoplab oladiki, quloqlar batang bo'ladi. Insonlar, natijada, shaxsiy hayotlarida na farovonlik, na hurriyatni ko'rmasalar-da, ruhiyatlariga g'alati, hech tark etmaydigan qo'rquv singib ketsa-da, o'zini baxtli yashayotigan ishonadi, umrini baxtli yashayotgani haqidagi argumentlarni izlash bilan o'tkazib yuboradi. Yevropada esa odamlar baxtli yoki baxtsiz ekanliklari haqida bosh qotirishmaydi. Ular uchun, o'zlari istagan ishni qila olyaptilarmi, shu muhim. Zotan, senga bu masalada tashqi to'siq yo'q. Davlat ham xalq uchun sharoit yaratib beryapman, deb ko'ksiga urmaydi, buning imkoni yo'q.

Chunki davlatning majburiyati shu. Hukumatning yakkayu yagona vazifasi shu. Agar hokimiyat shu vazifasini bajara olmasa, istalgan odam unga qarata: «Hey hukumatdagilar! Ishlaringni eplolmayapsizlar, qani,

o'ringizni eplaydigan odamlarga bo'shatib beringlar!» – deyishga haqqi bor. Bu sira ham ajablanarli yoxud qo'rqinchli holat emas. Sharqda, Osiyoda esa buni hech o'zlariga singdira olishmas ekan, ayniqsa, musulmonlardan iborat mamlakatlarda hukumatdan yaxshi ishlashni talab qilganlarni jazolashadi, holbuki, ular Yevropadagi kabi hukumatdan iste'fo so'rashmaydi ham. Keyinroq Islom tarixini batafsil o'rganib, bizdagi bu erkinlik Islom ta'limotining asosi ekanligini ko'rdim. Gap shundaki, payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamdan keyingi Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali roziyallohu anhu davrlarida ularga jamiyatning sa'viyali insonlari agar adolat qilmasang, seni o'ldiramiz, deb ogohlantirishgan. Oddiy odamlar davlat rahbarining qaroriga, agar unda xatolik bo'lsa, e'tiroz bildirishgan. Bu uchun hech kim qoralanmagan, aksincha, olqishlangan. Yevropa Islomning shakli, qolipi bilan o'z hayotini qurdi. Biroq Islom aqiydasini qabul etmadi, aqiydasiz islomiy qolip Yevropani hurriyat va adolat o'lkasiga aylantirdi. Sharq va Osiyo esa islomiy aqiydani ham, islomiy qoidalarni buzib yubordi. Mayli, bu chuqur masala. Ko'p jihatlari bor, keyinroq to'xtalamiz.

Yevropaga nisbatan sharqliklarning yana bir munosabati butkul taqliddan iborat. Ko'p Osiyo odamlari parvonalar chiroqqa qanday talpinsa, Yevropaga shunday talpinadi. Yevropaga ergashadi. Ajablanarli jihati shuki, osiyoliklar ham, sharqlielar ham Yevropaga eng birinchi bo'lib, kiyinishda, maishiy turmush uslublarida taqlid qilishadi. Shaxsan, bu menga biroz erish tuyuladi. Axir, Yevropa xalqi ochiq kiyinsa, stolda ovqatlansa, ichki, intim hayotida qandaydir qoidalarga amal qilsa yoki bir jinsli nikohni tasdiqlasa, shularni butunicha qabul qilsangiz, Yevropadek taraqqiyotga erishib qolmaysiz-ku!

Men o'z o'lkamning Yer yuzining boshqa hududlaridan ustunligini taqliddan yiroqligida, odamlari o'z ichidagini boricha taqdim etishida hamda insonlar o'z millatdoshlari ustidan hukm yuritishga intilmasliklarida, deb

bilaman. Chunki shu asosida hamma yutuqni qo'lga kiritish mumkin. Osiyo musulmonlari esa aksincha: ular, nima uchundir, qudratlilarning xohishi uchun yashashadi, boshqalarning oldida mute holda turadilar, oshkor etolmagan istaklarini pinhona amalga oshirishga urinishadi. Holbuki, tillarida yolg'iz Allohning roziligi haqida gapirishadi. Aslida, inson yolg'iz Allohning roziligi uchun yashaganida Yer yuzida zarracha zulm bo'lmasdi, biror odamning ko'zidan bir tomchi yosh behuda to'kilmasdi, hatto, chumoli ham oyoq ostida qolib ezilmasdi, chunki Islom nafaqat odamzodning, balki, jonli va jonsiz jamiki mavjudotning huquqini, hurriyatini mukammal himoyaladi. Shunday himoyalaydiki, birovning haqqini ado etish bilan boshqaning haqqi poymol bo'lmaydi. Basharti, insonlar Islomda yashayapman, deb hayotlariga Islomni tatbiq etmasalar, tillarida diyonatdan so'zlab, dillarida xiyonatni odat etsalar, ularning ustidan zulm toshlari yog'adi, zolimlar hamisha qoyim bo'ladilar. Chunki bu Allohning qonunini o'yin qilishdir. Alloh O'z Qonunini o'yin qilganlarni esa, albatta, jazolaydi. Masalan, zolimlarning qo'li bilan.

Menga O'rta Osiyoda tug'ilib, Hindistonda saltanat barpo etgan bir podshoh tarixi haqida aytishdi. U haqdagi ilmiy film loyihasi tasdiqlanibdi. Men stsenariynavis o'laroq bu podshoh tarixini o'qishga kirishdim. Uning ismi Muhammad Zahiriddin Bobur edi.

Yuqorida aytganlarimning aksari podshoh Bobur faoliyatiga ham tegishli, chunki u Islomning asl qudratini o'rta asrlarda namoyish eta olgan kam sonli hukmdorlardan biridir.

U haqida sizlarga batafsil gapirishga vaqt yetishmaydi, biroq bir necha muhim nuqtalar borki, shu nuqtalar sababli men Boburshohga mahliyo bo'ldim. Bu Boburshohning tugamas shijoati, qat'iy irodasi, aqlni lol etadigan g'ayrati. Uning tarjimai holiga boqib, chinakam Erni, muxlis musulmonni, Robbisiga bog'lanib, Undan cheksiz quvvat olishga erishgan Bandani, buyuk maqsad yo'lida o'zini qurbon etishga tayyor Ulkan

Shaxsiyatni ko'rasiz. Uning o'tkir aqli, mustahkam e'tiqodi, behad keng tafakkuri, kuchli xotirasi, siyosat va harb ilmidagi mahorati sabab men Boburshohga oshiq bo'ldim. Dastlab, uning «Boburnoma» kitobini o'qidim. O'qiganim sari qarshimdan juda g'ayritabiiy, xislat va fazilatlari odamni sehrlab qo'yadigan bir Inson paydo bo'ldi. Xohlasangiz ham, xohlamasangiz ham, Boburshohni hurmat qilib boraverasiz. Men bunday shijoatning, bunday jozibaning manbasiga ko'prok qiziqdim, o'rgandim. Xulosam shu bo'ldiki, Boburshohning qudrati Islom ekan. O'n ikki ming lashkar bilan yuz ming qo'shin qarshisiga chiqish uchun, o'ylab ko'ring, inson kim bo'lishi kerak? Yoki bu qanday odam bo'lishi mumkin? Yoki o'n ikki ming odam yuz ming kishilik qo'shin bilan jang qilishga rozi. Ularni qanday qilib bu yo'lga boshlash mumkin, axir? O'n ikki ming inson yuz ming nafar askar ro'parasiga chiqar ekan, ularni qanday ishonch vositasida tarbiyalangan ekan? Meni shu lol qoldirdi. Eng hayratlanarlisi, ana shu o'n ikki ming yuz mingni tor –mor qildi. Aminmanki, Boburshoh ham, uning qo'shini ham o'limni bo'yinga olib urushga chiqqan edilar. Ular bu urushda o'lish bilan dunyo hayotidagi ne'matlardan ko'ra ulkan ne'matga erishmoqlariga inonmaganlarida bu yo'lga azm qilarmidilar? Yo'q. Ular uchun urushning natijasidan ko'ra urushning Maqsadi qiymatli bo'lgani aniq. Ana shu Maqsad ularni muzaffar etdi. Bu Maqsadni Boburshoh o'z qalbiga jo etib, lashkarini ham shu Maqsad kuchi bilan maydonga olib chiqqan edi.

Men bu Maqsadni Allohning roziligi bo'lganiga ishonaman. Boburshoh Alloh uchun Islom fathini amalga oshirishni istadi, niyati to'g'ri ekan, Alloh unga bu sharafni berdi.

Ana shunday xayollar, xulosalar meni to'lqinlantirib yubordi, Hindistonga shunday zavq va ishtiyoq ila uchdim...

Anjelina Hindistonga ucharkan, u faqatgina Boburshoh emas, balki, hind madaniyati va zamonaviy siyosati haqida ham o'ziga yetarli ma'lumotlarni ham o'rgandi. Uchoq Yangi Dehliga qo'ndi.

Oqshom. Anjelinaga aytishganidek, havo qo'rqinchli darajada bo'g'uvchan yoki issiq tuyulmadi, lekin iqlim o'zgarishini yaqqol sezish mumkin.

Shu kuniyoq kechqurun Hindistonning qaysi shaharlari bo'ylab sayohat qilishlari haqida qayta eslatma berildi. Sayohatlarning hammasi avtobus hamda poezdlarda bo'ladi.

Ilk manzil Agra shahri. Keyin Ayodhiya, Haydarobod, Ahmadobod va hakoza. Har bir shaharda Bobur va boburiy podshohlar qurdirgan masjid, madrasa, saroy va boshqa inshootlar suratga olinadi, mahalliy tadqiqotchi olimlar, jurnalistlar, tarixchilar va yerli odamlar bilan suhbat olib boriladi. Stsenariyda «Boburnoma»da aks etgan jo'g'rofiya, hayvonot, nabodot va iqlimshunoslikka oid ma'lumotlarni bugungi sharoit bilan qiyoslash xam nazarda tutilgan.

Toj Mahal hamda ba'zi qadimiy masjidlar bilan bog'liq tasvir ishlari ikki hafta davom etdi. Anjelina qadimgi hind me'morchiligi va san'ati bilan Movarounnahr Islom me'morchiligining uyg'unligiga duch keldi. U nafis naqshlar, ranglar, bezaklar, bino tuzilishlari, qurilish uslublari, foydalanilgan xom-ashyolar, hashamat va ulug'vorlikka boqib, Boburiylar saltanatining qudratga to'la, dorilomon davrlariga tushib qolgandek edi. O'z ishi bilan ovora, lekin odamga kulib qaraydigan qorachadan kelgan hind erlari, sariga o'rangan ayollar, soqol o'stirib, salla o'ragan, tiriklik mehnatiga g'arq bo'lgan musulmonlar, Sharqu G'arbdan kelib, atrof-javonibni to'ldirgan turli rangli, tilli sayyohlar, qaynoq ob-havo, odamlari zich ko'chalar, insonlarning dardu hasrat, quvonchu shodlik, xayru sharr, savobu gunoh, itoatu isyon, sadoqat va xiyonat, diyonat va dahriylik ko'zgusi bo'lgan pastu baland, rango rang, xarobu obod binolar, uylar, makonlar, ehtiromga sazovor

sigirlar, muhabbatga loyiq ilonlar, ilonlar, ta'zimga arziydigan maymunlar. Isoning haykali o'rnatilgan, qo'ng'iroqlari jaranglab turadigan, devorlarida nasroniy rivoyatlari tasvirlangan cherkovlar. Brahma, Shiva, Indra, Ganesha, Ram va hokazo ma'budlarning butlari uchun qurilgan butxonalar. Azonlari qalbni titratib, qiroatlari insonni larzaga soladigan masjidlar – bularning hammasi Anjelinani maftun etdi. Qadimdan hindlar o'z yurtlarini Bxarat, deb atasharkan, Hindiston so'zi esa musulmonlar tomonidan ko'p qo'llangan. «Panchatantra», «Mahabhorat», «Ramayana» va «Vedalar» Anjelina uchun buyuk tafakkur, yuksak gumanizm, chuqur falsafa o'laroq tuyuldi. Islom tarixida aytilishicha, Odam ato va Momo havo ham Hindistondagi tog'larda yashab o'tishgan.

Bir oylar o'tib, Anjelina Hindistonga moslashib qoldi. Hindiy salomlashuv, muomala, ba'zi so'z va iboralarni o'rgandi. Hindlarning toifalari, qadimdan qolgan brahmanchilik, tabaqalanish haqida nafaqat, eshitib, o'z ko'zlari ila ko'ra boshladi. Garchi, shimoliy va markaziy Hindistonda odamlarning brahmanlar, kshatriylar, shudralar, hatto, chandallar kabi tabaqalarga ajralishi u qadar sezilmasa -da, cheka hududlar, ayniqsa, sharqiy va janubiy Hindistonda faqat shu qoidalar ustunligini bilib oldi.

Boburshoh va uning avlodlari ana shu tabaqalanishga qarshi kurashgani, musulmon bo'lmaganlardan jizya ham olganlari o'rtaga chiqdi. Boburiy podshohlar qudrat va ta'sir masalasida turlicha edilar. Ularning ba'zilar jizya olishda bee'tibor bo'lgan, ammo Avrangzeb Olamgir ikkinchi Hindistonni butunicha itoatga keltirgan, tabaqalanishga, o'liklarni yoqishga, qaroqchilikka, o'zboshimchalikka qarshi qat'iy kurashgan, mamlakatning har bir nuqtasida Islomiy qoidalarni joriy qilishga tirishgan, biroq bu hamisha ham samara bermagan. Hindlar ichida o'z butlariga sadoqatli hamda jangari qabilalar ko'p bo'lgan. Ular aksari hollarda taslim bo'lib, shartlarni qabul qilishardi, so'ng yana tezda o'z bilganlaricha yashardilar.

Ana shunday hududlarda Islomga ham, musulmonlarga ham, Boburshohga ham, boburiylarga ham behad kuchli adovat borligini Anjelina anglay boshladi.

Ayodhiyaga borganida qadimiy Bobur masjidi buzib tashlanganligini ko'rdi. Shu masjidga yaqin musulmon mahallasidagi odamlar bilan suhbatlashish istagi uyg'ondi. Bu yerda boburiylar, deb ataladigan bir urug' bor ekan. Ular bevosita Boburshohning naslidan emas, faqat Boburiylar davlatining Movarounnahrdan kelgan xizmatchilari ekan.

Anjelinaga mahalliy mutaxassislardan ikki kishi: Ashoka va Guru biriktirilgan edi.

Ashoka Londonda tarix va san'at yo'nalishida ta'lim olgan, Yangi Dehlida shaxsiy maktabi bor, juda madaniyatli, millatparvar odam edi. U o'zini yozuvchi Rabindranth Thakurga qarindoshligini aytib faxrlanardi.

Guru esa Yangi Dehligi Banoras shtatidan kelgan. U shu yerda ta'lim olgan. Hind tili, lahjalari, urf –odatlarini mukammal biladi, lekin har qanday gapining ohangida Bobur, boburiylar va musulmonlar haqida biror salbiy fikr aytishga o'ch edi, buni Anjelina sezdi.

– Musulmonlar gaplashishga arzimaydi, deb o'ylayman, xonim, – dedi Guru. – Sizga aytganimdek, ularning dini bosqinchilikka buyuradi. Ular yurtimizni bosib olishgan. Dinlarini majburan tiqishtirishgan. Shuning uchun, ularning bizning yurtga gapirish tugul, yashashga ham haqlari yo'q.

Ulardan qanday ma'lumot olishingiz mumkin, axir? Mana, biz hammasini sizga batafsil tushuntiryapmiz-ku!

– Guru sohib, – dedi Anjelina. – Fikrlaringizga e'tirozim bor. Insonlarni bunday tahqirlash to'g'ri emas. Men ular bilan gaplashishim shart.

– Guru, do'stim, – dedi Ashoka yumshoqlik bilan. – Qo'y, shu gaplaringni. Xonim o'z loyihasi asosida ishlashi kerak. – Ashoka shunday

deb, Anjelinaga qaradi. – Xonim, siz istagan joyingizga borishingiz mumkin. Sizga o‘zim hamrohlik qilaman. Odamlar bilan tanishtiraman.

Musulmonlar mavzesi boshqa ko‘chalardan ajralib turishi sezildi: tozaligi, tartibi, odamlarining yurish –turishi g‘ayridin hindlardan farqli, albatta.

Ashoka Anjelinani Boburiylar xonadoniga taklif qildi. Xonadon sohiblari qandolatfurosh ekan. Hovlining atrofidayoq shirin ta‘m, yoqimli iforlar kezadi. Kiraverishda bir qancha mijozlar ko‘rindi. Ularning ba‘zilari qog‘oz qutilarni o‘z ulovlariga yuklashmoqda, ba‘zilari o‘rta bo‘yli, qorachadan kelgan, oq salla o‘rab, uzun kulrang ko‘ylagi ustidan yengsiz jigarrang nimcha kiygan, moshkichiri soqolli, ko‘z oynak taqqan, yoshi elliklar atrofida bir odam bilan suhbatlashmoqda.

Ashoka va boshiga pushti guldor ro‘mol o‘ragan ajnabiy ayolni ko‘rib, u odam hamsuhbatlariga uzr, aytdi -da, ular tomonga yurdi.

– Ashoka, seni bizning uyga qaysi shamollar uchirdi? – dedi kulib. – Xush kelibsan!

Ular so‘rashishgach, Ashoka Anjelinaga musulmon do‘stini tanishtirdi:

– Anjelina xonim, bu insonning ismi Xo‘ja Ali og‘a. Musulmonlar mavzesi oqsoqoli. Bu kishining bobolarining otalari so‘nggi Boburiy hukmdor Bahodirshoh Zafar saroyida munshiy bo‘lib xizmat qilganlar.

– Siz bilan tanishish men uchun sharaf! – dedi Anjelina xursand bo‘lib.

– Rahmat, xonim, xush keldingiz, – dedi Xo‘ja Ali, biroq xonimni tanimagani uchun Ashokaga savol nazari bilan qaradi.

– Bu Anjelina xonim, Boburiylarning muxlisi, sizlarga juda qiziqyapti, – dedi Ashoka.

– Xo‘ja Ali janoblari, – dedi Anjelina. – Men uchun Islom, musulmonlar tarixi, hayoti qiziqarli mavzu, boburiylar yo‘li esa juda jozibali. Men uchun kitoblardagi ma‘lumotlar ham, hatto, tarixiy yodgorliklar ham tirik

tarix bo'lgan insonlar bilan suhbatlashishdek muhim va zavkli emas. Aminmanki, sizda meni jalb etadigan ajoyib haqiqatlar bor.

Xo'ja Ali mehmonlarni ichkariga taklif qildi, o'g'illaridan biriga ishini topshirdi, choy keltirdi.

– Ehtiromingiz va adolatingiz ehtiromga loyiq, – dedi mehmonlarga shirinlik va choy uzatib. – Biroq maqsadingizni bilishni istardim, chunki biz musulmonlar Hindistonda ko'rayotgan zulmlarning chegarasi bo'lmayapti. Shunday holda, Anjelina xonimning tashriflaridan hayronman, ochig'i.

– Xo'ja Ali janoblari, mening maqsadim haqiqatdir, – dedi Anjelina. – Ko'zbo'yamachilik, yolg'on, soxtalikni yoqtirmayman. Men sizlar bilan xolis tanishmoqchiman. Kerak bo'lsa, buyuk sulola haqiqatini butun dunyoga yetkazishga harakat qilaman.

– Juda yaxshi niyat, insha Alloh, – dedi Xo'ja Ali jiddiy. – Biroq bizning hayotimiz, taqdirimiz yo'li sizni larzaga soladi, deb qo'rqaman. Va bu masalada, avvalo, xonadonimiz ayollari bilan dillashsangiz, maqbul ish, nazarimda.

Chunki ayolning tilini ayol biladi, keyin qo'shimcha savollaringizga o'zim javob beraman.

Anjelina tashakkur aytdi. Aslida ham, uning niyati xonadon ichidagi xonimlar bilan suhbatlashmoq edi. Chunki chodralar ichidagi musulmalarning ichki dunyosi uni tobora o'ziga tortyapti, axir, Muhammad Zahiriddin Bobur va u kabi yuzlab fotihlarni tarbiyalagan muslima ayollarning bugungi siyratlari qanday ekan?!

O'N SAKKIZINCHI BOB

Tergovchi Abdullohga mushtlashuv yuzasidan bir necha savollar berdi. Ajabki, so'roq yarim soatda tugadi. Tergovchi ayblanuvchiga qog'oz va qalam tutqazdi.

– Abdulloh, – dedi u. – Mana shu qog‘ozga menga aytganlaringizni batafsil yozing. Eng mayda jihatlarga ham diqqat qarating.

Abdulloh advokati Tublibekka savolomuz qaradi.

– Shunday, qonunga ko‘ra tushuntirish xati yoziladi, – deb tushuntirdi advokat. – Unutmang, Abdullohbey, bu xat jinoiy ishning yuragi hisoblanadi.

– Tushundim, – dedi Abdulloh va: «Bismillah», – deya yozishga kirisharkan, ichida duo o‘qidi: «Robbi ishrohli sodri, va yassirli amri, vahlul u‘qdatan min lisani, yafqohu qovli».

Abdulloh o‘qigan bu duo Toha surasining 25 – 26-oyatidir. Muso alayhissalom fir‘avn huzuriga Allohning amrini bajarmoq uchun yo‘l oldi.

Va mazkur duoni o‘qidi: «Robbim, O‘zing qalbimni keng qilgin, ishimni oson ayla! Tilimdagi tugunni yech: so‘zimni anglasinlar!»

Alloh taolo payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamga vahiy yo‘li ila Muso alayhissalom qissasini bildirdi, Muso alayhissalom o‘qigan buyuk duoni o‘rgatdi. Qur‘oniy bu duo katta va mushkul ish qarshisida turgan har bir mo‘min uchun Allohga yolvorish, Undan yordam so‘rashning eng to‘g‘ri, eng ishonchli yo‘li bo‘lib qoldi. Abdulloh ham bo‘lib o‘tgan voqeani bayon etishga kirishar ekan, shu duoni o‘qidi, qalban Allohga tavajjuh etdi.

Abdulloh tergovchining ta‘limiga tayanib, tushuntirish xatida dastlab o‘zini tanishtirdi, soxta guvohlik yoki ko‘rsatma bermasligini aytdi, keyin voqeani bayon qildi. Voqea juda qisqa edi, cho‘zib yozishning imkoni bo‘lmadi: «Bir uyg‘urni bir xitoyi urdi, men mazlumni himoya qildim, xolos».

Tergovchi tafsilotlarni batafsil o‘rganishini ma‘lum qildi, da‘vogar jabrlanuvchi hamda guvohlar bilan yuzlashtirishini ta‘kidladi, imzolash ishlarini yakunlagach, hujjatlarni papkaga joyladi, advokat bilan Abdullohni qoldirib, xonani tark etdi.

– Tublibey, – dedi Abdulloh. – Sizga telefon raqam beraman, iltimos, uyimga qo'ng'iroq qiling. Ota-onamga vaziyatni ayting. Xavotir olmasinlar. O'g'lingiz tezda qaytadi, deng, maylimi?

– Albatta, shunday deyman, – dedi Tublibek ko'zoynagini ro'molchasi bilan artib. – Mana bu varaqqa raqamlarni yozing.

...Abdulloh kameraga qaytib, o'z o'rniga chiqib o'tirarkan, juda charchaganini his etdi. Sheriklari Aydar va Naynov esa, negadir, o'zgarib qolgan edilar. Ular Abdullohga ko'p e'tibor berishmadi. «Keldingmi» ham demadilar. Ularning suhbat mavzularida o'zgarish bor edi.

Aydar yosh kameradoshga «Kichkina» deb laqab qo'ydi.

Darhaqiqat, Kichkinaning bo'yi ham, o'yi ham, yoshi ham kichkina edi. U Aydar va Naynovning yo'rig'idan chiqmay qoldi. Aydar unga juda «g'amxo'r» edi: qamoq hayotidagi «qahramonliklar», o'g'rilik «sirlari», firib berish «mahorati»dan juda ko'p ma'ruza o'qirdi, qamoq jargonlarini qo'llash qoida va o'rinlarini o'rgatardi. Kichkinaning nazarida, Aydar eng aqlli, ustomon odamga aylandi. Naynovning yakkayu yagona muhim ishi Aydarni tasdiqlashdan iborat.

Abdulloh bu davranning odami emasligi avvaldan ma'lum bo'lgan. Biror «suhbat»ga aralashmagani bois kamera ahliga begonalashdi. Hozir ham tergovdan qaytdi, unga sovuqqon munosabat ana shu begonalik bilan sharhlansa -da, bu boshqa aniq sababga bog'lanadi. Abdulloh tergov berarkan, Aydar mirshabboshining qabulida navbatdagi «maxsus» topshiriqni oldi.

Jamloqlarda mahkumlar ikki toifaga ajratilgan: terrorchi va jinoyatchi.

Terrorchilarning umumiy ravishda ikki xil sifatlanadi: yuvosh va ashaddiy. Yuvosh terrorchilar tartibotga qat'iy itoatkor, qamoq «bayram» tadbirlarida juda faol, qamoq ishlab chiqarishida jonini berib ishlaydi, namozu ibodatdan oshkora voz kechgan. Ularning eng «namunali»lari mirshablar bilan hamkorlik qiladi va ochiq kufr yoki shirk ila dindan yuz

o'giran. Yuvoshlar uchun ancha yengilliklar bor, buning tafsilotini keyingi boblarda, Alloh nasib etsa, kitobxonlar bilib olishadi.

Ashaddiy terrorchilar esa qamoqda odam sonidan chiqarilgan mahkumlardir. Ularni mirshablar ham, boshqalar ham oddiy hayvon yoxud zararkunanda hasharot kabi ko'radi. Hasharot bo'lganda ham, ko'proq suvarak, deb o'ylashadi. Chunki ular ashaddiy terrorist!

Ularning ashaddiyligining birinchi belgisi – mirshablar bilan hamkorlik qilishmaydi. Bu yerda esa: «Menga do'st emasman, demak, dushmanimsan!» qonuni ishlaydi.

Ashaddiyalar tamaki, nos chekmaydi, so'kinmaydi, dindan ham chiqmagan, hamisha ozoda yuradi, mehnatdan bo'yin tovlamaydi, faqat eng xavfli ishlari: ular bir-birlari bilan gaplashishadi, bir-birlariga qayg'urishadi, bir burda nonini ham sherigiga ilinadi, ustiga ustak, pichirlab, imo-ishora bilan namoz o'qiydi, Qur'on qiroat qiladi, bir nuqtaga tikilib qoldimi, tamom, qandaydir zikr bilan mashg'ul!

Jinoyatchilar va yuvoshlarning qamoq hayotidagi eng muhim vazifasi, aniqroq aytsak, umrining mazmuni ashaddiylarning har daqiqasini mirshablarga yetkazib berishdir. Har bir ashaddiyga biriktirilgan yuvoshlar, jinoyatchilar bor. Ular o'z nishonlarining uyqudagi hurragi, yel chiqargandagi ovoz detsibili, peshob payti necha daqiqa sarflanishi va hakoza daqiq ma'lumotlarni xotiralariga, qalblariga joylab, mirshablarni bundan, albatta, ogoh etishlari shart. Bu ular uchun «farz», ular uchun «vojib».

Jinoyatchilarning deyarli hammasi mirshablar bilan hamkorlikda yashaydi. Yashaydi, deyapmiz, chunki hayotlari shunday o'tadi. Bu hamkorlik mahkumlar hayotining ikir-chikirlaridan mirshabni xabardor qilib turishdir. Bu ishni jinoyatchilar yo ochiq, yo pinhon bajarishadi. Ochiq bajaruvchilar hammaga ayon, pinhon faoliyatdagilar esa noma'lum.

Ashaddiy terrorchilar siyosiy va islomiy degan ikki sinfga ajraladi. Ularga belgilangan kundalik maxsus jazolar haqida bizga qahramonlarimiz soʻzlashadi, biz esa eng ogʻir azob islomiylarga yoʻnaltirilganligini ayta olamiz. Shu sababli, barcha jamloqlarda «islomiy» soʻzi mudhish jaranglaydi, insoniy azoblanishning jami turi shu soʻzga singdirib yuborilgan. «Islomiy» terroristlar taʼrifi vabodek dahshatli edi. Har bir mahkum ular haqidagi afsonalarni eshitadi va ularni, shubhasiz, tahqirlashi shart. Tahqirlashning eng yumshoq shakli oddiygina soʻkishdir.

Aydar mirshabboshidan kamerada islomiylar haqida gapirish hamda Abdullohni ajratib qoʻyish haqida buyruq olgan edi. Shuning uchun, Aydar Abdullohdan avvalroq kameraga qaytib, xuddi eng kerakli, olamshumul yangilikni bilib olgandek eʼlon qildi:

– Anavi Abdulloh islomiy ekan!

Kichkina bu soʻzning dahshatini hali umuman anglamasdi. Shuning uchun angraydi. Naynov esa goʻyo «ajablanib», qattiq «qoʻrqib», oʻrnidan sapchib ketdi:

– Yoʻgʻe, rostanmi? Voy ...! – deb soʻkindi. – Uning turqiga qarab, odam debman-a! Hayvon ekan-ku! Choʻchqa ekan-ku! Toʻngʻiz! Maymun!

Kichkina Naynovning bu «mutaassirligi»dan choʻchib ketib, shoshib soʻradi:

– Islomiy nima degani? Shunaqa qoʻrqinchlimi?

Aydar Kichkina juda «maʼnoli», «ezgin» nigohlar bilan boqdi.

– Bilmasang, oʻzingga yaxshi, – deb «xoʻrsindi».

– Nega unday deysiz? – deb «astoydil kuyindi» Naynov. – Bola bilsin, kim bilan oʻtiribdi, atrofida kim bor, hammasini bilsin!

Aydar «gʻam»ga botib, javob berishga ulgurmay Abdulloh kelib qoldi. Shu bois, hech kim unga salom ham bermadi, bir soʻz aytmadi. Bir ozdan keyin Aydar temir finjoniga achchiq choy damladi, choy dam yeb, rangi chiqqunicha gazetaga tamaki oʻradi, tamakini yoqdi, ikki marta chuqur

tortib, Abdulloh tarafga sezilar-sezilmas tutun pufladi, tamakini esa Naynovga berdi, Naynov ham yutoqib tortdi va Kichkinaga tutqazdi, Kichkina ham faxr bilan tamakini qabul qilib, ehtirom ko'rsatib, xuddi Aydar va Naynovga o'xshashga tirishib, tutunni ichiga so'rdi.

Bu orada «choy ham ko'tarildi», shekilli, Aydar o'z qo'li bilan quyuc qaynoq choyni finjondan finjonga tashlab, shopirdi. Kamerani choy hidi qopladi, biroq buni mahbuslar sezmasdi: bo'g'iq havo, tamaki tutuni bilan bitgan dimoqlar hidlarni ham farqlamay qo'ygan edi, zotan.

Choyni biroz tindirib, Aydarning o'zi ho'pladi, orqasidan tamakini so'rdi va ko'zini yumib, juda «huzurlanib» «Oh, oh!» dedi. Undan keyin Naynov va Kichkina ham achchiq choydan ichishdi.

– Bilasanmi, Kichkina, – dedi Aydar salmoqlab. – Men to'rtinchi o'tirishimni Rossiyada o'tkazganman. Tomsk degan joyda bir qamoq bor. E, juda ajoyib u qamoq! Mahkumlar jannatda yashaydi. Qora dori, nasha, aroq, qizlar – hammasi bemalol. Mirshablar mahkumlardan qo'rqadi. Mahkumlarning kattasini o'rischalab, bratuxa deyishadi. Bratuha o'g'ridan kelgan buyruqlarni bajaradi. Bratuxaga gap yo'q! U yerda mahkumlarni mujik deyishadi. Qamoqda hamma narsa mujiklar uchun. Grev, skachuxa, teplota! Iya, sizlar bu gaplarni qaerdan ham tushunardinglar! Bizning qamoqlar unday emas. Tomskdagi qamoqni qora deyishadi. Chunki bratuxa polojeniega qaraydi. Polojenieni ham bilmaysan-ku, a? Tushuntiraman, desam, sochim oqaradi. Xullas, mana bu achchiq choyni Tomskda chifir, deyishadi. ChIFIR degani chay – istochnik filosofii i razuma degani. Ma'nosi choy falsafa hamda aql manbasi, deganidir.

Aydar gapirarkan, Kichkina unga lol bo'lib tikilib o'tirardi. Naynov esa Aydarning bu «hikoya»ga umuman aloqasi yo'qligini yaxshi bilardi, chunki Aydar hech qachon Tomskda bo'lmagan, u ham qaysidir kazzobdan shu rivoyatni eshitib, yodlab olgan edi. U bu «rivoyat»dan yangi qamalganlarni aldash uchun foydalanadi.

– Shunaqa, – deb Aydarni ma'qulladi Naynov. – Bizning qamoqlar ham qachondir qorayarmikin?

– Yo'q, bu juda qiyin, – dedi «qayg'u» bilan Aydar.

– Nega, axir? – dedi bu holdan chindan achinib Kichkina.

– Chunki bunga islomiylar aybdor, – dedi Aydar, nihoyat.

Abdulloh hali qamoqda «islomiy» so'zini mahbusning tilidan eshitmagan edi. Hozir bu so'zdan seskanib, «yarq» etib, Aydarga qaradi.

Aydar buni sezdi, Abdullohni bezovtalantirganidan ichida xursand bo'ldi, lekin o'zini bilmaganga olib, davom etdi:

– Islomiylar davlatning dushmani, xalq xoini, – dedi u ovozigga jiddiy tus berib. – Ular biz uyg'urlarni ko'ra olmaydi, buyuk Xitoyga qarshi kurashib, davlatni egallashni istashadi.

– Islomiylar ham odammi? – deb so'radi Kichkina. U savolni shunday berdiki, Aydar ham, Naynov ham kulgidan o'zlarini bazo'r to'xtatishdi.

– Odam, albatta, o'zimizning uyg'ur ular ham, – deb javob berdi Aydar. – Faqat tashi odam, ichi hayvon. Vahshiy. Odamxo'r. Qonxo'r.

– Yo'g'e! – dedi ko'zlarini katta –katta ochib Kichkina. Ayni paytda u ham, Aydar ham o'zlarining odam o'ldirib, qamoqqa tushishganini unutgandilar, go'yo. Islomiylar, ularning nazdida, odamxo'r, bu jinoyatchi qotillar esa qanotsiz farishtaning o'zginasi!

– Ularni qattiq qiynashadi, chunki ular shu qiynoqlarga loyik, – dedi ishonch bilan Aydar. So'ng maroq bilan gapirishga kirishib ketdi. Shunday maroq bilan gapirdiki, biror gapini u shu qadar lazzatlanib aytmagan edi. – Islomiylarni azoblash tergovda boshlanadi. Ularning dumi juda uzun. Bittasini qo'lga olsang, mingta sherigi chiqadi isqirtlarning. Tergovda tovoniga urishadi. Yelimxalta kiydirishadi, avval qo'lidan, keyin oyog'idan osib, kaltaklashadi. Boshidan ossa ham bo'lardi, xaxaxaxa! Agar sheriklarini aytmasa, jinoyatini tan olmasa, oyog'ining orasidagi ikkita tuxumini aylantirib, qattiq ip bilan bog'lashadi, u ipni esa kalta qilib,

orqasiga kishanlangan qo'lining barmoqlariga ulashadi. Qani, keyin ham jinoyatga iqror bo'lmay ko'rsin-chi! Iqror bo'ladi, onasini emib yotgan paytidan boshlab, so'nggi nafasigacha bo'lgan har daqiqani eslab, tergovchiga sayraydi. Yana bir yo'li: ularning orqa teshigiga yelimtayoq tiqishadi. Yoki mirshabtayoqqa achchiq qalampir yoki yopishqoq yelim surib qo'yilsa, nima bo'ladi, bilasanmi? Dod, deydi-da! Tergovda ularning qovurg'alari, oyoq-qo'li, burni sinishi, boshi yorilishi eng yaxshi qiynoq. Ana shunaqa!

Abdulloh bu gaplarni eshitib, nafasi siqa boshladi, qo'llari qaltiray boshladi. Aydar esa zavqu shavqqa to'lib vaysardi:

– Islomiylarning tergovi bir taraf, kamera va jamloq bir taraf, – deb Aydar gazeta parchasiga yangitdan tamaki o'rashga kirishdi. – Kamerada yigitlar ularni tepib tashlashadi, xojatxonani tozalashadi, idish –tovoq yuvadi. Jamloqda esa eng og'ir ishlarni qilishadi: g'isht quyishadi, pishirishadi, yuklashadi. Ohak tayyorlashadi, rangli bo'yoq tayyorlashadi, beton quyishadi. Har kuni va har hafta, albatta, belgilangan alohida kaltaklari bor. Ularga gaplashish, boshlarini ko'tarish, osmonga, yon-atrofga qarash mumkin emas. Bir o'zi yurishlari ta'qiqlangan. Safda yonma-yon o'tirib qolishsa, tamom! Hollariga maymunlar yig'laydi. Chunki islomiylar shunga munosib! Ular xalq dushmani! Kommunizmga xiyonat qilishgan! Xudo, Alloh, deb odamlar ongini zaharlashadi. Eng yomoni, ana shu maymunlar sababli bizning qamoqlarda mahkumlar azobda. Hozir jamloqlarda bir million mahkum saqlanadi. Besh yuz mingi islomiy. Qolgan besh yuz ming aybsiz o'tiribdi. Chunki islomiylarni boshqarish uchun biz kabi tarbiyali odamlar kerak. Shuning uchun, ko'chada mirshablar har oyda yigirmata odamni, albatta, qamashi kerak. Shunga majbur. Bunga esa islomiylar aybdor.

Kichkinaning og'zi lang ochildi. Abdulloh esa har bir gapi uchun Aydarni bo'g'ib o'ldirishga hozir edi, biroq u kutilmaganda xuzunga cho'kdi, o'zini bu xuzundan qutqara olmay qoldi.

Faqat: «Allohumakfiniy bi ma shi'ta!» der edi ichida.

Sahih hadisda aytilishicha, bir necha ming yillar avval bir voqea sodir bo'lgan. Bu voqea payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamdan ham ilgari yuz bergan.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning aytishlaricha, qadimda bir podshohning sehgari bor edi. Sehrgar qarib qolgach, podshohga dedi:

– Hukmdorim, men keksaydim, bir shogird bering, unga sehr ilmini o'rgataman, o'lsam, xizmatingizni qiladi.

Podshohning amri bilan bir yosh bolani sehrgarga shogirdlikka berdilar.

Sehr shunday ilm ediki, uni osmondan Bobil shahriga tushgan ikkita farishta odamlarga o'rgatishgan. Farishtalarning ismi Horut va Morut edi. Ular sehr ilmini o'rgatishdan oldin: «Bu katta gunoh, uni o'rganish, sehr qilish kufrdir. Bizning ishimiz fitna qilishdan iborat», – deyishardi. Biroq odamlarning kofirlari sehrni o'rganaverishdi, Allohga kufr keltirishdan qo'rqmadilar. Ular sehr vositasida, asosan, er-xotinlarni bir-biridan sovutishardi, ajratishardi. Allohning izni bilan sehr orqali insonlarga biroz ziyon-zahmat yetkazishardi.

Maqsadlari odamlar ustidan hokim bo'lish edi. Bu hodisa Sulaymon alayhissalom davrlarida sodir bo'ldi. Alloh taolo Sulaymon alayhissalomga barcha dev va jinlarni bo'ysundirib berib, sehrgarlarning naqadar zaifligini odamzodga yaqqol ko'rsatib qo'ydi. Lekin qalbi kufr sababli qulflanganlar sehr bilan mashg'ul bo'lishardi, ba'zi kofir podshohlar esa maxsus sehrgar xizmatidan foydalanganlar.

Hadisi sharifda aytilayotgan hikoyatda ham bir kofir podshohning sehrgari haqida gap boryapti.

Sehrgarning shogirdi har kuni darsga borib yurdi. Bir kuni yo'lda rohibga uchradi. Rohib mo'min edi. U bolaga Allohning dinini, tavhidni o'rgata boshladi. Bola sehrgardan ham, rohibdan ham bir xilda ilm olib yurdi.

Bir kuni bola rohibning suhbatida uzoqroq qolib ketdi. Sehrgar: «Nega kechikding?» – deb so'radi. Bola javob bermadi, sehrgar darg'azab holda bolani urdi. Ertasi kuni bola rohibga bo'lgan voqeani aytib berdi.

«Ozurda bo'lma, – dedi rohib. – Yana kechiksang, sehrgarga uyimda ushlanib qoldim, de. Ota-onang nega kech kelding, deb so'rasa, sehrgarning huzurida qolib ketdim, degin».

Shu tariqa, bola sehr va tavhidni bir vaqtda uzoq vaqt o'rgandi. U bu ikki yo'lning qaysi biri haqligi to'g'risida bosh qotirar edi. Bola yo tavhid, yo sehr yo'lidan ketishi kerakligini qat'iyon tushunayotgan edi. Ana shunday ziddiyat ichida yurganida unda bu ikkidan birini tanlashiga yordam beradigan voqea sodir bo'ldi.

Shahar ko'chalaridan birini juda bahaybat bir maxluq to'sib qo'ydi. Bu maxluqni ba'zilar ho'kiz edi, deyishadi. Odamlar maxluqdan qo'rqib, ko'chadan o'ta olmay qolishdi.

O'sha payt bola darsga ketayotgan edi. U maxluqqa duch kelgach, qalbida zarracha ham qo'rquv yo'qligini bildi. Yerdan kichkina toshni oldida, Allohga duo qilib: «Allohim, menga haqni ko'rsat! Rohib yoki sehrgardan qaysi biri to'g'ri yo'ldaligini namoyon et! Agar rohibning yo'li to'g'ri bo'lsa, shu maxluq yo'lni bo'shatsin va bu yerni tark etsin!» – dedi-da, toshni maxluqqa otdi. Maxluq esa indamadi, balki, ko'chani bo'shatdi, sekin yurib, shahardan tashqariga chiqib ketdi. Bolaning bu ishi shov-shuv bo'ldi. Odamlar uning qoshiga har xil muammolar bilan kela boshladilar. Kimdir pes, kimdir shol, kimdir ko'r, kimdir kar bo'lsa, bola Allohning nomi bilan ularni davolayverdi. Rohib bolaning oldiga kelib: «Ey shogirdim, sen mendan o'zib ketding, juda baland maqomga erishding, endi boshingga

juda ko'p sinovlar, balolar keladi, hech kimga mening ismimni ayta ko'rma!»
– deb tayinladi.

Yurt podshohining yaqinlaridan birining ko'zi ko'rmay qoldi. Unga bola haqida aytishdi. Podshohning qarindoshi bolaning oldiga kelib: «Iltimos, ko'zimni davola», – dedi. Bola: «U holda, olamlarning yakka Robbisi, sherigi, o'xshashi, tengi bo'lmagan, har bir ishning Egasi Allohga iymon keltir! Shundagina men seni davolay olaman», – dedi. Ko'r odam darhol iymon keltirdi, koinotni, butun borliqni yolg'iz Alloh yaratgani va insonlar Allohning yo'lidan yurishlari shart ekanligiga iymon keltirdi. Bola esa Allohning nomini aytib, uni davoladi.

Podshoh ko'r bo'lgan qarindoshining ko'zlari qayta ko'rayotganidan xabar topdi. Uni chaqirib, bu ishni kim qilganligini so'radi. Qarindoshi: «Meni bir yosh bolaning Robbisi davoladi», – dedi. Podshoh bolani huzuriga chorlatdi.

«Sen juda kuchli sehrigar bo'lib yetishibsan!» – dedi bolaga.

«Bu sehr emas, – dedi bola. – Bu Allohning marhamati, zotan, kasallikni beradigan ham Alloh, shifo ato etadigan ham Allohdir!»

Podshohga bu gap yoqmadi.

«Men sening Robbingman, – dedi qahr bilan. – Allohdan voz kech!»

«Yo'q, – dedi bola. – Sen oddiy bandasan, Alloh esa butun olamning yakka Robbisidir. Uning sherigi yo'q!»

Podshoh bolani qo'yib, o'z qarindoshiga yuzlandi: «Sen ham shu bolaning Robbisiga iymon keltirdingmi?» – deb so'radi. «Ha», – dedi qarindoshi.

«Tezda bu dindan qayt! – deb buyurdi podshoh. – Aks holda, seni o'ldiraman!»

Biroq podshohning yaqini dinidan qaytmadi, podshoh jallodlarni chaqirib, uni arralashni amr etdi. Jallodlar uni arralab, bir necha bo'lakka bo'lib tashlashdi, hammayoq qonga belandi.

Podshoh yana bolaga qarab: «Senga Alloh haqida kim gapirib berdi?» – deb so‘radi. Bola: «Aytmayman», – dedi. Podshoh bolani azoblashni buyurdi. Bola qiynoqlarga chidolmay rohibning ismini aytib qo‘ydi.

Rohibni tezda podshoh saroyiga keltirdilar. Podshoh unga ham dindan qaytishni buyurdi. Rohib esa: «Allohdan bo‘lak iloh yo‘q!» – dedi. Podshohning buyrug‘i bilan uni ham azoblashdi va arralab o‘ldirishdi. Yerdan rohibning qonga g‘arq bo‘lgan, parchalangan badani, suyaklari yotardi. Podshoh esa bolaga: «Ko‘rdingmi? – dedi. – Sen ham dindan qaytmasang, shu ahvolga tushasan!»

Bola esa: «Allohdan bo‘lak iloh yo‘q!» – dedi. Podshoh g‘azab otiga mindi, u, albatta, bolani dindan qaytarishga qasd qildi. Chunki butun mamlakatga bolaning dovrug‘i tarqalib, Allohni tanitotganlar ko‘payib borayotgan edi. Podshohning nazdida, bolani o‘ldirishdan ko‘ra qo‘rqitib, o‘ziga bo‘ysundirish maqbul ko‘rindi. Shuning uchun o‘z askarlaridan bir nechasini chaqirib, amr qildi: «Bolani toqqa olib chiqing, yaxshi gapiring, qo‘rqiting, dindan qaytsin, qaysarlik qilsa, cho‘qqidan pastga uloqtirib yuboringlar!»

O‘N TO‘QQIZINCHI BOB

– Bilasizmi, xonim, – dedi Xo‘ja Alining xotini Anjelinani diqqat bilan tinglagach. – Biz uy ayollarimiz. Siz aytayotgan ko‘p gaplarga aqlimiz yetmaydi, erimiz so‘ramasa, biror masalada maslahat ham berolmaymiz. Chunki biz ayollarning farz ibodatdan keyingi eng muhim ishi – farzand dunyoga keltirish, uni parvarishlash, tarbiyalash, erning xizmatini qilish va uy ichini ozoda, batartib, sarishta saqlab, borni oshirib, yo‘qni yo‘ndirishdir. Ayollarning jamiyatdagi o‘rni, ularning huquqini ta‘minlash kabi tumtaroq safsatalardan shaxsan mening ensam qotadi. Huquq talab qilib ko‘chaga

chiqqan xotin shu qadar oqila, shu qadar jasur ekan, nima uchun bir erni eplay olmabdi? Hayronman. Unday ayollarning ichiga shayton uya qurib olgani aniq.

Anjelina Zaynab xonim suhbatidan so'ng, musulmalarga chuqur ehtirom ila qaray boshlagan edi. Shuning uchun, Xo'ja Alining zavjasi aytayotgan fikrlarning asosi bor, deb o'ylayotgan edi.

Holvani xamirini qorib suhbatlashayotgan xonimdan so'radi:

– Sabriniso xonim, siz mening nazdimda juda keskin fikrlamoqdasiz, – dedi nima tabassum bilan. – Axir, ayollarga ham juda noyob salohiyat ato etiladi. Nahotki, bu salohiyat uy ichida uvol bo'lishi kerak? Ayollar ichida juda ham ilmi shifokorlar, adibalar, muallimalar, hatto, harbiylar yetishib chiqqan. Siz bu haqiqatni inkor etyapsiz. Bu gaplar shaxsiy fikringizmi yoki diningiz shuni talab etadimi?

– Dinim har muslim va muslimaga ilm olishni farz etgan. Islom olamidagi ayollarning fahmu farosati, ilmu ma'rifati tufayli ham Yer yuzini zabt etgan, insoniyatga najot yo'lini yetkazgan daholar, ulug' fotihlar, buyuk mutafakkirlar yetishdilar, – dedi Sabriniso xonim keliniga tayyor holvani berib yuborarkan. – Ayolning ichki dunyosidagi g'ayritabiiy quvvatni inkor etmayapman. Mening e'tiqodim shuki, nomahram erlar orasida yurgan ayol juda katta yo'qotishlarga yo'liqadi. U, avvalo, hayosidan ayriladi. Alloh berkitishni buyurgan a'zolarini begona erkaklarga ko'z-ko'z etib, Robbisini norozi qiladi. Onasining ochiq boldir va sonlar, yalang'och yelka, o'ralmagan bo'yin, ro'mol bosh bilan, shahvat uyg'otuvchi atirlar sepgan holda begona erlar orasida yurgan o'g'illar mardlikni, rashkni, hamiyatni boy beradi, qizlar esa oilaga mehr berishdek ichki, tabiiy savqdan ayrilib, umrini ko'cha uchun ziynatlanib o'tkazadi. Qarang, bugun yigitlar xotinchalish, qizlar erkakshoda! Chunki jamiyatda nomahram er va xotinlar aralashib ketdi. Ayollar o'z salohiyatlarini, kim bo'lishlaridan qat'iy nazar, islomiy ruxsatlar hududida namoyon etsin. Tabib bo'lsin, olima bo'lsin, tijorat qilsin,

biroq Allohning chegaralarini buzmasin. Hozir odamlarga bu to'g'rida gapirish juda ham erish tuyuladi. Hatto, musulmonlar bu qonunni qabul qila olishmaydi. Ayollar erkini bo'g'yapsanmi, deyishadi. O'rta asrlarda yoki g'orda yashashni istaysanmi, deyishadi. Unday emas, har qanday musulima o'z qobiliyatini Allohning amriga muvofiq yuzaga chiqarsin, kuchini er, farzand g'amxo'rliqi va boshqa musulmonlarning manfaati uchun yo'llasin. Shunchaki, tirikchilik yoki zerikmaslik uchun ishlaydigan har qanday ayolga, ayniqsa, musulimalarga achinaman.

– Juda ham boshqacha qarashlar, – dedi Anjelina. – Siz o'z fikriga, qat'iy e'tiqodga ega ekansiz. Ochig'i, xulosalaringizga hozir munosabat bildira olmayman. Ularni xato yoxud to'g'ri, deyish shaxsan men uchun qiyin. Ayting -chi, sizning bunday mustahkam yondashuvingiz qay tariqa shakllandi? Oila muhiti, olgan ta'limingiz yoki yashash jarayoni – qaysi biri sizni shu nuqtaga olib keldi?

– Gaplarimdan xafa bo'lmang, mehmon, – deb jilmaydi Sabriniso xonim. – Siz aytayotgan sabablar bilan qat'iy bir nuqtani topish mahol bo'lsa kerak. Men ertaga Allohimning qarshisida turib hisob berishim haqida o'ylayman va bu meni ana shunday e'tiqod ustida sobit etadi. Erim Xo'ja Ali asliga nisbatan juda yosh ko'rinadi. Uni hamma ellikka ham to'lmagan, deb o'ylaydi. Holbuki, u oltmishdan oshib ketgan. Biz bundan qirq uch yil avval turmush qurdik. O'shanda Xo'ja Ali juda ko'rkam, baquvvat edi. U o'n to'qqizni qoralagan, men o'n sakkizga to'lgandim. Sizga ikkimiz boshimizdan nimalarni o'tkazganimni aytib beraman, shoyad, aytayotganlarimni yaxshiroq anglasangiz!

Xo'ja Ali madrasada o'qir edi. Dehlidagi musulmonlar mavzesidagi madrasani «Dorul huffoz» deb atashardi. U yerda, asosan, Qur'on ta'limi berilardi. Xo'ja Ali o'n olti yoshida Qur'onni hifz etdi. Keyin qandolat sirlarini o'rganish uchun Buxoriy holvachiga shogird tushdi. Xo'ja Alining otasi Xo'ja Asqar kambag'al, lekin juda muxlis odam edi. U tirikchilikka ko'p e'tibor

bermasdi, tabiatida boqibegʻamlilik koʻp edi. Xoʻja Asqarni tanbal yoki ishyoqmas deya olmasdilar, chunki u din ulamolari, ilmi toliblar va masjid xizmatlari uchun yelib ketadi, xotini nolisa: «Iltimos, nolima, xotin, nima qilay, pul topishga hech qiziqqa olmadim. Rizqimizni Alloh beryapti-ku. Mana, oʻgʻlimiz qori boʻldi», – deb taskin beradi.

Oila esa katta: besh oʻgʻil, uch qiz. Xoʻja Ali uchinchi farzand. U juda mehnatkash, tirishqoq. Akalari ham har xil hunarmandlarga shogird tushdilar.

Biz ular haqida koʻp toʻxtalmaymiz, chunki Xoʻja Alining taqdiri haqida yozyapmiz.

Xoʻja Ali ikki yilda uyiga bir-ikki rupiy koʻtarib kela boshladi. Oʻn toʻqqiz yoshida esa ustozining mahallasidagi bir qizni koʻrib, esidan ayrilib qoldi, goʻyo. Bu uning qiz bolaga nisbatan ilk talpinish tuygʻusi edi. Buxoriy holvachi eng zehni, eng yaxshi shogirdining xayolchanligini sezdi va gap nimada ekanligini darhol payqadi. Biroq tekshirishga qaror qildi. Bir haftadan keyin Xoʻja Ali mis qozonga erigan shakarni emas, dogʻlanmagan yogʻni uchinchi marta quyib yubordi. Keksa qandolatchi shogirdining bilagidan ushlab, oʻzining xonasiga sudradi. Boshqa shogirdlar hadiksirab qarab qolishdi. Usta eshikni zichlab yopdi. Xonaningning yarimdan koʻpini bir tirsak koʻtarilgan soʻri egallaydi. Soʻri oʻrtasida xontaxta va atrofida koʻrpacha. Devorda oʻyma tokchalar, kitoblar, chala yongan shamlar. Taxmon.

Usta xontaxtaning toʻriga oʻtirdi. Shogirdga sinovchan tikildi.

– Xoʻja Ali, – dedi muloyim.

Xoʻja Ali boʻyi choʻzilib, soqoli biroz qalinlashgan, peshonasida husnbuzar, tomogʻida esa «kekirdagi» boʻrtgan, yelkasi kengayib, yigitning oʻziga ham xuddi noqulaylik tugʻdirayotgandek. U qilgan xatosidan iztirobda, boshini egib, yelkasini bukib olgan, ikki qoʻli orqasida. Boshidagi salla ham oʻng yonga biroz qiyshaygan, qalin qoʻngʻir sochlar esa sallaning

tagidan toshib, peshonasiga kokil bo'lib tushgan, quloq, bo'yinlarini ham yopgan.

Usta shogirdi xushsurat yigit bo'lganini ko'nglidan o'tkazdi. Bu yoshda yigitlarning xayolida nima bo'lishi mumkin?!

– Xo'ja Ali, boshingni ko'tar, bolam, – dedi yana Usta. Shogird boshini biroz ko'tarib, ustoziga xijolatomuz boqdi. – O'g'lim, sen bilan ochiq gaplashaylik. Sira qo'rqma, xo'pmi?

– Xo'p, – dedi Xo'ja Ali. U o'zini oqlashga ham uyalayotgan edi.

– Qani, o'tir, – dedi Usta. Shogird shippagini yechdi, qo'lini qovushtirib, ustozini ko'rsatgan joyga cho'kdi.

– Bolam, hamma shogirdlarimga qattiqqo'lman, – dedi Usta shoshilmay. – Lekin nimani o'ylayapsizlar, nimani xohlayapsizlar, kayfiyatingiz qanday – hammasini baholi qudrat kuzataman. Alhamdulillah, har biringiz ixlos bilan, mehr bilan, ishtiyoq bilan ishlaysiz, o'rganasiz. Aks holda, kelganingiz kundayoq haydab yuborardim. Ish paytidagi xatolaringizni doim ma'zur tutaman. Zotan, siz sovuqqonlik, befarqlik bilan yoki qasddan emas, noxosdan xato qilasiz, bu kechirishga loyiq. Ixlos – eng muhimi, mahorat Alloh nasib etsa, qo'lga kiradi. Sening bir haftada bir emas, bir necha marta sahvgaga yo'l qo'yishing ham qasddan yoki loqaydlikdan emas, boshqa sababdan sodir bo'ldi. O'sha sababni aytasanmi?

Xo'ja Ali indamadi, lekin «duv» qizardi. Usta nishonda adashmaganiga ishonch hosil qildi va so'radi:

– Bolam, uyalmasdan ayt: u kimning qizi?

Xo'ja Ali Ustadan bu savolni kutmagan edi, shuning uchun, dovdiradi, joyida o'tirolmay qoldi, hayosi uning haroratini ko'tarib yubordi, yonoqlar qip-qizarib, ovozi qaltiradi:

– Yo'g'e, ustoz... Yo'g'e, haligi...

– Bolam, Abdulhayning qizimi? – shogirdning holatiga e'tibor bermagandek navbatdagi savolni ro'para qildi Usta. Xo'ja Ali yo'q, deb bosh qimirlatdi. Usta esa shogirdi shu mahalladagi oshiq bo'lganiga amin edi. Chunki yetti kun sahardan oqshomgacha shu yerda kun o'tkazayotgan yigit Kashmir go'zalini tushida ko'rib, sevib qolmas, harqalay.

Keksa holvachi bo'yi yetgan qiz bor xonadonlarni birma-bir aytaverdi.

– Shayx Qosimning qizimi? – degan edi, Xo'ja Alining ko'zi charaqlab ketdi, boshini ko'tarib, hatto, ovozini xiyla balandlatib:

– Ha! – deb yubordi.

Ustoz shogirdning beg'ubor holatidan zavqlanib, beozor kuldi:

– Yaxshi, bolam, katta qizimi? Yaxshi. Sen iloji boricha ko'nglingni xotirjam qil, men otang bilan maslahat qilay, sovchilikni tezashtiray.

Xo'ja Ali bunday lutfni hech kutmagan edi, uning nazarida, Usta uning tushida so'radi, sovchilik haqida aytdi.

Buxoriy holvachi Xo'ja Ali bilan gaplashib bo'lgach, ko'cha yaktagini kiyib, chiqib ketdi. Shogirdlar, hatto, xalfa (Ustaning o'rinbosari) Xo'ja Alini o'rab olib savol bera ketdilar:

– Nima bo'ldi?

– Usta nima dedi?

– Jazoladimi?

– Usta qaerga ketdi?

Xo'ja Ali hech kimga javob bermadi, faqat o'ziga o'zi iljaygani iljaygan edi.

– Bu savdoyi bo'lib qolibdi, – dedi Xalfa, nihoyat. – Hamma ishga!

Xo'ja Alining yuragi dukurladi. Kimnidir ko'rgisi kelyapti. Qandolatxonadan sekin sirg'alib chiqdi, oyog'i uni Shayx Qosimning bog' hovlisiga olib ketdi. Faqir bo'lsa -da, Shayxning mehmoni ko'p: kosibu hunarmandlar, olimu talabalar, yoshu qari dam-badam kiradi, chiqadi.

Yigit orqa eshikka o'tdi. Bu yer xilvatroq. Ko'chadan ichkariga yo'lak bilan kiriladi.

Shu yerda Xo'ja Ali qizni tasodifan, bir marta, yon tarafdan ko'rdi. Uning xayolida bir go'zal qiyofa qoldi. Endi faqat shu chehraga termilib o'tirishni istardi u. Boshqa hech narsa kerak emas: holva ham, novot ham, pashmak ham, parvarda ham!

Uxlasa ham, tushida qizning yon tomondan uzorini ko'radi.

Hozir u yo'lak qarshisiga kelib o'tirdi. Zora, qiz adashib bo'lsa ham, ko'chaga chiqsa! Hech bo'lmasa, bir marta, bir martagina jamolini ko'ra olsa!

Yigitning ko'ngli toqatsizlikdan yonayotgan edi. U oqshomgacha Shayx Qosimning bog' hovlisining devoriga tikilib vaqt o'tkazdi. Aslida, vaqt o'tganini u idrok etmadi. Peshinni ham, asrni ham, shomni ham qazo qildi, holbuki, namoz o'qish yodidan mutlaqo faromush bo'ldi. Yigitning ko'zlari esa hamon devorda.

Kimdir yelkasiga sekin qo'lini qo'ydi. Xo'ja Ali oyog'ini quchoqlab, iyagini bilagiga qo'yib o'tirgan edi, cho'chib qaradi: tepasida Usta turibdi!

– Assalomu alaykum, Usta!.. – deb sakrab turib ketdi Xo'ja Ali.

– Va alaykum assalom, – sokin alik oldi Usta. – Namozlarni o'qidingmi, bolam?

Xo'ja Ali shu ondagina farz ibodatlarini unutganini esladi.

– Yo'q, unutibman, Ustoz, – dedi iztirob bilan.

– Ovqat yedingmi? – yana so'radi Usta.

– Ovqat? Yo'q...

– Uyingga bor, ota –onang xavotir olmasin, qazo namozlaringni ham o'qi, qoldirib yuborma, maylimi?

– Xo'p, albatta, Ustoz!..

Xo'ja Ali shoshib yo'lga tusharkan, Usta uni to'xtatdi:

– Darvoqe, bolam, biz shayx Qosim bilan gaplashdik, ertaga yana kelamiz, javobini aytishadi. InshaAlloh, shayx senga qizini beradi.

Xo‘ja Ali to‘ygacha hayajonda yurdi. Xayriyat, kattalar yigirma kunda to‘yni o‘tkazishdi, Buxoriy holvachi o‘rtada turgani uchun ish juda oson ko‘chdi.

To‘ydan so‘ng, bir oydan o‘tib, Xo‘ja Ali ishga keldi. Endi uni tanib bo‘lmasdi: u sherday kuchga to‘lgandi, ishlab charchamasdi.

Sabriniso Xo‘ja Ali kutganidan a‘lo chiqdi. Kelinchak kambag‘algina oilaga fayz kiritdi. Xo‘ja Alining ikki akasi hali bo‘ydoq edilar, ota ularga ham qiz izlab qoldi.

Bir yilga bormay, ular uylanishdi.

To‘y juda ixcham o‘tdi. Hindistonda iqtisodiy inqiroz behad kuchli edi. Boylarning ham beli ingichkalab ketgan edi. Qolaversa, Islomda to‘ydan murod nikoh e‘loni va ehson bo‘lgani uchun Xo‘ja Asqarning o‘g‘illari valimasi faqat eng yaqinlar kelishdi.

Kelasi bir yilda ikki aka ayollari bilan alohida chiqishdi. Oilada Xo‘ja Ali ota-ona xizmatida qoldi. U juda mamnun edi.

Ayoli Sabriniso juda mehnatkash, siniqdil va ibodatgo‘y edi. Nafl ro‘za va namozlar o‘qigani erini rag‘batlantirardi, ulamolar suhbatida bo‘lishga chaqirardi, «Ko‘p ishlamang, kam, lekin barakali ishlang, baraka esa Allohning zikrida», – der edi eriga.

Xo‘ja Ali uylanib, hayotiga rang, mazmun kirganini sezdi. Ustaning duosi bilan uyida qandolatxona ochdi. Ayoliga ham hunaridan o‘rgatdi. Sabriniso homilador holida ham mehnat qilardi. Ishlayotganida esa labi tinimsiz qimirlaydi. U bu holda yo Qur‘on, yo biror duoni o‘qiydi.

Besh yil ichida yosh oilada ikki o‘g‘il tug‘ildi. Xo‘ja Asqar juda mamnun, dasturxonni to‘lib-toshmasa-da, har kungi yeguligi uchun Allohga shukur etadi.

O'shanda Sabrinisa uchinchi farzandiga yukli edi. Xo'ja Ali shirinliklarini shahar markaziga eltib sotishni o'rgandi.

Navbatdagi savdoda u mijoz bilan tortishib ketdi. U bu odamni hamma qatori qabul qilgan edi, aslida esa bu nusxa Xo'ja Ali bilan janjallashgani kelgan edi.

– Shirinliging aynigan ekan, – dedi o'sha mijoz labini do'rdoytirib. – Tashlab yubordim.

– Kechiring, sohib, sizni eslolmadim. Qachon mendan xarid qilgansiz? – deb so'radi ajablanib Xo'ja Ali.

– Eslay olmaydigan bo'lib qoldingmi? – mijoz vajohat bilan Xo'ja Aliga yaqinlashdi. Xaridorning dumaloq va semiz yuzi, osilgan tog'oraday qorni, betartib va qazg'og'i toshib chiqqan sochlari va didsiz kiyinishi u haqda beixtiyor salbiy taassurot uyg'otar edi. Xo'ja Alining bunday odamlar bilan tortishishga vaqti yo'q, murosaga qaror qildi:

– Mayli, sohib, yanglishayotgan bo'lsangiz -da, sizga tekinga shirinlik beraman, – dedi iloji boricha o'zini bosib. – Qanday shirinlik olasiz?

– Sen meni jinni, deyapsanmi? Men tilanchi emasman, o'z haqimni so'rayapman! – xaridor ovozi ko'tardi. – Sen yolg'onchi ekansan!

Xo'ja Ali bu odamning niyati yaxshi emasligiga amin bo'ldi.

– Menga qara, – dedi jiddiylashib. – Nima xohlayapsan? Maqsading nima?

– Maqsadim seni jag'ingni ezish! – dediyu xaridor Xo'ja Aliga musht soldi. Xo'ja Ali chap berishga ulgurdi va raqibining meshday qorniga javob zarbi yo'lladi.

Ikki daqiqadayoq meshqorin yerga dumaladi. Shuni kutib turgandek, olomon yig'ildi. Orada kimdir:

– Odamlar! Musulmonlar hindlarni uryapti! – deb baqirdi.

– Nima?

– Qani?

– Qaerda?

Hamma tomondan odam yog'ildi: hindlar, musulmonlar Xo'ja Alini o'rab oldi. Yerdan yotgan «xaridor» bir amallab turarkan baqirdi:

– Manavi meni kofir hind, dedi! Ur di!

Endi tumonatni boshqarib bo'lmaydi. Hindlar qiy –chuv bilan Xo'ja Aliga yopirildi.

Kimdir Xo'ja Alining qo'lidan tortib olomon ichidan sug'urib chiqdi.

– Tezda bu yerdan qoch! – dedi uni qutqargan kishi. U sersoqol o'rta yashar musulmon edi.

– O'ylanma! Tezda ket! Bu yer sen uchun xavfli!

Xo'ja Ali boshqa iloji yo'qligini bilib, olomondan tezda uzoqlashdi. Odamlar orasida esa dahanaki olishuv qizib borardi.

– Musulmonlar haddan oshyapti!

– Ularni haydash kerak!

– O'rnini bilib yursin ular!

– Qani anavi zo'ravon?

– Ur uni!

– Musulmonlarda ayb yo'q!

Mushtlashuv boshlandi: hind musulmon bo'lsa, bas, urishni, mayib qilishni istar edi. Olomon shovqin ko'tardi, shaytoniy vasvasa hammaning esini olib qo'ydi.

Birov tosh bilan, birov so'yil, birov pichoq bilan bir –biriga hujumga o'tdi.

Politsiya yetib keldi, havoga o'q uzildi, urushayotganlar birma-bir hibsga olindi.

Bu mojaro, aslida, birinchisi ham, oxirgisi ham emasdi, faqat bu hududda hind-musulmon to'qnashuvi deyarli sodir bo'lmas edi.

– Bu qanday bema'nilik! – tezkor majlisda politsiya boshlig'i Mukesh Mukrining fig'oni falakka chiqdi. Chunki qamoq to'lib ketdi, vaziyat izdan

chiqishiga bir bahya qoldi. – Bu ishning ortida kim turibdi! Hammasini aniqlang! Aybdorni kim bo'lishidan qat'iy nazar, javobgarlikka torting! Mening hududimda bunday xunrezlikka yo'l qo'ymayman!

– Mukesh sohib, – eshikni qiya ochib mo'raladi politsiya boshlig'i yordamchisi.

– Ha! – dedi Mukesh asabiy.

– Sizni hokim o'rinbosari chaqiribdi.

Bosh zobit aynan shu masalada hisobot berishini bilib, dastlabki ma'lumotlarni olib, hokim idorasiga bordi.

– Mukesh sohib, sizning uzoq yillik mehnatlaringizni biz hamisha qadrlaymiz, – dedi uni o'z xonasida qabul qilgan hokim o'rinbosari. Bosh zobitni uning o'ta xotirjamligi hayron qoldirdi. Chunki u amaldorni asabiy yoki g'azabnok holda ko'rishini taxmin etgandi.

– Tashakkur, janob! – dedi bosh zobit.

– Musulmonlarning hindlarni tahqirlashi haqidagi ishni o'rganyapsizmi?

– Biz voqeaga aniq nom bermadik, buni oddiyroq qilib, betartiblik, deb atayapmiz, – tushuntirdi Mukesh. – Diniy yoki irqiy adovat ta'rifidan uzoq turganimiz ma'qul, deb o'ylayman.

– Bu o'ylashingiz menga yoqmadi, – dedi hokim o'rinbosari. – Siz ko'rinib turgan haqiqatni yashirmoqchimisiz? Diniy adovatni xaspo'shlaysizmi? Musulmonlar hindlarni kofir, mushrik, deb janjal ko'targanlari hammaga ayon!

Bosh zobit amaldorning bu qadar ishonch bilan gapirayotganidan ajablandi.

– Meni ma'zur tuting, pandit jiy, – dedi ehtirom bilan. – Men, basharti, diniy adovat yuzaga kelgan taqdirda ham buni murosa yo'li bilan hal etishni istayman. Odamning e'tiqodi bilan hazillashib bo'lmaydi. E'tiqodga hujum faqat qon to'kishga yetaklaydi. Sizga biroz noto'g'ri xabar beribdilar. Janjal

biz tomondan, ya'ni biroz johil hindlar tarafidan chiqarilgan. Bizning shahrimizda musulmonlar juda beozor. Ular o'z mehnatidan ortib, bosh qashishga vaqt topishmaydi.

Hokim o'rinbosari bosh zobitni jim tingladi. Xuddi uni ma'qullagandek, chehrasi ochilib:

– Ishlash tamoyilingiz tahsinga loyiq, – dedi. – O'zim janob hokimga hisobot beraman. Siz ma'lumotlarni qoldirib, xizmatga qaytavering.

– Ijzatingiz bilan, – dedi bosh zobit xonani tark etdi. Hokim o'rinbosari esa hokimning huzuriga kirdi.

– Bosh zobitning fikricha, bu oddiy janjal, janob hokim, – dedi o'rinbosar ma'lumotlar qog'ozini hokimga taqdim etarkan.

– Men ham shunday o'ylayman, – dedi hokim varaqlarga ko'z yugurtirib. – Siz yangisiz, balki, yaxshi xabardor emasdir, men diniy adovatga qarshi jiddiy kurashaman. Musulmon va hindlar, nasroniylar orasida kelishmovchilik bo'lmasin, deyman. Yigirma yildan buyon mening shahrimda musulmon yoki hind bir-biriga din sababli ovoz ham ko'tarmadi. Men bor ekanman, bunga yo'l qo'ymayman.

– Hurmatim borgan sari sizga ziyoda bo'layotir, hokim janoblari! – deb yaltoqlandi o'rinbosar.

U o'z xonasiga kirdi, toza varaq oldi va quyidagilarni yozishga kirishdi:
«Janob Qora Sinxga.

Men o'zimga yuklangan vazifani ado etishga kirishdim. Ko'plab amaldorlarni o'zimga og'dirib oldim. Shaharning boy qatlami haqida puxta axborot jamladim. Hind-musulmon to'qnashuvining birinchi qismini amalga oshirdim.

Bu voqea Kashmirdagi kabi katta qon to'kish, musulmonlar qirg'inini keltirib chiqarishi lozim. Biroq shahar hokimi va bosh zobiti eskicha fikrli odamlar. Ikkalasi bolalikdan do'st emish. Ular diniy adovatga qarshi turishlarini aytib maqtanishdi. Janob Qora Sinxdan bu ikkisiga qanday

chora ko'rish haqida buyruq kutaman. Bizning loyihalarimizga bu ikki qariya jiddiy to'siqdir.

Hurmat bilan Sariq Josus».

YIGIRMANCHI BOB

Podshohning amri bilan bolani tog' cho'qqisiga olib chiqdilar. Unga yaxshi gapirdilar, nasihat qildilar, do'q urdilar: «Ey bola! Podshoh bilan o'ynashma! U juda qudratli. Sen sehrGAR sifatida uning xizmatida bo'l. Hayoting farovon, qo'llaring uzun yashaysan. Allohdan voz kech! Boshingdan bunday vasvasani chiqarib tashla. Aks holda, seni qatl etamiz!»

Bola ularga aytdi: «Alloh olamlarning yakka Egasi, faqat U ibodatga loyiq. Unga iymon keltiring, najot topasiz!»

Podshohning sarbozlari g'azablanib, bolani uloqtirish uchun uni ushladilar. Bola: «Allohummakfiyni bi ma shi'ta!», ya'ni «Allohim, ularga O'zing xohlagan narsa bilan kifoya qil!» – deb duo qildi. Duo ijobat bo'lib, cho'qqi larzaga keldi, barcha zolimlar zilziladan dahshatga tushib, o'zlari baland tog'dan pastga uchib ketdilar. Bola esa sog' –salomat podshohning huzuriga keldi. Xalq hayratga g'arq bo'ldi, odamlar bolaning Robbisiga Allohga iymon keltira boshladilar.

Podshoh bolani tirik holda ko'rib ham qo'rqdi, ham qahr ila quturdi. Yana bir guruh navkarlarga buyurdi: «Buni kemaga solib, dengizning o'rtasiga elting. Tushuntiring, nasihat qiling, dinidan qaytsin! Qaytmasa, dengizga cho'ktiring!»

Xizmatkorlar kema dengizning o'rtasiga borgach, bolaning qo'l – oyog'ini bog'lashdi. Uloqtirishga shay qilib, dedilar:

«Ey bola! Podshohdan qo'rq! Allohni unut, Robbingdan voz kech! Podshohning xudo qilib ol. U seni mukofotlaydi, Yer yuzida shon-sharaf, davlat va savlat ila yurasan. Aks holda, seni dengizga otib yuboramiz. Nahang oshqozonida hazm bo'lasan!»

Bola xotirjam turib, ularga shunday javob qildi:

«Ey odamlar! Tavba qiling va yolg'iz iloh, butun olamning Robbisi Allohga iymon keltiring va taslim bo'ling! Aks holda, siz va podshohingiz jahannamda yonasizlar!»

Askarlar bolani ko'tarib, dengizga tashlashga shaylandilar, bola esa: «Allohummakfiyni bi ma shi'ta!» – «Allohim, ularga O'zing xohlagan narsa bilan kifoya qil!» – deya duo qildi. Dengizda po'rtana ko'tarildi, shamol esdi, to'lqinlar kemani shunday ko'tardilarki, boladan boshqa hamma dengizga yiqilib, nahang oshqozoniga borib tushdilar.

Bolaning esa qo'l-oyoqlari yechildi, u kema bilan qirg'oqqa suzib chiqdi va kofir podshohning oldiga bordi.

Bolani ko'rgan podshohning toqati toq bo'ldi, u qatlga hukm chiqardi.

Mamlakatdagi odamlarni katta maydonga yig'di, bolani bir ustunga chirmab bog'ladi.

– Ey odamlar! – dedi podshoh. – Mana bu nonko'r bolaga sehr ilmini o'rgatishni men buyurdim. Bu bo'lsa, qandaydir rohibdan bema'ni narsalarni ta'lim oldi. Rohibni shu qilmishi uchun qiymaladim. Endi navbat bolaga keldi. Kim unga ergashgan bo'lsa, aqlini yig'ib olsin! Aks holda, hammangizni o'tda yoqaman!»

Podshoh shunday deb, bolaga yuzlandi:

«Ey ahmoq! Mening xudo ekanimni tan ol! Shunda senga hayot beraman!»

Bola kuldi va: «Ey nodon podshoh! Sendan oldin ham sendan qudratli podshohlar bor edilar. Hammasi o'ldi. Kofirlari Allohning qahriga uchradilar.

Sen ham ulardan bo'lma! Allohga iymon keltir va taslim bo'!!» – deb hayqirdi.

Podshoh bu hayqiriqqa chiday olmay, shaxsan o'zi kamondan bolaga o'q uzdi. O'q nishonga tegdi, lekin bola o'lmadi. Kofir hukmdor yana bir necha bor o'q otdi, o'qlar bolaga tegsa-da, sanchilmasdi ham, ozorlamasdi ham.

Bola podshohga aytdi: «Ey podshoh, senga o'zimni o'ldirishning yo'lini o'rgataman. O'qni «Bolaning Robbisi Alloh nomi bilan!» deya menga ot!»

Podshoh xalq oldida o'z aytganini qila olmayotgani uchun sharmanda bo'layotgan edi, shuning uchun, g'azabdan ko'ziga hech narsa ko'rinmadi, kamonni o'qladi va: «Bolaning Robbisi Allohning nomi bilan!» – deb baqirib, paykonni qo'yib yubordi.

O'q bolaning yuziga sanchildi, u qonga belandi, bor kuchini yig'ib, «Allohdan bo'lak iloh yo'q!» – dediyu, jon berdi.

Podshoh shundagina nima qilib qo'yganini tushundi: minglab odamlar bolaning haq yo'lda bo'lganligini o'z ko'zlari bilan ko'rgan bu karomatdan so'ng anglab, iymon keltirdilar.

Podshoh esa askarlariga olomoni qurshovga olishni amr etdi. Behad ulkan choh kavlatdi. Chohni esa juda ko'p o'tin bilan to'ldirib, uch kun olov yoqtirdi. So'ng qo'shiniga buyurdi: «Allohga iymon keltirganlarga ayting! Dinlaridan qaytsinlar! Aks holda ularni chohga uloqtiring! Olovda kuyib, kul bo'lsinlar!»

Iymon keltirganlardan hech kim kofir podshohning amriga itoat etmadi. Askarlar ularni olov to'la chohga sudrab, surib uloqtira boshladilar. Odamlar ichida yosh go'dagini ko'targan ayol farzandi sabab olovdan qochmoqchi edi, go'dak tilga kirib: «Onajon, qo'rqmang! Siz haq yo'ldasiz!» – dedi.

Mo'minlar chohga yiqilarkan, Olov Allohga iltijo etdi:

«Allohim! Kofirlar nazdida iymondan bo'lak aybi bo'lmagan mo'min qullaringni zinhor yondirishni istamasman! Ularni O'z Oliy Dargohingga ko'tar!»

Alloh chohga uloqtirilgan barcha mo'minlarni badanlarini kuydirmasdan, jonlarini ularga yengil va huzurli holda oldi hamda O'z Oliy dargohiga ko'tardi.

Olov esa: «Allohim, Sening izning ila kofirlarni kuydiraman!» – dedi va choh tepasiga shiddat ila chiqdi. Kofir podshoh va uning barcha qul, xizmatkor, lashkari bilan birgalikda o'z domiga yutib, azoblab kuydirdi, halok etdi.

Ushbu buyuk qissa mazmunini imom Muslim rahmatullohi alayh rivoyat qilgan hadisdan topish mumkin. Alloh taolo Buruj surasining 4 – 9-oyatlarida bu voqea haqida shunday marhamat etgan:

«Choh egalariga la'nat bo'lsin! U chohning yoqilg'isi olovdir. Kofirlar o'sha olov to'la choh atrofida o'tiribdilar. Ular iymon egalariga qanday zulm etgan bo'lsalar, o'sha ishlariga o'zlari guvohdirlar! U kofirlarning mo'minlardan topgan «ayb»lari shu bo'ldiki, mo'minlar Izzat va Hamd egasi bo'lgan yolg'iz Allohga iymon keltirgan edilar. Alloh, osmonlaru yerning podshohlighi faqat Unga xos bo'lgan Zotdir. Va Alloh har bir narsaga guvohdir!»

Abdulloh Yorqin kamerada o'tirib, Aydar va Naynovdan musulmonlar ustidan qilinayotgan zulmlar haqida eshitgach, titroqqa tushgan edi. Bu titroq qo'rquvdan emas, iymon egalariga bo'layotgan haqsizlikdan tug'ildi. Biroq unda: «Allohummakfiyni bi ma shi'ta!» ya'ni, «Allohim, ularga O'zing xohlagan narsa bilan kifoya et!» deb duo qilishdan bo'lak chora yo'q edi. Abdulloh shunday deb duo qildi. U hali bu duoni ko'p zikr etadi. Biz esa Sizga bu muborak duoning tarixini aytib berdik.

Endi esa Abdullohning qamoqdagi hayoti haqida hikoya qilamiz.

Ikki kundan so'ng, tergovchi Abdullohni chaqirtirdi. Advokat Tublibek ham kelibdi.

– Mana, sizning «ishi»ngiz, – deb tergovchi qalin va qora jildni Abdulloh tomon surdi. – O'qib chiqing va kerakli joylarini imzolang.

Abdulloh o'z «jinoiy ishi» diqqat bilan o'qishga kirishdi: u tushuntirish xatida yozib bergan hamma narsa kiritilibdi, avvalgi safargi tergov tafsiloti ham ikir-chikirlarigacha bayonnomaga tushirilibdi. Har bir sahifaning eng tagiga, har bir xatboshining so'ngiga, tergovchining har bir savoliga bergan javobidan keyin tasdiq imzosini qo'yish shart ekan.

Yarim soat ichida Abdulloh imzolashni tugatdi. Endi advokat qo'l qo'yishni boshladi.

Abdulloh ishning bu qadar silliq ketayotganidan shubhaga tushdi. Bu «adolat» ortida, albatta, qandaydir razolat borligiga, negadir, ich-ichidan amin edi.

Advokat ham ishini bitirgach, tergovchi e'lon qildi:

– Abdullohbey, jabrlanuvchi, Xitoy Xalq Respublikasi fuqarosi janob U va guvoh Sarimsoq Sag'ir o'g'li ham kelishgan. Chaqiringlar!

Xonaga Abdulloh kaltaklagan xitoyi avval kirdi. U xuddi otasining mulkiga kirgandek kerildi, burni osmonda. Tergovchi o'rnidan turib, Uni kutib oldi, o'tirishi uchun kursi ko'rsatib, xitoychalab chuqur mulozamat qildi.

Bo'ynini qisib, xitoyidan kaltak yegan xizmatchi ham shu yerda hozir bo'ldi. Abdulloh xizmatchiga diqqat qildi: u juda oriq, nimjon va kasalmandligini esa qiyofasi «aytib turibdi».

Tergovchi xitoyi U bilan ancha chug'urlashdi, keyin Abdullohga dedi:

– Abdullohbey, siz janob Uni besabab uribsiz.

– Yo'g'e, u mana bu yigichani o'zi urdi-ku! Men bir mazlumni himoya qildim, xolos.

– Janob U esa aksincha aytyaptilar... – dedi tergovchi va xizmatchiga savol berdi. – Siz mana qarshingizda o'tirgan ayblanuvchi janob Uni

beayov va vahshiylarcha do'pposlaganini xolis guvoh sifatida tasdiqlaysizmi?

Sarimsoq Sag'ir o'g'li dam tergovchiga, dam xitoyiga, dam Abdullohga mo'ltiradi. Ovozi qaltirab dedi:

– Ha, tasdiqlayman.

– Qanday besabab? – hayron bo'ldi Abdulloh. – Xitoylik sizni urayotgan edi. Men esa himoya qildim-ku!

Xizmatchi jim bo'lib qoldi. Bilinar –bilinmas ming'irladi:

– Meni hech kim urmadi. Siz janob Uga sababsiz tajovuz etdingiz...

– Tajovuz?! – Abdulloh quloqlariga ishonmadi. O'rnidan sapchib turdi. – Hoy, noinsof! Nega aldayapsan? Nega menga tuhmat qilyapsan?

– Aldamayapman! Tuhmat qilmayapman! – Sarimsoqning ovozi tuyqus dadillashsa-da, yig'lagudek bo'lib gapirdi. – Siz janob Uni negadir haqoratladingiz. Urtingiz, men esa buni ko'rdim, hozir esa tasdiqlayman!

Abdullohning tarvuzi qo'ltig'idan tushdi. U hammasini tushundi.

– Eh, bechora!.. – dedi horg'in qarab xizmatchiga. – Menga tuhmat qilsang, senga dushmanlar lutf qiladilarmi? Ular uchun bir ko'ppakchalik ham qadring yo'q.

– Tuhmat qilmayapman! Aldamayapman! – dedi xizmatchi.

– Yo'qol! – dedi Abdulloh unga.

– Ayblanuvchi, guvohga tazyiq o'tkazmang! – ogohlantirdi tergovchi va da'vogar hamda «xolis»ga ketish uchun ruxsat berdi. Abdulloh asabiy edi.

– Ularning ko'rsatmalari rasmiylashtiriladi, ishni sudga o'tkazaman, – dedi tergovchi. – Qonun oldida jinoyatingiz uchun javob berasiz.

– Qo'ysangiz -chi! – Abdullohning ensasi qotdi. – Qaysi qonunni aytyapsiz? O'zingiz o'sha qonuningiz ishlamasligini juda yaxshi bilasiz-ku!

– Sizga yana bir yangilik bor, – Abdullohning gapiga e'tibor bermadi tergovchi. – Ustingizdan shikoyat tushdi. Rahbariyat bu ishni ham menga

topshirdi. Bu boshqa jinoyat. O'ta og'ir turdagi, o'ta xavfli jinoyat. Bu alohida tergov, alohida sud, demakdir.

– Sizlar tuhmatdan charchamas ekansiz, yana qanday o'yin topdingiz? – tishining orasidan gapirdi Abdulloh.

– Tergovga xalal beryapsiz, adolatli Davlatimiz tizimini haqoratlayapsiz, har bir gapingizni «ishingiz»ga qo'shaman, jazoni og'irlashtiradi, – dedi tergovchi.

– Shunday deng? – kuldi Abdulloh. – Ajoyib! Haq gapni aytsang, tergovga xalal bergan bo'lasan! Qoyil qoldim.

– Abdulloh Yorqin! Eshiting! – dedi tergovchi qo'lidagi varaqqa tikilib.
– Siz, Turkiya vatandoshi, buyuk Xitoy Xalq Respublikasiga fitna uyushtirish, davlatni obro'sizlantirish, Xitoy fuqarolari orasida davlatiga ishonchsizlik uyg'otuvchi tuhmatona uydirmalar tarqatish, betartiblik keltirib chiqarish maqsadida ta'lim dasturi niqobi ostida kirib kelib, faoliyat yuritganlikda ayblanasiz!

Abdulloh o'zini kulishdan to'xtata olmay qoldi.

– Bu qanday ahmoqona bo'hton bo'ldi, janob tergovchi! – dedi. – Urumchiga kelishimdan yigirma to'rt soat o'tmay qamoqqa tiqdingiz. Qanday qilib faoliyat yuritaman?

– Biz osmondan olib gapirmaymiz, – dedi tergovchi do'q ohangida. – Fuqaro Moyimxon Sotimga uchoqmaydondan mehmonxonaga kelishda ekstremistik, terroristik va antikommunistik g'oyalarni singdirishga uringansiz. Ana shu xatti-harakatingiz uyushgan holda davlat to'ntarishi uyushtirish yo'lidagi faoliyat hisoblanadi. Lekin vatanparvar fuqaro sizning qutqularingizga uchmadi, yot g'oyalaringizga aldanmadi, o'z vaqtida tegishli tashkilotlarga xabar berdi. Ana endi ana shu fitnangiz xususida alohida tergov o'tkazaman.

Abdulloh lol edi. Makrning bu qirrasini uning aqlini shoshirdi.

– Endi menga makr qildingiz, shundaymi? – dedi tergovchiga. – Bilib qo'ying, Alloh ham sizga shunday makr qiladiki, ko'zingizga hech narsa ko'rinmay qoladi!

– Abdullohbey! Abdullohbey! – shu onda tilini yutib yuborib jim o'tirgan Tublibek gap qotdi. – Bunday qizishmang! Ishni qiyinlashtirmang! Agar ayblovda xatolik bo'lsa, qonunan kurashamiz.

– Siz ham qonun deysizmi? Ko'ryapman qonunlaringizni! Juda «mukammal» ishlayapti! – zaharxanda qildi Abdulloh.

– Sudda bu gaplaringiz uchun ham jazo olasiz, – dedi tergovchi sovuqqon. – Sizga savol: sizni kim Xitoyga yubordi? G'oyaviy rahnamoingiz kim? Moddiy ta'minotchingizning ismini ayting.

– Men bu masalada birorta savolingizga javob bermayman! – dedi Abdulloh.

– Tergovga yordam bering, – ogohlantirdi tergovchi. – O'zingizga oson bo'ladi.

– Osonlashtiruvchi ham, qiyinlashtiruvchi ham Allohdir! – dedi Abdulloh.

Tergovchining ko'zida birdan yovuzlik chaqnadi:

– Menga qara, mahbus, o'zingni kim deb o'ylayapsan? Bu qamoq jahannam ekanligini ko'rdingmi? Seni hech chertmayapti? Bilasanmi, nima uchun? Chunki yuqoridan aytishdi: kelgindining burni qonamasin, deyishdi! Aks holda, uningni ham chiqara olmasding! Kindigingdan boshlab qorningni yorib, ichagingni salla qilib, boshingga o'rab qo'yardim, allaqachon! Xudoyingga ibodat qilib o'tirarding! – dedi og'zidan tupuk sachrab. – Indamaganim sari boshga chiqyapsan! Sud o'tadi, kamida o'n beshta olasan, kamida o'n besh! Jamloqda esingni kiritib qo'yishadi!

Advokat Tublibek tergovchining dag'dag'asidan rangi oqarib, nafas ololmay qoldi.

Abdulloh pinagini buzmadi. Tergovchiga xotirjam dedi:

– Asl basharangizni ochdingiz, ofarin! Ko‘zbo‘yamachilikka o‘ylab topgan qonunlaringizni behayolarcha pesh qilishingiz-chi! Moyimxonning shikoyati yuzasidan esa bitta so‘z aytmayman ham, yozmayman ham!

– Mard ekansiz-da, Abdullohbey! – to‘satdan tirjaydi tergovchi. – Shunday jinoyatlarni bo‘yningizga qo‘yamanki, iqror bo‘lsangiz ham, bo‘lmasangiz ham, bemalol kamoqqa kirib ketaverasiz!

– Qo‘lingizdan kelganini qiling, janob tergovchi! – Abdulloh shunday deb o‘rnidan turdi. – Mirshablarga ayting, kameramga kuzatib qo‘yishsin!

Tergovchi tashqariga chiqdi, Tublibek ovozi qaltirab, yalinggannamo dedi:

– Abdullohbey, tergovchidan kechirim so‘rang! O‘zingizga qiyinchilik tug‘dirmang!

– Xavotirlanmang, hasbiyallohu va ni‘mal Vakiyl! – dedi Abdulloh qat‘iy. – Siz ota-onamga qo‘ng‘iroq qildingizmi? Menga shuni ayting!

Tublibek javob berishga ulgurmasi, ikki mirshab kirdi va Abdullohning qo‘lini qayirib, olib ketdilar.

Abdulloh o‘z kamerasiga emas, zinalar orqali yer tagiga, nim qorong‘u, chirog‘i xira miltirayotgan yo‘lakka tushayotganini ko‘rib, baqirdi:

– Meni qayoqqa olib ketyapsanlar! Qo‘yib yubor! – deb siltandi.

Yer tagida uzun, oxiri ko‘rinmaydigan, eni ikki quloch keladigan yo‘lakka tushdilar. Beton devorlarda o‘rgimchak to‘ri yiltiraydi. Dimoqqa «gup» etib yiring, qon, zax, najosatning aralash isi urildi. Hammayoqdan ingroq ovozlari taralardi.

– Sening tiling juda uzun ekan, kelgindi, – dedi mirshablardan biri. – Tili uzunlar bilan yaqindan tanishib ol -chi!

Ikkinchi mirshab xiringladi. Birinchi temir eshikning qarshisida to‘xtadilar. Yo‘lakning nariga tomonidan mirshab kiyimida baland bo‘yli, tirtiq labli, beso‘naqay bir nusxa ularning oldiga keldi.

– Kimni keltirdinglar? Yangisimi? – deb so‘radi xirillagan tovushda.

– Ha, yangisi. Yangi kelinchakdek nozi bor, – boya xiringlagan mirshab. Abdulloh bu gapni eshitib bir siltandi.

– Bunga hamma kameralarni bir-bir ko'rsatsang, Devog'a, – iltimos qildi mirshablardan boshqasi. – Kelajak maskani bilan yaqindan tanishib olsin!

Devog'a:

– Yaxshi, – dedi-da, Abdullohning orqa yoqasidan dast ko'tarib yerga qo'ydi. Abdulloh bo'g'ilib, yo'taldi. Dev uni sudrab birinchi temir eshik ro'parasiga keltirdi. Eshikning tambasini surib, ochdi.

– Ichkariga qara, mahbus, – dedi qo'lchiroq bilan yoritib.

Ichkarida ikka yalang'och mahbus ikki tomonga qo'lidan osib qo'yilgan. Ularning oyoqda turishga quvvati qolmagan, bilaklarini temir halqa tishlab turibdi. Qorin ichiga tortilib, teri qolgan, xolos. Qovurg'alari sanalib yotibdi. Soch va soqol patak bo'lib o'sgan, bitlagan. Yelka, son, boldirlaridagi yaralari yiringlagan, pashsha vijillaydi, mayda qurtlar bosgan. Kameraning devorlari, poli qasmoq. Har yer-har yerda odam najosati. Kameraga bir parcha ham yorug'lik kiradigan darcha ko'rinmaydi.

Abdullohning dimog'i achishdi, ko'zidan duvillab yosh otildi.

Birinchi kitob tugadi.